

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2024

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abduraimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abduraxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi

Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

SodiqovaShohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Maxmudov Bexzod Xamidovich

QORAXONIYLAR DAVLATINI XRONOLOGIK DAVRIGA OID FIKR-MULOHAZALAR 9-15

Yakubov O'tkir Shermamatovich

SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA JAMOALASHTIRISH SIYOSATI VA
DEMOGRAFIK JARAYONLAR 16-20

Ahmedova Dilafruz Xusan qizi

МАКТУБЛАРДА ҚЎҚОН–ХИВА ХОНЛИКЛАРИ МУНОСАБАТЛАРИНИНГ
АКС ЭТИШИ (XIX АСР) 21-27

Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich

SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SURXON VOHASI IQTISODIY HAYOTIDA TEMIR
YO'LLARNING O'RNI 28-32

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Bo'ronov Ismoiljon A'zamjon o'g'li

KITOBAT SAN'ATI 33-36

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич, Машарипов Озод

ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА КОМПЛЕКС ИШЛАБ ЧИҚАРИШ
ҲИСОБИНИНГ МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 37-51

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Rajabov Alisher Shavkatovich

MIRBOBO NAQSHBANDIY YASHAGAN DAVRDAGI IJTIMOIIY VA
MA'NAVIY MUHIT 52-55

Saidkulov Nuriddin Akramkulovich

SUSTAINABILITY ISSUES: PROBLEMS, INTERPRETATIONS AND SOLUTIONS 56-60

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Джалилова Сарварой Мехрожовна

ХАРАКТЕРНЫЕ ЧЕРТЫ СЕМАНТИКИ ЦВЕТА В ФРАЗЕОЛОГИИ
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА 61-66

Mirzakamolova Sadoqatxon Sayidaxmadovna,

SIYOSIY NUTQDA SAMIMIYLIK 67-72

Saidova Nodira Djahangirovna,

INGLIZ TILIDAGI YONG'IN XAVFSIZLIGIGA OID ATAMALARNI TASNIFLASH 73-77

Sulaymonov Bobir

ZAMONAVIY LUG'ATSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA TERMINOLOGIYASI 78-83

Faxriddinova Dilfuza

TABRIK NUTQIY AKTI HAQIDA 84-87

Xusainova Zebo Ikramovna

RUS, INGLIZ TILI MADANIYATINI TASHUVCHILARINING DIALOGIDA NUTQ ETIKETINING PRAGMATIK VA KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO'lishi 88-94

Karimova Vasila Vahobovna

"GENDER" – UMUMILMIY VA LINGVISTIK KATEGORIYA 95-99

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Фазилов Фарход Маратович

АНАЛИЗ ВОПРОСОВ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ЛЕГАЛИЗАЦИИ ПРЕСТУПНЫХ ДОХОДОВ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ 100-112

Bobomurodov Farxod Boymurotovich

TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATIDA INSON HUQUQLARI, ERKINLIK LARI VA QONUNIY MANFAATLARINI HUQUQIY TA'MINLASHNING RETROSPEKTIV TAHLILI 113-123

Халиқулов Комолиддин Носирович

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ 124-129

Салимова Диёрахон Бахтиёржон кизи

ЛИЦА, ОСУЩЕСТВЛЯЮЩИЕ ВОЗДУШНУЮ ПЕРЕВОЗКУ ПО ДОГОВОРУ ВОЗДУШНОЙ ПЕРЕВОЗКИ 130-135

Очилов Шермат Рашидович

ТЕРРОРИЗМГА ҚАРШИ КУРАШДА ХАЛҚАРО-ҲУҚУҚИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИНГ ЭВОЛЮЦИЯСИ ВА САМАРАДОРЛИГИ: ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР ТАҲЛИЛИ 136-149

Abdullayeva Nodira Odil qizi

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIK DAN HIMOYALASH HUQUQINING IJTIMOIIY-HUQUQIY TUSHUNCHASI VA MANBALARI 150-156

Одилов Муҳаммадрашодхон

КОРРУПЦИЯВИЙ ЖИНОЯТЛАР ОБЪЕКТИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР 157-161

Ҳасанов Муҳриддин Ўроқбой ўғли

МЕҲНАТ ОРГАНЛАРИДА КОРРУПЦИЯГА ОИД ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРИНИ БАРТАРАФ ҚИЛИШ БЎЙИЧА НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАР ТАҲЛИЛИ 162-170

Rahmonov Jaloliddin

XXI ASRDA INVESTORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING RIVOJLANISHI: DAVLAT SUVERENITETI VA INVESTORLAR MANFAATLARINI MUVOZANATLASH 171-176

Камилов Ойбек Хамиджонович

Глобальные тенденции студенческой мобильности в контексте теорий миграционных исследований 177-182

Азизов Ниғмонжон Пардаевич, Абдуллаев Ғайратбек Ғайбуллаевич

МАНУ ҚОНУНЛАРИДА ЖИНОЯТ ВА ЖАЗО МАСАЛАЛАРИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ 183-187

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Абутова Зульфия Жадигеровна

ПРИМЕНЕНИЕ ПЛАТФОРМЫ КАНООТ! В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ: ПЛЮСЫ И МИНУСЫ 188-195

Ниязова Регина Рустамовна

ПОСТРОЕНИЕ УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНОГО ПРОЦЕССА ТРИАТЛОНИСТОВ НА
ЭТАПЕ СПОРТИВНОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ В ГОДИЧНОМ ЦИКЛЕ
ПОДГОТОВКИ 196-202

Jabborova Dilafrō'z Ismatullo qizi

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ESP TALABALARI YOZUV KO'NIKALARINI
RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI 203-206

Tursunov Adizjon Nurali o'g'li

BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA BAHOLASH MEZONLARI 207-212

Naimova Durdona Soxibovna

YANGI O'ZBEKISTONDA KO'ZI OJIZ VA ZAIF KO'RUVCHI BOLALAR
TA'LIM TIZIMI 213-217

Hamroyeva Sevara Nasriddinovna, Izbosarov Baxriddin Faxriddinovich

"BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI STEM TA'LIMI DASTURI ORQALI O'QITISHDA
EKSPERIMENT VA NAZARIY ASOSLARDAN FOYDALANIB O'QITISH METODIKASI"
(MOLEKULALARNI TEZLIKLAR BO'YICHA TAQSIMOTI" MAVZUSI MISOLIDA) 218-222

Shotemirov Sanjar Xolmo'min o'g'l

SHAXS NUTQIY FAOLIYATINING PEDAGOGIK VA METODOLOGIK TAHLILI 223-227

Мустафоева Дурдона Асировна

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
СПЕЦИАЛИСТОВ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА 228-234

Xoliqova Nargiza Abduvaliyevna

TALABALARNING TEXNIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI 235-239

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES

Received: 10 October 2024

Accepted: 15 October 2024

Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

OPINIONS REGARDING THE CHRONOLOGICAL PERIOD OF THE KARAKHANI STATE

Makhmudov Bekhzod Khamidovich,

Associate professor, candidate of history at

Tashkent International University of Financial Management and Technology

E-mail: bekzod.makhmudov123@gmail.com

Abstract. This article is devoted to the chronological period of the Karakhanid state. In this, existing conflicting and contradictory information in the science related to the initial period of the state, i.e., the date of its establishment, was compared and thoroughly analyzed.

Keywords: Turkic khanate, Turkic state, Qarluq, Karakhanids, Chigil, Yagmo, Tokhsi, Uighur, Jabgu, Bugra, Karakhan, Bilga Qul Kadir Khan, Satuk Bugrakhan, Yettisuv, Ila, East Turkestan, Soyob.

QORAXONIYLAR DAVLATINI XRONOLOGIK DAVRIGA OID FIKR-MULOHAZALAR

Maxmudov Bexzod Xamidovich

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiya universiteti

dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqola Qoraxoniylar davlatini xronologik davriga bag'ishlanadi. Bunda asosan davlatni boshlang'ich davri, ya'ni tashkil topgan sanasi bilan bog'liq fandagi mavjud ziddiyatli, qarama-qarshi ma'lumotlar o'zaro solishtirilib, atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Turk xoqonligi, Turkash davlati, qarluq, qoraxoniylar, chig'il, yag'mo, to'xsi, uyg'ur, jabg'u, bug'ra, qoraxon, Bilga Qul Qodirxon, Satuk Bug'roxon, Yettisuv, Ila, Sharqiy Turkiston, So'yob.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N01>

Kirish. Ilk va rivojlangan o'rta asrlar o'zbek davlatchilik tarixida juda muhim ahamiyatga egadir. Chunki, bu davrda faoliyat olib borgan Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar kabi davlatlarning har birini o'ziga xos o'rni mavjud. Shu bilan birga ushbu davlatlarning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi va davlatchilik tizimida umumiy o'zaro uyg'unlikni, ham kuzatish mumkin. Bu davrga oid davlatlardan biri bu-Qoraxoniylar davlatidir. Qoraxoniylar davlati haqida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsada, ushbu davlat tarixiga oid juda ko'p muammolar hanuzgacha o'z yechimini topmagan. Jumladan, davlatni boshqargan sulola genealogiyasi, davlat qaysi turkiy etnos tomonidan tashkil topganligi, davlat boshqaruvida oliy va mahalliy

hokimiyat tizimidagi bog'liq xususiyatlar kabi masalalarda qarama-qarshi ma'lumotlar mavjud. Xuddi shunday muammolardan yana biri bu – Qoraxoniylar davlatini faoliyat davrini umumiy xronologik sanalarini belgilashga oiddir. Bunda davlatni 1212-yilda tugatilgani borasidagi ma'lumot bo'yicha, deyarli barcha tadqiqotchilarni fikri umumiy va yakdil. Ammo davlatni tashkil topgan sanasi xususidagi masala esa o'zaro ziddiyatli, bahsli va qarama-qarshi ma'lumotlardan iboratligicha qolib kelmoqda. Biz quyida aynan shu xususda to'xtalib o'tamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qoraxoniylar davlati to'g'risida taniqli olim K.SH. Shoniyozov ham o'z asarlarida keng to'xtalib o'tgan. Olim, xususan, Qoraxoniylar davlati Qarluq davlatining davomi ekanligi, bu ikki nomdagi davlat aslida bir davlat bo'lganligi va mazkur xoqonlik qarluq qabilasi tomonidan 840-yilda tashkil topganligi to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tgan[1.B.35-65; B.326-328]. Umuman olganda, K.SH. Shoniyozov mazkur davlat tarixini yoritishda butunlay yangi fikrlarni o'rta tashladi.

Jumladan, K.SH. Shoniyozovning fikricha, Qoraxoniylar davlatini 840-yildan to 1212-yilgacha, ya'ni to'rt asr mobaynida qarluq xoqonlari idora qilgan[2.B.165].

Atoqli sharqshunos olim V.V. Bartold Qoraxoniylar davlati 940-yilda yuzaga kelgan deb qayd etsa[3.S.73], ayrim tarixiy asarlar bu masalada X asrning 90-yillari, ya'ni undan ham kechroq davrni ko'rsatmoqda[4.S.3].

Qoraxoniylar davlatining tashkil topgan sanasiga oid bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tadqiqotchilar o'rtasida bu masalada hatto, bir-birlariga yaqinroq fikrni ham uchratmaymiz. Aksincha, ularning ko'pchiligi, shu jumladan, O. Pritsak, K.SH. Shoniyozov davlatga asos solingan yil deb 840-yilni belgilashsa, boshqa tadqiqotchilar guruhi V.V. Bartold, O.K. Korayev va boshqalar esa bu davlatni 940-yilda tashkil topgan, deb hisoblashadi. Ular o'rtasidagi farq ko'rinib turganidek yuz yil, ya'ni bir asrlik vaqtni tashkil qilmoqda. Albatta, tadqiqotchilarning bu darajada katta farqli xulosaga kelishlariga mavjud manbalardagi bu masalada berilgan to'liqsiz va kamchil ma'lumotlar sabab bo'lgan. Ularning har biri o'z mulohazalarini ma'lum bir asoslar bilan isbotlashga, dalillashga harakat qilishgan. Shuning uchun ularning fikrlarini to'g'ridan-to'g'ri inkor etish yoki qo'llab-quvvatlash ancha murakkab masaladir.

Tadqiqot metodologiyasi. K.SH. Shoniyozovning yuqorida keltirilgan fikrlarini to'g'ri, deb qabul qiladigan bo'lsak, mazkur Qoraxoniylar davlatini to'rt yuz yil mobaynida bir sulola vakillari boshqargan bo'lib chiqadi[5.B.338]. O'rta Osiyo xalqlari davlatchilik tarixidan ma'lumki, davlatni boshqargan sulolalarning bu qadar uzoq hukmronlik qilgan holatlari juda kamdan-kam uchraydi. Misol uchun o'z davrining eng qudratli davlatlaridan bo'lmish Turk xoqonligini boshqargan ashinaliylar sulolasi uzog'i bilan ikki asrdan kamroq davr mobaynida hukmronlik qilishgan. Xalifalik poytaxti Bag'dodni zabt etgan qudratli Saljuqiylar saltanati ham Movarounnahr tarixida bor-yo'g'i yuz yildan oshiqroq vaqt hukm surgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Albatta, bu qiyosiy solishtirishlardan qat'iy xulosalar chiqarib bo'lmaydi. Lekin aytmoqchimizki, Qoraxoniylar davlati o'zining shunday uzoq tarixi mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan hamda davlat boshqaruvi sohasida, tarkibiy xususiyatga ko'ra ko'pgina o'zgarishlar va o'ziga xos yangiliklarni o'z boshidan o'tkazgan bo'lishi mumkin. Bu jarayonlar esa o'z navbatida xoqonlikning tashkil etgan qabilalarning davlat hayotidagi roli u yoki bu darajada o'zgarishi bilan ham bog'liq kechgan, albatta.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, V.V. Bartold Qoraxoniylar davlatini 940-yilda yag'molar tashkil etgan, deb yozgan edi.

K.SH. Shoniyozov ta'kidlaganidek, V.V. Bartoldning bunday fikrga kelishiga, Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asaridagi 940-yil "Bolasog'un shahrini musulmon bo'lmagan majusiylar ishg'ol qildi", degan axboroti hamda 1126-yil noma'lum muallif tomonidan ko'chirma tarzida yozilgan "Madjmal at-tavorix" deb nomlangan asardagi "bo'g'ra" yag'mo podsholarining unvonini bo'lgan, deb keltirgan ma'lumotlari sabab bo'lgan[6.C.73; S.41].

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tadqiqotchilar Qoraxoniylar davlatini tashkil topgan davrini aniqlashda, davlatda qabilalarning o'rni va xoqon unvonlarining nomlanishiga e'tibor berishgan.

V.V. Bartoldning Qoraxoniylar davlati 940-yilda tashkil topgan deb keltirgan qaydlari, tarixiy asarlarning deyarli barchasida asos sifatida qabul qilingan. Masalaning murakkabligi ham shundaki, tadqiqotchi o'z fikrlarini yuqoridagi manbalarga asoslanib keltiradi. Shuning uchun uning mulohazalarini to'liq inkor etmagan holda, tanqidiy yondashib tahlil qilsak, foydadan holi bo'lmaydi.

Gap shundaki, agarda biz o'zaro qarama-qarshi ma'lumotlarni solishtirgan holda, ularni har birini sinchiklab o'rganib chiqsak, ular o'rtasidagi uyg'unlikni anglashimiz mumkin. Demoqchimizki, yuqorida aytilganidek, Nizomulmulk 940-yilda musulmon bo'lmagan majusiylar Bolasog'un shahrini ishg'ol etdi, degan axborotni beradi. Bu ma'lumot bilan Satuk Bug'roxon 940-yilda o'zini Qoraxon (Ulug'xon) deb e'lon qilganini esga olsak[7. C.41], gap yagona voqea-hodisalar xususida ketayotganligi oydinlashadi.

Nizomulmulk ma'lumotlaridagi majusiylar, ya'ni musulmon bo'lmagan qabila, bu bizning fikrimizcha yag'molar bo'lishi mumkin. Bunday Bolasog'un shahrini ular tomonidan ishg'ol qilinishini esa sulolaning o'zaro ichki taxt uchun kurashi jarayonida, mazkur qabilaning ham aralashuvi, deb tushunadigan bo'lsak, bundan Satuk Bug'roxon yag'mo qabilasining jangovar harbiy kuchi yordamida taxtni egallagan, degan xulosa kelib chiqadi.

Ehtimol shuning uchun Satuk Bug'roxon garchi Qarluq davlatining asoschisi Bilga Qul Qodirxonning nevarasi bo'lgan bo'lsada [8.C.101; C.490-493; B.46], yag'molarning jangovar harbiy kuchiga tayangan holda hokimiyatni egallashi va "bo'g'ra", "qoraxon" kabi unvonlar bilan ulug'lanishi oqibatida ba'zi tarixiy asarlarda ushbu davlatni yag'molar tashkil etgan, degan fikrlar paydo bo'lgandir.

Fikrimizni davom ettiradigan bo'lsak, Satuk Bug'roxon hokimiyatni egallashdan oldin, Qoshg'arda hukmronlik qilgan. Qoshg'arda va uning atrofida esa yag'molar joylashgan edi[9. B.74]. Yag'mo, chig'il, xalach va boshqa ko'pgina turkiy qabilalar aynan Satuk Bug'roxon davrida islom dinini qabul qilishgan[10.C.41]. Demak, yag'molar Satuk Bug'roxon hokimiyatni qo'lga olgunga qadar islom dinida bo'lmaganlar. Agarda Nizomulmulk 940-yilda Bolasag'unni egallagan majusiylar, deb yag'molarni nazarda tutgan bo'lsa, yuqoridagi ma'lumotlar bir-birini to'ldiradi.

Demak, V.V. Bartoldning yuqorida keltirgan ma'lumotini, biz Qoraxoniylar davlatining ijtimoiy-siyosiy hayotida shu davrdan boshlab qarluq qabilasidan tashqari boshqa turkiy qabilalar jumladan, yag'mo qabilasi ham o'z o'rniga ega bo'lib, aynan bu qabilaning harbiy jihatdan jangovar kuch-qudratga ega ekanligi, ularni xoqon saroyida nufuzli mavqeyini egallashlarini ta'minlagan, deb tushunishimiz mumkin ekan.

Aytmoqchimizki, tadqiqotchining davlatni 940-yil yag'molar tashkil etdi, degan fikrini to'g'ridan-to'g'ri qabul qilmagan holda undagi bu ma'lumotlardan foydalanish orqali biz Qoraxoniylar davlatidagi o'zaro ichki sulolaviy taxt uchun kurashlar jarayonini hamda bu

voqea-hodisalarda xoqonlik tarkibidagi qabilalarning ishtiroki qay darajada bo'lganligini anglab olishimiz mumkin. O'sha davrning ijtimoiy-siyosiy hayoti, ruhiyati nuqtai nazaridan turib fikr yuritadigan bo'lsak, davlat hayotida harbiy kuchlar, harbiy kishilar, nihoyatda nufuzli doira hisoblangan. Hukmdorlar ham o'z saltanatini hududini kengaytirishda, uni himoya qilishda, qolaversa, ichki nizolarni bostirishda shu jangovar harbiy kuchlarga tayanishgan. Qoraxoniylar davlatining hukmdorlari ham bundan istisno emas, albatta. Shunday ekan, yag'mo qabilasining jangovar harbiy kuchlari yordamidan sulola xonadoniga mansub kishilar hokimiyatni egallash yo'lida foydalanganliklari tabiiydir.

Qoraxoniylar davlatining tashkil topgan sanasini X asrning 90-yillari, deb belgilangan asarlar xususiga kelsak[11.C.3], ko'rsatilgan davrdan ham anglash mumkinki, bunda asosan 990-yillar, ya'ni Somoniylar davlatini qoraxoniylar tomonidan tugatilganlik voqeasining ta'siri bor. Albatta, aynan shu davrdan boshlab, Qoraxoniylar davlati haqida ko'pgina tarixiy asarlarda so'z yuritilib, ular o'z davrining qudratli xoqonligi sifatida ta'riflanadi [12.C.53-75;S.98-117:C.324;C.148-244]. Lekin bundan Qoraxoniylar davlati 990-yillardan e'tiboran o'z faoliyatini boshladi, degan mazmun kelib chiqmaydi. Chunki hech bir davlat bir vaqtning o'zida ham tashkil topib, ham qo'shni davlatni hududlarini zabt etishi tarixiy haqiqatga to'g'ri kelmaydi.

Shu o'rinda, masalaning bir jihatiga e'tiborni qaratsak. Ko'pgina tarixiy asarlarda Qoraxoniylar davlati bilan Somoniylar davlati o'rtasidagi mavjud bo'lgan ziddiyatlarga ortiqcha urg'u berish hollari mavjud[13.C.3].

Albatta, bunday mulohazalarni xolis, deb bo'lmaydi. Chunki bu mulohazalar o'sha davrning tarixiy shart-sharoiti, mavjud voqeligidan ancha uzoq bo'lib, masalani sun'iy ravishda chigallashtiradi, xolos.

Demak, Qoraxoniylar davlatining tashkil topgan sanasini X asrning 90-yillari, deb ko'rsatuvchi tarixiy asarlarga nisbatan aytish mumkinki, Qoraxoniylar davlati bu vaqtda tashkil topmagan, balki bu davrga kelib, xoqonlik o'z chegara sarhadlarini kengaytirib, ilgarigi doirasiga nisbatan endilikda yanada kuch-qudratga to'lib harbiy harakatlarni qo'shni hududlar tomon kengaytirgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda mulohaza yuritadigan bo'lsak, Qoraxoniylar davlatini yuzaga kelishi tarixiy zaruriyat bo'lib, uning o'ziga xos siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy zamini bo'lgan. Masalani teran anglash uchun bu xususda qisman to'xtalib o'tishni joiz, deb hisoblaymiz.

Ma'lumki, qadimdan O'rta Osiyoning Oltoy janubiy yonbag'ridan boshlanadigan sharqiy qismida, Markaziy Tyanshan etaklarida, Chu, Ila, Norin, Talas daryolari vodiylari bo'ylab to Pomirgacha bo'lgan hududlarda turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalar yashagan. Mazkur qabilalar VI asrning ikkinchi yarmidan to VIII asr boshlarigacha Turk xoqonligi tasarrufida bo'lib kelgan. Unga tegishli hududlarda esa 707-yilda Turkash davlati tashkil topadi.

Turkash davlati o'zining qisqa umri davomida og'ir ahvolni boshidan kechirdi. Chunki aynan shu davrda, ya'ni sharqiy chegaralarni himoya qilib dushmanlar bilan kurash olib borayotgan bir vaqtda, g'arbdan arab xalifaligining Movarounnahrda boshlagan harbiy yurishlari turkashlar ahvolini yanada og'irlashtirdi.

Natijada, turkashlarning harbiy kuchlari bo'linib, ularning bir qismi sharqda Xitoy qo'shinlariga qarshi kurash bilan band bo'lsa, ikkinchi bir qismi xalifalik qo'shinlariga qarshi tashlangan edi. Uchinchi qismi esa, ichki qabilaviy kurashlar bilan ovora bo'lgan. Albatta, har

bir davlat uchun tashqi dushmandan ko'ra, ichki nizolar va u asosda yuz beradigan o'zaro qirg'inbarot urushdan-da kattaroq xavf bo'lmaydi.

Mavjud vaziyatdan foydalangan qarluqlar 766-yilga kelib Yettisuv, Talos, Chu vodiysini egallab, G'arbiy Tyanshanga qadar bo'lgan hududlarga kirib borishadi.

Qarluq qabilasi va qarluqlar haqida juda ko'p manba va adabiyotlar mavjud[14.B.499,B.427,B.466;B.192;S169-392]. Qarluqlar qadimda Oltoyning g'arbiy mintaqalarida yashaganlar. Ular Turk xoqonligi davrida esa siyosiy jarayonlarda faol ishtirok eta boshlashgan. Xoqonlik tashkil topgan vaqtda qarluqlar G'arbiy Oltoydin chiqib, Irtish daryosining sohillariga, Oltoynin janubiy yonbag'irlarida to Ila daryosini shimoligacha bo'lgan hududlarda joylashgan edi.

Shunday qilib, qarluqlar 766-yilda zaiflashib qolgan turkashlar ustidan g'alaba qozonib, Yettisuvni egallashadi. Ularni hokimlarining qarorgohi Chu daryosi vohasidagi So'yob shahri edi. Shu vaqtdan boshlab qarluq jabg'ulari Jung'oriya tog'laridan to Sirdaryoga qadar bo'lgan hududlarni boshqara boshlaydilar[15.C.300-308]. Ular ayni vaqtda, qudratli Turk xoqonligi va undan so'ng qisqa davr mobaynida hukmronlik qilgan Turkash davlatining vorisi sifatida ham faoliyat yuritishgan.

Qarluqlar Yettisuvni egallagandan so'ng (VIII asrning 60-yillari) ushbu tartib-qoidalar biroz o'zgarib, endilikda jabg'uning vakolat doirasi ilgarigiga nisbatan ancha kengayadi. Chunki bu vaqtga kelib jabg'ular nafaqat qabila ittifoqining boshlig'i, balki qarluqlar egallagan hududda yashovchi barcha qabilalar va o'troq aholi ustidan ham hukmronlik qila boshlaydi. Bu davr manbalarida qarluqlar yashayotgan va hukmronlik qilayotgan hududlar "Qarluq davlati", podsholari esa "jabg'u" deb qayd qilingan bo'lsa-da[16.C.35-40], tadqiqotchi olim K.SH. Shoniyoovning ta'kidlashicha, qarluqlarda davlat to IX asr o'rtalarigacha bo'lmagan. Bu davrdagi qarluqlarning boshqaruv usulini u "yirik qarluq qabila ittifoqi birligi" deb nomlaydi[17.B.161].

Qarluqlarning mazkur davlat boshqaruv usulini "yirik qabilalar ittifoqi", deb shartli ravishda nomlash balki to'g'ridir. Lekin fikrimizcha, bu o'rinda "davlat" iborasini qo'llashda turkiy qabilalarning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, davlat boshqaruvidagi udumlari, mafkuraviy qarashlari hamda ma'naviy xususiyatlarini ham hisobga olish kerak. Chunki turkiy davlatlar, turkiy sulolalar eng kuchaygan davrlarda, jumladan, butun O'rta Osiyodan tortib, Kichik Osiyoga qadar bo'lgan hududlarda yashovchi xalqlar ustidan siyosiy ustunlikni qo'lga kiritgan va davlat tepasida turgan xoqonlarning vakolat doirasi mutlaq kengaygan vaqtlarda ham, ularning davlatni boshqaruv usulida an'anaviy qabila-urug'chilik udumlari saqlanib kelgan.

Demak, mazkur davrda O'rta Osiyoning Oltoy janubiy yonbag'irlaridan boshlanadigan sharqiy qismida, markaziy Tyanshan etaklarida, Chu, Ila va Norin daryolari vodiylari bo'ylab, to Pomirgacha bo'lgan hududlarda turkiy tilda gaplashuvchi qabilalar uyushmasi yashagan.

Biz tilga olib o'tgan o'lkalarda yashovchi turkiyzabon aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti hamda turmush tarzi ham o'ziga xos bo'lgan. IX-X asrlarga kelib Yettisuv va Sharqiy Turkistonning g'arbiy qismida joylashgan bir qancha ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalar turg'un hayotga o'tib, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullana boshlashgan.

Ko'chmanchi chorvadorlarning bunday o'troqlashish jarayoni ijobiy holat bo'lib, buning natijasida qator yangi shahar va qishloqlar qad ko'targan. Mavjud shahar va qishloqlar aholisi yanada gavjumlashib, yirik aholi punktlariga aylanadi[18.B.397-401;C.24-62]. Bu voqealar

natijasida, dehqonchilik, hunarmandchilik hamda savdo-sotiq rivojlangan. Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda yashovchi aholi o'rtasida madaniy-ma'naviy aloqalar ham yanada kuchayib, yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan.

Tadqiqot mavzusi borasida yuritilgan fikr-mulohazalarga asosan aytish mumkinki, Qoraxoniylar davlatining tashkil topgan sanasi hozirgi kungacha tarixiy asarlarning aksariyatida qayd etilib kelinayotgan X asrning o'rtalaridan emas, balki uning poydevori ancha ilgari barpo etilgan bo'lib, X asrning o'rtalarida esa bu davlat chinakam saltanat (imperiya) darajasiga erishib, hududiy jihatdan kengayib, avvalgi davrga nisbatan ancha kuch-qudratga erishgan va tarixda "qoraxon" ya'ni buyuk xonlar nomi bilan atalgan. Tarixiy asarlarda ham bu davrda ko'proq Qoraxoniylar davlati haqida so'z ketib, ular Movarounnahr sarhadida kechgan tarixiy voqealarda markaziy o'rinni egallashgan. Demak, Qoraxoniylar davlati o'zining taraqqiyot bosqichlarida rivojlanib borganiki, u yirik bir davlat timsolida birdaniga shakllanmagan. Aksincha, uning davlatchilik tizimi hamda tarkibiy tuzilishi turkiy xalqlarning uzoq davrlardan buyon rivojlanib kelgan boy davlatchilik an'analari va tajribalari bilan uyg'unlashib borgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qoraxoniylar davlati dastlab qarluq qabilalar ittifoqi shaklida 766-yilda tashkil topgan. Ushbu qabilalar ittifoqi, Turk xoqonligi, so'ngra Turkash davlati inqirozga uchrab tarqoq holatga kelgan turkiy qabilalarni ma'lum qismini o'zida qayta birlashtirgan. Bu davrda qarluq qabilalar ittifoqi sardori "jabg'u" nomi bilan atalgan. Mazkur qabilalar ittifoqi IX asr o'rtalaridan birmuncha kengayib, davlatchilik an'analari darajasida rivojlangan. Biroq aynan shu davrdan boshlab Movarounnahrda markazlashgan kuchli Somoniylar davlatini tashkil topishi va uni mintaqaning shimoliy-sharqiy hududlari bo'ylab faol tashqi siyosati Qarluq davlatini harbiy-siyosiy jihatdan kuchayishini cheklab, bu jarayonni birmuncha kechiktirdi. Ammo, X asrning o'rtalaridan Qarluq davlati tarkibiga yag'mo, tuxsi, o'g'uz, uyg'ur va boshqa juda ko'plab turkiy qabilalarning kelib qo'shilishi oqibatida davlatning etnik tarkibiy jihati o'zgardi. Endi uni avvalgidek Qarluq davlati deb emas, balki juda ko'p turkiy qabilalarning ittifoqi-uyushuvidan tarkib topgan qudratli "Hoqoniya" davlati sifatida ta'riflash mumkin bo'ldi. Bu vaqtda uning sarhadlari haddan tashqari kengayib qudrati ortib, o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga chiqdi.

Demak, Qoraxoniylar davlatini xronologik faoliyat davrini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich – 766-yildan to X asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davr. Bu davrda Qoraxoniylar davlati dastlab Qarluq qabilalar ittifoqi negizida tashkil topib rivojlanib borgan va o'zining keyingi taraqqiyot bosqichiga zamin hozirlagan. Ikkinchi bosqich bu X asrning ikkinchi yarmidan – ya'ni, uning eng kuchaygan davridan to uning tanazzuli bo'lgan 1212-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 35-65; Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 326-328
2. Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 165.
3. Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. – М.: Наука, 1968. Соч. Т.V. – С. 73.
4. История Узбекской ССР. Кн.1. – Ташкент: Изд. АН УзССР, 1955. – С. 242: Мирзозода. Ҳ. Тарихи адабиёти тоҷик. – Душанбе: Маориф, 1983. – С. 3.

5. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиши жараёни. Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 338.
6. Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. Соч. Т. V. – С. 73; Шу муаллиф. Очерки истории Семиречья. – М.: Изд. Вост. лит., 1963. Т. II. Ч. 1. – С. 41.
7. Бартольд В.В. Очерки истории Семиречья. – М.: Изд. Вост. лит., 1963. Т. II. Ч. 1. – С. 41.
8. Джамал ал-Карши.ал-Мулхакат би-с-сурах / Отв.ред. А.К. Муминов. Введение, перевод с арабско-персидского, комментарин, текст, факсимиле Ш.Х. Вохидова, Б.Б. Аминова // История Казахстана в персидских источниках. Т. I. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005. – С. 101; Ömar Soner Hunkan. Türk hakanlığı. (Karahanlılar). – Istanbul, 2007. – S. 490-493; Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. – Б. 46.
9. Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. – Б. 74.
10. Бартольд В.В. Очерки истории Семиречья. Соч. Т. II. Ч. 1. – С. 41.
11. История Узбекской СССР. Кн. I. – С. 241-244; Мирзозода Ҳ. Тарихи адабиёти тоҷик. – С. 3
12. Ибн Ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих / Пер.с.арабс.К.Б. Старковой // МИКК. Т. I. – Москва, 1973. – С. 53-75; Джамал ал-Карши.ал-Мулхакат би-с-сурах / Отв.ред. А.К. Муминов. Введение, перевод с арабско-персидского, комментарин, текст, факсимиле Ш.Х. Вохидова, Б.Б. Аминова // История Казахстана в персидских источниках. Т. I. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005. – С. 98-117; Босворт К.Э. Мусульманские династии. – М.: Наука, 1971. – С. 324; Кочнев Б.Д. Нумизматическая история Караханидского Каганата (991-1209). – Москва: София, 2006. – С. 148-244 и др.
13. История Узбекской СССР. Кн. I. – С. 241-244; Мирзозода Ҳ. Тарихи адабиёти тоҷик. – С. 3.
14. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. Т. 1960-1963 й. 1- жилд. Б. 499; 2-жилд. Б. 427; 3-жилд. Б. 466; Бартольд В.В. Очерки истории Семиречья. Соч. Т. II. Ч. I. С. 169-392; Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. Б. 192.
15. Бичурин Н.Я. – Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – М.-Л.: Изд. АН СССР, Т. III. 1953. – С. 300-308.
16. Бартольд В.В. Очерки истории Семиречья. Соч. Т. II. Ч. I. – С. 35-40.
17. Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. – Б. 161
18. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк / Индекс-луғат. Ғ. Абдурахмонов., С.М. Муталибовлар таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 397-401; Бартольд В.В. Извлечение из сочинения Гардизи “Зайн ал-ахбар”. Соч. Т. VIII. – С. 24-62.

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

THE SOVIET AUTHORITY'S COLLECTIVIZATION POLICY AND DEMOGRAPHIC PROCESSES IN UZBEKISTAN

Yakubov Utkir Shermamatovich,
Candidate of Geography, Associate Professor
Associate Professor of Termiz State Pedagogical Institute

Abstract. This article discusses changes in economic, social and demographic processes under the collectivization policy of the Soviet government. Also, in the development of these processes, importance is attached to the features different from general demographic laws.

Keywords: theory of demographic transition, schools of new method, demographic processes, monarchy, social life.

SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA JAMOALASHTIRISH SIYOSATI VA DEMOGRAFIK JARAYONLAR

Yakubov O'tkir Shermamatovich,
Geografiya fanlari nomzodi, dotsent,
Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada sovet hokimiyatining jamoalashtirish siyosati sharoitida iqtisodiy, ijtimoiy hamda demografik jarayonlarning kechishidagi o'zgarishlar doirasida fikr yuritilgan. Shuningdek, bu jarayonlarning rivojlanishida umumdemografik qonuniyatlardan farqli xususiyatlariga ahamiyat berilgan.

Kalit so'zlar: demografik o'tish nazariyasi, yangi usul maktablari, demografik jarayonlar, monarxiya, ijtimoiy hayot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N02>

Kirish. Demografik o'tish jamiyat hayotida kechish xususiyatiga ko'ra, u bilan bog'liq ba'zi muammolarning bartaraf etish maqsadida yangi takliflarni o'rtaga tashlashni talab qiladi, u yoki bu tendensiya bilan grafik ko'rinishida tasvirlangan har bir ko'rsatkich ortida insonlar hayoti bor – umuman olganda, asosiy xususiyatlari o'xshash, lekin ayni paytda odamlar, oilalar, mamlakatlar va boshqalarda bu xususiyatlar qandaydir umumiylikni aks ettiradi hamda undagi omillar ham umumiy qonuniyatlarga ko'ra bir xil darajada farq qiladi.

O'zbekiston geografik jihatdan Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, 2020-yilda barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari aholisining 45 foizini tashkil etdi. O'zbekistonda demografik portlash yuz berdi va XX asrning ikkinchi yarmida aholi, birinchi navbatda, tabiiy o'sish hisobiga juda tez o'sdi, bunga ikki omil: o'limning kamayishi va tug'ilishning ko'payishda davom etishi sabab bo'ldi. Demografik o'sish ayniqsa o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab tezlashdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Mamlakatda yaqin tarixda sodir bo'lgan demografik jarayonlarni o'rganish demografik o'tish nazariyasining rivojlanishida e'tiborga molik hissa bo'lib, bir necha sabablarga ko'ra, O'zbekistonda shu sohada xizmat qiluvchilar va tadqiqot olib boruvchilar uchun dolzarb tadqiqot hisoblanadi. Bu yo'nalishda Tojiyeva Z.N., Xolmuminov X.Ye., Qayumov M.U., G'afforov Sh.S., Astanova G.A. va boshqalar bir qator ilmiy ishlarini olib borgan. Shuningdek, O'zbekiston Milliy arxividagi mavzuga oid ma'lumotlardan foydalanildi. Ushbu maqolani tayyorlash davomida tarixiy tamoyil, tahlil, qiyoslash va umumlashtirish kabi metodlardan foydalanildi.

Muhokama. O'zbekiston ko'p millatli mamlakat bo'lib, madaniyatlarning o'ziga xosligi, har bir millatning milliy qadriyatlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va himoya qilinadi, ammo demografik jihatdan tug'ilish va o'limning makro jarayonlarida demografik jarayonlarga eng ko'p sonli millat vakillari asosiy hissa qo'shmoqda. Shu ma'noda O'zbekistonni "mono-milliy davlat" – deb hisoblash mumkin.

O'zbekistonda demografik jarayonlarning asosiy xususiyati shundaki, undagi demografik o'tish davri hali yakunlanmagan, shuningdek, yuqoridan pastga qarab tuzilishga ega va bir butun jamiyatda globallashuvning ta'siriga qaramay sekinlik bilan kechadi, shuning uchun demografik jarayonlarni xronologik tahlil qilish muhim ahamiyatga ega[1]. Ushbu gipoteza XX asrda "O'zbekistondagi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar demografik jarayonlarga doimiy va sezilarli ta'sir ko'rsatdi" – deb taxmin qiladi va tadqiqot ushbu gipotezani tasdiqlash yoki rad etish uchun mavjud ma'lumotlar va tegishli tarixiy manbalar tahliliga asoslanadi.

XX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklari, jumladan, Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari iqtisodiyotda hamda ijtimoiy hayotda ham sezilarli o'zgarishlar davrini boshdan kechirgan. Bu davrda iqtisodiyot asosan agrar xususiyat kasb etib, asosiy tarmoqlari qishloq xo'jaligi, chorvachilik va hunarmandchilik bo'lgan. Savdo, ayniqsa mintaqadan o'tgan tarixiy savdo yo'llari bilan bog'liq holda muhim rol o'ynagan.

Bu davrda mintaqada Buxoro amirligi[2], Xiva va Qo'qon xonliklari mavjud bo'lgan. Qo'qon xonligida Qo'qon, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Namangan kabi shaharlar mavjud bo'lgan. Buxoro amirligida Buxoro va Samarqand; Xiva xonligida Xiva va Marv kabi shaharlar mavjud bo'lgan[3]. Shuningdek, Sirdaryoning quyi oqimining o'ng sohilida Kichik o'rda, Balxash ko'lining sharqida O'rta o'rda va chap sohilida Katta o'rda mavjud bo'lgan. Buxoro amirligi va Xiva xonligining janubiy chegaralarida Afg'oniston, Mintaqaning sharqiy chegaralarida Xitoy va Janubiy sharqida Hindiston hududlari bilan chegaradosh bo'lgan.

Ijtimoiy hayot jamiyatning an'anaviy tuzilmalarini, masalan, monarxiya tizimi, urug'-aymoqchilik, qabilalar aloqalari va diniy jamoalarni o'z ichiga olgan. Biroq, ta'lim va savodxonlikning o'sishi, shuningdek, modernistik g'oyalar va global siyosiy jarayonlar ta'siridan kelib chiqadigan siyosiy faollikning o'sishi kabi yangi hodisalar paydo bo'la boshlagan.

XX asr boshlari davrida, shuningdek, Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya kabi xorijiy davlatlarning ta'sirining kuchayishi bilan ajralib turgan, bu esa mintaqada yangi siyosiy va ijtimoiy tuzumga ehtiyojning paydo bo'lishiga va siyosiy jarayonlarning faollashuviga olib kelgan. Ma'muriyat ijazatsiz ochilgan yangi usul maktablari ustidan nazoratni xuddi an'anaviy maktab va madrasalar kabi, musulmon maktablari muboshiri olib bordi. 1885-yilda bu lavozimga birinchi bo'lib V.P.Nalivkin tayinlangan edi[4]. Ilk yangi usul maktablari paydo

bo'lgandan boshlab o'lka ma'muriyati ularning faoliyatini kuzatib borgan, ularning tarmog'i kengayishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilgan.

1901-yil sentyabrda general-gubernator nomiga Eski shahar Ko'kcha dahasining o'zbek aholisidan arizanoma kelib tushgan. Aholi shahar boshlig'i ularga yangi usul maktablarini ochishga ruxsat bermaganini yozgan. Maktabni barcha sharoitlar muhayyo bo'lgan xususiy xonadonda ochish mo'ljallangan, biroq bu haqida Sirdaryo oblastining harbiy gubernatorining fikri so'ralganda, u Toshkentning musulmonlar zich yashaydigan Ko'kcha dahasida yangi usul maktablarini ochishga qarshi chiqqan[6]. Shunga qaramay A.Avloniy M.Abdurashidxonov rahbarligidagi eski shahar jadidlari 1902-yilda maktabni ochishgan. Keyin bunday maktablar Toshkentning Sebzor, Shayxontohur dahalarida ham ochilgan[4]. Shakuriy taxallusi ostida yozib mashhur bo'lgan Abduqodir Abdishukurov Samarqandda yangi usul maktablarining qaror topishida va o'lkadagi bunday maktablarni darslik, qo'llanmalar bilan ta'minlashda tinimsiz izlanishlar olib borgan. U 1901-yilda o'zi ochgan maktabda o'g'il va qiz bolalarni birgalikda, biroq alohida sinflarda o'qitishni birinchi bo'lib joriy etgan[4]. Tez orada qiz bolalar va o'g'il bolalarni birgalikda o'qitish Toshkentdagi va Andijondagi yangi usul maktablarida ham qo'llanila boshlandi[7]. Shakuriy tomonidan "Jome' ul-hikoyat", "Xavoyiji diniya", "Rahnomoi savod" o'quv qo'llanmalari yozilgan.

1914-yilda yangi usul maktablari uchun darslik chop etishda Shakuriyga S.Ayniy yordam bergan. Shuningdek, Samarqandda yangi usul pedagogi Ismatulla Raxmatullaev tomonidan yozilgan "Rahbari maktab" alifbosi taniqli jadid Xoja Mo'minning "Rahnomoi savod" va beshta pedagogik asarlari chop etilgan[8]. Asr boshida Rossiya imperiyasi Xiva xonligida O'rta Osiyodagi boshqa mustamlakalarga nisbatan o'zgacha mustamlakachilik siyosatini olib borgan. Xonlikning nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy huquqlari ham nisbatan ko'proq cheklangan.

Xiva xonligini bosib olish Rossiyaning O'rta Osiyo mintaqasidagi bosqinchilik siyosatining navbatdagi bosqichi bo'lgan. Bosib olish arafasida xonlik mintaqadagi yagona mustaqilligini saqlab turgan davlat bo'lgan. Bu mamlakatdan Rossiyaning bosqinchilik siyosatiga qarshi bo'lgan turli kuchlar boshpana topgan[3]. 1915-1916 yillarda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi muammolar va keskin ziddiyatlar xalqning noroziligini kuchaytirib yuborgan.

1917-yilda yuzaga kelgan vaziyatdan foydalanib xonlikda mutlaq monarxiyani cheklab, demokratik o'zgarish qilish uchun harakatlar boshlangan. 1918-yil boshlarida I.M. Zaysev boshchiligidagi rus qo'shinlari chiqib ketgach vaziyat keskinlashgan[3]. Buxoroda 1920-yilning sentyabrda amalga oshirilgan zo'ravonlik to'ntarishi tarixda salkam 70-yil davom etgan yangi mustamlakachilik sahifasini ochib berdi[5]. XX asr boshlarida Qo'qon xonligi va O'rta Osiyoning boshqa xonliklari Rossiya imperiyasining ta'sir doirasida bo'lgan. Bu mintaqqa iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlarga olib kelgan.

XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Buxoro amirligiga ta'siri mintaqqa iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Iqtisodiyotda Rossiya imperiyasi boshqaruvning yangi usullarini, shu jumladan modernizatsiya qilingan qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etish va temir yo'llar kabi yangi infratuzilma orqali savdoni rivojlantirish, mintaqada o'z ta'sir doirasini kengaytirishga harakat qilgan. Bu o'zgarishlar Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi iqtisodiyotiga qo'shilishiga olib kelishi kerak bo'lgan.

XX asrning boshlarida Angliyaning O'rta Osiyo xonliklariga nisbatan manfaatlari ham mintaqadagi o'z ta'sirini boshqa kuchlar, shu jumladan Rossiya imperiyasi bilan raqobatda

saqlab qolish istagi bo'lganligi bilan izohlanadi. Buyuk Britaniya butun Osiyoda o'z ta'sirini kuchaytirishga intilgan va yo'q qilingan savdo yo'llarini kesib o'tgan Markaziy Osiyo unda iqtisodiy, siyosiy va strategik qiziqish uyg'otgan.

Buyuk Britaniya o'z manfaatlarini himoya qilish va Rossiya ta'sirini cheklash uchun turli usullarni, shu jumladan diplomatik harakatlar, iqtisodiy kelishuvlar va ba'zan harbiy operatsiyalarni qo'llagan. Xususan, bu davr Britaniyaning Markaziy Osiyodagi diplomatik va harbiy harakatlari bilan ajralib turgan, bu mintaqada Rossiya ta'sirining kengayishining oldini olishga va o'z manfaatlarini, shu jumladan savdo yo'llari va tabiiy resurslarga boy hududlarni nazorat qilishga qaratilgan.

Shunday qilib, XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklariga ta'siri mintaqa iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlarga olib kelgan va bu O'rta Osiyoning zamonaviy qiyofasini shakllantirishning asosiy omillaridan biriga aylangan[2,3]. XX asrning boshlarida, rus-ingliz raqobati davrida Markaziy Osiyo Rossiya imperiyasi va Britaniya Hindiston imperiyasi tomonidan ma'muriy bo'linish hamda ularning siyosiy nazoratlarini o'rnatishi xavfiga duchor bo'lgan.

Britaniya Hindiston imperiyasida ham zamonaviy O'rta Osiyoning janubiy hududlarining bir qismini qamrab olgan o'ziga xos ma'muriy bo'linish tizimi mavjud bo'lgan. 1925-yilgacha Britaniya imperiyasi kuchli ta'sir ko'rsatgan O'rta Osiyo hududlari Britaniya Hindistoni chegaralariga kiritilgan. Ushbu hududlar, shu jumladan zamonaviy Pokiston, Afg'oniston va boshqa bir qator mintaqalar o'sha paytda Britaniya imperiyasining bevosita yoki bilvosita nazorati ostida bo'lgan.

Buyuk Britaniya hukumati ushbu hududlarga katta iqtisodiy, siyosiy va harbiy ta'sir ko'rsatib, ushbu mintaqada, shu jumladan Markaziy Osiyoning qo'shni hududlarida faol siyosat olib borgan. Britaniya imperiyasi o'zining tijorat manfaatlarini himoya qilish, muhim savdo yo'llari ustidan nazoratni amalga oshirish va geosiyosiy maydonda o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida mintaqa ustidan nazorat o'rnatishga intilgan.

Natija. Rossiya imperiyasi Rossiya ma'muriy modeliga muvofiq ma'muriy bo'linishni, shu jumladan, guberniyalar, okruglar, uyezdlar va provinsiyalarni (muzofotlar) shakllantirishni joriy qilishga intilgan. Ushbu tizim Markaziy Osiyodagi yangi bosib olingan hududlarda kengaytirilgan.

XIX asr oxirida Rossiya tomonidan O'rta Osiyo bosib olingandan so'ng, Rossiya hukumati mintaqani Rossiya imperiyasi iqtisodiyotiga integratsiyalashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishni boshlagan. Qo'qon xonligi iqtisodiyotida Rossiya imperiyasi qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va sanoatni rivojlantirishni boshlagan. Rossiya bilan savdo-iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishga hissa qo'shgan yangi avtomobil va temir yo'llar qurilgan.

Rossiya imperiyasining iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri Xiva xonligining ham o'zgarishiga olib kelgan va ushbu mintaqaning zamonaviy qiyofasini shakllantirishning asosiy omillaridan biriga aylangan. Bu davrda ijtimoiy sohada ham o'zgarishlar yuz bergan. Rossiya imperiyasi o'zining ta'lim va boshqaruv tizimini joriy etishga faol harakat qilgan, bu esa aholining ijtimoiy tuzilishi va savodxonlik darajasining o'zgarishiga olib kelgan. Shuningdek, diniy islohotlar ham amalga oshirilgan, xususan, mahalliy Islom ruhoniylarining davlat boshqaruviga aralashuvi cheklangan.

Xulosa. XX asrda O'zbekistonda ro'y bergan siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar mamlakatdagi demografik jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Kollektivlashtirish,

sanoatlashtirish, qatag'onlar, jahon urushlari, iqtisodiy inqirozlar va boshqa ijtimoiy-siyosiy voqealar davrlarini hisobga olsak, gipoteza shuki, bu o'zgarishlar O'zbekistonda tug'ilish, o'lim, migratsiya va aholi tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, bu esa XX asrda mamlakat demografik xususiyatlarining shakllanishi va o'zgarishiga olib keldi. Demografik jarayonlar umumiy obyektiv qonuniyatlarga ega, ammo O'zbekistondagi siyosiy, madaniy-tarixiy xususiyatlar va oilani e'zozlash doirasida olib borilayotgan siyosat (xususan, tarixdagi demografik jarayonlar zanjirini buzishda) demografik jarayonlarga o'z tuzatishlarini kiritmoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Tojiev Z.N. O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari// geog.fan.dok. ilmiy darajasini olis'h uchun yozilgan dissertatsiya. T.; 2017 y. 192-b, 225-b.
2. Xolmuminov X.Ye. Buxoro amirligi janubiy hududlaridagi tarixiy demografik jarayonlar (XX asrning ikkinchi yarmi – XX asr bos'hlari. Surhondaryo va Qas'hqadaryo vohalari misolida). Tarix fan. dokt. diss. – Toshkent, 2023. – 253 b.
3. Қаюмов М.У. XIX асрнинг иккинчи ярими XXаср бошларидаХива хонлигида ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2006. – 132-135-б.
4. Ғаффоров Ш.С. Россия империясининг Туркистонда аҳолини кўчириш сиёсати (XIX асрнинг иккинчи ярими XXаср бошлари) Тарих фан. докт. дисс. – Тошкент, 2004. – 237 б.
5. Астанов Г.А. 1920-1924-йилларда бухородаги сиёсий жараёнлар тарихшунослиги. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси – Тошкент, 2008.– 17-б.
6. O'zMA, I-47-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2564 ish, 17-19-varaqlar.
7. O'zMA, I-47-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1148 ish, 149-orqa varaq.
8. O'zMA, I-47-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1004 ish, 85-varaq.

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

REFLECTION IN LETTERS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN THE KOKAND AND KHIVA KHANATES (19TH CENTURY)

Akhmedova Dilafruz,

Doctoral Student, Institute of History, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Email: dilafruz.ahmedova.92@mail.ru

Abstract. This article discusses the exchange of letters and diplomatic relations between the Kokand and Khiva khanates in the 19th century. The mutual correspondence of the khanates is based on the materials of the collections from fund I-125, inventory 2 of the National Archives of Uzbekistan, as well as data from historical works.

Keywords: letter, message, petition, messenger, crowd, khan, amir, kushbegi, dynasty, ambassador, diplomatic relations, verse, at-taksir, slavery, trade.

МАКТУБЛАРДА ҚЎҚОН-ХИВА ХОНЛИКЛАРИ МУНОСАБАТЛАРИНИНГ АКС ЭТИШИ (XIX АСР)

Ахмедова Дилафруз Хусан қизи,

ЎзР ФА, Тарих институти таянч докторанти

Аннотация: Ушбу мақолада XIX асрда Қўқон ва Хива хонликлари ўртасидаги мактублар алмашинуви ва элчилик алоқалари хусусида сўз юритилади. Хонликларнинг ўзаро ёзишмалари Ўзбекистон Миллий архивининг И-125 жамғарма, 2-рўйхатидаги йиғмажилдлар ва тарихий асарлар маълумотларига асосланди.

Калит сўзлар: нома, мактуб, истимолатнома, чоповул, оломон, хон, амир, қўшбеги, сулола, элчи, дипломатик алоқа, оят, ат-тақсир, қулчилик, савдо-сотиқ.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N03>

Давлатлар ўртасида алоқаларни тўғри йўлга қўйишда ахборот алмашинуви муҳим аҳамият касб этади. XIX асрнинг бошларида геостратегик жойлашуви ва иқтисодий имкониятларидан келиб чиқиб, Қўқон ва Хива хонликлари ўзаро дипломатик алоқалар ўрнатиб, яхши қўшничилик сиёсатини олиб борган. XVIII аср боши ва иккинчи ярмида ҳокимиятни қўлга олган Минг ва Қўнғирот сулолалари XIX асрнинг бошларига келганда фаол муносабатга киришди. Хива хони Муҳаммад Раҳимхон I (1806-1825) хонлик ҳудудларини кенгайтириб, давлатни мустаҳкамлашга ҳаракат қилган. Қўқон хони Умархон (1810-1822) ҳам ички сиёсатда барқарорлик ўрнатилиб, ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётни тараққий эттиришга ва таҳдид солувчи кучлардан холос бўлишга ҳаракат қилди. Умархон Бухоро амири Ҳайдар билан ўзаро зиддиятли муносабатлари сақланиб турган вақтида мусулмон оламининг нуфузли ҳукмдорлари орасида ўз мақомини қонунийлаштириб олишга интилади[2; 149-150-б]. У қўшни

хонликлар билан муносабатга киришишда ўз ҳокимиятини мустаҳкамлаш ва дахлсизлигини кўзлар эди.

Хонликлар ўртасида яхши қўшничилик муносабатлари йўлга қўйилиши даврни акс эттирувчи ўзаро ёзишмаларда ўз аксини топган. Манбаларда Муҳаммад Раҳимхон I Сорбонтўпага келиб, ариқ қазуви вақтида (ҳижрий 1230/1815 йилнинг апрел ойида) унинг ҳузурига юборилган Сайид Муҳаммад ҳожи ҳақида эслатиб ўтилади[9; 414-б]. Элчининг ташрифдан сўнг, Муҳаммад Раҳимхон I элчиларини Умархоннинг Туркистон ва Дашти Қипчоқ ҳудудларининг фатҳи муносабати билан муборак этиб нома юборган[23;156-б]. Хива элчиси “Хўқандда қолиб, иззат-икром ва меҳмондорчиликдан кейин кетишга рухсат олиб” қайтганида, унга жавобан Умархон элчига Абдулҳолиқ қоровулбегини қўшиб, совға-саломлар билан мактуб юборади[14;30-б].

Қўқон хони таркибига Дашти Қипчоқ ерларининг киритилиши уни Хива хонлиги чегараларига яқинлаштирди. Бухоро амирининг минтақадаги ҳукмронлиги учун кураши, Хива ва Қўқон хонликлари ўртасида иттифоқнинг ташкил топишига замин тайёрлади. Қўқон хонларининг Усмонли султонларига ёзган мактубида: Хитойнинг Шарқий Туркистон масаласи ва Бухоро ҳукуматининг Қўқон ва Хива иттифоқчилигига қарши ҳаракат олиб борганлиги тўғрисидаги маълумотнинг мавжудлиги минг ва қўнғирот сулоласи вакиллариининг тутган йўлидан дарак беради[8; 33-34-б].

Бухоро амирлигига қарши ҳаракатларини Умархон Хива хони Муҳаммад Раҳимхон номига *“...агар мен томонга марҳамат назарлари билан ишора қилиб, саркашлиги била маълум бўлган Бухоро подшоҳининг аҳволини хароб қилишга амр қилсалар, агар Парвардигор ўз лутфи карами билан мададкор бўлса аминманки, уларни таг-туғи билан юлиб ташлардим. Ассалом аттақсир”* ёзилган мактубида маълум қилган[14;26-б]. Одатда, “тарафкашлик сиёсати” Бухоронинг Қўқон ёки Хива хонликлари томонга юриш қилганларида юзага келар ва икки сулоланинг иттифоқ бўлишига сабаб бўлар эди.

Юқоридаги фикрни 1821 йилда Бухоро амирлигига қарши ички муҳолиф кучларнинг ҳаракатларини Хива ва Қўқон хонлари томонидан қўллаб-қувватлаши ҳаракатлари натижасида юз бергани манбаларда учрайди[3. 10]. Оқибатда, Хоразм қўшинлари Амударё бўйидаги Чоржўй мавзесига келиб, амирлик қўшинларини енгади ва ҳаттоки, Қорақўл ҳудудларигача етиб боради. Муҳаммад Раҳимхон I нинг 1821 йил июнь ойида Дўсимбий ва Бекижонбек Бухорийни етти минг киши билан, август ойида Ниёз баҳодир бошчилигида ёвмут оломони Бухорога қарашли Элжикка чаповул юборилиши амирни қийин аҳволга солиб қўйди[9; 453-454-б].

1821 йил 28 июнида Хива қўшинларининг Бухоро амирлиги ҳудудларига кириб келганлигини ҳақида хабарлардан сўнг, Умархон 12 минг аскар билан Бухоро ҳудудларига юришга отланади[16;179-180-б]. Умархоннинг урушга қаттиқ тайёргарлик кўрганлигини ва Муҳаммад Алихон, Тўрақўрғон ҳокими амирзода Султон Маҳмудхон, Дашти Қипчоқ ҳокими шаҳзода Абдуллахон ва бир қанча амирзодалар одамлари билан келиб қўшилганлиги борасида маълумотлар икки сулола иттифоқи билан боғлиқ ҳаракатларни кўрсатади[4; 67-б]. Муҳаммад Раҳимхон I нинг Қўқон хони Умархон билан Бухоро амирлигига қарши, хитой-қипчоқ сардорларига мактуб юбориб, қўллаб-қувватлаши ҳақидаги хабарномалар жўнатган[6; 108-б].

Иқтисодий муносабатлар ва элчилар хавфсизлигини таъминлаш икки сулола вакиллари учун бирдай муҳим бўлган. 1819-1820 йилда Қўқон хони Умархон ўз элчиси ҳожи Мир Қурбонни Рум султони Султон Маҳмудхон (1808-1839) ҳузурига юборади. Икки давлат ўртасида Хива хонлиги ҳудуди “кўприк” вазифасини ўтаган. Румдан қайтаётган Қўқон элчилари йўлда Урганчга кириб, Муҳаммад Раҳимхон билан учрашганлиги манбаларда эслатилади. Муҳаммад Раҳимхон Румдан келган совғаларни хавфсизлигини сақлаш мақсадида олиб қолади [11; 378-б], биров вақт ўтиб Абдулхолиқ қоровулбеги ҳамроҳлигида Рум халифаси Умархон учун юборган совғаларини бериб юборганлик хабарини жўнатади[2;149-150-б].

Бухоро амири Насрулло (1826-1860) даврида Қўқон хонлигига олиб борилган босқинчилик юришлари муносабати билан ҳарбий кўмак масаласида кўплаб мактублар алмашилган. Амир Насрулло томонидан Қўқонга ноиб қилиб тайинланган Иброҳимга қарши қўзғолон кўтарилганда, Бухоро амирига иккинчи томондан зарба бериш мақсадида Хива хони Оллоқулихон (1825-1843) Бухоро сарҳадларига қўшин тортади[13;158-б]. Мазкур юриш Оллоқулихоннинг Шералихон(1842-1845)га дўстлик ёрдами берилишидан ташқари, ўзига қарши бўлган соруқ ва солур туркманларини амир томонидан қўллаганлигига жавоби эди[15; 58-б]. Курашлар даврида Шералихондан Қорабош додхоҳ элчи бўлиб, Хивага келади. Оллоқулихон ҳам Бобобек элчисини қўшиб жўнатади. Курашларда Оллоқулихон Бухоро амирини қийин аҳволга солиб қўйиб, *“Қўқон ҳудудини қонуний ўз эгаларига қайтариш кераклигини айтиб, акс ҳолда, унга қарши уруш эълон қилишини”* билдиради[12;116-б] Амир вазиятни ўзгартиришга ҳаракат қилаётган вақтда, *“Урганж ҳокими Оллоқулихон бу дунёдан ўтибди ва ўрнига тўнғич ўғли Раҳимқулихон ҳукумат тахтига чиқибди, деган хабар келди”*[11; 122-б]. Амир Насруллоҳ бу хабардан қувониб, эндиликда Қўқон ҳудудларига таъсир ўтказишда муаммолар юзага келмаслигидан хурсанд эди.

Қўқон хони Шералихон (1842-1845) ташқи сиёсатда қўшни давлатлар билан дўстона муносабат ўрнатишга ҳаракат қилади. Унинг даврида Бухоро амирлигининг босқинчилик ҳаракатига чек қўйилади. Шералихон номидан Қорабош додхоҳ янги ҳукмдорнинг тахтга ўтирганлиги хабарини Урганчга етказиб боради. Ушбу ташрифга жавобан, Хива хони Раҳимқулихонга (1843-1846) ихлоснома жўнатиб, Шералихоннинг ҳокимиятини тан олиб, дўстлик муносабатини билдирган[11; 137-б].

Шералихоннинг ҳарбий ҳаракатлари натижасида Хўжандни босиб олинади. Бу борада, Хива хони Раҳимқулихонга мактуб ёзиб, *“Ҳозир айни ёрдам берадиган ва мадад кўрсатадиган пайтингиздир. Ҳали келмаган вақт борасида ўйлаб, шу кунларда подшоҳга қарашли мамлакатнинг чекка юртларини қўлга киритишни пайсалга солманг. Шоядки, шунча ҳаракатимиз билан Мовороуннаҳрнинг Хўжанд устидаги бу қўшинини тор мор келтириб, нарироққа улоқтириб ташласак”* деб, таъкидлаб ўтади[5;146-б]. Бу вақтда Бухоро амирлигида ички исёнлар ва Шаҳрисабзда амирга қарши бошланган қўзғолон ҳаракатлари натижасида амир ҳам ички ҳам ташқи сиёсатда қийин ҳолатга тушиб қолади.

Раҳимқулихон Шералихонни Бухоро амирлигига қарши курашда қўллаб-қувватлаб, *“биз Бухоро томонга қўшин тортиб, Бухоронинг бир фарсах еригача босқин-чопқин уюштирдик. Сиз ҳам вақтни қўлдан бой бермасдан, отланинг”* мазмунидаги хат-

хабар жўнатади[11; 675-б]. Шералихон мазкур хат мазмуни билан танишгач, дарҳол фарзанди Абдурахмонбекни Фарғона лашкари билан Ўратепа томонга юборади.

Хива-Қўқон хонликлари ўртасида мунтазам элчилар ва хатлар алмашинуви Хива хони Муҳаммад Аминхон (1846-1855) ва Қўқон хони Худоёрхон (1845-1858 биринчи ҳукмронлик йиллари) давригача давом этади. 1846 йилда Муҳаммад Аминхон Абдулҳакимни элчи қилиб Худоёрхон ҳузурига юборади. Ушбу ташрифда янги ҳукмдорнинг тахтга ўтирганлиги ва мураккаб вазиятларда бир-бирини қўллаш мазмуни акс этади. Ушбу элчиликка жавобан Муҳаммадкаримбий Хивага ташриф буюради.

Худоёрхонга қирғиз-қипчоқларнинг етакчиси Мусулмонқул ҳокимиятни бошқаришда ёрдам бериб, ташқи сиёсатда ўз сўзига эга бўлиб олади. 1263/1846-1847 йили Мусулмонқулнинг Хива хони Муҳаммад Амин (1845-1855) га юборган хати Хива ва Қўқон хонликларининг ўзаро дўстлик алоқаларини ифодалайди. Ўзбекистон Миллий архиви фондида сақланаётган мактубда Қошғар ва Еттисув шаҳарларини хитойликлардан озод қилганлиги тўғрисида маълумот келтирилади[20]. Хабарга кўра: *“Қошғар ва Етти шаҳрини хитой ва кофирни дам тиғи бедариғдан ўтқариб уларни нопок қадамидан Қошғар ўлкасини пок ва мусаҳҳар қилиб, кўнгил истаган у шаҳарларни фатҳ этиб, бақий атоссейф (бошқа тирик қолганлар) неча нафар чурчут бадкор душмандан ҳақ дин – ислом учун асир қилинди”* деб, сўз юритилади. Ушбу фатҳ хушхабарини қўшни давлатлар қатори Бухоро амири Насрулло (1826-1860)га ҳам маълум қилганлиги мактубда айтиб ўтилган. Унда: *“Ул зафар воқеасининг исботи учун манғит подшосига икки нафар хитойни юбордикким, диёнат ва диндорлик йўлидан зоҳиран хушвақт бўлур”* дея, хурсандчилигини етказади. Мазкур хабар *“шаввол ойининг ўттизинчи, шанба куни отланиб, зулқаъда ойининг тўққизинчиси, якшанба куни бу остони олий арши ошиёнга дохил бўлиб етушар”* дея, битилган.

Миллий архивнинг тарихий ҳужжатлари орасида 1261/1864-1865 йилда Қўқон хони Худоёрхондан Хива хони Муҳаммад Аминхонга ёзилган яна бир мактуб учрайди. Мактуб дўстлик ва ҳамкорлик мазмунида бўлиб[13], унда *“Қодирнинг лутфи ва ғоятсиз марҳамати билан давлатимиз жаҳондорлик сарири узра барқарор турибди”* — деб, Қўқон хонлигининг сиёсий ҳолати маълум қилинади. Шунингдек, ўртадаги дўстлик алоқалари абадий бўлиши ва *“бориш-келиш”* анъанаси узоқ йиллар давом этилиши ният қилинган. Мактубнинг етказувчиси этиб сайид[17] даражасидаги *“Қато Хўжадан марсул қилиган”* лиги қайд этилган. Мазкур элчи *“мактуб мазмунини борганда ўзи сизнинг ҳузурингизда тил тақрир қилиб баён қилади”* деб эслатиб ўтилган. *“Мактуб сўнггида “Сайид Худоёрхон ибн Шер Муҳаммад Алихон” муҳри босилган. Ҳажман кичик бўлса-да, кўплаб тарихий даврни кўрсатувчи ушбу мактуб, Худоёрхоннинг Хива хони Муҳаммад Амин билан яхши қўшничилик сиёсатини олиб борганлигини кўрсатиб беради.*

Худоёрхон томонидан Муҳаммад Аминхонга ҳижрий 1263/1846-1847 йил санаси билан қайд этилган яна бир мактуб мавжуд. Мактуб мазмунида Қўқон ва Бухоро ўртасида талаш ҳудуд сифатидаги Ўратепа ва Жиззах қалъаларининг Қўқон хонлиги томонидан эгалланганлиги келтирилади. Мактубда *“зулҳижжа ойининг ғирраси пайшанба куни жамий аркони давлат Ўратепадан 8 тош миқдор ўтиб бориб, Ём, Зомин ва Жиззахни мусоҳара этиб, манғит жамоасини тарош қилиб, 4 лак қави(куч), 10 минг*

туя ва 9 минг от ва 15 минг пиёда ғанимат олиб, ҳисобсиз моллари билан неча юз минг манғитни банди ва асирни зўрлик билан олдиқ” деган маълумотлар ўрин олган[18].

Мактуб давомида, Қўқон хонлигининг Рум (Туркия) давлати билан элчилик алоқалари ҳақида сўз юритилади. Қўқон хонлигидан Рум султонлигига ўтиш учун Хива хонлиги чегара кўприк давлат эканлиги кўрсатиб берилган. Мактуб мазмунида Қўқон хони томонидан элчи Ҳожи Рўзибекни Рум давлатига юборилаётганлиги келтирилади. Мазкур элчини Хива ҳудудидан ўтказиб қўйиш масаласида Муҳаммад Аминдан ёрдам сўраб мурожаат қилганлиги хат мақсадида акс этади. Унга кўра: *“...Ҳожи Рўзибек ирсол қилинди. Рум халифаси хизмати олийларига буюрдик. Унга рухсат бериб қаламравларидан ўтганча ходим тайин этсалар”* деб илтимос қилади. Қолаверса, дипломатик анъаналарига риоя қилинган ҳолда, мактубда “бир тўп товар ва яна жура (тўплам) адрас юбордик” – деб, маълум қилади. Мактуб сўнггида *“Сайид Худоёрхон ибн Шер Муҳаммад Алихон 1263 ҳ.й”* номи билан муҳр туширилган.

Худоёрхон мамлакатда ички тартибсизликларга барҳам бериб, ташқи алоқаларини йўлга қўйишга киришади. Шу мақсадда 1848/1849 йил ўғлининг тўйи муносабати билан қўшни хонлик ҳукмдорлари қаторида Хива хони ҳам таклиф этилади. Бу орқали минтақада дўстлик ва яқин иттифоқчиликни йўлга қўйишни кўзлайди. Икки сулола вакиллари Бухоро амирлигига нисбатан “умумий душман” сифатида қараб, унга қарши ҳарбий ҳаракатлар олиб боради. Бундай ҳолатларда “истимолатнома”, яъни ўз томонига оғдириб, тарафида бўлишга ундаш каби мактублар кўплаб алмашилган[1;208-б]

1858 йили Худоёрхоннинг акаси Маллахон (1858-1862) Қўқон хонлиги тахтига қўлга олганлигини билдириб, Хива хони Сайид Муҳаммадхон (1856-1865)га мактуб жўнатади. Ака-ука ўртасидаги қарама-қаршиликлардан сўнг, Маллахон ғалаба қозониб, ҳукмдор бўлганидан хабари бўлмаган Сайид Муҳаммадхон (1856-1865) олдинроқ Соҳибназарбий элчини Худоёрхон ҳузурига юборган эди. Ҳукмдорлар алмашса-да, элчилар муносиб кутиб олинади. Маллахон мактубга жавобан, дўстлик ва бирдамликни изҳор этиб, Мирзо Абдулваҳҳоб панжохбошини ҳамроҳ қилиб юборади[10].

1281/1864-1865 йилларда Қўқон хонлиги Султон Сайидхон (1863-1865) Хива хони Муҳаммад Раҳимхон II (1864-1910) га юборган мактубида Россия империясини Туркистон хонликлари ҳудудларига бостириб келиши хавфи ҳақида сўз юритилган. Қўқон хони рус аскарларининг *“Куфра-йи Урусия Уч Олмати тарафидин хуруж қилиб, Авлиёота қўрғонин олиб ва яна Оқмасжид тарафидаги Туркистон қўрғонин олди деб, дорулсатана Ҳўқандда эшитиб ... шарийат ҳукми била ғазот қилмоқни фарз-и аъйн билиб”*, шу сабабдан Чимкентга қўшин тортганлигини маълум қилган. Мазкур хабарни Усмонли Турк султониغا етказиш учун дўстлик ва иттифоқчилик қилиш мақсадида элчи юборилаётганлиги тўғрисида Хива хонига хабар берган. Хива хонидан элчиларни ўз ҳудудларидан ўтказиб қўйишни сўраб, *“...бул ҳодисотларни Сиз биродаримизга эълон (маълум) қилиб, содатпаноҳ эшон Сайид Яъқубхўжа нақиб қози калонни ирсол этиб (юбориб), бу маҳораба ва мақотилаларни бир-бир баён этиб, жаноб халифа ал-раҳмон Султон-и Румға арзадошт айлаб, элчи қилиб юбордук ... меҳрибон бўлуб, жаноби мазкурни ... эсон-омон халифа хизматлариға ўтқариб юборсалар ҳурсандлик ҳосил бўлур”* деб, айтиб ўтган[20].

Худоёрхон ҳокимиятни қайта қўлга киритганлигини Муҳаммад Раҳимхон II га маълум қилиб, мактуб юборади[2]. Ушбу мактубда Фарғона вилоятида бўлаётган жараёнлар ҳақида маълум қилинади. “Аллоҳнинг карами билан меросий бўлган Фарғона вилояти тахтини иккинчи маротаба фатҳ этдим” деб, Фарғона тахтини қайта эгаллаганлигини билдириб, *“فَتَحْنَا لَكَ فَتْحًا مُبِينًا إِنَّا”* [Инна фатаҳна лака фатҳан мубийна][7] оятини келтиради. Мактубда Қўқон тахтини эгаллаганлигини билдириб ўтилади. Алимқули амирлашкарнинг фаолияти ҳақида “У қайта ўзининг номаъқул ва фасод ишлари билан ўзига жазо орттириб олди” — дея, изоҳ берилади. Шу билан бирга, улар ўртасидаги зиддиятлар ва қўшин тўплаб, ўз хатида бу ҳолатга нисбатан ҳадиси шарифдан: *“كُلُّ شَيْءٍ تَنْتِي وَتَنْتِيثٌ”* [Кўлли шаййин тас(т)ни ва тас(т)аллус] жумласи келтирилиб, қўшинлар сони ортиб, Фарғона ҳудудлари учун жанг қилинганлиги билдирилади.

Мактуб матни давомида хонликлаги баъзи кишиларнинг исён кўтарганлигини эслатиб ўтилиб, Қўрғон (Новад), Хўжанд ва Қурама ҳамда бошқа ҳудудлар Қўқон хонлиги тасарруфига киритилгани қайд этади. “Хурсандчилик хабарини етказиш учун Саъдуллоҳ Хўжа Ўроқни юбордик” ва “қолган гап сўзларни у етказиши” маълум қилинган. Мактуб санаси 1283/1866-1867 йилнинг рабби ул соний ойида эканлиги матнда келтириб ўтилган.

Хулоса ўрнида икки сулола ўртасидаги ёзишмаларда ҳукмдорлар ўзаро мактублар алмашинувида ҳокимиятини мустаҳкамлаш ва қонуний кучга эканлигини билдириш мақсадида юборганлиги кўринади. Шунингдек, чегарадош ҳудуд сифатида манфаатлар юзасидан муносабатга киришишга ҳаракат қилган. Бу эса Хива ҳукмдорларининг Орол ҳудудларини ва Қўқон хонларининг Дашти Қипчоқ ҳудудларини қўлга киритганидан сўнг, давлат чегаралари туташиб, ҳар соҳада муносабатга киришганлигида кўринади. Иқтисодий ва транзит савдо ва элчилар алмашинувида “кўприк” вазифасида бир-бирига ён босган. Манфаатлардан яна бири, умумий душман деб қаралган Бухоро амирлигига қарши курашиш учун доимо бир-бирини қўллаганлигини кўрсатади.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Аллаева Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари (XVI – XIX асрлар). Тошкент: Академнашр, 2019. – Б. 208.
2. Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио-Ташкент, 2010. – С. 150. 149-150.
3. Григорьев В. В. О некоторых событиях в Бухаре, Коканде и Кашгаре. Записки Мирзы-Шемса Бухари. — Казань, 1861. – Б. 10.
4. Дусалиев М. Қўқон хонлигининг Ўзбек хонликлари билан ўзаро сиёсий алоқалари тарихи. // Ўтмишга назар. № 2 махсус сон. – Тошкент, 2023. – Б. 67.
5. Зафарномаи Хусравий. Форс-тожик тилидан таржимонлар, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифлари Ш.Воҳидов, Ш.Жўраев. Масъул муҳаррир ва туркум муаллифи Ш.Х. Воҳидов. – Тошкент, 2011. – Б. 146.
6. Иванов П. П. Восстание китай-кипчаков в Бухарском ханстве 1821—1825 гг. Источники и опыт их исследования. Труды Института востоковедения. XXVIII. Москва – Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1937. – С. 108.
7. Қуръони карим. Фатх сураси, 1-оят: “Албатта, Биз сенга равшан фатҳни бердик” (“Фатх” сўзи луғатда “очиш” маъносини англатиб, Исломига қўшишга айтилади.

- Мусулмонлар бирор жойга бориб, хоҳ уруш билан, хоҳ сулҳ билан Исломга киритсалар, ўша ерни “фатх қилинди” дейдилар).
8. Маҳмудов Ш. Ҳадъялар Қўқон хонлиги ва Усманийлар давлати ўртасидаги дипломатик алоқалар воситаси сифатида. // Ўзбекистон тарихи. 2020. № 1. – Б. 33-34.
 9. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол / Масъул муҳаррир ва туркум муаллифи Ш.Воҳидов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 453-454, 414.
 10. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Жоме ул-воқеати султоний, VI жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1980.; Ўзбек дипломатияси тарихидан. (тарихий очерк ва лавҳалар) / М.М. Хайруллаев таҳрири остида. — Тошкент, 2003. – Б. 339-340; Полвонов Н. Қўқон ва Хива хонликларининг ўзаро элчилик алоқалари тарихига доир ... – Б. 185-186. Аллаева Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари (XVI – XIX асрлар). Тошкент: Академнашр, 2019. – Б. 214.
 11. Муҳаммадҳакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010 – Б. 122.Б. 137.Б. 675.
 12. Назирова Ҳ. Қўнғиротлар сулоласи тарихнавислигида МуҳаммадРизо Огаҳийнинг “Зубдат ут-таворих” асари. дисс.тарих.фан. ном. – Тошкент, 2022. – Б. 116.
 13. Муҳаммад Ризо Мироб Эрназарбек ўғли Огаҳий. Асарлар.V жилд. Риёз уд-давла / Нашрга найёрловчи Ғ. Каримов. Масъул муҳаррир С. Долимов. Тошкент, 1980 – Б. 158.
 14. Отахонов Ф. Қўқон ва Хива хонликлари ўртасида 1821 йилда тузилган ҳарбий иттифоқ ва унинг оқибатлари (“Шоҳномаи нусратпаём” маълумотлари таҳлили) // Ўзбекистон тарихи. 2012. № 2. – Б 26, 30.
 15. Полвонов Н, Шерипов У. Қўқон ва Хива хонликларининг ўзаро элчилик алоқалари тарихига доир (XIX аср). // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. Хива, 2019. – Б. 58.
 16. Полвонов Н. Қўқон ва Хива хонликлари ўртасидаги ўзаро элчилик алоқалари тарихига доир (XIX аср) // Ўзбекистонда элчилик хизмати тарихидан: талқин ва таҳлил. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. – Тошкент, 2017. – Б. 179-180.
 17. Саййидлар — Муҳаммад (с.а.в) нинг авлодларига берилган унвон
 18. ЎзМА, И-125 жамғарма, 2-рўйхат, 240 йиғмажилд, 2 varaқ.
 19. ЎзМА, И-125 жамғарма, 2-рўйхат, 240 йиғмажилд, 3 varaқ.
 20. ЎзМА, И-125 жамғарма, 2-рўйхат, 241 йиғмажилд, 1 varaқ.
 21. ЎзМА, И-125 жамғарма, 2-рўйхат, 240-йиғмажилд, 1 varaқ.
 22. Хива “Ичан қалъа” қўриқхона-музейи архивида Қўқон хони Худоёрхоннинг Муҳаммад Раҳимхон II га ёзган мактуби.
 23. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих (Тарих юлдузлари). – Тошкент: Фан ва технология, 2014. – Б. 156.

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

ROLE OF RAILWAYS IN THE ECONOMIC LIFE OF SURKHAN OASIS DURING THE YEARS OF SOVIET AUTHORITY

Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich,
Termiz University of Economics and Service
Doctor of Philosophy in History (PhD)
Email: xudoyberdiyev@mail.ru

Abstract. In this article, the goal of the construction of railways in the Soviet era was carried out in several stages, the modernization of the country's economy, the speed of construction of railways, their importance in the regional economy and strategic development are objectively covered based on historical data.

Keywords: military-strategic target, signal road, station, industrial enterprise, transport communication, transport development, region, local gas resources.

SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SURXON VOHASI IQTISODIY HAYOTIDA TEMIR YO'LLARNING O'RNI

Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sovet davrida temir yo'l qurilishini bir necha bosqichlarda amalga oshirilib borishdan maqsad mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, temir yo'llaridagi qurilish sur'atlari, ularning mintaqa iqtisodiyoti va strategik rivojlanishidagi ahamiyati tarixiy ma'lumotlar asosida xolisona yoritilgan.

Kalit so'zlar: harbiy-strategik maqsadlar, temir yo'l, bekat, sanoat korxonalari, transport kommunikatsiyasi, transport taraqqiyoti, mintaqa, mahalliy xomashyo resurslari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N04>

Kirish. Rossiya imperiyasida sodir bo'lgan keskin siyosiy o'zgarishlar hamda hokimiyatning bolsheviklar qo'liga o'tishi mintaqadagi transport, jumladan, temir yo'l siyosatida ham jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Sovet hokimiyati yillarida butun ittifoq transport kommunikatsiyasi, jumladan, temir yo'llar masalasi markaz manfaatlariga moslashtirilgan edi. Avvalambor, ushbu temir yo'llar harbiy-strategik maqsadlarni hisobga olgan holda qurilgan bo'lib, ular mamlakatning ma'muriy markazlarini boy sanoat va xomashyo markazlari bilan bog'lagan edi. Temir yo'llar asosan butun ittifoq bo'ylab aholining sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga, shuningdek, oziq-ovqat, kiyim-kechak ta'minotiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan edi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Surxon vohasida sovet hokimiyati davridagi ijtimoiy-siyosiy hayot borasida bir qator tadqiqotchilar izlanishlar olib borganlar. Bu borada

ayniqsa, Q. Rajabov M. Haydarovlarning “Turkiston tarixi”, S.N. Tursunovning “Surxondaryo tarixi”, “Termiz yilnomasi” kabi tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama va natijalar. Sovet hukumati o'zining xalq xo'jaligini rejasi asosida bosqichma-bosqich sotsialistik tizimga moslashtira boshladi. Bu siyosat transport taraqqiyoti, aynan temir yo'l sohasida ham o'z aksini topdi. Temir yo'l transporti sovet hukumati uchun iqtisodiy jihatdan arzon hamda qulay bo'lish bilan bir qatorda, mamlakatning ichki siyosatini nazorat qilib turishda zarur edi. Shu tufayli 1918-yili sovet hukumati O'rta Osiyo –Toshkent temir yo'lini o'z nazoratiga oldi. 1919-yil Termiz – Kelif temir yo'li davlat ixtiyoriga o'tkazildi. Shuningdek, Orol dengizi va Amudaryo bo'ylab harakat qiladigan suv transportidagi xususiy flotlar tugatilib, ular davlat tomonidan musodara qilindi[1].

Turkiston o'lkasida paxta xomashyosi asosan 2 yo'nalishdagi temir yo'l orqali etkazilgan: birinchisi, Toshkent – Orenburg yo'nalishi bo'lsa; ikkinchisi, Chorjo'y – Krasnovodsk yo'nalishi edi. 1921-yil Bosh paxta qo'mitasiga 1 mln. 48 ming 240 pud paxta tolasi yuborilgan. 1922-yilning boshlarida Turkiston o'lkasidan Rossiyadagi to'qimachilik fabrikalariga Krasnovodsk yo'nalishi bo'ylab 1150 vagonda 63 ming 470 toy paxta, Orenburg yo'nalishi bo'yicha esa 1547 vagonda 85 ming 30 toy paxta jo'natilgan. Jami bo'lib 2724 vagonda 148 ming 500 toy paxta tolasi yuborilgan[2]. 1922-yilning iyun oyida Orenburg va Krasnovodsk yo'nalishlari bo'yicha jami 2180 vagonda paxta tolasi Rossiyadagi to'qimachilik fabrikalariga etkazilgan[3].

Sovet davlatida XX asrning 20-yillarda boshlangan fuqarolar urushi yillarida vayron bo'lgan temir yo'l harakat tarkibi va yo'l xo'jaligini tiklash uchun zarur choralar ko'rildi. Jumladan, O'rta Osiyo Respublikalarida yagona temir yo'l uzeli birlashtirish va yangi tarmoqlarni qurish masalasiga alohida e'tibor berildi. Bundan asosiy maqsad shahar va portlarni birlashtiruvchi yangi temir yo'l liniyalarini barpo etish edi. Ularning birlashtirilishini ko'zlab Amudaryo (Samsonovo) – Termiz (1925), Termiz-Dushanbe (1932) va boshqa temir yo'l liniyalari qurilib foydalanishga topshirildi. 1929-1932-yillarda qurilgan uzunligi 248 km Termiz-Dushanbe temir yul tarmog'i qurilib, O'zbekiston temir yo'lga ulandi[1]. Biroq sovet hokimiyati yo'llarida O'zbekistonda temir yo'l transportida qisqa masofalarga tashish tannarxi yuqori bo'lib, unda 40356 ming tonna yuk tashildi. 32912 mln. t.km yuk aylanishi bajarildi. Bu esa 1950-yildagi magistral temir yo'l izlari uzunligiga nisbatan 1330 km ortiq bo'lib, bajarilgan yuk aylanishi 3,2 marta, tashilgan yuk xajmi 4,5 marta ko'pdir. Keyingi yillarda 1970-yil yangi Qo'ng'iro't – Manat magistral temir yo'l izlari qurildi. Yangi magistral temir yo'l izlari mamlakatimizni Yevropa qismi, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston Respublikalari va Ural bilan bog'laydigan temir yo'llarni ming km.ga qisqartiradi.

Sovet davlati O'rta Osiyo respublikalarida yagona temir yo'l liniyasini tashkil etish va yangi temir yo'l tarmoqlarini qurishga alohida e'tibor qaratdi. 1924-yildan boshlab Kogon – Samsonovo – Termiz temir yo'lini tuzatish ishlariga e'tibor qaratilgan. 33 kilometrni tashkil etuvchi Termiz-Jarqo'rg'on temir yo'li qurilishi boshlandi[5]. 1925-yilning ikkinchi yarmida uzunligi 248 km. bo'lgan Termiz – Dushanbe temir yo'li qurilishiga 3 mln. so'm mablag' ajratildi. Bu temir yo'l tarmog'i 1931-yilda tugallandi va natijada Tojikiston O'zbekiston temir yo'llari tarmog'i bir-biriga bog'landi[1].

Surxondaryo okrugida mahalliy xomashyo resurslari bazasida qisqa vaqt ichida go'sht, ohak, donni qayta ishlaydigan korxonalar qurildi. Ayniqsa, paxta tolasining keskin o'sishi Denov, Xazorbog', Sherobod paxta tozalash korxonalarining qurilishiga sabab bo'ldi. Mazkur

korxonalar Termiz – Dushanbe temir yo‘l tarmog‘ining ishga tushishi bilan bevosita bog‘liqdir. Haqiqatan ham 1929-1941-yillar oralig‘ida viloyatda Denov, Xazorbog‘, Sherobod paxta tozalash zavodlari, Termiz go‘sht kombinati, non va moy zavodlari, Denov shahridagi motorremont va spirtli ichimliklar zavodlari, Xovdak, Uchqizil va Kakaydi neft konlari ishga tushirildi. Shu davrga kelib viloyatda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 64 million so‘mga etdi[4].

XX asrning 30-yillarida Surxondaryo hududida yangi temir yo‘l tarmoqlari ham qurildi. Termiz – Kelif, Sho‘rchi – Denov, Termiz – Regar yo‘nalishlari qayta ta‘mirlandi. Yangi temir yo‘l tarmoqlari qurilishi natijasida xalq xo‘jaligini tiklash, hududlarni xomashyo bilan ta‘minlash, tayyor sanoat mahsulotlarini tashish, yoqilg‘ini sanoatini rivojlantirish imkoniyatlarini bergan[5].

1933-yil 28-fevralda O‘rta Osiyo temir yo‘llar uyushmasi direksiyasi tomonidan “Talab yuqori bo‘lgan kadrlarni qayta o‘qitish va tayyorlash bo‘yicha vaqtinchalik kurslarni tashkil etish” buyrug‘i qabul qilingan. Shu davrdan boshlab Qarshi, Termiz shaharlarida qisqa muddatli kurslar tashkil etilib, ularda asosan mashinistlar, mashinist yordamchilari, slesarlar, telegrafchilar, bosh konduktorlar tayyorlangan. Kurslardagi tinglovchilar soni uncha ko‘p bo‘lmagan. Masalan, Qarshi shahridagi kurslarda 20 nafar mashinist, 40 nafar mashinist yordamchilari o‘qitilgan bo‘lsa, Termizda esa 10 nafar mashinist va 34 nafar mashinist yordamchilari tayyorlangan[4].

Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxondaryo er osti boyliklaridan unumli foydalanish, xususan ko‘mir bilan ta‘minlash maqsadida To‘da ko‘mir koniga temir yo‘l tortish borasidagi ishlar olib borildi. Surxondaryodagi ikkinchi ko‘mir koni bo‘lmish To‘da konini ishga tushirish 1942-1944-yillarda amalga oshirildi. 1942-yil 4-sentyabrda tuman ijroqo‘mining 43-sonli qaroriga asosan To‘da ko‘mir koni temir yo‘li qurilishi uchun 264,23 gektar er ajratildi.

Bundan tashqari, urush yillarida front yaqinidagi hududlardan aholi evakuatsiyasi qilish va frontda oziq-ovqat, kiyim-kechak va front ehtiyoji zarur bo‘lgan buyumlar ham aynan temir yo‘l tizimi orqali amalga oshirilgan. Surxondaryo viloyatidan 41,5 ming kishi frontga jo‘natilgan. Urush yillarida 20 709 kishi viloyatga ko‘chirib keltirildi.

Urushdan keyingi yillarda transportning bu sohasida tub o‘zgarishlar qilinib, lokomotivlar quvvati oshirildi, poyezdlar tig‘iz qatnaydigan joylarda ikkinchi yo‘llar qurildi. Parovozlar o‘rniga elektrovoz va teplovozlar qo‘llanildi. Termiz va Denov temir yul stansiyalari yangi texnika bilan jihozlandi. Surxondaryoda urushdan keyingi yillarda xalq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida temir yo‘lchilar zimmasiga yanada mas‘uliyatli vazifalar yuklandi. Xalq xo‘jaligi uchun zarur yuklarni tashish, yangi sanoat korxonalarini, yangi shahar va tumanlar tashkil etilishi temir yo‘l shoxobchalarini ko‘paytirishni taqozo qildi. 1943-1953-yillarda Termiz bekati bir sutkada 6 juft yuk tashuvchi poyezdni va 4 ta passajir poyezdini qabul qilib jo‘natar edi[6].

1951-yilda O‘rta Osiyoda harbiylar manfaati uchun 147 razyezd, keyinchalik “Baqtriya” bekati deb nom olgan temir yo‘l bekati qurildi. 1954-yili Termiz temir yo‘l bekatida yuk tashish o‘rtacha 60-70 vagonni, yuk ortish esa 30-40 vagonni tashkil etdi. 1954-yil dekabr oyida Termiz bekatida yuklar ham bir vaqtning o‘zida oriladigan va tushiriladigan bo‘ldi[7].

1960-yillarga kelib, Surxondaryo viloyati va Tojikiston Respublikasida yuk tashish ishlari ancha kuchaydi. Buning natijasida Termiz bekatida temir yo‘l izlarini kengaytirishga

to'g'ri keldi. 1967-yilda vagonlarni almashtirish va ta'mirlash uchun 7 ta temir yo'l izlari qurildi. Bekatlar bir-biri bilan yarim avtomatik himoya moslamalari orqali aloqa qila boshladi[8].

O'zbekistonni qo'shni respublikalar va davlatlar bilan bog'laydigan temir yo'l liniyalari qurib ishga tushirildi. 1971-yilda Tojikistonga chiqadigan Termiz-Tursunzoda, Termiz-Shahrituz temir yo'llari qayta ta'mirlangach, qurilish materiallarini etkazib berish ancha yaxshilandi. 1973-yilda temir yo'l bekatlarini ko'rsatuvchi belgilar elektr quvvati bilan ishlaydigan moslamalar orqali amalga oshirila boshlandi. 1974-yilda uzunligi 54 km bo'lgan Amu-Zang temir yo'li va Termiz-Yavan temir yo'li tarmog'i qurib bitkazildi. Bu esa O'zbekistonni Tojikiston Respublikasining ichki tumanlari bilan bog'lash imkonini berdi[8]. Ushbu sohaga e'tibor yildan-yilga oshib borishi natijasida, 1976-yil Termiz-Shahrituz temir yo'l tarmog'i ishga tushirildi. 1978 -yili Afg'onistonda yuzaga kelgan harbiy vaziyat Termiz temir yo'l bekatini yangi asbob- uskunalar bilan jihozlash kerakligini ko'rsatdi. Termizdan yuklar Qarshiga, Dushanbega va Afg'onistonga jo'natilar edi. Shuningdek, 1978-yili Termiz bekatida poyezdlarni qabul qilishga temir yo'l tarmog'i etishmay qolayotganligi tufayli, ko'plab poyezdlar bu erda kelmasdan, boshqa bekatlarda to'xtab turishga majbur bo'layotgan edi. Shu sababli temir yo'l izlari 9 yo'ldan iborat qabul qiluvchi park-depo qurib bitkazildi. 1978-1979-yillarda Termiz shahri chekkasida joylashgan Termiz daryo portiga kirish uchun osonlik tug'diruvchi ochiq temir yo'l shoxobchasi va 5 yo'lli temir yo'l tarmog'i qurildi[9]. Natijada daryo porti orqali Afg'oniston va Janubiy Tojikiston tumanlari bilan savdo-sotiq qilish imoniyati kengaydi. Termiz temir yo'li porti qurildi, bu vagonlar turishi va mahalliy yuklarni tashishga mo'ljallandi. Termiz bekatlari sanoati korxonalarining qabul markaziga aylantirildi, bu erga paxta zavodi, "Qishloq xo'jalik texnika", go'sht korxonalaridan xalq xo'jaligi yuklari keltirilib, shu yerdan vagonlarga ortilib, respublikamizning barcha viloyatlariga jo'natilardi.

Yuk oborotining tinimsiz o'sib borishi natijasida 1982-yili Termizda yangi temir yo'l parki qurildi. Bu park 16 ta temir yo'l shoxobchasidan iborat edi. 1982-yil Termiz shahri yaqinida Amudaryo orqali Afg'onistonga o'tadigan Termiz-Hayroton temir yo'l va avtomobil yo'li ko'prigi foydalanishga topshirilib, Termiz temir yo'l bekatlari qayta ta'mirlandi[8]. Bu tadbir Afg'oniston davlati bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash imkonini berdi. Termiz Afg'oniston uchun eng qulay savdo-sotiq qiladigan port shahriga aylandi.

Xulosa. Umuman olganda sovet hokimiyati yillarida temir yo'l transport tizimining rivojlanishi Markaz manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirildi. Bu borada xomashyo mahsulotlarini tashib ketish va harbiy salohiyatni mustahkamlash markaz tomonidan asosiy maqsad sifatida belgilab olingan edi. Shunga qaramay, temir yo'llarning paydo bo'lishi hududlar uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki u ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga munosib hissa qo'shdi. Xullas, Surxon vohasi hududidagi temir yo'l transporti taraqqiyoti bilan bog'liq manbalarning dalolat berishicha, temir yo'l transportining rivojlantirilishi jamiyat taraqqiyotiga, uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatdan rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Социально-экономическое развитие Узбекистана за годы Советской власти. – Тошкент: Узбекистан, 1984. – С.11.
2. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1-fond, 3-ro'yxat, 9-ish, 58-varaq.
3. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi. – B.102.
4. Tursunov S.N. va boshqalar. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Toshkent: 1991. – B 9.

5. O'z MA, R-95 jamg'arma, 1-ro'yxat, 3125-yig'ma jild, 177-varaq.
6. Surxondaryo VDA, 447-jamg'arma, 1- ro'yxat,ish, varaqlar. 122, 14.
7. Surxondaryo VDA, 447- jamg'arma, 1-ro'yxat. ish, varaqlar. 125, 31.
8. Tursunov S.N. va boshqalar. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004. –B. 379.
9. Tursunov S.N. Termiz yilnomasi. – Toshkent: Sharq, 2001. – 33 b.

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

THE ART OF THE BOOK

Muminov Khusanboy Madaminjonovich,
Associate Professor at the department of
“History of Uzbekistan” of Andijan State University

Buronov Ismoil A'zamjon ugli,
2nd year student of ASU, Faculty of History

Abstract. This article analyzes the issues of the development of the art of reading in Central Asia.

Keywords: inscriptions on ceramic surfaces, leather wrappings, inscriptions on metal objects, paper cut, calligrapher, lavwah, mozahib, musavvir, sahhaf.

KITOBAT SAN'ATI

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich,
ADU, Tarix fakulteti dotsenti

Bo'ronov Ismoiljon A'zamjon o'g'li,
ADU, Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'rta Osiyoda kitobat san'atining rivojlanishi masalalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: sopol yuzasidagi bitiklar, charm o'ramlari, metall buyumlardagi yozuvlar, qog'ozrez, xattot, lavvoh, muzahhib, musavvir, sahhof.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N05>

Kirish. Ushbu maqola kitob tayyorlash san'ati tarixi haqida ilmiy-tarixiy dalillarni tahlil qilish asosida yozilgan bo'lib bu maqolada bu sohaning san'at darajasiga yetishi va uning yurtimiz tarixidagi ahamiyati yoritilgan. Kitob tayyorlash sohasi O'rta Osiyoda qadim tarixdan rivojlanib kelgan muhim sohalardan biri bo'lib, ushbu soha rivojlanib borib san'at darajasiga yetgan hamda bu san'at O'rta Osiyo xususan O'zbekiston tarixiga muhim hissa qo'shgan. Chunki kitob tayyorlash jarayonida har bir usta bor mahoratini ishga solib uni go'zal tarixiy yodgorlikka aylantiradi hamda unga o'zining belgisini qoldiradi. Ustaning mehnati asarni tarixiy manbaga aylantiradi va bu san'at durdonasi ustani tarix zarvaraqlariga muhrlaydi. Ushbu sohaning rivojlanishi natijasida ko'plab tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarning qadri yana ham ortdi. Kitoblar insonlar uchun faqat ilm manbasigina bo'lib qolmay, ular o'ziga xos naqshlar bilan bezash orqali amaliy san'at namunalari darajasiga olib chiqildi.

Tadqiqot metodlari. Ushbu maqola tarixiy tadqiqotlarning ilmiy xolislik, mantiqiy izchillik, qiyosiy tahlil, xronologik izchillik kabi usullari asosida yozildi ilmiy dalillarga asoslanib yozildi.

Natijalar. O'rta Osiyoda qo'lyozma kitoblarni tayyorlash bir necha ming yillik tarixga ega. Sug'd tilida pergamentda bitilgan eng qadimgi kitoblardan biri zardushtiylik dinining "Avesto" kitobi qo'lyozmalari ("Vessantaraka jataka") asari hisoblanadi. Ma'lumki, Aleksandr Makedonskiy tomonidan Markaziy Osiyo zabt etilgandan keyin kitobning falsafa va boshqa muhim fanlarga doir qismlari ajratib olinib Yunonistonga jo'natilgan. Kitobning boshqa boblari esa yoqib yuborilgan [1].

Kitobat san'ati (arab, kataba — yozish, yozmoq so'zidan) — qo'lyozma kitoblarni yaratish va ziynatlash san'atidir. O'rta Osiyoda qo'lyozma kitoblarni bezash juda qadimdan mahalliy madaniyat taraqqiyot bosqichlari bilan bog'liq holda shakllangan, sopol yuzasidagi bitiklar, charm o'ramlari, temir buyumlardagi yozuvlar, qog'oz varaq taxlamlari (taxtachalar orasiga olib tizimchalar bilan bog'langan turi) o'rta asrlarda umummusulmon yoki arab tilidagi qo'lyozma an'analari asoslangan kitobat san'ati to'liq shakllandi va yuksak taraqqiyot darajasiga erishdi. Qo'lyozmalarni kitobat holatiga keltirish murakkab jarayon bo'lib, bunga ko'plab kasb-hunar egalari jalb etilgan. Jumladan, qog'ozrez, xattot, lavvoh, muzahhib, musavvir, sahhof (muqovasoz) va boshqa kasb egalari jamoasi birgalashib, bosqichma – bosqich qo'lyozmalarni kitob holiga keltirgan. O'rta va Yaqin Sharq islom tasarrufidagi davlatlarda bu jarayon bir xil usulda amalga oshirilgan. Qo'lyozma kitob uchun yaxshi, sifatli qog'oz tanlangan, bu borada Samarqand keyin Buxoroda qog'oz tayyorlash ustaxonalari ko'payib qog'oz sifati yaxshilanishi Movarounnahrda qo'lyozma kitoblarning rivojiga o'z hissasini qo'shdi [2. – B.].

O'rta Osiyo zaminining Xorazm hududida Ma'mun akademiyasi ("Majlisi ulamo")ning tashkil etilishi bilan ilm-fan rivojida kitobat san'atining yangi bosqichlariga dastlabki qadamlar tashlanib qo'lyozma tarkibiga turli chizma va tasvirlar kiritila boshlandi. Dastavval, Muzammad Muso al-Xorazmiyning "Kitobati surati al-arz" (Yer surati) kitobi, Mahmud Qoshg'oriyning "Devoni lug'at ut-turk" (Turkiy so'zlar lug'ati) kitoblarida yer xaritasining ko'rinishlari taqdim etilgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqa olimlarning qo'lyozma kitoblari xattotlar tomonidan qayta ko'chirildi. Tibbiyot faniga taalluqli kitoblarga mavzuga tegishli bo'lgan dorivor giyohlar, turli tibbiy asboblar tasvirlari ishlangan edi [3. – B.].

Shu ta'kidlab o'tishimiz kerakki, XIII asrning birinchi yarmida mo'g'ullar tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda o'zgarishlar bo'lgani kabi, kitob yaratish ishlarini ham salbiy ta'sir qildi. XIV asrning ikkinchi yarmi – XV boshlarida juda katta hududni egallagan Amir Temur saltanatining tashkil topishi bilan Samarqandga turli davlatlardan ilm-fan, kasb-hunar ahlidan xattot, naqqosh, musavvir va boshqalarning olib kelinishi qo'lyozma kitoblar tayyorlash ishlarini oldingi safardan ko'ra ancha oldinlab ketishini ta'minladi. Amir Temur va Temuriylar davriga kelib Samarqand hunarmandchiligida ayniqsa, qog'oz ishlab chiqarish alohida o'rin egalladi. Shahar yaqinidagi ariqlar va sohillar atrofida suv tegirmonlari qurilishi bilan qog'oz tayyorlanadigan ustaxonalar soni ortib borgan. Qog'oz tayyorlashda tut daraxti, ipak, paxta va eskirgan latta mahsulotlarini tolalaridan tayyorlangan. Samarqand qog'ozi o'rta asr Sharq xattotlari orasida g'oyat mashhur bo'lib, uning bir qismi boshqa o'lkalarga ham chiqarilgan. Qog'ozning ko'payishi kitob tayyorlash jarayonini tezlashiga olib keldi. Mirzo Ulug'bek davrida poytaxt Samarqand

kutubxonasida bag‘dodlik Abdulxay boshchiligida musavvir Ustod Jahongir, hirotlik Mavlono Shahobiddin, Abdulla Mavlono, Zahiriddin Azxar, Hoji Abduqodir Gulyandi, Pir Ahmad Bog‘ishamoliy, Muhammad al Xayyomiy, kelib chiqishi mahalliy bo‘lgan Junayd Sultonlar ijod qilishdi.



1-rasm. Shoir Sa‘diy kechalari bog‘da yosh do‘sti bilan suhbatlashmoqda. „Guliston“ga ishlangan miniatyura. Hirot, 1427-yil.

Bu yerda As-Sufiyning “Astronomiya traktata”, Firdavsiyning “Shohnoma”, Sa‘diyning “Guliston”, Jomiyning “Silsilat uz zahob”, Nizomiyning “Xamsa” qo‘lyozmalari ko‘chirilib, ularga tasvirlar ishlandi. Mirzo Ulug‘bek bilan bir davrda, Amir Temur davlatining ikkinchi qismi Xurosonni Ulug‘bekning otasi Shohrux Mirzo (1409-1447) boshqarardi. Xuroson davlatining poytaxti Hirot adabiyot, tasviriy san‘at va madaniyatning yirik markaziga aylangan edi. Uning o‘g‘li va vaziri Boysung‘ur Mirzo zamonasining ko‘zga ko‘ringan yetuk xattoti edi. Boysung‘ur Mirzo Hirotida qirq nafardan ortiq kitob ustalari, xattot, naqqosh, musavvirlardan iborat katta kutubxona o‘z davrining eng ilm markazini tashkil qildi. Bu kutubxonada nasta‘liq xatining ixtirochisi Mavlono Jafar Tabriziy, yirik olim va shoir Shohiy Sabzavoriy, musiqachi Amir Shohiy, xattot, musavvir mavlono Muhammad Pahlaviy, xattot Mavlono Shame Boysunkuriy, nakkosh Bobojon Turbatiy, naqqosh, musavvir Ibrohim Astrabodiy, Ibrohim Tabriziy, Mavlono Zahiriddin Azhar Tabriziy, xattot Nur Kamol, Abdulxay kotib Xirotiy kabi xattot, musavvirlar ko‘plab qo‘lyozma kitoblaridan nusxa olib, ularni badiiy bezab san‘at darajasiga ko‘tardilar [4. – B.].

Dastavval xattot matnni qog‘ozga yozishda maxsus qog‘ozkarton (mistar) ustiga ip tortib uning izini matn yoziladigan qog‘ozga tushirib olgandan so‘ng xat yozilgan. Matnni joylashtirilishi xattotning mahoratiga bog‘liq bo‘lgan. Bitilgan matnni lavvoh hoshiya qog‘ozga yelimlagan. Ustidan jadvalkash ayni yopishtirilgan joydan turli ranglarda chiziqlar tortib, matnni jadvalga olgan. So‘ngra muzahhib suyultirilgan oltin va boshqa turli ranglar yordamida

qo'lyozmani ziynatlagan va "shams", "lavha", "sarlavha", "zarvaraq" "xotima" naqshlar bilan bezagan. Bo'sh qoldirilgan joylarga musavvir rasm (miniatyura) ishlagan. Musavvir, naqqosh nafis qamish qalam bilan rasmning asosiy tarhini, shakllar chizig'ini, zaminni, detallarni chizib, so'ng turli rangda (oltin, kumush ishlatgan holda) bo'yagan. Muqovachi qo'lyozmani karton yoki charmdan ishlangan (naqsh zarb qilingan, bo'yoqlar, oltin bilan bo'yalgan) muqovaga biriktirgan, muqova qopqog'i yog'ochdan ba'zan kumushdan quyib tayyorlangan hamda bosma, o'yma va qadama naqshlar, yorqin rasmlar bilan bezatilgan. O'rta asrlar (VIII – XII asrlar)da mutafakkirlar, olimlar asarlari, asosan, arab tilida (Xorazmiyning "Kitobi surat al-arz" — "Yer tasviri kitobi", 1036; Beruniyning "Osor ulboqiya" — "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", XIV asr va boshqalar), keyinchalik (X – IX asrlar) fors tilida bitilgan va rasmlar bilan bezatilgan. Temuriylar davri (1370–1506)dan boshlab turkiy-o'zbek tilida kitoblar yaratilishiga alohida e'tibor berilgan. Saroy kutubxonalari va nufuzli shaxslar uchun tayyorlangan qo'lyozmalar kitobat san'atining yuksak namunasi darajasida yaratilgan. Mumtoz Sharq adabiyoti namoyandalari (Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, Bedil, Alisher Navoiy va boshqalar) asarlari, buyuk allomalar (Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va boshqalar)ning ilmiy asarlari qo'lyozmalari shu usulda tayyorlangan kitobat san'atining nodir durdonalaridir. Ularning aksariyati O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Jumladan, shoir Nodira buyurtmasiga binoan xattot Muhammad Yusuf Dabir tomonidan XIX asrda Qo'qonda ko'chirilgan Alisher Navoiyning she'rlar to'plami — "Devoni Alisher Navoiy" qo'lyozma kitobi ishlangan bezaklariga ko'ra, dunyoda Kitobat san'atida yagona nusxadir. Unda musavvir va xattot Navoiy asarlari insoniyatga Quyoshdek nur sochib turishini ramziy tasvirlagan naqshlar mavjud. Kitobat san'ati XX asrgacha davom etgan. XX asr 70–80-yillarida bir guruh olimlar (jumladan, A. Madraimov, Sh. Salimov va boshqalar) sa'y-harakatlari, ijodiy izlanishlari natijasida an'anaviy qo'lyozma kitob yaratish san'ati — kitobat san'ati qayta tiklandi.

Xulosa. Bu maqolada kitobat san'atining ahamiyati va tarixi keng tarixiy ma'lumotlar asosida yoritildi. Xulosa qilib aytganda, ushbu soha yurtimiz tarixini, xususan rassomchilik, miniatyura, amaliy san'ati tarixini o'rganishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu haqida ushbu maqolada ilmiy-tarixiy manbalarga tayanib tarixiy izchillik bilan yozildi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kitobat_san'ati
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1- жилд. – Т.: ЎзМЭ, 2000.
3. Сабилов М.М. Китобат санъати. Ўқув қўлланма. – Т.: Info Capital Group, 2018.
4. Мўминов Х.М. Ўзбекистон маданияти ва санъати тарихи (IX — XIX асрнинг иккинчи ярми). Ўқув қўлланма. – Т.: Nurafshon business, 2019.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES**Received:** 10 October 2024**Accepted:** 15 October 2024**Published:** 25 October 2024*Article / Original Paper***IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGY OF COMPREHENSIVE ACCOUNTING OF PRODUCTION AT PROCESSING ENTERPRISES****Abdullayev Altinbek Yangibayevich,**TSAU, Professor of the “Accounting, analysis and audit” department,
doctor of economic sciences, associate professor**Masharipov Ozod,**TSAU, Acting professor of the «Accounting, analysis and audit» department,
candidate of economic sciences, associate professor

Abstract. The article develops the directions for improving the methodology of integrated accounting of products at processing enterprises. The purpose of the study is to develop a concept related to theoretical, methodological rules and tools for integrated accounting of products at processing enterprises. The article analyzes retrospective indicators of flour and feed products at processing enterprises, describes the technology of interaction of production factors in the production function. The general relationship and degree of influence of such factors as costs and the main production fund on the volume of flour and feed products is proved by the Cobb-Douglas function. The study considers the costs spent on the joint production of flour and premium feed products, as well as the average and high efficiency of the main production fund, the level of provision with the necessary resources, the decision-making mechanism associated with assessing the efficiency of joint production of flour and feed, flour and feed at the enterprise, a forecast for the production of flour and dry feed for 2030 of joint production of products.

Key words: pererabatyvayushchie predpriyatiya, kompleksnyi uchet proizvodstva, muka i kombikorma, Kobb-Douglassa function, prinyatie resheniy, povyshenie effektivnosti proizvodstva, poisk vnutrennih rezervov snijeniya ztrat.

Natijalar va muhokama. Qiyoslanayotgan tillarda mavjud yong'in xavfsizligi terminlari tahlil etilganda, asosan mutaxassis kadrlar tayyorlash rus tili yordamida olib borilayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilinganida tadqiqotlar ham asosan rus tilidagi manbalardan foydalanib kelinayotganligi, rivojlangan davlatlarning ingliz tilidagi ilmiy uslubiy ishlaridan kam foydalanishlari va texnika fanlarida o'ziga xos murakkab terminlar ishlatilishi, ularning bugungi kunda ingliz-o'zbek tillaridagi lug'atlari mavjud emasligi ma'lum bo'ldi. Soha yo'nalishida texnik terminlar tarjimasiga bag'ishlangan lug'at yoki adabiyotlar mavjud bo'lmaganligi bois internetda mavjud tarjimonlar, “Google” tarjimoni yordamida so'z yoki gaplar tarjima qilib kelinadi. Misol uchun ayrim so'zlar ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinganida sohada qabul qilingan so'zlarni emas balki boshqa so'zlarni bermoqda. Misol tariqasida, — “Fire” so'zini online lug'at “olov” degan tarjimasini beradi, lekin soha xodimlari ushbu so'zni “yong'in yoki alanga” deb qabul qilgan yoki “source of fire” so'z birikmasini oladigan bo'lsak google tarjimon “olov manbai” degan tarjimini beradi lekin ushbu soha vakillari tomonidan ushbu so'z o'rniga yondirish manbai degan atamani ishlatish qabul qilingan.

Ommaviy axborot vositalarida berilgan ochiq manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimi xorijiy davlatlar bilan yaqindan hamkorlik aloqalarini

o'rnatganligi to'g'risidagi ma'lumotlar kam emas, bu holda maxsus terminologiyani bilish va to'g'ri qo'llash talablarning asosiy va ajralmas qismlardan hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlar haqida gap ketganda shuni tilga olish joizki, terminologiya sohasida professional terminologiya maxsus bilimlarni uzatish va qabul qilish vositasi sifatida asosiy o'rinda turadi. Shu sababli, ingliz tilidagi yong'in xavfsizligiga oid terminologiyani tahlil qilish joiz deb ko'rildi.

Ingliz tilidagi yong'in xavfsizligi terminologiyasi, shakllanish usuliga ko'ra quyidagi turlarga ajralishi mumkin:

1. Birikmalar – ikki yoki undan ortiq so'z yoki atamalarni (yoki ularni asoslarini) bitta yangi atamaga birlashtirish orqali yangi so'z shakllanadi. Misol uchun: smoke-free (tutunsiz) – smoke (ot)+ free (sifat), **fireground** (yong'in joyi) – yong'in(ot) + ground (ot), **downgrade** (pasaytirish) – down (ravish)+grade (ot);

2. Konversiya – mavjud bo'lgan so'z yoki atamaning boshqa so'z turkumiga oid yangi so'z orqali yangi termin shakllanadi. Misol uchun: fire(fe'l)- yong'in chiqmoq – fire (ot) – yong'in yoki alanga, burn (fe'l) – kuymoq – burn (ot) – kuyish, flash (fe'l) — chaqnamoq – flash (ot) – chaqnamoq;

3. Suffiksatsiya – so'z o'zagiga qo'shimcha qo'shish orqali yangi so'z hosil qilish. Misol uchun: **extinguisher** (birlamchi yong'in o'chirish vositasi) – fe'ldan ot hosil bo'ldi, **flammable** (yonuvchan) – otdan sifat hosil bo'ldi, **wreckage** (vayrona) – fe'ldan ot hosil bo'ldi;

4. Affiksatsiya –so'z o'zagiga lotin va grek tillaridan olingan prefix va suffikslarni qo'shish orqali yangi bir so'zli atamalar yaratish. Misol uchun: **safety**(xavfsizlik), **readiness** (tayyorgarlik) – holat va sifat qo'shimchalari (-ty, -ness), **measure** (o'lchov), **pressure** (bosim) – ilmiy tushuncha qo'shimchalari (-ure, -sure);

5. Prefiksatsiya – so'zga prefikslar qo'shish orqali, bunda prefikslar so'z o'zagiga emas balki butun so'zga qo'shiladi. Misol uchun: charge (zaryadlamok) – **discharge** (to'kib tashlamok), caution (ehtiyot) -**precaution** (ehtiyot chorasi);

6. Qisqartmalar – qisqartmalar orqali yozma nutqdagi ba'zi murakkab formadagi alohida elementlar tushuniladi. Misol uchun: **ES — Emergency Situation** (Favqulodda vaziyat), **PFE — Powder Fire Extinguisher** – **kukunli o't o'chirgich** va h.k.;

7. Terminologik so'z yasalishi – predlog yordamida bir-biriga bog'langan ikki yoki undan ortiq so'zlarning semantik integral birikmalari.


a) **Adj+N** (Sifat+ot): **danger period** —yong'inga xavfli davr, **gas attack** —gazlar yordamida yong'inni o'chirish, **safe access** — xavfsiz kirish.

b) **Adj+ N+N** (sifat+ot+ot): **fabric fuel tank** —matoli yoqilg'i sig'imi, **radiant energy source** — nurli energiya manbai.

c) **Adj+Adj+N** (Sifat+sifat+ot): **halogenated extinguishing agent** — galogenli yong'in o'chirish vositasi, **early warning detector** — yong'in xabarlagichi.

d) **N+N** (ot+ ot): **danger of smoke** — tutun xavfi, **fire conditions** — yong'in sharoiti, **fire loss** — yong'in oqibatidagi zarar.

e) **N+N+N** (ot + ot + ot): **halon fire extinguisher** —uglikislotali o't o'chirgich, **fire prevention regime** – yong'inga qarshi himoya texnik uskunalari.



1-rasm. Yong'in xavfsizligiga oid atamalarning so'z yasaliush usullari

Tadqiqotda shu narsa aniqlandiki, o'rganilayotgan terminologiyada xorijiy tillardan olingan ko'pgina so'zlar mavjud. Bu albatta ijobiy chunki xorijiy so'zlardan foydalanish orqali nafaqat so'z boyligi ortadi balki yangi elementlar ham paydo bo'ladi, ya'ni asl terminologiya to'ldiriladi va aniqlashtiriladi. Ba'zi misollarni ko'rib chiqishimiz mumkin, **alarm** (tashvish signali)— italyancha *allarme* "Qurolga!"; **to isolate** (izolyatsiya qilish) — italyancha *isolato* "alohida qilish"; **disaster** (falokat) — italyancha *disastro* "baxtsiz yulduz ostida"; **halogen** (galogen) — grekcha *hals* "tuz" va *genes* "tug'ilgan" **cord** (qutqaruv arqoni) grekcha *khorde* "arqon"; **energy** (kuch, energiya) — grekcha *energeia* "energiya" kabi so'zlar boshqa tillardan ingliz tiliga kirib kelib, yangi ma'nolar yaralgan. 1-rasmda yong'in xavfsizligiga oid so'z yasaliush usullarini foizlarda ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Olingan tadqiqot natijalaridan xulosa qilishimiz mumkinki, yong'in xavfsizligi sohasidagi yangi atamalarni hosil qilishning eng asosiy usuli bu terminologik so'z birikmalardir. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ingliz tilida yong'in-texnika fanining terminologiyasini shakllantirish ushbu ilmiy sohaning mustaqil maqomi rasman tan olinishidan ancha oldin boshlangan. Uzoq davrlar mobaynida, leksikografik ma'lumotlarga ko'ra yong'in fanining lug'ati amaliy xarakterni ko'rsatdi. Bu shuni ko'rsatadiki, ushbu soha vakillari nafaqat obyektini aniqlashni xohlaydilar balki atamaning ma'nosini to'liq yetkazish xususiyatlarini o'ziga xosligini ham inobatga olgan holda tushunishni ma'qul ko'radilar. Chet tillarini o'qishda turli xil lug'atlardan foydalanmaslikni iloji yo'q. So'zlarni o'rganish samarali bo'lishi uchun asosiy mazmunga e'tibor qaratish muhim. Eng avvalo, bitta so'zning har xil kontekstdagi izohli ma'nolarini o'rganish zarur. Shu orqali o'rganayotgan odam o'rganilayotgan narsa haqida to'liq tushunchaga ega bo'ladi. Shu bilan birga, qo'shimcha konstruktorlar (modal fe'llari) dan foydalanish ham atamaning to'g'ri ishlatilishini ko'rsatadi, ham so'z boyligini kengayishiga ham o'z hissasini qo'shadi. Hozirgi vaqtda yong'in xavfsizligi sohasiga oid inglizcha atamalar yetarlicha o'rganilmagan. Bu soha vakillari ingliz-o'zbek, o'zbek-ingliz lug'atlariga ehtiyojlari borligini, yong'in xavfsizligi sohasiga oid hujjatlarda xatolar va nomuvofiqliklarga tez-tez duch kelish mumkinligini hisobga olgan holda bu soha kadrlariga elektron lug'at zarur deb xulosa qilish mumkin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Реформатский А. А. Введение в языкознание. Изд. 5-е, испр. М.: Аспект Пресс, 2014. 536 стр. ISBN 9785-7567-0377-1. (Introduction to linguistics)
2. Jumayeva S. Xolliyev I. Raxmatova O. "English-Uzbek dictionary" Tashkent 2019, 5-91 betlar (English-Uzbek dictionary)
3. Teresa Cabre Castellvi "Terminology" Philadelphia John Benjamins publishing company 2003, p 8-9
4. Robert Dubuc "Terminology: A Practical Approach" Liguattech, 1997, p 65-70
5. А.Ю.Шувалова "Классификация англоязычных терминов пожарной безопасности" Омский научный вестник. Серия "Общество История. Современность" № 4. 2017 19-21стр (Classification of English fire safety terms)
6. Зюкова Анна Станиславовна "Некоторые особенности перевода пожарно-технических терминов", Universum, 2021 32-33стр (Some peculiarities of fire-technical terms translation)

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

DIRECTIONS AND TERMINOLOGY OF MODERN DICTIONARY

Sulaymanov Bobir,

Associate Professor at Karshi University of Economics and Pedagogy

Abstract. This article talks about the rise of the field of lexicography to a new level in world linguistics, its new directions, as well as new types of dictionaries, their names and terminology. The purpose of the newly appeared dictionaries, their similarities and differences are analyzed.

Keywords: lexicography, dictionary, typology of dictionaries, academic dictionary, encyclopedic dictionary, printed dictionaries, electronic dictionaries, copyright dictionaries.

ZAMONAVIY LUG'ATSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA TERMINOLOGIYASI

Sulaymonov Bobir,

Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon tilshunosligida leksikografiya sohasining yangi bosqiga ko'tarilishi, uning yangi yo'nalishlari, shuningdek yangi lug'at turlari, ularning nomlanishi, terminologiyasi xususida so'z boradi. Yangi paydo bo'lgan lug'atlarning maqsadi, ularning o'xshash va farqli tomonlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: leksikografiya, lug'at, lug'at tipologiyasi, akademik lug'at, ensiklopedik lug'at, bosma lug'atlar, elektron lug'atlar, mualliflik lug'atlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N13>

Kirish. Biror milliy tilda, biror xalqning lug'at xazinasida yangi lug'atning paydo bo'lishi shu millatning turmush tarzi taraqqiy etgani, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlardan darak beradi. Negaki tilda yangi bir lug'atga zarurat tug'ilgani mamlakatda unga ehtiyojni yuzaga keltirgan sohalar taraqqiy etganidan darak beradi. Demak, nazariy leksikografiyaning taraqqiy etishi, o'z-o'zidan, amaliy leksikografiya taraqqiyoti – tilda lug'at turlarining ko'payishi, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, jamiyat, millat, madaniyatlar taraqqiyotidan darak beradi.

Zamonaviy leksikografiyada lug'atchilik terminotizimida hozirgacha uchramagan yangi-yangi terminlar paydo bo'ldi. Masalan, "Leksikografiya haqida lug'at"ida leksikografiyaning ayni paytda mavjud quyidagi yo'nalishlari sanab o'tiladi: *mualliflik leksikografiyasi, ikki tilli leksikografiya, biografik leksikografiya, kompyuter leksikografiyasi, kiber leksikografiya, metaleksikografiya, madaniy leksikografiya, dialektal leksikografiya, ensiklopedik leksikografiya, etimologik leksikografiya, chastotali leksikografiya, tarixiy leksikografiya, huquqiy leksikografiya, maxsus (zaruriy) lug'atlar leksikografiyasi, tibbiy leksikografiya, bir tilli leksikografiya, ko'p tilli leksikografiya, musiqiy leksikografiya, onomasiologik leksikografiya, onomastik leksikografiya, pedagogik leksikografiya, davriy leksikografiya, mintaqaviy*

leksikografiya, qofiya leksikografiyasi, slenglar leksikografiyasi, maxsus leksikografiya, texnik leksikografiya, terminologik leksikografiya, maxsus matnlar leksikografiyasi, tezaurus leksikografiya, amaliy (lug'atdan amalda foydalanish) leksikografiya, qiyosiy leksikografiya, umumiy leksikografiya, retseptiv leksikografiya [3.85-86].

Asosiy qism. Ko'rinib turibdiki, lug'at turlarining ko'payib borishi ularni muayyan guruhlariga birlashtirish, umumiy va farqli jihatlarini ajratish, tasnif asosini belgilash jarayonlarini murakkablashtirmoqda. Lug'atlar tipologiyasidan o'rin oladigan har bir lug'at o'z ta'rifi, tavsifiga ega bo'lishi kerak. Ta'rif, albatta, lug'atning turi, maqsadi, hajmi bilan ga bog'liq bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, leksikograflardan mazkur lug'atlarni ilmiy tasniflash – lug'atlar tipologiyasini qayta-qayta ko'rib chiqish, bir-biriga juda yaqin bo'lgan turdosh lug'atlarga izoh berish, bir-biridan farqlab berish, xarakterlashni talab etmoqda.

L.V.Shcherba nafaqat rus tili balki ingliz, fransuz, nemis, lotin va boshqa tillarda tuzilgan lug'atlar misolida dastlab lug'atlarning bir-biriga zid qo'yiladigan oltita turini ajratgan edi: “1. Birinchi qarama-qarshilik: akademik lug'at – lug'at-ma'lumotnoma; 2. Ikkinchi qarama-qarshilik: ensiklopedik lug'at – umumiy lug'at; 3. Uchinchi qarama-qarshilik: *thesaurus* – oddiy izohli yoki tarjima lug'at; 4. To'rtinchi qarama-qarshilik: oddiy (izohli yoki tarjima) lug'at – ideologik lug'at; 5. Beshinchi qarama-qarshilik: izohli lug'at – tarjima lug'ati; 6. Oltinchi qarama-qarshilik: tarixiy bo'lmagan lug'at – tarixiy lug'at” [5]. Ko'rinib turibdiki, L.V.Shcherbaning klassik tipologiyasi asosida ham aynan turdosh lug'atlarni bir-biriga zid qo'yish orqali birini ikkinchisidan ajratib olish masalasi yotgan. Ya'ni L.V.Shcherba muayyan lug'at turini ajratishda asosiy lug'at va u bilan qarama-qarshi qo'yiladigan turdosh lug'atga tayanish lozim ekaniga ta'kid beradi.

Ma'lumki, akademik lug'at me'yoriy lug'at hisoblanib, muayyan bir tilning leksik sathini joriy me'yorlariga zid bo'lmagan tarzda tavsiflaydi. Ma'lumotnoma lug'atlar esa akademik lug'atdan farqlanib, adabiy tilning joriy me'yorlaridan chetga chiqadigan birliklarni ham qamrab oladi. Ya'ni uning so'zligi hozirgi adabiy me'yor bilan chegaralanmaydi. Ensiklopedik lug'atlar narsa, hodisani, umumiy lingvistik lug'atlar esa so'z va uning ma'nolarini tavsiflashi bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Tezaurus muayyan tildagi barcha so'zlar, hatto bir marta bo'lsa-da uchraydigan so'zlarni qamrab olsa, oddiy izohli yoki tarjima lug'atlar ideologik xarakterga ega bo'ladi, unda so'z va tushunchalar jonli tilda qo'llanishiga ko'ra tavsiflanadi va hk.

Demak, muayyan tilda mavjud lug'at turlarini ajratish, lug'atlar tipologiyasini amalga oshirishdagi eng katta muammolardan biri turdosh, o'xshash lug'atlarning o'ziga xos tomonlarini xarakterlash, alohidaligini asoslashdir.

To'g'ri, L.V.Shcherbaning mazkur tasnifidan so'ng leksikografiyada qator tipologiyalar amalga oshirildi, bu borada leksikografik maktablar yuzaga keldi. Biroq, shuni aytib o'tish lozimki, muammo maqsadi, so'zlikning taqdim etilish usuli yoki hajmiga ko'ra lug'at turlarini ajratishda emas. Masalan, 1981-yilda nashr etilgan “O'zbek tili leksikologiyasi” kitobida lug'atlar uch jihati: hajm, so'zlikning berilish usuli, maqsad nuqtai nazaridan tasnif qilingan va ushbu davrda mavjud lug'atlarga tayanib har bir guruh quyidagi ichki guruhlariga bo'lingan: “I. Hajmiga ko'ra: 1. Umumiy lug'atlar – katta lug'at; o'rtacha lug'at; kichik lug'at. 2. Maxsus lug'atlar – leksik qatamlar lug'ati; leksik tanlangan lug'at; terminologik lug'at. II. So'zlikning berilish usuliga ko'ra: 1. Alfavit tartibli lug'atlar. 2. Mavzuviy lug'atlar. 3. Uyali lug'atlar. III. Maqsadiga ko'ra: tarjima lug'atlari, izohli lug'atlar, tarixiy lug'atlar, etimologik lug'atlar,

dialektologik lugʻatlar, qiyosiy lugʻatlar, ters lugʻatlar, orfografik (imlo) lugʻatlar, orfoepik lugʻatlar, morfem lugʻatlar, chastotali lugʻatlar” [6.291-304].

XX asr oxirlariga oʻzbek tilida mavjud lugʻatlar, asosan, shu tasnif doirasida boʻlib, kitob mualliflari hajmiga koʻra tasnifni amalga oshirishda katta lugʻat oʻzbek tilida yaratilmaganini taʼkidlaydilar. Jahon leksikografiyasida boʻlgani kabi oʻzbek tilida ham ayni paytga qadar lugʻatchilik, jumladan, amaliy leksikologiya bosqichma-bosqich takomillashdi va bu, oʻz navbatida, lugʻatlar tipologiyasida ham sezilarli oʻzgarishlarni yuzaga keltirdi. Soha boʻyicha keyingi davrlarda olib borilgan tadqiqotlar, darslik va qoʻllanmalarda oʻzbek tiliga mansub lugʻatlarning tasnifi ham murakkablashib bordi.

Lugʻatlarning ilmiy tasnifi – tipologiyasi uning barcha ichki turlarini oʻzida toʻla qamrab olgandagina haqiqiy va mukammal boʻladi. Muayyan bir lugʻat lugʻatlar tipologiyasidan joy olishi uchun, asosan, ikki mezonga toʻgʻri kelishi kerak:

1. Tipologiya qaysi til materiallari boʻyicha amalga oshirilayotgan boʻlsa, shu tilda mazkur lugʻatning mavjudligi, tuzilgan boʻlishi.

2. Alohida tur sifatida ajratilgan lugʻatga qarama-qarshi qoʻyiladigan lugʻatning borligi.

Bugungi kunda oʻzbek tilida ham bir turdagi lugʻatlarning turli koʻrinishlarini uchratish mumkin. Masalan, tilning turli leksik paradigmalar – sinonimlar, graduonimlar, antonimlar, omonimlar, paronimlar, gipo-giperonimlar, partonimlar, uyadosh soʻzlar va boshqa tizimlari izohiga bagʻishlangan semonim lugʻatlarning oʻzbek tilida bir necha koʻrinishlari tuzilgan. Demak, oʻzbek leksikografiyasida semonimik lugʻatlar tipologiyasini amalga oshirish imkoni mavjud. Hatto ularning bitta turi, masalan, sinonim lugʻatlarning ayni paytda bir necha koʻrinishlari nashr etilgan boʻlib, ularni ham qaysidir jihatlariga koʻra bir-biridan farqlanuvchi, oʻzaro zid turuvchi turlarini ajratish mumkin. Bu esa ayni paytda oʻzbek leksikografiyasida sinonimlar boʻyicha tuzilgan lugʻatlarni tasniflash imkonini beradi:

№	Lugʻat turlari	Namunasi
I. Fundamental lugʻatlar:		
1.	Akademik lugʻat	Hojiyev A. Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1974. – 307 b.
2.	Katta lugʻat	Oʻzbek tili sinonimlarining katta lugʻati. 2 jildli. N.Mahmudov tahriri ostida. –T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi, 2022. 1-jild – 504 b; 2-jild – 488 b.
II. Ikki tilli lugʻatlar:		
1.	Oʻzbekcha-ruscha sinonimlar lugʻati	Ходжиев А.П., Ким С.Л. Узбекско-русский синонимический словарь. –Ташкент: Фан, 1990.
III. Oʻquv lugʻatlar:		
1.	Bosma lugʻatlar	Shukurov O., Boymatova B. Oʻzbek tilining maʼnodosh soʻzlar oʻquv lugʻati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 53 b.
2.	Elektron lugʻatlar	Oʻzbek tilidagi sinonim soʻzlarning qisqacha izohli lugʻati // http://www.androidbooks.uz/product/ ; Mirxanova G. Oʻzbek tilining sinonim soʻzlar oʻquv lugʻati // http://bdti-al.uz/?p=993

IV. Mualliflik lugʻatlari:			
1.	Z.M.Bobur	asarlari bo'yicha lugʻatlar	Olomov M. Boburnomada qoʻllangan sinonimlar lugʻati. – Toshkent: Fan, 2004. –110 s.

Agar ingliz, rus yoki boshqa til materiallari asosida sinonim lugʻat tiplari ajratilsa, ya'ni sinonim lugʻatlar tipologiyasi xususida soʻz bors, tasnif asosi yanada murakkablashadi. Albatta, bu shu tilda mavjud lugʻat koʻrinishlari bilan bogʻliq. Masalan, rus tilida tuzilgan va bizga maʼlum boʻlgan sinonim lugʻatlarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

I. Fundamental lugʻatlar:

1. Katta (izohli) sinonim lugʻatlar.
2. Akademik sinonim lugʻatlar.

II. Ikki tilli lugʻatlar:

1. Inglizcha-ruscha sinonim lugʻatlar.
2. Inglizcha-ruscha va ruscha-inglizcha sinonim lugʻatlar.

III. Oʻquv lugʻatlar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun moʻljallangan sinonim lugʻatlar:

- 1) "Mening birinchi lugʻatim" seriyasiga mansub sinonim lugʻatlar;
- 2) illyustrativ lugʻatlar;
- 3) boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun sinonim lugʻatlar;

2. Yuqori sinf oʻquvchilari uchun moʻljallangan sinonim lugʻatlar:

- 1) maktab lugʻatlari;
- 2) kichik sinonim lugʻatlar;
- 3) choʻntak lugʻatlar;
- 4) lugʻat-treninglar;
- 5) lugʻat minimumlar;
- 6) grammatik lugʻatlar.

3. Oliy oʻquv yurti talabalari uchun moʻljallangan sinonim lugʻatlar:

- 1) assotsiativ lugʻatlar;
- 2) dialektal lugʻatlar;
- 3) lugʻat-maʼlumotnomalar (amaliy lugʻatlar, spravochniy lugʻatlar);
- 4) qofiya lugʻati;
- 5) terminologik lugʻatlar;

IV. Mualliflik lugʻatlari:

1. A.P.Chexov asarlari boʻyicha tuzilgan sinonim lugʻatlar.
2. A.S.Pushkin asarlari boʻyicha tuzilgan sinonim lugʻatlar.

V. Turgʻun birikmalar lugʻati:

1. Rus tili materiallari asosida tuzilgan sinonim lugʻatlar.
2. Oʻzga til materiallari asosida tuzilgan sinonim lugʻatlar.

VI. Mavzuviy (ideografik) sinonim lugʻatlar:

1. Тезауруслар.

VII. Nutq madaniyatiga doir sinonim lugʻatlar:

1. Toʻgʻri gapirishga oʻrgatishga moʻljallangan sinonim lugʻatlar.

2. Soʻzni toʻgʻri qoʻllashga oʻrgatishga moʻljallangan sinonim lugʻatlar.

VIII. Yangi avlod sinonim lugʻatlar:

1. Izohli lugʻatlar.
2. Maktab lugʻatlari.
3. Zamonaviy lugʻatlar.

IX. Elektron sinonim lugʻatlar:

1. Onlayn tartibli sinonim lugʻatlar.
2. Sinsetlar.

X. Ensiklopedik lugʻatlar:

1. Maxsus lugʻatlar.

Bu tasnifni yana davom ettirish mumkin. V.A.Kozirev va V.D.Chernyaklarning “Кто есть кто в русской лексикографии” [4] deb nomlangan kitobida rus tilida 1818-yildan, aniqrogʻi, P.F.Kalaydovich lugʻatidan toʻ ushbu kitob nashr etilgan 2016-yilga qadar tuzilgan soʻzligi bevosita yoki bilvosita sinonim birliklar boʻlgan 100ga yaqin lugʻat nomi keltiriladi. Namuna sifatida ularning ayrimlarinigina tasnifda keltirdik. Tilda soʻzligi bevosita sinonim boʻlgan lugʻatlar qancha koʻp boʻlsa, ularni tasniflash, tiplarini ajratish shuncha murakkablashaveradi. Yuqoridagi tasnifni mukammal deb ayta olmaymiz, ayrim oʻrinlarda noaniqliklar mavjud. Masalan, frazeologik sinonimlar lugʻati bir paytda oʻquv yoki akademik lugʻat ham boʻlishi mumkin. Shu nuqtai nazardan u bir necha oʻrin – frazeologik lugʻatlar sirasidan ham, oʻquv lugʻatlari sirasidan ham, akademik lugʻatlar sirasidan ham joy ola oladi. Yoki “yangi” (“НОВЫЙ”) belgisi bilan nashr etilayotgan lugʻatlar akademik lugʻat ham, oʻquv lugʻati ham boʻlishi mumkin.

Birgina oʻquv lugʻatining maktabgacha yoshdagi bolalar, boshlangʻich sinf oʻquvchilari, yuqori sinf oʻquvchilari, oliy oʻquv yurti talabalari uchun moʻljallangan turlari mavjud boʻlib, har biri oʻz ichida yana bir-biridan farqlanuvchi bir necha turli lugʻatlarni qamrab oladi. Masalan, yuqori sinf oʻquvchilari va oliy taʼlim uchun tuziladigan sinonim lugʻatlarning kichik lugʻat, choʻntak lugʻati, illyustrativ lugʻat, lugʻat-trening, lugʻat minimum, grammatik lugʻat, assotsiativ lugʻat, dialektal lugʻat, lugʻat-maʼlumotnoma, qofiya lugʻati, terminologik lugʻat kabi seriyalarining mavjudligi ularni tasniflash, toʻplamlarini ajratishda chigallikni keltirib chiqaradi. Umuman, bu tasnif asosiga qay nuqtai nazardan yondashish, qaysi jihatga ustunlik berishga bogʻliq. Shu bois mutaxassislar zamonaviy leksikografiyada lugʻatlar tipologiyasi xususida barcha lugʻat turlarini qamrab oladigan umumiy leksikografik nazariya mavjud emas zamonaviy leksikografiyada “lugʻatlar tipologiyasi boʻyicha mukammal, umumiy nazariya yoʻq”, degan fikr ilgari suriladi.

Tasnifda keltirilgan lugʻatlarning barchasi uchun obyekt – sinonim birliklar: **leksik sinonimlar, frazeologik sinonimlar, morfologik sinonimlar, sintaktik sinonimlar, sinonimik paradigmalar** va hk. Tasnif asosi ham shu, ularni korpus, lugʻat soʻzligining sinonimlardan tuzilgani bogʻlab turibdi. Biroq mazkur lugʻatlar bir necha jihatiga koʻra bir-biridan farqlanishi lozim. Masalan, “Sinonimlar oʻquv lugʻati” “Oʻzbek tili sinonimlarining katta lugʻati”ning shunchaki qisqartirilgan shakli emas. B.Baxriddinovaning taʼkidlashicha, “Lugʻatchilik tarixida koʻpgina oʻquv lugʻatlarining shu nomdagi katta lugʻatlar negizida yaratilgani ham kuzatiladi. Masalan, akademik izohli lugʻat – oʻquv izohli lugʻat, ideografik lugʻat – mavzuviy oʻquv lugʻat, katta sinonimlar lugʻati – sinonimlar oʻquv lugʻati kabi. Oʻzbek tilida yaratilgan maktab lugʻatlarining aksariyatida shu tipda yaratilgan katta lugʻatlarni takrorlaydi. Biroq oʻquv lugʻati shu tipdagi katta lugʻatni shunchaki qisqartirish yoʻli bilan yaratilmaydi, u

o'quvchining mavjud maktab darsliklari, o'quv qo'llanmalari va boshqa materiallardagi ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirishiga ko'mak beradigan tushunchalar asosida tuziladi" [1.33]. U bu fikriga V.G.Gakning "o'quv lug'ati shu tipdagi katta lug'atning shunchaki kichraytirilgan nusxasi bo'lmasligi kerak. O'z tabiatiga ko'ra o'quv lug'ati (darslik, qo'llanmadan farqli o'laroq) tilni u yoki bu darajada biladigan foydalanuvchi uchun shunday bir maxsus o'quv vositasi bo'lishi kerakki, u maksimal darajada o'quv maqsadini qoniqtira olishi kerak, ammo shu tipdagi katta lug'atni takrorlamasligi lozim, ya'ni uning o'rnini bosishi shart emas, aks holda u o'ziga xosligini yo'qotadi" [2.39-42] degan fikrini asos sifatida keltiradi.

Ana shu farq, avvalo, lug'at mikroqurilmasi – lug'at maqolada aks etadi. Lug'at maqola turdosh lug'atlarni farqlashda asosiy rol o'ynaydi. Bu esa zamonaviy leksikografiyada lug'atning asosini tashkil etuvchi lug'at maqola tadqiqiga e'tiborni oshishi, unga turli lingvistik paradigmalarda prizmasida – lingvistik janr nuqtai nazaridan, matn nuqtai nazaridan, leksemaning lug'aviy-semantik obrazi, badiiy adabiyot va boshqa nuqtai nazarlardan yondashuvlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Xulosa. Metaleksikografiyaning alohida ajratilishi zamonaviy leksikografiyada amaliy leksikografiya nufuzining tushib ketishi, lug'atlarga tijorat mahsuli, daromad manbai sifatida qarash oqibatida sifatsiz bozorboq lug'atlarning nashr etilishi bilan asoslanadi.

Mavjud lug'atlarni elektronlashtirish, turli elektron qurilmalarda ishlaydigan onlayn va oflayn tartibli lug'atlar taraqqiyoti leksikografiyaning yangi tarmog'i kompyuter leksikografiyasi, elektron lug'atchilik, internet leksikografiyasi kabi turli nomlar bilan yuritilayotgan kiberleksikografiyaning paydo bo'lishiga olib keldi. Bugungi kunda internet formatdagi lug'atlarning hatto bir turi, muayyan toifagagina mansublaridan foydalanishda tanlash imkoni juda yuqori. Internet leksikografiyasi yuqori darajada axborotlashganligi, qidiruv tezligi, qo'shimcha izoh, havolalarga boyligi, qolaversa, lug'at mualliflarining o'z leksikografik mahsulotini global darajada namoyish qilish, umuman, so'z haqidagi barcha ma'lumotlarni taqdim qilish imkoni yuqori ekani bilan an'anaviy bosma – qog'oz lug'atlardan tubdan farqlanadi. Bu leksikografiyada lug'at maqola tuzilishi haqidagi stereotiplar – yetakchi mezonlar, an'ana, qonun-qonuniyatlarni o'zgartirib yubordi.

Umuman olganda, lug'atga ehtiyoj tug'diradigan sohalar taraqqiyoti bilan bog'liq holda lug'at turlarining ko'payib borishi, aniqrog'i, amaliy leksikografiyaning rivoji nazariy leksikografiya oldiga yangi-yangi vazifalarni qo'ya boshladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Бахриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол.фан... доктори (DSc) дисс. – Самарқанд. 2020., –252 б.
2. Гак В. Г. Учебный словарь – краткая энциклопедия языка. "Русский язык за рубежом", 1971, № 4. С 39-42.
3. Hartmann R.R.K., James G. Dictionary of Lexicography. Routledge. – London and New York, 2002. –193 p. – P.85-86.
4. Козырев В. А., Черняк В. Д. Кто есть кто в русской лексикографии : справочная книга. – СПб. : Свое издательство, 2016. – 594 с.
5. Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии. Избранные работы. — Л., 1958. Архив Петербургской русистики // <https://www.ruthenia.ru/apr/textes/sherba/sherba9.htm>
6. Ўзбек тили лексикологияси. Муаллифлар жамоаси. Тошкент: Фан, 1981. 305 б.

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

ABOUT THE CONGRATULATORY SPEECH ACT

Fakhriddinova Difuza,

Samarkand State University named after Sharof Rashidov
1st stage foundation doctoral student

Abstract. The article analyzes the functions and main categories of the congratulatory speech act, highlighting how it differs from other speech acts like wishes, praise, and flattery. It emphasizes that congratulatory speech acts have a social dimension, where using language that conveys genuine respect is crucial for honoring the listener and fostering a connection with them.

Keywords: language richness, speech act, greeting, expressive speech act, praise, publicism, dialogue speech.

TABRIK NUTQIY AKTI HAQIDA

Faxriddinova Difuza,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada tabrik nutqi aktining vazifalari va asosiy toifalari tahlil qilinadi, uning tilaklar, maqtovlar, xushomadlar kabi boshqa nutqiy harakatlardan farqi yoritiladi. Unda tabrik nutqi harakatlarining ijtimoiy jihati borligi, bunda chinakam hurmatni bildiruvchi tildan foydalanish tinglovchini hurmat qilish va ular bilan aloqa o'rnatish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: til boyligi, nutqiy akt, tabrik, ekspressiv nutqiy akt, maqtov, publitsistika, dialogik nutq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N14>

Kirish. Ekspressiv nutqiy aktlar tizimining asosiy segmentlaridan biri tabrik hisoblanadi. U muloqot jarayonida ma'lum darajada emotsional nutqiy bog'liqlikni ta'minlaydi. Tabrik – baxt, omad, ezgulik tilash, qutlash kabi mazmundagi ifoda. Biror yaxshi (qutlug') kun, sana yoki erishilgan yutuq, yaxshilik munosabati bilan bildiriladigan qutlov so'zlar[11, 629] tabrik aktini yuzaga keltirish uchun asos bo'ladigan holatlardir.

Tabrikning asosiy kommunikativ vazifasi – bu hurmatni ifodalash, xushmuomalalik, odob akti. Kimnidir tabriklash – demak, unga e'tibor qaratish, o'zining emotsional holatini, simpatiyasini, munosabat nuqtai nazaridan suhbatdoshga bog'langanligini ifodalash, unda yaxshi kayfiyat hosil qilish, o'z hurmat-ehtimomiga shohidlik berish, o'zi haqida eslatish, xullas, adresatda emotsional tuyg'ular uyg'otish hisoblanadi. Badiiy matnlarni lingvopoetik jihatdan tadqiq etgan tilshunos M.Yo'ldoshevning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinlidir: "Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek qat'iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta'sirchanlik birinchi planga ko'tariladi. Ohangdor, jozibador so'zlar ko'p

qo'llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg'un bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi [3, 35] Badiiy matnda bu birliklarning har biri so'zlovchi kommunikativ maqsadiga bo'ysundiriladi. Ular nutqiy aktlarni yuzaga chiqaruvchi vositalar sifatida muloqot jarayonida turli ma'no nozikliklarini ifoda qiladilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tilshunos olimlar M.Bazarovning ko'rsatishicha, turkiyshunoslikda va o'zbek tilshunosligida tabrik nutqiy akti bir qator olimlar tomonidan o'rganib chiqilgan. F.Sultanov, D.Sogdibekova, K.E.Gadjieva, E.F.Shibirdin, A.A.Abdullinlarning turkiy tillarga oid tadqiqotlarida ijobiy istak birliklari nutqiy etiketlarning bir turi sifatida qayd qilingan. O'zbek tilshunosligida esa nutqiy etiketlar S.Mo'minov va Sh.Iskandarova tomonidan monografik aspektda o'rganilgan. Jumladan, Sh.Iskandarovning nomzodlik dissertatsiyasida nutqiy etiketlar sotsiologiya aspektda tekshirilgan bo'lsa, S.Mo'minovning doktorlik ishida o'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari tadqiq etilgan[1,4]. Mazkur ishlarda ijobiy istak mazmuniga ega bo'lgan nutqiy etiketlarning ham ijtimoiy-lisoniy jihatlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzuni yoritishda tavsiflash, qiyosiy, genderologik, kontekstual tahlil va kognitiv-pragmatik kabi metodlardan foydalanildi

Tahlil va natijalar. Quyida biz tabrik nutqiy aktining umumiy tavsifi qay holatlarda yaqqol ko'zga tashlanishini ko'rib chiqamiz. O'z mazmun-mohiyatiga ko'ra tabrik nutqiy akti bir qancha ijtimoiy ekspressivlarni qamrab oladi. Jumladan, u so'zlovchining adresatga (nutq qaratilgan shaxsga) ijobiy munosabatini va tabrik nutqi amalga oshishi jarayonida yuz beradigan his-tuyg'ularni o'zida aks ettiradi. Tabiiyki, tabrik yo'llovchi va adresat, kommunikativ vaziyatning mavjud bo'lishi tabrik aktining amalga oshishi uchun shart bo'lgan elementlar hisoblanadi. Ulardan birortasi mavjud bo'lmasligi, ushbu nutqiy akt yuzaga chiqmasligiga sabab bo'ladi. Mazkur nutqiy harakatdan ko'zlangan maqsad, aloqani kerakli mezonda ushlab turishni ta'minlash, adresat bilan o'zi o'rtasidagi do'stona munosabatlarni saqlab qolish va bunda o'ziga tegishli bo'lgan hissiyotlarni, emotsional holatlarni ifodalashdan iborat.

Maqtov ifodasi ham muloqot jarayonida so'zlovchining nutqi yoki matn mazmunidan kelib chiqadigan ekspressiv aktlardan biri hisoblanadi. Maqtov – maqtab aytilgan yoki yozilgan so'z, gap bo'lib, biror kishi, narsa, hodisa, voqea to'g'risida yaxshi fikr, ma'qullashning nutqiy ifodasidir [10, 570]. Maqtov so'zlovchining nutq obyekti haqidagi ijobiy bahosini va shu bilan birga keladigan ruhiy holatlarni ifodalashdan iborat. Bu jarayonda so'zlovchining baholash nuqtai nazaridan ma'qul deb hisoblangan jihatlar va nutq qaratilgan obyektga xos ijobiy sifatlar ta'riflanadi. Bu holatda baho shaxsning tashqi ko'rinishi, faoliyati, ma'naviy-axloqiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Maqtovda so'zlovchining kommunikativ niyati ochiq tarzda ifodalanadi va propozitsiyalar his-hayajonni ifodalovchi undovlar, ijobiy istaklarni bildiruvchi so'zlar orqali kuchaytiriladi. Ya'ni, emotsional-ekspressivlikka ega nutqiy ifodalarda, xususan, maqtovda baholash so'zlovchi yoki yozuvchining obyektiv borliq, nutq obyekti bilan o'zaro ta'siri jarayonida qadriyatni yuzaga chiqarishning o'ziga xos uslubi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko'rishimiz mumkinki, ekspressiv nutqiy aktlar turlicha bo'lib, so'zlovchining maqsadi, qo'llaniladigan taktika va strategiyalar, kutilayotgan natijalar ularning funktsional-pragmatik tabiatini belgilaydi. Til birliklari orqali insonlar turli ruhiy holatlarni ifodalaydilar, bu esa nutqiy aktlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Tabrik nutqiy akti esa

soʻzlovchining adresatga ijobiy munosabatini ifodalab, u bilan aloqani saqlashga qaratilgan. Bu esa oʻz navbatida soʻzlovchi shaxs uchun til birliklarini qoʻllashda, voqelik faktlarini ekspressivlik nuqtai nazaridan baholashda keng imkoniyatlar yaratadi.

Taʼkidlash kerakki, kishilar oʻzaro muloqotda til vositalaridan foydalanib, oʻz his-tuygʻularini, quvonch va umidlarini ifodalaydilar. Bu jarayon natijasida nutqiy aktlar, jumladan, tabrik nutqiy akti, yuzaga keladi. Tabrik nutqi soʻzlovchining adresatga nisbatan ijobiy munosabatini va minnatdorligini aks ettiradi. Ushbu nutqiy akt turli vaziyatlarga bogʻliq holda taʼsirchanlik xususiyatiga ega boʻlib, soʻzlovchining his-tuygʻularini ifodalab, adresatda ijobiy reaksiya hosil qilishga qaratilgan. Tabrik jarayonida adresat va tabrik yuboruvchi oʻrtasida muloqot muhitining mavjudligi zarur. Agar adresat yoʻq boʻlsa, nutqiy akt amalga oshmaydi. Tabrikning maqsadi aloqani saqlash va oʻz emotsiyalarini ifodalash orqali doʻstlikni kuchaytirishdir. Shu nuqtai nazardan, tabrik shaxsiy munosabatlarni boshqaradi va xayrixohlik hamda xushmuomalalik muhitini yaratadi. Tabrikning asosiy jihatlari ijobiy his-tuygʻularni ifodalash va adresatda ijobiy kayfiyat hosil qilishga qaratilgan perlokutiv maqsad bilan bogʻliq. Tabrikda adresatning hayotidagi muhim voqealar ijobiy baholanib, ijtimoiy hurmatni ifodalovchi leksik birliklar ishlatiladi. Tabriklar koʻpincha stereotipik ifodalarga boy boʻlib, masalan, tugʻilgan kun yoki bayramlar bilan bogʻliq soʻzlar va jumalarni oʻz ichiga oladi. Ijtimoiy mavqega ega shaxslar bilan bogʻliq tabriklar keng maʼnoga ega boʻlib, davlatlar rahbarlari oʻrtasidagi tabriklar esa siyosiy xarakter kasb etadi.

Tabrik formulalarining variantlari soʻzlovchining nutqi qaratilgan shaxsga taʼsirini va uning qanday ifodalanishini pragmatik jihatdan koʻrsatadi. Yuqorida aytib oʻtilganlarga asoslanib, tabrikni jamiyatda qabul qilingan meʼyorlar bilan bogʻliq holda, nutq qaratilgan kishiga nisbatan ijobiy istaklarni ifodalovchi va kelajakda aloqalarni saqlab qolishni maqsad qiluvchi alohida nutqiy akt sifatida belgilash mumkin.

Tabriklar, odatda, tan olish, madh etish, xushomad va maqtab aytiladigan soʻzlar bilan boyitilgan boʻladi. Bu soʻzlar adresatning maʼlum yutuqlarga erishganligi, muvaffaqiyatlarini qoʻlga kiritgani va koʻplab odamlar tomonidan baholanishi bilan bogʻliq. Biroq, xushomad va maqtab aytiladigan soʻzlarni har doim tabrikga qoʻshish mumkin emas, chunki tabrik nutqi qaratilgan shaxsning hayotida erishilgan yutuqlar yoki tantanali vaziyatlarni aks ettiradi. Tabrikning asosini belgilovchi mezon hodisaning natijasi hisoblanadi. Tabrik uchun asos sifatida quyidagi vaziyatlarni koʻrsatish mumkin:

1. Odat tusiga kirgan bayramlar, masalan, tugʻilgan kun, milliy-maʼnaviy qadriyatlarni ifodalovchi "Navroʻz", "Qurbon hayiti", "Vatan himoyachilari kuni" kabi oilaviy bayramlar.

2. Adresatning maxsus yutuqlarga yoki muvaffaqiyatlarga erishishi, masalan, sport yoki olimpiada kabi tadbirlarda qoʻlga kiritilgan natijalar.

3. Adresatning bevosita ishtirokisiz sodir boʻlgan baxtli voqealar.

Istakka nisbatan tabrik uchun shu muhimki, bu soʻzning qoʻllanishining oʻziyoq soʻzlovchining adresat hayoti bilan qiziqishidan dalolat beradi. Tabrikning boʻlmasligi soʻzlovchining adresatga qiziqishining yoʻqolganini koʻrsatadi. Odatda tabriklar yozma shaklda ham koʻrinadi, bu esa lisoniy birliklarning original va rasmiy koʻrinishini taqdim etadi. Natijada, tabrik jarayoni soʻzlovchining adresat hayotidagi baʼzi voqealarni ijobiy baholashi va etiketga muvofiq tabrik berishini anglatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, tabrik nutqiy aktida soʻzlovchi yoki yozuvchining nutq qaratilgan shaxsga boʻlgan ijobiy munosabati yaqqol aks etib

turadi. Biror yaxshi (qutlugʻ) kun, sana yoki erishilgan yutuq, yaxshilik munosabati bilan bildiriladigan qutlov soʻzlar tabrik nutqiy aktini hosil qiladi. Tabrik nutq soʻzlanib turgan vaqtdan keyin deyarli kirib kelayotgan vaziyatga ishora qilsa, istak esa unga nisbatan keyinroq yuzaga keluvchi, qolaversa, amalga oshishi nomaʼlum boʻlgan voqea-hodisaning yuzaga chiqishiga boʻlgan kuchli xohishni ifodalaydi. adresat hayoti bilan bogʻliq quvonchli voqea, ishning yangi holatga kirganligi yotadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Базарова М. Ўзбек тилида ижобий истак мазмунини ифодаловчи нутқий бирликларнинг лисоний хусусиятлари. Филол. фанлари номз. Дисс.автореф. – Тошкент, 2007. – Б. 4.
2. Yoʻldoshev B. Oʻzbek tilida matn komponentlarining semantik va pragmatik munosabatlari haqida // Xorijiy til taʼlimining kognitiv-pragmatik tamoyillari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand: 2007. –B.11-12.
3. Yoʻldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. –Toshkent: Fan, 2008. -159 b.
4. Mirzayev I.K. Til va nutq hodisalarini oʻzaro farqlash lozimligi haqida // SamDU ilmiy axborotnomasi, 2003, № 2. - 3-5-b.
5. Nurmonov A., Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // Oʻzbek tili va adabiyoti.-Toshkent.2001. -№ 4. –B.54-58.
6. Yuldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. dok. diss... -Toshkent, 2008.-B.244.
7. Oʻzbek tilining izohli lugʻati, ikki tomlik, 1-tom, M.: 1981. – 632 b.
8. Oʻzbek tilining izohli lugʻati, ikki tomlik, 2-tom, M.: 1981. -715 b.
9. Oʻzbek tilining izohli lugʻati, besh jildlik, 1-jild. –Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
10. Oʻzbek tilining izohli lugʻati, besh jildlik, 2-jild. –Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
11. Oʻzbek tilining izohli lugʻati, besh jildlik, 3-jild. –Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
12. Oʻzbek tilining izohli lugʻati, besh jildlik, 4-jild. –Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
13. Oʻzbek tilining izohli lugʻati, besh jildlik, 5-jild. –Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
14. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lugʻati.-Toshkent: Oʻqituvchi,1985.-B.110.

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

THE MANIFESTATION OF COMMUNICATIVE, PRAGMATIC FEATURES OF SPEECH ETIQUETTE IN THE DIALOGUES OF RUSSIAN, ENGLISH CULTURAL CARRIERS

Khusainova Zebo Ikramova,

An individual researcher at UrSu

E-mail: zeboxusainova@gmail.com

Abstract. The article informs about the communicative linguistics in various cultures, the provisions which includes the theory of intercultural communication. The farewell, and greetings in speech etiquette situations in the following linguistic cultures, Russian and English are given as an integral part, the pragmatic features of the normative politeness in these languages also, the dialogue among the communicators in those ethnocultural linguistics, and the usage of politeness in it are investigated. Thus, the cultural awareness that manifests in the communication by Russian and English as well as its reflection to complicated acts of etiquette communication are informed too.

Keywords: Intercultural communication, ethnocultural community, ritualism, etiquette behaviour, speech etiquette acts, farewell, greeting, parametric model

RUS, INGLIZ TILI MADANIYATINI TASHUVCHILARINING DIALOGIDA NUTQ ETIKETINING PRAGMATIK VA KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO'LISHI

Xusainova Zebo Ikramovna,

Urganch davlat Universiteti

Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada turli madaniyatlardagi kommunikativ tilshunoslik, jumladan, madaniyatlararo muloqot nazariyasini o'z ichiga qamrab olgan qoidalar haqida ma'lumot berilgan. Rus va ingliz lingvistik madaniyatidagi nutq vaziyatidagi salomlashish va xayrlashish odob-axloqi asosiy qism bo'lib, bu tillardagi me'yoriy xushmuomalalikning pragmatik xususiyatlari, o'sha etnomadaniy tilshunoslikdagi kommunikatorlar o'rtasidagi muloqot va ularning xushmuomalaligi shu tariqa o'rganilgan. Bundan tashqari rus va ingliz vakillarining muloqotda namoyon bo'ladigan madaniy ong, murakkab odob-axloqni muloqotda aks etishi keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot, etnik-madaniy jamiyat, ritualizm, madaniy xulq, nutq madaniyati aktlari, salomlashish, xayrlashish, parametrik model.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N15>

Introduction. Modern intercultural communication theory highlights the need for key approaches and research methods that explore universal models of intercultural interaction. While several scholars, including A.A. Vejbiskaya, Yu.N. Karaulov, O.A. Leontovich, N.G. Dones, and N.J.I. Shamme, have contributed to this field, there remains a gap in developing a specialized method for comparing cultures, particularly Russian and English. The unique characteristics of

communicative behaviors within specific ethnocultural communities are still underexplored in their works. Many studies primarily focus on interpersonal relationships framed within a "friend-foe" dynamic. Therefore, the focus of this article is on addressing the issues of intercultural misunderstandings and the paradoxes inherent in intercultural communication. There are a lot of approaches about the issue of speech etiquette and the speech etiquette acts, their manifestations in the communication, thus, examples of intercultural differences and lists of etiquette communication formulas for various linguistic cultures can be found in the works of scholars such as N.I. Farmanovskaya, A.G. Balakay, V.V. Krasnix, O.A. Leontovich, and S.G. Ter-Minasovoy, among others. However, a significant challenge remains in explaining the reasons behind the differences in the semantics and pragmatics of polite speech behaviors within these ethnic cultures. It is essential to study all aspects of intercultural communication between representatives of English and Russian ethnocultural communities and to develop methods for examining both verbal and nonverbal aspects of communicative behavior across different cultures.

There are various hypotheses regarding models and formulas of speech etiquette, which are linked to general concepts about types of communicative situations and forms of polite interpersonal communication. However, there are also ethno-pragmatic linguistic differences that emerge within the norms of interpersonal communication across different cultures. The primary aim of this article is to explore the communicative and pragmatic characteristics of interactions between English and Russian speakers.

To achieve this purpose, several steps are involved: First, identifying the concepts of "communicative culture" and "communicative situation" and establishing the principles for parametric modeling of communicative situations. Second, examining speech etiquette, which encompasses communicative behaviors that define verbal and non-verbal norms in interpersonal communication, as well as the role of politeness across different ethnocultural contexts and its strategies. Third, it is essential to analyze the key features of etiquette behavior components in various cultures to enhance the parameters for modeling etiquette in communicative situations. Fourth, determining the communicative and pragmatic specifics of speech etiquette in greeting and farewell scenarios within Russian and English communicative cultures, while also elucidating the main reasons for verbal and nonverbal variations in the expression of politeness. Finally, identifying the ethnocultural differences in polite behavior strategies during the initiation and conclusion of communication in Russian and English cultural contexts, as well as comparing the implementations of communicative-pragmatic parameters of etiquette in these linguistic cultures.

We can examine the communicative and pragmatic nuances of greetings and farewells in these linguistic cultures(Russian, English) furthermore, universal parameters of speech etiquette in communication and its implementation by the representatives. For example, in Russian it is common to start communication with asking the something crucial to address provided that they are unfamiliar. In this case, it needs to be mentioned introducing their name at first, then it manifests in a context the reason why she/ he is addressing.

—Здравствуйте. Вы секретарь директора? Моя фамилия Снегирёв. Мне назначена встреча на 11 часов. [1; 62 p.]

Additionally, each language has its own uniqueness, shaped by the inherent awareness of its speakers and the specific cultural or natural contexts in which they exist. As a result, we

can observe how the cultural and national identities of various ethnogroups are reflected in their communication. These mentioned approaches have been considered by linguistics such as A. Vesbiskaya, S. G. Terminasova, and G. D. Tomaxin. T.V Larina and others. Each ethnic community represents its nationally essential characteristics of communication which are proved by cultural and social parameters. For instance, the English like representatives of Anglo-Saxons world greet several times a day and it is common not to mention “We have already seen today” compared to Russian. It doesn’t matter whether we have seen each other or not. [2; 275-277p.] Whether it is formal or informal greetings, the English represent their national characteristics through the use of etiquette that encompasses the whole nation's history and background. In a following example, the form of greeting among acquaintances displays reducing some greeting formulas when they are passing: *Tom-Ann-Eddie* [2; 277p.] As for Russian, they hardly greet with people to whom they are unfamiliar, namely, in this linguistic culture, it is a normal way to greet those they know better. Provided that you want to go to any institutions and organizations, you are able to witness that no one greet with you unless you are their acquaintance. Russian often greet each other saying “Как дело?” – this is formal, being remained its literal meaning. It is often assumed an answer in all cases among interlocutors. Example, *Что нового? Как жизнь? Как поживаешь?* [7;18-19]

Verbal and non-verbal acts used by communicants of a certain linguistic culture are regulated by social norms and governed by specific rules given to a language. Certainly, the existence of stable formulas of communication in which etiquette behaviours have represented as a folk experience reflects in interpersonal relationships of an individual people, also, to cultural characteristics in the lifestyle. These can develop with the help of the life conditions of any individual, which consist of religion, the country they live in, professional and social environments, and family. One of the Uzbek scholars Ruziyeva N. X mentioned “Human can be a reflection of an objective contemplation of people and she/he imitates specific features, behaviours or concepts in order to form their own speech acts and behaviours in their life. At least, how big our interactions are to the relatives, friends, classmates, thus, even unexpected familiarizers and an appointment with them can be influential to our mood and acts in communication, become the main rhyme for the day even if it is a shorter episode”. [3; 2.1-44 p.]

Analysis of literatures and methodology. When analyzing the materials, it's important to highlight that the parametric model is essential for systematically describing communicative behavior. This model encompasses the communicative behaviors of various peoples and reflects the nuances within the communicative cultures of different groups. The pragmatic and communicative behaviors, as well as etiquette of individuals, are integral to their communication, following a specific formalized parametric model. This model provides a systematic description based on a particular set of factors that have been explored by linguists such as E. Goffman, O.A. Leontovich, and I.A. Sternin, among others. When comparing and contrasting the analysis of speech etiquette behaviour in different situations of greeting and farewell, we can also observe certain practices and rituals, as well as common features, that are employed by representatives of both Russian and English communicative cultures. These elements are likely to reflect the nuances of establishing communicative distance and balancing status between communicants from different cultures. Primarily, a key characteristic of communicative behavior in these cultures is the ritualism found in thematic groups like

«23 мая 2018 года в Великобритании принят и частично вступил в силу Закон о санкциях и мерах по борьбе с отмыыванием денег, который предусматривает создание в стране нового санкционного режима, необходимого для поддержания национальной системы ПОД/ФТ в актуальном состоянии после выхода Великобритании из состава ЕС»[26].

В Великобритании, уголовная ответственность регулируется Законом о противодействии отмыыванию денег (Money Laundering Regulations) и Законом о противодействии организованной преступности, финансовому обману и терроризму (Proceeds of Crime Act).

Вот основные моменты уголовной ответственности за ОД в Великобритании:

Статья 327 Закона о противодействии организованной преступности, финансовому обману и терроризму (Proceeds of Crime Act) определяет ответственность

за отмыwanie. Лица, совершающие отмыwanie, могут быть подвергнуты уголовному преследованию.

Основной принцип, который лежит в основе уголовной ответственности, заключается в том, что лица, занимающиеся финансовой деятельностью, обязаны сообщать о подозрительных финансовых операциях (Suspicious Activity Reports - SARs) в специальные органы.

Если лицо знало или подозревало о том, что деньги, с которыми оно имеет дело, были получены в результате преступной деятельности, и при этом оно предприняло действия по отмыванию этих денег, то оно может быть подвергнуто уголовной ответственности.

Наказания за отмыwanie денег включают в себя лишение свободы и штрафы. Сроки и размеры штрафов зависят от серьезности преступления и могут быть значительно увеличены в случае связи с организованной преступной деятельностью или финансирования терроризма.

Важно отметить, что Великобритания активно сотрудничает с другими странами и международными организациями в борьбе с отмыванием денег и финансированием терроризма, и ее законодательство соответствует международным стандартам в этой области.

Унификация и соответствие национального уголовного законодательства международным стандартам являются важными задачами для совершенствования законодательства в борьбе с легализацией преступных доходов. Регулярный сбор и анализ статистических данных о применении конфискационных мер позволяет улучшить законодательство и практику в этой области, а также обеспечить доступность этих данных путем их публикации в сети Интернет.

Неэффективное применение конфискационных мер может привести к снижению эффективности уголовного наказания и подорвать доверие общества к системе правосудия. Поэтому важно обеспечивать эффективное использование таких мер для конфискации доходов, полученных преступным путем. Это помогает не только пресекать отмыwanie денег, но и лишать преступников возможности пользоваться незаконно приобретенными активами.

Таким образом, совершенствование законодательства, анализ статистических данных и эффективное применение конфискационных мер играют важную роль в борьбе с легализацией преступных доходов и поддержании эффективности наказания.

«В Узбекистане в соответствии с пунктом 5 статьи 211 Уголовного процессуального кодекса является предметом преступления, предусмотренного статьей 243 Уголовного кодекса, и на основании статьи 204 Гражданского кодекса подлежит конфискации после возмещения материального ущерба, причиненного преступлением физическому либо юридическому лицу»[27].

«В некоторых странах, таких как Аргентина, законодательство предусматривает конфискацию имущества, приобретенного через легализацию, как меру наказания (часть 4 статьи 278 Уголовного кодекса Аргентины)».[28]

«В соответствии с УК Лихтенштейна, § 20, лицо, признанное виновным, обязано вернуть все денежные средства, полученные в результате участия в преступной деятельности, а также средства, полученные без обоснования»[29].

Кроме того, существует практика конфискации имущества, полученного преступным путем и на международном (региональном) уровне, и свидетельствует об этом Конвенция Совета Европы об отмытии, выявлении, изъятии и конфискации доходов от преступной деятельности и о финансировании терроризма (CETS N 198) (Варшава, 16 мая 2005 года).

Отдельно можно выделить наднациональный уровень регулирования противодействия легализации преступных доходов в Европейском союзе.

На сегодняшний день приняты 6 Директив, каждая новая заменяет предыдущие.

Шестая Директива по борьбе с отмытием денег (6AMLD) представляет собой новый этап усиления усилий по борьбе с преступностью в Европейском союзе. Очевидно, что отмытие денег тесно связано с распространением коррупции, торговлей людьми, финансированием терроризма и другими видами преступной деятельности. Нормативные акты, включая 6AMLD, предоставляют организациям возможность разработки эффективных программ по противодействию легализации незаконно полученных доходов.

6MLD направлена на устранение недостатков в национальном законодательстве стран-членов ЕС путем унификации определения отмытия денег. Данная директива также акцентирует внимание на предикатных преступлениях и расширяет перечень преступлений, чтобы более точно отразить современные угрозы. Давайте рассмотрим эти инновации более подробно.

6AMLD (Шестая Директива по борьбе с отмытием денег) представляет собой законодательный акт Европейского союза, направленный на ужесточение мер по борьбе с отмытием денег и финансированием терроризма в странах-членах ЕС. Эта Директива внедряет ряд изменений и дополнений в законодательство государств-членов с целью улучшения мер по противодействию преступлениям, связанным с отмытием денег.

Важными аспектами 6AMLD являются:

Определение единого подхода к определению отмытия денег во всех странах-членах ЕС.

Расширение понятия «предикатных преступлений», то есть преступлений, которые могут привести к отмытию денег.

Ужесточение наказаний и санкций для лиц и организаций, замешанных в отмытии денег.

Усиление мер по сотрудничеству и информационному обмену между странами-членами для более эффективного пресечения отмытия денег.

6AMLD призвана укрепить уровень борьбы с финансовой преступностью и улучшить международное сотрудничество в этой области, что имеет важное значение для поддержания финансовой стабильности и безопасности в Европейском союзе.

Согласованное определение отмытия денег, предоставленное 6MLD, определяет различные виды деятельности, которые, если совершаются умышленно, являются преступными.

Таким образом, 6MLD устанавливает, что помощь в отмытии денег (как соучастие/пособничество) также рассматривается как преступление[30].

По словам Д.А. Ашина, предикатное преступление является преступлением, которое служит основанием или причиной совершения другого, более серьезного преступления. Оно может быть совершено с целью скрыть основное преступление или облегчить его совершение[31].

В Республике Узбекистан в отличие от ЕС нет ограничительной трактовки предикатов по отношению к легализации преступных доходов.

В Европейском союзе (ЕС) в Шестой Директиве о противодействии отмыванию денег (6MLD) определены 22 основных предикатных преступления, связанных с отмыванием доходов.

Европейский союз (ЕС) внедряет более строгие меры наказания для физических лиц, причастных к преступлениям, связанным с отмыванием денег. Теперь за такие преступления им грозит до четырех лет лишения свободы. Это свидетельствует о стремлении ЕС применять более суровые наказания в отношении лиц, обвиняемых в отмывании денег.

Директива также укрепляет полномочия судей в странах-членах в борьбе с отмыванием денег, предоставляя им право препятствовать организациям получать государственное финансирование и вводить штрафы для физических лиц.

Одним из существенных изменений, внесенных в 6MLD, является расширение уголовной ответственности на юридические лица, такие как компании и товарищества. Ранее меры по борьбе с отмыванием денег применялись в основном к лицам, извлекающим финансовую выгоду из таких действий. Однако теперь любое лицо, уличенное в содействии, подстрекательстве или попытке отмывания денег, также будет признано виновным в совершении преступления. Это означает, что любая форма помощи в отмывании денег будет рассматриваться как уголовное преступление и подлежит минимальному сроку тюремного заключения до четырех лет.

Принцип обоюдного признания, рассмотренный в 6MLD, требует обмена информацией между юрисдикциями для возможности судебного преследования отмывания денег, связанного с предикатными преступлениями, в разных государствах-членах. Шесть основных преступлений, включая организованную преступную группу, терроризм, торговлю людьми, сексуальную эксплуатацию, незаконный оборот наркотиков и коррупцию, должны быть криминализованы независимо от их статуса в конкретной юрисдикции.

Изучение опыта стран ЕС по борьбе с отмыванием денег имеет важное значение для стран СНГ в свете развития межгосударственных отношений, глобализации и цифровизации экономики, а также общих проблем эффективной уголовной политики в борьбе с преступностью в целом.

Заключение. В заключение следует отметить, что проблема легализации преступных доходов является глобальным вызовом, требующим скоординированных действий на международной арене. Анализ мер противодействия легализации преступных доходов в различных зарубежных странах показывает, что эффективные стратегии включают сочетание законодательных инициатив, правоприменительных практик и международного сотрудничества.

Мы выявили, что успешные примеры стран, активно борющихся с отмыванием денег, основываются на использовании международных стандартов и рекомендаций,

адаптированных к их национальным реалиям. Важным аспектом является обучение и повышение квалификации специалистов, задействованных в борьбе с финансовыми преступлениями, а также внедрение современных технологий для мониторинга финансовых операций.

Тем не менее, остаются значительные вызовы, такие как недостаточная координация между государственными органами и частным сектором, а также необходимость постоянного обновления законодательной базы в ответ на изменяющиеся угрозы. Результаты данного исследования подчеркивают важность обмена опытом и лучшими практиками между странами, что может способствовать более эффективной борьбе с легализацией преступных доходов и укреплению международной финансовой системы в целом.

Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. Официальный сайт Международного комитета красного креста
<https://www.icrc.org/ru/doc/assets/files/other/crim.pdf>
2. Официальный сайт Национального собрания Республики Армения / Уголовное, уголовно-процессуальное и уголовно-исполнительное законодательство / Уголовный кодекс Республики Армения от 18 апреля 2003 г. №ЗР-528.
<http://www.parliament.am>
3. Официальный сайт правительства Туркменистана – Туркменистан. Золотой век / Законодательство / Уголовный кодекс Туркменистана от 12 июня 1997 г. № 222-1.
URL: <http://www.turkmenistan.gov.tm/Crub=12>
4. http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/4dfcfc8807c829f92212ce92efe818c4a707a3ca/
5. Государственный реестр правовых актов Республики Молдова / Кодексы / Уголовный кодекс Республики Молдова от 18 апреля 2002 г. № 985.
<http://lex.justice.md/index.php?action=view&view=doc&lang=2&id=331268>
6. Уголовный кодекс Украины / под ред. В.Я. Тация, В.В. Сташиса. СПб.: Юрид. Центр Пресс, 2001.
7. Уголовный кодекс Эстонской Республики / под ред. и пер. с эст. В.В. Запеевалова; вступ. ст. Н.И. Мацнева. СПб.: Юрид. центр Пресс, 2001.
8. Источник информации: информационное агентство «ACAMS».
9. Официальный сайт Министерства юстиции Республика Аргентина –.
<http://servicios.infoleg.gob.ar/infolegInternet/anexos/150019999/16546/texact.htm>
10. Legislationline.org – портал законодательства региона ОБСЕ / Уголовное законодательство / Уголовный кодекс Швейцарской Конфедерации 1937 года.
<http://www.legislationline.org/documents/section/criminal-codes>
11. Легализация доходов, приобретенных в результате незаконного оборота наркотиков, в зарубежном уголовном законодательстве.
<http://elibrary.ru/item.asp?id=35121519>
12. Закон об отмыывании денежных средств Швейцарии (Geldwdschereigesetz)
<http://www.worldbiz.ru/jurisdiction/switzerland/>
13. Уголовный кодекс Федеративной республики Германии / Научн. ред. и вступит, статья Д.А. Шестакова; предисл. Г.-Г. Йешека; пер. с нем. Н.С. Рачковой. СПб.: Изд-во «Юридический центр Пресс», 2003. С. 412.
14. Уголовное законодательство Норвегии / Научн. ред. и вступит, статья Ю.В. Голика; пер. с норвеж. А.В. Жмени. – СПб.: Изд-во «Юридический центр Пресс», 2003. – С. 225.
15. Трощинский, П. В. Некоторые вопросы нормативно-правового регулирования борьбы китайского государства с отмыыванием денег // КНР: поиски стабильности

- на пике мирового финансового. кризиса : материалы ежегод. конф. центра полит. исслед. Китая ИДВ РАН. Инф. материалы. Сер. В. О-во и государство в Китае в период реформ. Вып. 24. – М., 2009. – С. 200–221.
16. Legislationline.org – портал законодательства региона ОБСЕ / Уголовное законодательство / Уголовный кодекс Республики Болгария от 15 марта 1968 года. <http://www.legislationline.org/documents/section/criminal-codes>
 17. Legislationline.org – портал законодательства региона ОБСЕ / Уголовное законодательство / Уголовный кодекс Чешской Республики от 1999 года. <http://www.legislationline.org/documents/section/criminal-codes>
 18. Законодательство США: нормативно-правовые акты США <http://www4.law.cornell.edu/uscode/18.html>
 19. Arrastia, J. Money Laundering — situation in USA. Dublin : Sweet and Maxwell, 1996.
 20. Money Laundering Control Act (1986) (Закон о борьбе с отмыванием денег 1986 г). Режим доступа: <https://www.congress.gov/bill/99th-congress/house-bill/5077/text>
 21. Тосунян Г.А., Викулин А.Ю. Противодействие легализации (отмыванию) денежных средств в финансово-кредитной системе: опыт, проблемы, перспективы: Учеб.-практ. пособие. – М: Дело, 2001. – С. 85.
 22. Официальный сайт Центрального банка Российской Федерации. Режим доступа: <https://www.cbr.ru>
 23. Мельников, В. Н. Противодействие легализации незаконных доходов / В. Н. Мельников, А. Г. Мовсесян. – М. : Междунар. центр финан.-экон. развития, 2007. С. 228
 24. Клепицкий И.А. Отмывание денег в современном уголовном праве // Государство и право. 2002. №8. С. 35-37.
 25. Уголовный кодекс Турции / Предисл. Н. Сафарова, Х. Аджара; научн. ред. и пер. с турец. Н. Сафарова, Х. Бабаева. – СПб.: Изд-во «Юридический центр Пресс», 2003. – С. 321
 26. Источники информации: официальный сайт Парламента Великобритании в сети Интернет, информационное агентство «ACAMS».
 27. Постановление Пленума Верховного Суда Республики Узбекистан «О некоторых вопросах судебной практики по делам о легализации доходов, полученных от преступной деятельности» №1 от 11.02.2011. Режим доступа: <http://lex.uz/docs/1766551>
 28. <http://servicios.infoleg.gob.ar/infolegInternet/anexos/150019999/16546/texact.htm>
 29. Strafgesetzbuch (StGB) vom 24. Juni 1987. <https://www.gesetze.li/konso/suche>
 30. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=uriserv:OJ.L .2018.284.01.0022.01.ENG>
 31. Ашин Д.А. Виды предикатных преступлений в уголовном праве России //Актуальные проблемы российского права. 2010. № 3. С. 251-261

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

RETROSPECTIVE ANALYSIS OF THE LEGAL PROVISION OF HUMAN RIGHTS, FREEDOMS AND LEGITIMATE INTERESTS IN OPERATIONAL-SEARCH ACTIVITIES

Bobomurodov Farkhod Boymurotovich,

Responsible employee of the unified operational management center of the main Department of internal affairs of the city of Tashkent, Lieutenant Colonel, Yu.f.f.d.(PhD), Independent seeker

E-mail: farxodbobomurodov663@gmail.com

Abstract. The article examines the historical stages of formation of the legal provision of human rights, freedoms in operational-search activities according to the time criterion, retrospectively analyzed and divided into periods. The specifics of each period were thoroughly studied, in which an attempt was made to reveal the accepted legal documents on the provision of human rights and freedoms in the tqf and the content of the measures implemented, the specifics and differences of these periods.

Keywords: human rights, freedom, period, legal framework, sharia rules, declaration, regulatory legal acts.

TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATIDA INSON HUQUQLARI, ERKINLIK LARI VA QONUNY MANFAATLARINI HUQUQIY TA'MINLASHNING RETROSPEKTIV TAHLILI

Bobomurodov Farxod Boymurotovich,

Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi Yagona tezkor boshqaruv markazining mas'ul xodimi, podpolkovnik, yu.f.f.d.(PhD), Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Maqolada tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklarini huquqiy ta'minlashning tarixiy shakllanish bosqichlari vaqt mezoniga ko'ra, retrospektiv tahlil qilinib, davrlarga ajratib o'rganilgan. Har bir davrning o'ziga xos jihatlari kompleks ravishda chuqur o'rganilib, unda TQFda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga oid qabul qilingan huquqiy hujjatlar hamda amalga oshirilgan chora-tadbirlarning mazmuni, mazkur davrlarning o'ziga xos xususiyati va farqli jihatlari ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, erkinlik, davr, huquqiy asos, shariat qoidalar, deklaratsiya, normativ-huquqiy hujjatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N18>

Kirish. Tezkor-qidiruv faoliyatining (keyingi o'rinlarda – TQF deb yuritiladi) umumiy nazariyasiga oid asoslarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur sharti, mazkur sohada inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning asosiy yo'nalishlarini belgilab olishdan iboratdir. Asosiy Qomusimizda: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, unga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-

qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”[1] kabi qoidaning belgilangani inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining boshqa ijtimoiy qadriyatlarga nisbatan ustuvorligini anglatadi. Ushbu tamoyil qonunga bo'ysunadigan fuqaroga ham, aksincha jinoyat sodir etishni niyat qilgan, rejalashtirgan, tayyorlanayotgan shaxsga ham bir xilda amal qiladi [2, 25-b.].

TQFda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning mazmunini aniqlab olishga oid eng asosiy xususiyat sifatida: *birinchidan*, ushbu masalani hal qilishda tarixiy-tizimli yondashuvdan samarali foydalanish; *ikkinchidan*, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash mohiyatini, uning TQF sohasida o'z ifodasini aks etishi, xususiyatlarini inobatga olgan holda ifodalash talab etiladi. Shu masalada rossiyalik olim S.E.Vitsin: “tarixiy-tizimli yondashuvning umumiy talabi – tadqiq etilayotgan obyektlarning bir-biridan ajralgan holda emas, balki ularning o'zaro aloqadorligi va tobeligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ular o'rtasidagi bog'liqlik xususiyatini aniqlashga yordam beradi”[3, 22-b.] deb ta'kidlaydi. X.T.Odilqorievning fikricha, “huquqiy hodisalarga tizimli yondashuv, ularni mukammal tadqiq etishni ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, mazkur hodisalarning tizimlilik sifatleri va o'zaro aloqadorligini aniqlab olishni taqozo etadi”[4, 14-b.]. Ya'ni mazkur qarashlar, *birinchidan*, bir butun tizimga solingan qonuniyatlarining chegarasida TQFdagi qonuniylikka amal qilishni yaxshilash istiqbolini va ma'lum an'analarni belgilaydi; *ikkinchidan*, amaliyotda ko'p kuzatilgan va muhim bo'lgan muammolarni hal etishda ushbu yondashuvlardan foydalanishga imkon beradi.

TQFda inson huquqlari, erkinliklarini ta'minlashning yuzaga kelish jarayoni va rivojlanishini tizimli ravishda o'rganib chiqish uchun mazkur jarayonning shakllanish bosqichlarini davrlarga bo'lib o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning huquqiy asoslarini yuzaga kelishi o'zining uzoq tarixiga ega. Ushbu sohada o'tmishni o'rganish bevosita TQF sohasida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarilishiga imkon beradi. Tarix, hozirgi zamon va kelajakning o'zaro bog'liqligini tushunish, jamiyatning barcha sohalarida, xususan, TQF sohasida to'g'ri, aniq va mukammal qarorlar qabul qilinishga yordam beradi.

Tarixda ilk marotaba inson huquqlari va erkinligi g'oyasining vujudga kelishi eramizdan oldingi V – IV asrlarga borib taqaladi. Xususan, Ko'hna Afina shahrida fuqarolarning huquqsizligini birlashtirgan fuqarolik instituti paydo bo'ladi[5]. Shuningdek, qadimda faylasuflar tomonidan inson huquqlarining kelib chiqishi ilohiy qonuniyatlar bilan isbotlanib, ularning fikriga ko'ra, “*hamma narsaning o'lchovi bu insondir*” tamoyiliga asoslanib, bu odamlarning tengligi g'oyasini rivojlantirish uchun xizmat qilgan.

Qadimgi Rimda tenglik tushunchasi faqat “barcha odamlar erkin tug'ilishini” anglatgan, lekin erkin fuqaro huquqning subyekti sifatida e'tirof etilib, qullar esa kamsitilgan holda huquqning obyektiga tenglashtirilgan. Ushbu davrda shu qoidalar qonun bilan tartibga solingan. Qonun talablarining hamma uchun birligi prinsipi o'rnatilib, jamiyatning barcha qatlam vakillari bo'ysungan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. TQFda inson huquqlari, erkinliklarini nazariy-huquqiy asoslarini vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlarini tarixan quyidagi davrlarga bo'lib o'rganamiz:

Birinchi davr (eramizdan avvalgi III-II ming yillikdan to milodiy VII asrgacha bo'lgan davr.). Qadim zamonlarda o'rta osiyoliklar zardushtiylik dinini muqaddas deb bilishgan. Bu dinning qonuni “Avesto”dir. Tarixiy qonun-qoidalarni o'zida mujassam etgan “Avesto” kitobida

qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra: "Zardushtiylik dini davrida sodir etilgan turli qilmishlar shartli ravishda olti guruh (dinga, shaxsga, hayvonga, tabiatga qarshi, mulkiy, axloqiy jinoyat)ga tasniflanib, ushbu jinoyatni oldini olishda aybdor shaxslarga jismoniy jazolar qo'llanilgan va shunday jinoyatlarni aniqlash hamda fosh etishda chin ko'ngildan, sidqidildan yordam bergan kohin, askar va dehqonlar moddiy rag'batlantirilgan" [6, 13–15-b] mazmunidagi qoidalarining belgilangani, "Avesto" kitobi o'sha davrda tartib-intizom o'rnatish va adolat tantanasini ta'minlanishida muhim huquqiy manba bo'lib xizmat qilgan. Mazkur manbada qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, o'sha davrda dinga, insoniyatga, uy hayvonlari, jonivorga, axloq-odobga qarshi jinoyatlarni [7, 20-b] sodir etgan aybdor shaxsga nisbatan "Avesto"da belgilangan jazo choralari qo'llanilib, inson huquqlari va erkinliklari muayyan darajada ta'minlangan.

Qadimgi davlatlar (Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, Yunoniston)ning qonunlariga asosan jinoyatlar ikki guruhga tasniflangan: *shaxsga qarshi jinoyatlar* (xususiy mulkni o'g'irlash, zino, qotillik) va *davlatga qarshi jinoyatlar* (davlat mulkini o'g'irlash, davlatga xiyonat, poraxo'rlik va bosh.). Misol uchun, davlat sirlarini oshkor qilish og'ir jinoyat hisoblanib, bu jinoyatni sodir etgan aybdor shaxslarning tili kesib tashlangan. Shuningdek, qalbaki narsalarni yasash va tayyorlash ham jinoyat hisoblanib, aybdorlarning qo'li chopilgan. Bundan tashqari, qasamxo'rlik jinoyatlari, odam o'ldirish va ayrim holatlarda uydirma axborot tarqatganligi sababli aybdorlar o'lim jazosiga hukm qilingan. Ba'zida jazolash psixologik tusga ega bo'lib, bu jazo turi o'lim jazosidan ham qattiqroq jazo sanalgan. O'z ota-onasidan birini o'ldirgan farzand avval qiynoqlarga solingan, so'ngra qatl etilgan. O'z go'daklarini o'ldirgan ota-onalari uch kun mobaynida go'daklari tanasiga bog'langan holatda jazirama issiqda tutib turilgan. Shuningdek, xotinning eriga xiyonati va bevafoqlik qilishi og'ir jinoyat deb e'tirof etilgan va bu jinoyatni sodir etgan shaxsning burni kesilgan. Shuningdek, mol-mulkni o'g'irlaganlik uchun jazo o'g'irlangan buyumning qiymatidan 2-3 baravar qimmatroq jarima qo'llanilgan. Davlat mulkini o'g'irlaganlar mulkning qiymatidan 180 marta qimmatroq bo'lgan jarima to'lashgan. Qo'lga tushgan o'g'ri qilgan o'g'irligini tan olishi va o'g'irlangan buyumni qaytarib berish majburiyatini bo'yniga olgan va jinoyatiga tan jazosi (100 darra urilgan) qo'llanilgan. Shundan so'ng o'g'ri ikkinchi marta o'g'irlik sodir etmaslikka tantanali qasam ichishi kerak bo'lgan. Agar jinoyati qasam ichishdan bo'yin tovlasa, timsohlarga yem qilingan. Bunday jazolarning barchasi omma oldida namoyish etilgan. Poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyatlar qadimgi davlatlarda odatda sud tomonidan ko'rib chiqilmagan. Qoidaga ko'ra, poraxo'rlik bilan qo'lga tushgan amaldorlar ishdan ajragan, ularning ijtimoiy maqomi dehqon darajasiga tushirilgan. Birovni odam o'ldirganlikda ayblash uchun ataylab, o'z manfaatini ko'zlab, yolg'on ko'rsatma berishga, ya'ni, tuhmat qilishga majburlagan shaxsga o'lim jazosi tayinlangan. Agar shifokor ehtiyotsizlik natijasida bemorni o'ldirib qo'ysa, uning qo'li kesilgan. Davlat va ijtimoiy tuzumga qarshi har qanday suiqaqd qilgan kishi o'lim jazosiga hukm qilingan [8, 25–35-b]. O'z davlatini yoki qishlog'ini qattiq ovoz chiqarib so'kkan kishiga eng yuqori jarima jazosi tayinlangan. Biror kishiga qasddan tan jarohati yetkazgan kishining mol-mulki musodara qilinib, u mamlakatdan haydab yuborilgan. Birinchi marta o'g'irlik qilgan kishining ikkita barmog'i, ikkinchi marta o'g'irlik qilgan kishining qo'li va oyog'i kesilgan. Uchinchi marta o'g'irlik qilgan kishi o'lim jazosiga hukm qilingan. Mazkur jinoyatlarni oldini olish, kamaytirish uchun Fir'avn (hukmdor, podshoh) qonunlariga ko'ra aybdor shaxslarga qattiq jazo chorasi qo'llanilib, ushbu qilmishni aniqlash, fosh etishda yordam bergan Misrning turli kasb-hunar va boshqa lavozimida (*kohin, ruhoni, yollanma askar, dehqon, mumiyolovchi, qorovul, usta, rassom, affariy*) ishlovchi

fuqarolar munosib mukofotlangan [9]. Qadimgi davlatlarda TQFni turli usullarini amalga oshirish orqali jinoyat sodir etgan aybdor shaxslar aniqlanib, qozilar tomonidan ularga jazo chorasi qo'llanilib, davlat va fuqaroga yetkazilgan turli zararlarni qoplash choralari ko'rilgan. Shu yo'l bilan insonning hayoti, sog'lig'i, mol-mulkiga qilinadigan tajovuzlarning barvaqt oldi olinib, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari himoya qilingan.

V-VI asrlarda franklar jamiyati feodallasishi, jamoat yerlari talon-toroj qilinishi, jamiyatning o'zi va urug'chilik aloqalari parchalanishi bilan o'g'irlik eng ko'r tarqalgan xavfli jinoyatga aylandi. Shu sababli franklar qiroli Lotar o'g'rilarga qarshi kurashish uchun maxsus politsiya otryadlarini tuzdi. Politsiya otryadlari o'g'irliklarga qarshi kurashishda mahalliy fuqaroni jalb etib, ularning imkoniyatidan o'g'rini aniqlashda, aybdorni qidirib topishda keng foydalanilgan. Yuqorida ko'rib chiqilgan birinchi davrda jinoyatlar guruhlariga ajratilganligi va jinoyat og'irligidan kelib chiqqan holda aybdor shaxslarga ta'sir chorasi ko'rilgani; jinoyatlarga qarshi kurashishda muqaddas kitoblarda belgilangan va hukmdorlar tomonidan chiqargan qonunlar huquqiy asos bo'lganligi; jinoyatlarni aniqlash va fosh etishda kohin, ruhoni, yollanma askarlar, dehqon, mumiyolovchi, qorovul, usta, rassom, affariylarning axborotidan foydalanilganligi; davlat va shaxsga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar undirilib, ularning hayoti, sog'lig'i hamda mulkiy daxlsizlik huquqlari ta'minlanganligi, TQFda faol qatnashgan ko'ngilli fuqarolar munosib ravishda moddiy rag'batlantirilganligini ta'kidlash mumkin.

Ikkinchi davr (VII asrdan XIX asrning birinchi yarimigacha bo'lgan davr). Islom dinining muqaddas kitobi Qur'onda belgilangan qoidalarga binoan shariat normalarini tasniflashda fiqhshunos olimlar o'rtasida turlicha qarashlar mavjud bo'lib, yagona nuqtai nazar shakllanmasdan asosan, ushbu davrda jinoyatlar *uch guruhga* tasniflangan, bularga: mulkka va axloqqa *qarshi qaratilgan jinoyatlar* (o'g'rilik, talonchilik, firibgarlik, buzg'unchilik, isyon, insonning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish; tahqirlash, yolg'on ko'rsatma berish, tuhmat, qo'shmachilik qilish, qimor o'ynash); *shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan jinoyatlar* (odam o'ldirish, badanga shikast yetkazish); *qur'on va hadislarda jazo ko'rsatilmagan jinoyatlar* (jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar: haqorat qilish, bezorilik, jamoat tartibini buzish, badanga yengil jarohat yetkazish, qimor o'ynini birinchi marta o'ynash)ga[10, 114-b], birinchi guruhdagi jinoyatlar bo'yicha tomonlarning kechirilishi, afv etilishi, yarashishlari mumkin bo'lmagan. Mazkur jinoyatlarga to'liq barham berishda aybdor shaxslarga o'sha davrning qozilari tomonidan tegishli jazolardan biri qo'llanilgan. Ushbu jinoyatlarni oshkora va nooshkora usullarda aniqlash va fosh etishda yordam bergan shaxslar (guvoh, jabrlanuvchi, qorovul, farrosh, savdogar, hunarmand va bosh.) mirshabboshilar tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilgan.

Chingizxon davrida jinoyatlarga qarshi kurashda, shu jumladan, o'g'rilik va boshqa illatlarni yo'qotish, tartib — intizom o'rnatish uchun 1206 yilda "Yaso qonunlari to'plami" joriy etildi. Unda yozilishicha, mulkka qarshi jinoyatlarning oldini olishda yuzboshi, yasovul, soqchi kabi lavozimlarida xizmat qilgan shaxslar shug'ullangan. O'sha davrda mo'g'ullar TQFning nooshkora usullari asosida savdogar, darvesh, askarni hamkorlikka jalb etib, o'g'irlik va boshqa jinoyatni sodir etgan shaxslarni aniqlashda keng foydalanilgan va aybdor shaxslarga shariat qoidalari asosida sodir etilgan jinoyatning miqdori va xususiyatidan kelib chiqqan holda qozilar tomonidan tegishli jazo turi qo'llanilgan[11, 150–151-b].

Inson huquqlari, erkinligi va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda Angliyada bir qator hujjatlar qabul qilindi. 1215-yilda Angliyaning "Magna Karta", ya'ni, Erkinlikning buyuk

Xartiyasi qabul qilinib, ushbu hujjat xalqning ahvolini yaxshilamadi, balki faqatgina yirik yer egalari huquqlarini himoya qilish bilan chegaralangan xolos.

Qadim zamonlardan buyon TQFning nooshkora usulidan foydalanish eng muhim hisoblangan. Boisi, yashirin tarzda axborot beruvchi xabarnavislar bilan ishonchli aloqa o'rnatilishi, har bir davlatning mudofaa xavfsizligini ta'minlashda zarur chora-tadbirlarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan[12, 3-b]. Biroq ushbu shaxslarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlanishi, nooshkora usulda hamkorlikni uzoq vaqt mobaynida davom ettirilishi uchun juda zarur bo'lgan.

Sohibqiron Amir Temur hukmronligi davrida davlatda sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash ishlari asosan munshiy, ya'ni, xabarnavis vazifasini bajaruvchi qalandar, savdogar, folbin, darveshlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan. Jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga eng og'ir jazo choralari qo'llanilgan. Jumladan, Temur "Tuzuklari" da o'g'irlik jinoyati haqida quyidagi: "O'g'irlik va talonchilikning barcha yo'llarini bekitishning choralari ko'rdim. O'g'rilar xususida buyurdimki, ular qayerda bo'lmasin, tutib olinsa, Yaso bo'yicha jazolansin" degan fikrlar qayd etilib, ushbu davrda o'g'irliklarni doimiy ravishda oldini olish bo'yicha maxsus tezkor chora-tadbirlar soqchi va askarlar tomonidan amalga oshirib kelingan[13, 106-b]. O'sha davrda jinoyatchilikka qarshi kurashda ko'maklashgan oddiy fuqarolar yoki davlatning mas'ul xodimlari munosib tarzda moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilib, ijtimoiy jihatdan himoya qilingan.

1679-yil 26-mayda Angliyada Habeas korpus (Habeas Corpus Act) hujjatining e'lon qilinishi, shaxsning daxlsizligi kafolatlarini, aybsizlik prezumpsiyasi prinsipini o'rnatgan asosiy konstitutsiyaviy hujjatlardan biri bo'ldi. Jamiyatni demokratlashtirish yo'lidagi yana bir muhim qadamlardan biri 1689-yilning 13-fevralida Angliyada huquqlar to'g'risidagi Bilning qabul qilinishi bilan bog'liqdir. Mazkur hujjat parlamentning rolini kuchaytirdi (masalan, parlament rozilgisiz xalqqa soliq va yig'implarni belgilash taqiqlandi). O'sha davrda fuqarolarga qirolda murojaat qilish huquqi berilib, ularning so'z erkinligi kafolatlandi. Inson huquqlari va erkinliklari tenglik haqidagi g'oyalarning keyingi rivojlanishi tabiiy huquqiy doktrinaga asoslanadi. Unga ko'ra xalq va davlat o'rtasidagi munosabatlarda huquqning ustunligi tan olinadi. 1776-yil 4-iyulda qabul qilingan Virjiniya shtatining Mustaqillik deklaratsiyasida: "barcha odamlar teng darajada erkin va mustaqil, tabiiy huquqlarga ega ekanligi, davlat bu huquqlarni faqat ularni himoya qiluvchi mamlakatning asosiy qonunida rasmiy ravishda belgilash orqali tan olinishi"[14] belgilagandi. Shu bois tabiiy huquqlar to'g'ridan-to'g'ri, boshqa odamlarning xohishidan qat'i nazar, hech qanday ijro hujjatsiz amalga oshirilishi mazkur hujjatda qayd etildi.

Inson huquqlari g'oyasi Buyuk fransuz inqilobining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, 1789-yil 26-avgustda Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi qabul qilinishiga sabab bo'ldi. Deklaratsiya mohiyatida: "birinchi marta fuqarolik va siyosiy huquqlar e'lon qilinishi; odamlar erkin va teng huquqlariga egaligi, har qanday siyosiy ittifoqning maqsadi tabiiy va ajralmas inson huquq va erkinliklarini, shu jumladan, mulk daxlsizlik va xavfsizlikni ta'minlashdan iboratligi" [15] aybsizlik prezumpsiyasi va vijdon erkinligini ta'minlanishga xizmat qildi.

Yozuvchi Hamdam Sodiqovning Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati asarida: "Amir Temurning razvedka va kontrrazvedka sohasida olib borgan o'ziga xos va odilona siyosati, masalan, o'sha paytda darvesh, qalandar va naqshbandiya tariqatchisi vakillari, hunarmand va savdogarlar, darakchi, ayg'oqchi, ommaning tashviqotchisi vazifasini bajargani,

tezkor axborotlarni almashish vositasi sifatida kabutarlardan foydalanilgani, dushman haqida sipohiyar taqdim etgan ichki va tashqi razvedka ma'lumoti doimiy ravishda tahlil qilinishi" [12, 80–83-b.] kabi fikrlarning bayon etilganligi, Sohibqiron Amir Temur bobomiz o'zbek razvedkasining asoschisi, mutafakkiri, shuningdek, markazlashgan davlatni barpo etishda TQFning oshkora va nooshkora usullaridan samarali foydalanganligidan dalolat beradi. Bu davrda tezkor chora-tadbirlarni o'tkazish orqali davlatga va mulkka qarshi sodir etilgan jinoyatlar aniqlanib, fosh etilgan. Aybdor shaxslarga qo'llanilgan jazo choralari "Yaso qonunlar to'plami" hamda shariat qoidalari asosida amalga oshirilgan. Shuni alohida qayd etish joizki, Chingizxon va Amir Temur hukmronligi davrlarida TQFda inson huquqlarini ta'minlashda besh muhim narsani, ya'ni: *din, jon, aql, nasl* va *molni* asrashga katta e'tibor berilgan. Bundan tashqari, davlatning xavfsizligini ta'minlashda TQFning nooshkora usullaridan foydalanib, xabarnavislar xavfsizligini ta'minlashga ham ahamiyat berilgan.

Muhokama. O'zbek xonliklari (XVI – XIX asrlarda Buxoro, Xiva, Qo'qon)da sodir etilgan jinoyatlardan davlatga, shaxsga va mulkka qarshi jinoyatlar eng og'ir jinoyat turlaridan biri bo'lib, ushbu jinoyatlarning oldini olish mirshab, soqchi, qorovul va mahalliy aholi tomonidan amalga oshirilib, jinoyatni sodir etgan aybdor shaxsga mufti va qozilar tomonidan choralar ko'rilgan.

Buxoro xonligi (XVIII asr o'rtalari Buxoro amirligi)da ikkita qamoqxona mavjud bo'lib, u yerdagi saqlanayotgan mahbuslardan davlatga, shaxsga, mulkka qarshi jinoyatlarni aniqlash, fosh etilishida unumli foydalanilgan. Ushbu qamoqxonalarning xonasida dahshatli chayonlar va boshqa chaqadigan zaharli hasharotlar mavjud bo'lib, mahbuslar tezda o'lim topmasligi uchun mirshablar (politsiya xodimlari)ga [16] o'z ixtiyori bilan yordam berishga rozi bo'lishgan. O'sha davrda mahalliy hukmdorlar faqatgina shariat va belgilangan qoidalarga rioya etmasdan, o'zi lozim topgan jazoni ijro etish usullarini qo'llash bo'yicha hukmlar chiqarib, asosiy maqsad yetkazilgan zararni undirish, o'ch olish, xun undirish va qo'rqitishdan iborat bo'lib, inson huquqlari va erkinligini poymol qilish holatlari ko'p kuzatilgan.

Xiva xonligida musulmon huquqining barcha manbalari amal qilgan. Shuningdek, xonning chiqargan farmonlari, muvaqqat inqilobiy hukumat davrida chiqarilgan qonunlar, turkman, qozoq, qoraqalpoqlarning o'z odat huquqlari ham huquq manbai bo'lib xizmat qilgan. Davlatga va shaxsga qarshi jinoyatlarning oldini olish va fosh etishda jamoat joylarida faoliyat ko'rsatuvchi mahalliy fuqarolarning o'rni katta bo'lib, mirshab va qozilar ushbu shaxslardan guvoh sifatida foydalanishgan. Ushbu shaxslarning og'zaki murojaati mirshab va qozi tomonidan ko'rib chiqilgan. Keyinchalik xonlikda shikoyat va arizalar ham yozma ravishda olinadigan bo'lib, yozishni bilmaydiganlar uchun ariza yozib beradigan kotib lavozimi joriy etilib, fuqarolarning siyosiy huquqlari ta'minlangan.

Qo'qon xonligida asosiy huquq manbai shariat qoidalari bo'lib, qozoq va qirg'izlar yashaydigan joylarda odat huquqi ahamiyatli hisoblangan. Jinoyatlar davlatga qarshi qaratilgan, diniy, mulkka, shaxsga, oilaga qarshi qaratilgan jinoyatlarga bo'lingan. Sodir etgan jinoyatning turidan kelib chiqib, mahbuslar qamoqxonalarga guruh-guruh qilib joylashtirilgan. Xonliklarda mirshablar, posbonboshi bilan ko'ngilli hamkorlik qilgan shaxs bergan ma'lumotga ko'ra, jinoyatlarni sodir etgan shaxs aniqlanib, ularning ushbu faoliyati pul va mol bilan taqdirlangan. Masalan, mirshablar tomonidan davlat va xususiy mulkning o'g'irlanishi yuzasidan surishtiruv o'tkazilib, aybdorning qilmishi fosh etilgan. O'g'irlikni sodir etgan shaxs bilan jabrlanuvchi shaxs qarindosh bo'lganida afv etishi mumkin bo'lmay, umumiy tartibda

jinoyat ishlari qozilik sudlari tomonidan ko'rib, aybdor shaxsga tegishli jazo qo'llanilishi haqida adolatli hukm chiqarilgan. Xonliklarda davlat boshqaruvi temuriylar, shayboniylar davridagi boshqaruvga o'xshash bo'lib, mirshablik ishlari hukmdorning yaqin qarindoshlari tomonidan amalga oshirilgan. Shu davrda aholining xavfsizligini ta'minlash, mirshabboshilar zimmasiga yuklatilganligi bois, mirshablar biriktirilgan hududlarda soqchilik qilayotgan posbonlarni nazorat qilishgan, shuningdek, jamoat joylarida osoyishtalikni ta'minlagan. Tahlil qilingan ikkinchi davrda ham TQFda inson huquqlarini ta'minlashda jinoyatlar guruhlariga ajratilib, sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqqan holda aybdor shaxslarga mufti va qozilar tomonidan choralar ko'rilganligi; mahalliy jinoyatlarga qarshi kurashishda shu davr uchun qabul qilingan qonunlar to'plami, shariat normalari huquqiy asos bo'lganligi; jinoyatlarni aniqlash va fosh etishda yordamlashgan fuqarolarning axborotlaridan keng foydalanilganligi; TQF bilan hukmdorlar, mirshabboshilar va mirshablar shug'ullanganligi; fuqarolarga yetkazilgan zararlarni undirib berishda TQFning usullarini qo'llash ma'lum ma'noda o'zining ijobiy samarasini bergan.

Uchinchi davr (XIX asrning o'rtalaridan XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davr). Rossiya imperiyasi XIX asrning o'rtalaridan boshlab O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi o'zaro nizolar va adovatlardan foydalanib, xonliklarni navbati bilan bosib oldi. Chor Rossiyaning mustamlakachiligi (1847–1917 yillar) davrida davlat mulkini o'g'irlash va talon-toroj etish jinoyatlarining oldini olish, aniqlash hamda fosh etishda qidiruv politsiyasi tashkil etilgan[17]. Jinoyatchilik oshib ketganligi sababli 1908-yil 6-iyulda Rossiya imperatori "Qidiruv qismlarini tashkil qilish haqida"gi qonun chiqardi. Ushbu qonunning ijrosini amalga oshirishda IIV tomonidan "Ichki maxsus tartibni tashkil qilish" hamda 1910-yil 9-avgustda "Qidiruv bo'linmasini tashkil etish haqidagi yo'riqnomasi" qabul qilingan bo'lib, ushbu yo'riqnomalarda o'g'irliklarga qarshi kurashish bo'linmasining maqomi, ya'ni, huquqlari, majburiyatlari, vakolatlari aniq belgilangandi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar asosida barcha turdagi o'g'irliklarga samarali qarshi kurashib kelingan.

Sovet hukmronligi (1917-1990-yillar) davrida RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligi militsiya faoliyatining huquqiy maqomini belgilab beruvchi qator normativ hujjatlar qabul qilingan. Bunga 1917-yil 10-noyabrdagi "Ishchi militsiyasi to'g'risida"gi, 1918-yil 30-yanvardagi "Turkiston o'lkasi shahar va tumanlari militsiya boshqarmasi (bo'limlari)ni tashkil etish to'g'risida"gi, 1918-yil 5-oktyabrda "Militsiya tarkibida jinoyat qidiruv bo'limlarini tashkil etish haqida"gi qarorlari, 1920-yil 22-apreldagi "Sovet ishchi-dehqon militsiyasi to'g'risida"gi nizomlari shular jumlasidandir. Ushbu me'yoriy hujjatlarda fuqarolarning shaxsiy daxlsizligi va mulkiy xavfsizligini ta'minlash; jinoyatlarga qarshi kurashish; qamoqxonalarni qo'riqlash kabi ichki ishlar xodimlari uchun muhim vazifalar belgilanib, bu vaqtda ham fuqarolarning huquq va erkinliklarini poymol qilish holatlari kuzatilgan, asosiy e'tibor hukmron sinf manfaatlariga qaratilgan.

SSSR tomonidan xonliklar bosib olinganidan so'ng, uning tarkibida 3 ta mustaqil sovet (Turkiston, Buxoro va Xorazm) respublikalari tashkil etildi. Hududlarda mustaqil politsiya bo'linmalari va yangi militsiya lavozimlari joriy etildi(misol uchun Ober-polismeyster lavozimi). Aholining soni hamda kriminogen vaziyatdan kelib chiqqan holda shaxsiy tarkib ko'paytirilib, chekka qishloqlarda ham politsiyasi mahkamalari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Buxoro xalq sovet Respublikasida Ichki ishlar nozirligi tomonidan inson huquq va erkinliklarini ta'minlash yo'lida jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid quyidagi: "Ishchi-

dehqon militsiyasi bosh boshqarmasi tashkil etish haqida”gi buyrug’i (1920); “Ishchi-dehqon militsiyasi haqida”gi dekreti (1921); “Jinoyat qidiruv bosh boshqarmasi va militsiya zaxiralari haqida” (1922) va “Buxoro xalq sovet Respublikasining ichki ishlar xalq nozirligi haqida”gi (1923) qarorlari qabul qilindi. Ushbu idoraviy hujjatlarda militsiya xodimlarining sohasi bo’yicha taqsimoti, tashkiliy-shtat tuzilishi, huquqiy maqomi (huquqlari, majburiyatlari, vakolatlari) va xizmat faoliyatining yo’nalishlari belgilanib, soha vakillari tomonidan jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning tinchligi, osoyishtaligini ta’minlash borasida kuchayu-kunduz xalq manfaatlari yo’lida mehnat qilingan.

Shuningdek, shu davrda Xiva xalq sovet Respublikasida ham “Militsiya boshqarmasini ta’sis etish to’g’risida”gi (1920) qarori qabul qilinib, ushbu qaror bilan Xiva Adliya nozirligi qoshida alohida Militsiya boshqarmasi va uning hududiy bo’linmalari tuzildi. Qarorda ushbu bo’linmalarning funksiyasiga jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish kabilar o’z ifodasini topgan bo’lib, qo’shni respublikalar bilan hamkorlikda faoliyat samarali amalga oshirilgan.

Natijalar. Yuqorida ta’kidlab o’tilgan uch sovet Respublikalari (*Turkiston, Buxoro va Xorazm*)ning ma’muriy hududlarida umumiy faoliyat olib borgan Ichki ishlar organlari, keyinchalik O’zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi ixtiyoriga o’tkazilib, yagona tuzilmaga aylantirildi. Uning tarkibida “Militsiya va jinoyat qidiruv” nomli mustaqil bo’limi tashkil etildi. Xodimlar 1925-yil 1-dekabrda qabul qilingan “O’zbekiston SSR Sovet Ishchi-dehqon militsiyasi haqida nizom”ga muvofiq funksional vazifalarini ado etishgan. Keyinchalik, islohotlar amalga oshirilib, O’zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining “Jinoyat qidiruv va militsiya organlari faoliyati samaradorligini yaxshilash haqida”gi (1926) qarori bilan hududlardagi jinoyat qidiruv va militsiya bo’limlari birlashtirildi. Oradan 6 yil o’tganidan so’ng “O’zbekiston SSR Xalq komissarligi kengashi huzuridagi ishchi-dehqon militsiyasi bosh boshqarmasi to’g’risidagi nizom”(1932) tasdiqlandi. Jinoyat qidiruv bo’limlarining ish faoliyatiga o’zgartishlar kiritishdan ko’zlangan asosiy maqsad tizimidan qulay va samarali xizmatni tashkil etishdan iborat bo’lgan.

Bundan tashqari, ikki yil o’tgandan keyin, ya’ni, 1934-yilning 10-iyulida SSSR Markaziy ijroiya qo’mitasining qaroriga binoan, Davlat xavfsizlik organlari va Militsiya bosh boshqarmasi yagona organ sifatida birlashtirilib, Ichki ishlar xalq komissarligi tarkibiga to’liq bo’ysundirildi. Ikkinchi jahon urushi tufayli ushbu ikki xizmatning vazifalarini vaqtinchalik alohida bo’lishi haqida yakdil qaror qabul qilinganidan so’ng, taxminan 1941-yilning fevral oyida Davlat xavfsizlik organi va Militsiya bosh boshqarmasi alohida ajratildi. 5 oy o’tganidan so’ng (20.07.1941-y.) yana ushbu xizmatlarni birlashtirish haqida farmon qabul qilindi. Oradan ikki yil o’tib (1943-yil aprel), yana ikki mustaqil (davlat xavfsizligi, ichki ishlar) komissarliklari tashkil etildi. Mazkur shtat birliklarini o’zgartirishning asosiy sababi ma’muriy hududlarda militsiya bo’linmalari asosan jamoat tartibini saqlash bo’lsa, davlatning ichki va tashqi xavfsizligini ta’minlash yo’lida razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirishga davlat xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshirilishiga jiddiy e’tibor qaratilib, jinoyatchilikning oldini olish ishlarini mustahkamlash va takomillashtirishdan iborat bo’ldi. Uchinchi marotaba ya’ni, 1953 yilning mart oyida “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka barham berish choralari to’g’risida”gi qaroriga binoan Ichki ishlar va Davlat xavfsizligi organlari yana birlashtirilib, 15 yil mobaynida (1968-yilning noyabr oyi oxiriga qadar) yagona organ sifatida faoliyat ko’rsatib kelgan. Respublikaning tinchligi va osoyishtaligi, aholining farovon hayot

kechirishi uchun munosib hissa qo'shgan mazkur tezkor-qidiruv xizmatlarning xodimlari hududda uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilgan shaxsga va mulkka qarshi jinoyatlarning oldini olish, aniqlash va fosh etishda TQFning maxsus usullaridan foydalanilgan. Shu asnoda 1968-yil 25-noyabrdagi SSSR Oliy kengashi rayosatining farmoni bilan SSSR "Ichki ishlar vazirligi" tashkil etildi va shu yilning dekabr oyida qabul qilingan farmon bilan shahar (tuman) ichki ishlar boshqarmasi va bo'limlari tashkil etilib, shu tarzda 1990-yilgacha SSSR O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi tarkibida uch bo'g'indagi (markaziy, o'rta va quyi) jinoyat qidiruv bo'linmalari faoliyat ko'rsatib keldi[18]. Asosan uyushgan jinoyatchilik shu jumladan, giyohvandlik, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, tovlamachilik, bosqinchilik va avtotransport vositalarini o'g'irlash va olib qochish jinoyatlarini aniqlash va "issiq izi"dan fosh etishda IIVning Jinoyat-qidiruv va terrorizmga qarshi kurashish bo'linmalari tomonidan operativ-qidiruv faoliyatining nooshkora usullari qo'llanilgan. Biroq ish jarayonida inson huquqlarini ta'minlash masalasiga bir tomonlama qaralgan. Ya'ni, jabrlanuvchining huquq va manfaatlariga e'tibor qaratilib, jinoyatni sodir etishda gumonlanayotgan shaxsning jinoyat-protsessual qonunchilikda ko'rsatilgan huquqlarini ta'minlashga unchalik e'tibor berilmagan.

To'rtinchi davr (1991–2023 y.). O'tgan o'ttiz uch yil mobaynida TQFda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda uch bosqichda jadal sur'atda islohotlar amalga oshirilgan.

Birinchi bosqich: 1991–2011-yillarni o'z ichiga olgan II OI lari TQFga oid dastlabki islohotlar. Bu davrda IIO TQFga oid umumiy xarakterdagi qonunlar va IIVning maxsus buyruqlari qabul qilingan. Masalan, O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinganidan biroz avval qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Militsiya xodimlarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish to'g'risida"gi (1990) qonuni shular jumlasidandir. Ushbu qonun 26 yil mobaynida amalda bo'lib, ma'lum darajada IIO xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlashga xizmat qilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasida inson huquqlariga doir qoidalar muqaddima, 13, 14-moddalari va ikkinchi bo'limining 24, 26, 31, 40-moddalari va 10-bobida, TQFga doir norma esa 121-moddasida belgilanib, mazkur qoidalarining ijrosini ta'minlashda IIVning TQF sohasidagi inson huquqlarini ta'minlashga doir qirqdan ortiq idoraviy hujjatlari qabul qilindi.

Ikkinchi bosqich: 2012-2016-yillarni o'z ichiga olgan ichki ishlar organlari TQFning huquqiy va tashkiliy jihatdan tartibga solinishiga doir islohotlar. Bu davrda TQF sohasini tubdan takomillashtirish ishlari yanada jadallashtirildi. Xususan, davlatimiz birinchi rahbari Islom Karimovning tashabbuslari asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qo'shma yig'ilishida jamiyatning besh sohasini tubdan rivojlantirish, mamlakatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'lida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda ayrim muhim joriy qonunlarni, jumladan, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunni qabul qilish taklifi ilgari surilgan edi. Oradan ikki yil o'tib, yakdillik asosida mazkur qonun qabul qilindi. Mazkur hujjat qabul qilinguniga qadar ichki ishlar organlari tizimida tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazish tartibi ichki me'yoriy hujjatlar (*yo'riqnoma, qo'llanma va nizom*), Ichki ishlar vazirining maxsus buyrug'i bilan tartibga solingan bo'lib, faqatgina tezkor-qidiruv harakatlarini o'tkazish bo'yicha umumiy qoidalar Jinoyat-protsessual qonunchiligi bilan belgilangan. Qonun fuqarolarga birinchi marotaba TQTlarining 16 ta turi, ularni o'tkazishning asoslari va majburiy sharti, xodimning vakolatini chegaralaydigan hamda fuqarolarning huquqlarini cheklaydigan holatlar bilan tanishish imkonini berdi.

Uchinchi bosqich: 2017–2023-yillarda TQFga doir normativ hujjatlar qabul qilinib, tarixda ushbu davrni TQFni yanada takomillashtirish deb nomlanadi. Mazkur davrda yangi tahrirda Konstitutsiya, qonunlar, qonunosti hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada qariyb uch barobarga fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga oid normalarning qabul qilingani, TQFda inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash eng ustuvor vazifalardan biri ekanidan dalolat beradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining quyidagi sohalarida: davlat siri va bank sirini muhofaza qilish; giyohvandlik, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi, korrupsiyaga qarshi kurashish; prokuratura, ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati, huquqbuzarlik profilaktikasi, tezkor-qidiruv, kiberxavfsizlik, vijdon erkinligi faoliyati; axborotlashtirish, telekommunikatsiya va pochta; jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash, ma'muriy qamoqni o'tash tartibi, jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan nazorat; jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, jinoyat protsessi ishtirokchilarini himoya qilish, shaxsga doir ma'lumotlar va genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish kabi joriy qonunlarni va ularning ijrosini ta'minlashga qaratilgan qonunosti hujjatlarning qabul qilinganligi TQFni amalga oshiruvchi ichki ishlar organlari tezkor xodimlari uchun jinoyatchilikka qarshi kurashishda muhim yo'nalishlarni va aniq vazifalarni belgilab berdi. Bunga 2021-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2017–2022-yillarda qabul qilingan "Ichki ishlar organlarining TQFni tubdan yaxshilash choralari haqida"gi qarorlarini misol keltirishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, IIV buyruqlari tezkor bo'linmalarining xizmat faoliyatini tashkil etishning konkret huquqiy mexanizmlarini belgilaydi. 2017 – 2021-yillarda qabul qilingan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish; ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq jazolarni ijro etish faoliyatini yaxshilash; xodimlar va ularning oila a'zosini ijtimoiy himoya qilish; qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirish haqidagi Prezident qarorlari; 2021-yildagi Vazirlar Mahkamasining II Oda eng yaxshi xodimlarni aniqlash bo'yicha Respublika ko'rik tanlovini tashkil etish to'g'risidagi qarori tezkor bo'linmalarining jinoyatchilikka qarshi kurashda sidqidildan xizmat qilishda motivatsiyasini yanada oshirdi.

Xulosa. Yuqorida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga doir TQFning tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinganida: birinchi davrda tadqiq etilayotgan dolzarb muammoga deyarli ahamiyat berilmay, hukmron sinf (boy zodagonlar) manfaatlari birinchi darajali hisoblangani; ikkinchi davrda ham shaxs huquqlarini ta'minlash masalasi shu zaylda davom etib, BMTning inson huquqlariga oid xalqaro hujjatning qabul qilinishi bilan ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratish boshlangan, aybdor shaxslarning qilmishiga yarasha tegishli jazo choralari qo'llanilgan; uchinchi davrda shaxs va davlat xavfsizligining ta'minlanishi TQFning huquqiy asoslariga binoan amalga oshirilib, jinoyatlarning og'irlik darajasiga ko'ra, aybdor shaxsga tegishli jazo chorasi qo'llanilib, insonning asosan yashash va mulkiy daxlsizlik huquqlari ta'minlangan; to'rtinchi davrda esa TQFda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash uch bosqichda qabul qilingan milliy normativ hujjatlarga muvofiq amalga oshirilib, ikkinchi bosqichda TQFning amalga oshirilishi bevosita shu sohaning qonuni bilan tartibga solingan. Ungacha qonunosti hujjatlar asosida TQF amalga oshirilib, bu davrda avval shaxs, keyin jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash maqsadida TQFni vazifalarini bajarish belgilangan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi // URL: [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz) (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 01.08.2024).
2. Karimov V. Tezkor-qidiruv faoliyati va inson huquqlari: monografiya. – T., 2019. – 152 b.
3. Вицин С.Е. Системный подход и преступность. – М.,1980. – С. 222.
4. Odilqoriev X.T. Milliy huquqiy tizim va huquqiy qadriyatlar: Monografiya / X.T.Odilqoriev, Sh.U.Yakubov. – T.: SMI-ASIA. 2010. – B. 350.
5. Саалаев О.Б. Права человека и история их развития // Проблемы Науки. 2016. №10 (52). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prava-cheloveka-i-istoriya-ih-razvitiya> (дата обращения: 26.08.2024).
6. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. – T.: «Sharq», 2001.– 384 b.
7. Turgunov M.T. «Avesto»da inson huquqlarini o'rganishning metodologik muammolari: Yurid. fan. d-ri (DSc) dis. ... avtoref. – T., 2021. – 61 b.
8. Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2004. – 464 b.
9. Saloxuddinov X. A. Fir'avnlr mamlakati (Qadimgi Misr madaniyati tarixidan). – T.: «Mehnat», 1992. – 56 b.
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Tafsiri hilol 7-juz. Qur'oni karim ma'nolar tarjimasi. Moida surasining – 8-oyati. – T.:»Sharq»,2008. – 604 b.
11. Toshqulov J., Avazov N. O'zbekiston Respublikasida davlat va huquq tarixi. O'rta asrlar: O'quv qo'llanma. – T.: MXX instituti, 2006. –182 b.
12. Sodiqov H. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati:(tarixiy badialar): [3 qismli] / H.Sodiqov; mas'ul muharrir N. Abduazizova; g'oya va dastur muallifi O.Ubaydullaev.–T.: «ART FLEX», 2010 – 436 b.
13. Temur tuzuklari / Tahrir hay'ati: B.Abduhalimov va boshq., Forscha matndagi A.Sug'oni va H.Karomatov tarj. – T.: «O'zbekiston», 2012. – 184 b.
14. Хапчаев С.Т, Кокорев В.Г. Декларация независимости США: историко-правовой анализ предпосылок и последствий принятия // Буллетин Сосиал-Экономис анд Хуманитариян Ресеарч. 2022. №16 (18). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/deklaratsiya-nezavisimosti-ssha-istoriko-pravovoy-analiz-predposylok-i-posledstviy-prinyatiya> (дата обращения: 18.08.2024).
15. Яковлева Л.И. Французская декларация прав человека и гражданина 1789 года: история принятия, предпосылки, уроки // Вестник Московского университета. Серия 7. Философия. 2018. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/frantsuzskaya-deklaratsiya-prav-cheloveka-i-grazhdanina-1789-goda-istoriya-prinyatiya-predposylki-uroki> (дата обращения: 15.08.2024).
16. Записки о Бухарском ханстве. – М.: “Наука”, 1983. – С. 58.
17. <https://www.urgfiltma.uz/uz> (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 28.07.2024).
18. <https://qriiv.uz/uz/menu/iiv-tarihi> (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 06.12.2022).

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

ISSUES OF STATE SOVEREIGNTY IN THE RECOGNITION AND ENFORCEMENT OF DECISIONS OF FOREIGN STATE COURTS

Halikulov Komoliddin Nosirovich,

Lecturer of the Department of International Law and
Human Rights of Tashkent State University of law

E-mail: x.komoliddin@gmail.com

Abstract. This article examines issues of state sovereignty in the process of recognition and enforcement of decisions of foreign state courts. The article analyzes the principles of international law and national legislation. The principle of sovereign equality of states as well as the relationship between recognition and enforcement of foreign court decisions is also explored. As a result of the study, modern trends and problems of protecting state sovereignty in the process of recognition and enforcement of foreign court decisions were identified.

Keywords: state sovereignty, foreign court decisions, recognition and enforcement, international law, national legislation.

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ

Халиқулов Комолиддин Носирович,

Тошкент давлат юридик университети
«Халқаро ҳуқуқ ва инсон ҳуқуқлари» кафедраси
ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада хорижий давлат судларининг қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнида давлат суверенитети масалалари кўриб чиқилади. Мақолада халқаро ҳуқуқ принциплари ва миллий қонунчилик таҳлил қилинади. Шунингдек, давлатларнинг суверен тенглиги принципи ҳамда хорижий суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш ўртасидаги муносабатлар ўрганилади. Тадқиқот натижасида хорижий суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнида давлат суверенитетини ҳимоя қилишнинг замонавий тенденциялари ва муаммолари аниқланди.

Калит сўзлар: давлат суверенитети, хорижий давлат суд қарорлари, тан олиш ва ижро этиш, халқаро ҳуқуқ, миллий қонунчилик.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N18.1>

Кириш. Глобаллашув жараёнлари ва халқаро алоқаларнинг кенгайиши шароитида хорижий давлат судларининг қарорларини тан олиш ва ижро этиш масаласи тобора долзарб аҳамият касб этмоқда. Бу жараён давлатларнинг суверен тенглиги принципи билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, халқаро ҳуқуқнинг асосий принципларидан бири ҳисобланади [1]. Хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш зарурати билан давлат суверенитетини ҳимоя қилиш ўртасидаги мувозанатни сақлаш муҳим аҳамиятга эга.

Ушбу мақоланинг мақсади хорижий давлат судларининг қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнида давлат суверенитети масалаларини ўрганиш, шу жумладан, давлатларнинг суверен тенглиги принципига таъсирини таҳлил қилишдан иборат.

Усуллар ва адабиётлар таҳлили. Ушбу тадқиқот халқаро ҳужжатлар ва миллий қонунчилик ҳужжатларини таҳлил қилиш асосида олиб борилди. Мақолани тайёрлашда қуйидаги усуллардан фойдаланилди:

1. Тарихий-ҳуқуқий таҳлил: хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш институтининг ривожланишини ўрганиш.

2. Қиёсий-ҳуқуқий таҳлил: хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этишда турли норматив ҳужжатларни таққослаш.

3. Тизимли таҳлил: хорижий суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнида давлат суверенитетига таъсир этувчи омилларни аниқлаш.

4. Мантиқий таҳлил: олинган маълумотларни умумлаштириш ва хулосалар чиқариш.

Тадқиқот доирасида халқаро конвенциялар, миллий қонунчилик ҳужжатлари ва илмий адабиётлар ўрганилди. Хусусан, 1958-йилги “Чет эл арбитражлари қарорларини тан олиш ва ижрога қаратиш тўғрисида”ги конвенция (кейинг ўринларда Нью-Йорк конвенцияси), 2005-йилги “Судни танлаш тўғрисида”ги Гаага конвенцияси (кейинг ўринларда Гаага конвенцияси), Ўзбекистон Республикасининг ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш тўғрисидаги халқаро шартномалари, Ўзбекистон Республикасининг Иқтисодий процессуал кодекси ва бошқа қонун ҳужжатлари таҳлил қилинди [2, 3, 4].

Илмий адабиётлар орасида Богуславский М.М., Ерпилева Н.Й., Лунц Л.А., каби россиялик олимларнинг асарлари, шунингдек, Г.Борн, Т.Хартлей, А.Бриггс каби хорижий мутахассисларнинг тадқиқотлари ўрганилди [5, 6, 7].

Натижалар. Хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этишнинг ҳуқуқий асослари халқаро конвенциялар ва миллий қонунчилик билан белгиланади. 1958-йилги Нью-Йорк конвенцияси ва 2005-йилги Гаага конвенцияси бу соҳадаги асосий халқаро ҳужжатлар ҳисобланади [2, 3].

Давлат суверенитети принципи хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнига сезиларли таъсир кўрсатади. Бу асосан, қуйидаги йўналишларда намоён бўлади:

- а) Хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этишнинг ихтиёрийлиги;
- б) Жамоат тартиби (order public) тушунчасининг қўлланилиши;
- с) Миллий судларнинг хорижий суд қарорларини текшириш ваколати [8].

Замонавий тенденциялар хорижий суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнини соддалаштириш ва тезлаштиришга йўналтирилган. Бироқ, бу жараёнда давлат суверенитетини ҳимоя қилиш масаласи ҳамон долзарб бўлиб қолмоқда [9].

Таҳлил ва муҳокама. Хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнида давлат суверенитети масаласи мураккаб ва кўп қиррали муаммо ҳисобланади. Бир томондан, халқаро савдо ва иқтисодий алоқаларнинг ривожланиши хорижий суд қарорларини тезкор ва самарали ижро этишни талаб қилади. Бошқа томондан эса, ҳар бир давлат ўз суверенитетини ҳимоя қилишга интилади.

Давлатларнинг суверен тенглиги принципи халқаро ҳуқуқнинг асосий принципларидан бири ҳисобланади. Бу принцип БМТ Низомининг 2-моддасида

мустаҳкамланган бўлиб, барча давлатларнинг тенг ҳуқуқлилиги ва бир-бирининг ички ишларига аралашмаслигини назарда тутди [10]. Шу нуқтаи назардан, хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёни давлатнинг суверен ҳуқуқларига дахл қилиши мумкин.

Хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этишнинг ихтиёрийлиги давлат суверенитетини ҳимоя қилишнинг муҳим воситаси ҳисобланади. Ҳар бир давлат ўз миллий қонунчилигида хорижий суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш шартлари ва тартибини белгилаш ҳуқуқига эга. Бу эса давлатга ўз манфаатларини ҳимоя қилиш имконини беради.

Жамоат тартиби (order public) тушунчаси давлат суверенитетини ҳимоя қилишнинг яна бир муҳим воситаси ҳисобланади. Бу тушунча давлатга, бошқа бир давлат суди томонидан чиқарилган қарорини тан олиш ёки ижро этишдан бош тортиш имконини беради, агар бу қарор миллий ҳуқуқ тизимининг асосий принциплари ва қадриятларига зид бўлса [6].

Шу билан бирга, замонавий тенденциялар хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнини соддалаштириш ва тезлаштиришга йўналтирилган. Бу эса давлат суверенитетини ҳимоя қилиш масаласига янгича ёндашувни талаб қилади. Хусусан, 2005-йилги Гаага конвенцияси, суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнини соддалаштириш ва стандартлаштириш мақсадида қабул қилинган [3].

Давлат суверенитетини ҳимоя қилиш ва хорижий давлат суд қарорларини самарали ижро этиш ўртасидаги мувозанатни сақлаш учун қуйидаги ёндашувлар таклиф этилади:

1. Халқаро ҳамкорликни кучайтириш ва ягона стандартларни ишлаб чиқиш;
2. Миллий қонунчиликни халқаро конвенциялар талабларига мослаштириш;
3. Турли давлатларнинг судьялари учун ўқув дастурларини ташкил этиш орқали суд амалиётини уйғунлаштириш ва тажриба алмашиш;
4. Замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш орқали хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнини тезлаштириш.

Хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнида давлат суверенитети масаласи кўп жиҳатдан мураккаб ва зиддиятли характерга эга. Бу жараённи чуқурроқ таҳлил қилиш учун қуйидаги қўшимча жиҳатларга эътибор қаратиш лозим:

1. Халқаро ҳуқуқ ва миллий қонунчилик ўртасидаги муносабат. Хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш масаласи халқаро ҳуқуқ ва миллий қонунчилик ўртасидаги муносабатларнинг мураккаб тизимини акс эттиради. Бир томондан, давлатлар халқаро конвенцияларга қўшилиш орқали маълум мажбуриятларни ўз зиммаларига оладилар. Бошқа томондан эса, ҳар бир давлат ўз миллий қонунчилигини мустақил равишда шакллантириш ҳуқуқига эга [5].

Бу вазиятда давлатлар кўпинча “дуалистик” ёндашувни қўллайдилар, яъни халқаро ҳуқуқ нормаларини миллий қонунчиликка имплементация қилиш орқали уларни ўз ҳуқуқий тизимларига мослаштирадилар. Бироқ, бу жараён ҳар доим ҳам силлиқ кечмайди ва баъзан зиддиятларга олиб келиши мумкин. Масалан, баъзи давлатлар хорижий суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш учун ўзаролик (reciprocity) принципини талаб қиладилар. Бу принципга кўра, давлат фақат ўз суд қарорларини тан

оладиган ва ижро этадиган давлатларнинг суд қарорларинигина тан олади ва ижро этиши тушунилади. Бу ёндашув давлат суверенитетини ҳимоя қилиш нуқтаи назаридан самарали бўлиши мумкин, бироқ давлатлараро турли муносабатларда масалан, савдо, инвестицион ва ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш каби соҳаларда маълум бир тўсиқларни яратиши мумкин [7].

2. Жамоат тартиби (*ordre public*) тушунчасининг ноаниқ табиати. Жамоат тартиби тушунчаси давлат суверенитетини ҳимоя қилишнинг муҳим воситаси бўлса-да, унинг ноаниқ табиати амалиётда муаммоларга олиб келиши мумкин. Ҳар бир давлат ўз жамоат тартибини ўзи белгилайди ва бу тушунча вақт ўтиши билан ўзгариб бориши мумкин. Баъзи ҳолларда давлатлар жамоат тартиби тушунчасини жуда кенг талқин қилиши натижасида, хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этишдан асоссиз равишда бош тортишлари мумкин. Бу эса халқаро савдо, инвестицион ва ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш муҳитига салбий таъсир кўрсатади ва давлатлар ўртасидаги ишончни пасайтиради [6].

Шу сабабли, халқаро ҳамжамият жамоат тартиби тушунчасини аниқроқ белгилаш ва унинг қўлланилиши доирасини чегаралаш бўйича саъй-ҳаракатлар амалга ошириб келмоқда. Масалан, 2005-йилги Гаага конвенцияси жамоат тартиби тушунчасини фақат “очиқ-ойдин” (*manifestly*) зиддият ҳолатлардагина қўллашни тавсия этади [3].

3. Юрисдикция масалалари. Хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнида юрисдикция масалалари алоҳида аҳамиятга эга. Давлатлар ўз суверен ҳуқуқларини ҳимоя қилиш мақсадида баъзан хорижий давлат судларнинг юрисдикциясини тан олишдан бош тортишлари мумкин. Бу муаммони ҳал қилиш учун халқаро конвенциялар ва икки томонлама шартномаларда юрисдикция масалалари аниқ белгилаб қўйилиши лозим. Шунингдек, судлар ўртасида ҳамкорликни кучайтириш ва тажриба алмашиш орқали юрисдикция масалаларида ягона ёндашувни шакллантириш мумкин [8].

4. Иммунитет масалалари. Давлат иммуниyeti принципи хорижий суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнига сезиларли таъсир кўрсатади. Анъанавий ёндашувга кўра, давлат бошқа давлат судларининг юрисдикциясидан иммунитетга эга. Бироқ, замонавий халқаро ҳуқуқда “чекланган иммунитет” концепцияси тобора кенг тарқалмоқда. Бу концепцияга кўра, давлат ўзининг тижорат фаолияти доирасида иммунитетдан воз кечиши мумкин. Бу эса хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш имкониятларини кенгайтиради. Бироқ, бу масалада ҳамон баҳсли жиҳатлар мавжуд бўлиб, ҳар бир ҳолат алоҳида кўриб чиқирилишини талаб қилади [9].

5. Арбитраж қарорларини тан олиш ва ижро этиш. Хорижий арбитраж қарорларини тан олиш ва ижро этиш масаласи алоҳида эътиборга лойиқ. 1958-йилги Нью-Йорк конвенцияси бу соҳада муҳим аҳамиятга эга бўлиб, кўплаб давлатлар томонидан ратификация қилинган [2]. Арбитраж қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёни, одатда, суд қарорларига нисбатан соддароқ кечади. Бу эса халқаро савдо ва инвестиция низоларини ҳал қилишда арбитражнинг ролини оширмоқда. Бироқ, бу ҳолат ҳам давлат суверенитетига маълум даражада таъсир кўрсатиши мумкин, чунки арбитраж қарорлари миллий судлар назоратидан четда қолиши мумкин [10].

6. Замоनावий технологияларнинг таъсири. Бугунги кунда, ахборот технологияларининг ривожланиши хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнига сезиларли таъсир кўрсатиши мумкин. Чунки, электрон ҳужжат айланиши, онлайн суд мажлислари, блокчейн технологиялари каби янгиликлар бу жараёни соддалаштириш ва тезлаштириш имконини бермоқда. Бироқ, бу технологияларнинг қўлланилиши янги ҳуқуқий ва техник муаммоларни келтириб чиқармоқда. Масалан, маълумотларни ҳимоя қилиш, киберхавфсизлик, электрон имзоларнинг ҳуқуқий кучи каби масалалар ҳал қилиниши лозим. Бу эса давлатлардан ўз қонунчилигини янги технологик реалликка мослаштириш ва халқаро ҳамкорликни кучайтиришни талаб қилади.

Хулоса. Хорижий давлат судларининг қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнида давлат суверенитети масалалари муҳим аҳамият касб этади. Бу жараён давлатларнинг суверен тенглиги принципи билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, халқаро ҳуқуқ ва миллий қонунчилик ўртасидаги муносабатларни тартибга солишни талаб қилади.

Тадқиқот натижасида қуйидаги асосий хулосалар чиқарилди:

1. Хорижий суд қарорларини тан олиш ва ижро этишнинг ҳуқуқий асослари халқаро конвенциялар ва миллий қонунчилик билан белгиланади.

2. Давлат суверенитети принципи хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнига сезиларли таъсир кўрсатади, бу эса жараёнинг ихтиёрийлиги, жамоат тартиби тушунчасининг қўлланилиши ва миллий судларнинг ваколатлари орқали намоён бўлади.

3. Замоनावий тенденциялар хорижий давлат суд қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнини соддалаштириш ва тезлаштиришга йўналтирилган, бироқ бу жараёнда давлат суверенитетини ҳимоя қилиш масаласи ҳамон долзарб бўлиб қолмоқда.

4. Давлат суверенитетини ҳимоя қилиш ва хорижий давлат суд қарорларини самарали ижро этиш ўртасидаги мувозанатни сақлаш учун халқаро ҳамкорликни кучайтириш, миллий қонунчиликни халқаро стандартларга мослаш ва замоनावий ахборот технологияларидан фойдаланиш тавсия этилади.

Хулоса қилиб айтганда, хорижий давлат судларининг қарорларини тан олиш ва ижро этиш жараёнида давлат суверенитети масалаларини ҳал этиш учун халқаро ҳамжамият ва алоҳида давлатларнинг биргаликдаги саъй-ҳаракатлари талаб этилади. Бу эса давлатлар ўртасида халқаро савдо ва иқтисодий ҳамда ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш бўйича алоқаларнинг ривожланишига, шунингдек, давлатларнинг суверен ҳуқуқларини ҳимоя қилишга хизмат қилади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. United Nations Charter 1945 (full text) <https://www.un.org/en/about-us/un-charter/full-text>
2. United Nations Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards (New York, 10 June 1958) <https://www.newyorkconvention.org/english>

3. Convention of 30 June 2005 on Choice of Court Agreements. Entry into force: 1-X-2015. <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=98>
4. Ўзбекистон Республикасининг Иқтисодий процессуал кодекси, 01.04.2018, <https://lex.uz/ru/docs/-3523891>
5. Богуславский М.М. Международное частное право. Москва: Юрист 2007.
6. Ерпылева, Н.Ю. Международное частное право. М.: Издательство Юрайт, 2015.
7. Gary B. Born, Peter B. Rutledge (2014). International Civil Litigation in United States Courts. Alphen aan den Rijn: Kluwer Law International.
8. Convention of 30 June 2005 on Choice of Court Agreements. Explanatory Report by Trevor Hartley & Masato Dogauchi. The Hague: HCCH Publications. <https://www.hcch.net/en/publications-and-studies/details4/?pid=3959>
9. Briggs A. Agreements on jurisdiction and choice of law //(No Title). – 2008.
10. Лунц Л.А. Курс международного частного права. 2-е изд. М.: Спарк, 2002.

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

PERSONS PERFORMING AIR CARRIAGE UNDER A CONTRACT OF CARRIAGE BY AIR

Salimova Diyorakhon Bakhtiyorzhon kizi

University of World Economy and Diplomacy

Basic doctoral student of the 1st year.

Law College of the Fergana Region

Teacher of the Department of Special Disciplines

E-mail: diyora.aa5348131@gmail.com

Abstract. The carrier whose rights and obligations are regulated by both national and international norms, plays an important role in the transport system. In this article will be considered the concept of carrier – operator, a special range of subjects of the contract of carriage by air, having the right to carry out carriage and the peculiarities of their legal regulation in Uzbekistan.

Keywords: air carriage, ‘carrier’, Air Code, operator, flight, civil aviation, aviation works, aviation enterprise, airline, general aviation, certificate.

ЛИЦА, ОСУЩЕСТВЛЯЮЩИЕ ВОЗДУШНУЮ ПЕРЕВОЗКУ ПО ДОГОВОРУ ВОЗДУШНОЙ ПЕРЕВОЗКИ

Салимова Диёрахон Бахтиёржон кизи

Университет мировой экономики и дипломатии

Базовый докторант 1го курса.

Юридический техникум Ферганской области

Преподаватель кафедры «Специальные дисциплины»

Аннотация. Важную роль в транспортной системе играет перевозчик, чьи права и обязанности регулируются как национальными, так и международными нормами. В данной статье будут рассмотрены понятие перевозчик – эксплуатант, круг субъектов договора воздушной перевозки, имеющие право осуществлять перевозку и особенности их правового регулирования в Узбекистане.

Ключевые слова: воздушная перевозка, «перевозчик», Воздушный кодекс, эксплуатант, полет, гражданская авиация, авиационные работы, авиационное предприятие, авиакомпания, авиация общего назначения, сертификат.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N19>

Важной ветвью транспортной системы каждой страны, включая Республику Узбекистан, несомненно, является воздушная перевозка. Правовая основа упорядочивания воздушных перевозок Узбекистана ложится как на национальном законодательстве, так на международных соглашениях, участником которых является наше государство. Однако отставание в правовом регулировании данной сферы влечет

пробелы и проблемы в правоприменительной практике, что обусловило необходимость изучения термина «перевозчик», прежде чем установления его ответственности.

Основным нормативным актом, регулирующим воздушные перевозки в Узбекистане, являются Гражданский кодекс, Воздушный кодекс Республики Узбекистан (далее – ВК РУз). Последний документ устанавливает общие положения о воздушных перевозках, определяет права и обязанности сторон, участвующих в перевозочном процессе, а также регулирует вопросы ответственности перевозчика за выполнение своих обязательств.

Республика Узбекистан в сфере воздушной перевозки является участником Варшавской конвенции 1929 года и Гаагского протокола к нему. Эти международные договоры содержат ключевые положения о правах пассажиров и обязанностях перевозчика, а также о его ответственности в случае ущерба, причиненного пассажирам или грузам.

Для анализа настоящей статьи применялись метод сравнительно-правовой анализ законодательств, также описательный и обобщительный методы.

Результаты анализа исследуемой темы заключаются в следующем, согласно договору воздушной перевозки перевозчиком выступает особый субъект, т.е. эксплуатант (он же считается владельцем авиатранспорта). Эксплуатант, в свою очередь, имеет 2 формы: авиакомпания и авиационное предприятие. Создателем авиакомпаний, непосредственно, могут быть и юридические, и физические лица. В работе теоретические положения проанализированы вместе со сложившейся практикой.

Напомним, согласно ВК РУз договор воздушной перевозки пассажира и багажа представляет собой соглашение, по которому перевозчик обязуется доставить пассажира и его багаж в указанный пункт назначения, предоставив пассажиру место на воздушном судне, выполняющем рейс, указанный в билете. В случае перевозки багажа, перевозчик также обязуется доставить багаж в пункт назначения и передать его пассажиру или лицу, имеющему право на получение багажа [1]. Этот договор создает обязательства между перевозчиком и пассажиром (или грузоотправителем). Таким образом, в воздушной перевозке участвуют две стороны: перевозчик и пассажир (или грузоотправитель в договоре перевозки груза). Названия сторон зависит от вида договора воздушной перевозки.

Считаем, что термины «перевозчик по договору воздушной перевозки» и «авиаперевозчик» являются эквивалентными. Если рассмотреть вопрос детально, становится ясно, что Варшавская конвенция не содержит четкого определения термина «перевозчик», оставляя это на усмотрение национальных правовых норм. В свою очередь, Монреальская конвенция уточняет это определение, добавляя одно важное требование: согласно статье 50, перевозчик обязан обеспечить страхование своей ответственности. [2].

Несмотря на возможность объединения капиталов при создании авиакомпании, «перевозчик» всегда принадлежит к конкретной национальной юрисдикции, которая определяется страной его регистрации. Например, авиакомпания «SAS», объединяющая капиталы Дании, Норвегии и Швеции, все же имеет определенную национальную

принадлежность, поскольку зарегистрирована по шведскому законодательству и, следовательно, формально считается шведским авиационным предприятием. [3.62].

По нашему законодательству и юридическое и физическое лицо может считаться перевозчиком, если подпадают под требования него. Тем не менее, В.Н. Дежкин, анализируя статьи 1.1 и 2.1 Варшавской конвенции, полагает, что право на создание перевозочной организации принадлежит исключительно юридическим лицам. Он также считает, что только государственные или иные публично-правовые организации могут быть признаны «перевозчиками» [4.14]. Однако многие специалисты считают это заблуждением, так как в Варшавской конвенции нет положений, ограничивающих круг лиц, имеющих право заниматься перевозкой. Более того, практика не подтверждает позицию Дежкина. Конвенция лишь устанавливает, что её нормы касаются бесплатных перевозок, осуществляемых предприятиями воздушного транспорта, которые в нашем праве трактуются как юридические лица¹.

Понятие перевозчик по договору воздушной перевозки в гражданском кодексе Республики Узбекистан также не разъяснено. Оно дается в статье 94 Воздушного кодекса, где перевозчиком понимается эксплуатант воздушного судна, имеющий сертификат эксплуатанта. В этом случае перевозчик должен обладать соответствующими разрешениями и лицензиями, которые подтверждают его право на осуществление коммерческих воздушных перевозок. Согласно данному кодексу, эксплуатантом считается юридическое или физическое лицо, который владеет воздушным судном на основании права собственности (владелец аэродрома), аренды или других предусмотренных законодательством Республики Узбекистан оснований. При этом владение воздушным судном должно быть подтверждено сертификатом эксплуатанта. Из этого определения можно выделить три важные условия [5], чтобы юридическое лицо или физическое лица признать эксплуатантом.

Первое условие заключается в том, что воздушное судно может находиться во владении как юридического, так и физического лица на основе различных имущественных прав, включая права собственности, аренды, лизинга или доверительного управления. О.И. Аксаментов подчеркивает новизну законодательства, заключающуюся в том, что воздушное судно может принадлежать на законных основаниях как гражданам, так и юридическим лицам.

Употребление воздушных судов для полетов является вторым признаком. Вообще, понятие «полет» встречается в любом нормативно-правовом акте воздушного законодательства. Известно, полет² означает передвижение по воздуху. Однако в воздушном кодексе отсутствует специальное значение к данному понятию. Легальное определение полета дается в международных конвенциях. На наш взгляд, наиболее подходящая дефиниция понятию «полет» дается в Конвенции о борьбе с незаконными актами в отношении международной гражданской авиации (Пекинская конвенция), согласно которому воздушное судно называется в полете с момента закрытия его дверей после погрузки, вплоть до открытия для выгрузки.

¹ Здесь следует оговориться, что, например, во Франции в качестве авиационного предприятия (enterprise de transport) может выступать и физическое лицо при условии, что перевозки осуществляются таким лицом в качестве обычной предпринимательской деятельности. Подробнее см. Miller Georgette. Liability in international air transport: the Warsaw system in municipal courts. - Kluwer-Deventer-the Netherlands-1977. P. 12.

² Полет - передвижение в атмосфере или безвоздушной среде. перемещение тела в газообразной среде или вакууме

Третье условие заключается в наличии свидетельства эксплуатанта, т.е. сертификата. Сертификат, подтверждающий соответствие требованиям, установленным авиационными правилами для эксплуатантов, выдается Авиационной администрацией физическим или юридическим лицам. Для его получения необходимо иметь в наличии либо собственные, либо арендованные воздушные судна, а также структурированные летные и технические службы (44 ВК). Этот документ подтверждает, что эксплуатант соответствует сертификационным требованиям законодательства и имеет возможность осуществлять разрешенные виды воздушных перевозок и авиационных работ в соответствии с условиями и ограничениями, указанными в эксплуатационных спецификациях.

Согласно классификации авиация имеет три вида:

- А) гражданская;
- Б) государственная;
- В) экспериментальная.

В подобном контексте, перевозчик имеет отношение с гражданской авиацией, т.е. эксплуатант осуществляет деятельность с целью обеспечения потребностей населения и экономики. Гражданская авиация представляет собой вид авиации, предназначенный для выполнения воздушных перевозок пассажиров, багажа, грузов и почты, а также для выполнения различных авиационных работ. Кроме того, она охватывает проведение учебных, спортивных и культурно-просветительных мероприятий, развитие технического творчества, удовлетворение личных потребностей граждан, а также обеспечение доставки сил и средств в зоны чрезвычайных ситуаций для проведения аварийно-спасательных операций и доставки гуманитарной помощи пострадавшим. Эти услуги могут оказываться как на возмездной основе (в рамках коммерческой гражданской авиации, согласно п. 2 ст. 24 ВК РУз), так и на безвозмездной (в рамках авиации общего назначения, согласно п. 3 ст. 24 ВК РУз).

Под авиационными работами, перечень услуг которых определяется Авиационной администрацией, ВК РУз понимает специализированные операции, выполняемые на коммерческой основе с использованием авиационных средств, направленные на поддержку технологических или транспортных процессов для предприятий, учреждений, организаций и частных лиц (заказчиков). К таким работам относятся экспериментальные и научно-исследовательские мероприятия, санитарные и природоохранные действия, оказание медицинской помощи населению, а также ликвидация последствий стихийных бедствий и аварий.

Следовательно, юридическое или физическое лицо не может быть квалифицировано как эксплуатант, если его деятельность не имеет отношения к гражданской авиации. В свою очередь, эксплуатант выступает в двух видах:

- 1) перевозчик;
- 2) эксплуатант, основной целью которого является кроме осуществления возмездных воздушных перевозок, выполнение авиационных работ безвозмездно.

Из этого можно заключить, что эксплуатант в рамках договора воздушной перевозки может рассматриваться как перевозчик. Однако не каждый эксплуатант обладает статусом перевозчика [6]. Это различие в терминах может вызвать путаницу при попытке разобраться в сущности субъектов воздушной перевозки, так как в этой

сфере действует несколько специализированных субъектов, таких как перевозчик, эксплуатант, авиационное предприятие и авиакомпания, каждый из которых имеет свои правовые функции и значения.

Проще говоря, термин "эксплуатант", как уже упоминалось, включает в себя понятие перевозчика. Если юридическое или физическое лицо владеет воздушным судном на правах собственности или на ином законном основании, использует его для полетов, имеет сертификат эксплуатанта и лицензию на выполнение перевозок пассажиров, багажа, грузов или почты по договорам воздушной перевозки, то оно является перевозчиком. В комментариях к Воздушному кодексу подчеркивается, что термин "перевозчик" имеет гражданско-правовое значение, представляя сторону договора, а в самом кодексе это лицо обозначается как "эксплуатант".

В случае, если перевозчиком является юридическое лицо, стоит учитывать, что это субъект воздушного права — авиационное предприятие (наряду с авиакомпаниями). Авиационное предприятие может не только выполнять перевозки, но и предоставлять авиационные услуги за плату, если это является его основной деятельностью. Когда авиационное предприятие осуществляет перевозку на основании договора воздушной перевозки, оно также признается перевозчиком. Поскольку договор перевозки имеет предпринимательский характер, юридическое лицо должно иметь коммерческую организационно-правовую форму.

Чтобы физическое лицо могло стать перевозчиком, оно обязано зарегистрироваться в качестве индивидуального предпринимателя (ИП) [6]. Многие исследователи, когда объясняют понятию перевозчик, вместо физического лица упоминают его как индивидуальное предприятие (далее - ИП) [7]. Поскольку физическое лицо не может напрямую заниматься перевозками без коммерческой регистрации, ему необходимо зарегистрироваться в качестве ИП для осуществления коммерческой деятельности в области перевозок, независимо от их вида. После регистрации как ИП, лицо получает право на получение лицензии, а также должно соответствовать другим требованиям.

Кроме того, необходимо разграничить понятия "авиационное предприятие" и "авиакомпания". Следует отметить, что термин "авиакомпания" имеет более широкое значение, чем "авиационное предприятие"[5]. Во-первых, авиакомпания может осуществлять деятельность как на коммерческой основе, так и бесплатно, например, в рамках авиации общего назначения (п. 3 ст. 24 ВК РУз). В то время как авиационное предприятие всегда действует на платной основе, так как его деятельность имеет коммерческий характер. Во-вторых, авиакомпании могут создаваться не только юридическими лицами, но и физическими лицами, зарегистрированными как индивидуальные предприниматели. Несмотря на то, что законодательство не дает отдельного определения термину "авиакомпания", анализируя различия с авиационным предприятием, можно сделать вывод, что авиакомпании могут быть как юридическими, так и физическими лицами.

В завершение можно сделать вывод, что лица, осуществляющие воздушную перевозку, включают широкий круг субъектов, каждый из которых выполняет свою функцию в соответствии с национальными и международными нормами. Перевозчиками могут быть как юридические лица, так и физические,

зарегистрированные как индивидуальные предприниматели, при наличии соответствующих лицензий и сертификатов, подтверждающих право на осуществление деятельности в сфере авиации. Эксплуатант, владеющий или использующий воздушное судно на праве собственности или ином законном основании, при наличии сертификата эксплуатанта, может выступать в роли перевозчика. Однако не каждый эксплуатант является авиапредприятием, так как последние всегда действуют в коммерческом формате.

Правовой статус перевозчиков определяется государством их регистрации, что придаёт им национальную принадлежность, независимо от того, как организована структура капитала или управление компанией. Даже в случае объединения капитала из разных стран, как это бывает с международными авиакомпаниями, перевозчик сохраняет свою национальность в зависимости от юрисдикции регистрации.

Кроме того, авиапредприятия, как коммерческие организации, могут не только осуществлять перевозку пассажиров, багажа и грузов, но и выполнять авиационные работы, что расширяет их функции в отличие от обычных перевозчиков. Авиакомпании могут создаваться как в форме юридических, так и физических лиц, что делает их более гибкими в организации своей деятельности. В целом, правовое регулирование воздушных перевозок в Узбекистане и в международной практике предусматривает чёткое разграничение функций перевозчиков и эксплуатантов, одновременно позволяя гибкость в их организационно-правовых формах и национальной принадлежности.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Воздушный кодекс Республики Узбекистан [Электронный ресурс]. <https://lex.uz/docs/55599>
2. Монреальская конвенция для унификации некоторых правил международных воздушных перевозок. 28.05.1999 [Электронный ресурс]. Доступ из справ.-правовой системы «КонсультантПлюс».
3. Щурова А.А. Ответственность воздушного перевозчика за причинение вреда жизни и здоровью пассажира при международной перевозке. Диссертация к.ю.н.: 12.00.03 - Москва, 2009. - 200 с.
4. Дежкин В.Н. Основания и условия ответственности авиаперевозчика в международных соглашениях по воздушному праву. Диссертация к.ю.н. - Москва, 1977. С. 14.
5. Аксаментов О.И. Правовое положение воздушного перевозчика. Правовой научнопрактический журнал «Кодекс info» №12, 2001г.
6. Ремишевский, Петр Викторович Гражданско-правовая ответственность перевозчика по договору воздушной перевозки: дисс.к.ю.н. 12.00.03 - Москва, 2007 <http://dlib.rsl.ru/r/rsl01003358809.pdf>
7. Толстова, М. Ф. Понятие перевозчика по договору воздушной перевозки / М. Ф. Толстова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2022. — № 33 (428). — С. 108-110. — URL: <https://moluch.ru/archive/428/94510/> (дата обращения: 16.09.2024).

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

EVOLUTION AND EFFECTIVENESS OF INTERNATIONAL LEGAL MECHANISMS IN COMBATING TERRORISM: ANALYSIS OF MODERN APPROACHES AND PROSPECTS

Ochilov Shermat Rashidovich,
Independent Researcher of TSUL
E-mail: ochilov.shermat00@mail.ru

Abstract. This article analyzes the international legal framework for combating terrorism and the stages of its development. The author examines the evolution of international legal mechanisms for combating terrorism, dividing it into three periods: the early period (up to the 1970s), the middle period (1980-2000), and the modern period (from 2001 to the present). Important international documents adopted in each period, their significance and impact are examined in detail. The article analyzes conventions adopted within the UN framework, particularly the Convention for the Suppression of Terrorist Bombings, the Convention for the Suppression of the Financing of Terrorism, and other documents. Documents adopted by regional organizations are also considered. The author identifies shortcomings in existing international legal mechanisms and proposes ways to improve them. Specifically, the adoption of new conventions on preventing radicalism and extremism, protecting human rights in the context of counter-terrorism, protecting children and youth from recruitment into terrorist organizations, and combating the spread of terrorist materials on social networks is proposed. The article substantiates the need to improve the international legal framework for combating terrorism and strengthen international cooperation in this field.

Keywords: Counter-terrorism, international law, UN conventions, international cooperation, legal mechanisms, global security.

ТЕРРОРИЗМГА ҚАРШИ КУРАШДА ХАЛҚАРО-ҲУҚУҚИЙ МЕХАНИЗМЛАРНИНГ ЭВОЛЮЦИЯСИ ВА САМАРАДОРЛИГИ: ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР ТАҲЛИЛИ

Очилов Шермат Рашидович,
ТДЮУ мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. Ушбу мақолада терроризмга қарши курашнинг халқаро-ҳуқуқий асослари ва уларнинг ривожланиш босқичлари таҳлил қилинган. Муаллиф терроризмга қарши курашнинг халқаро-ҳуқуқий механизмлари эволюциясини уч даврга бўлиб ўрганади: илк давр (1970-йилларгача), ўрта давр (1980-2000 йиллар) ва замонавий давр (2001 йилдан ҳозиргача). Ҳар бир даврда қабул қилинган муҳим халқаро ҳужжатлар, уларнинг аҳамияти ва таъсири батафсил кўриб чиқилган. Мақолада БМТ доирасида қабул қилинган конвенциялар, хусусан Бомбали терроризмга қарши кураш тўғрисидаги конвенция, Терроризмни молиялаштиришга қарши кураш тўғрисидаги конвенция ва бошқа ҳужжатлар таҳлил қилинган. Шунингдек, минтақавий ташкилотлар томонидан қабул қилинган ҳужжатлар ҳам кўриб чиқилган. Муаллиф мавжуд халқаро-ҳуқуқий механизмларнинг камчиликларини аниқлаб, уларни такомиллаштириш бўйича таклифлар берган. Хусусан, радикализм ва экстремизмни олдини олиш, терроризмга қарши курашда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, болалар ва ёшларни террористик ташкилотларга ёлланишдан ҳимоя қилиш, ижтимоий тармоқларда террористик материалларни тарқатишга қарши кураш бўйича янги конвенциялар қабул қилиш таклиф этилган. Мақолада терроризмга қарши курашнинг халқаро-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш ва бу соҳада халқаро ҳамкорликни кучайтириш зарурлиги асослаб берилган.

Калит сўзлар: Терроризмга қарши кураш, халқаро ҳуқуқ, БМТ конвенциялари, халқаро ҳамкорлик, ҳуқуқий механизмлар, глобал хавфсизлик.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N20>

Терроризмга қарши халқаро курашнинг моддий ва ҳуқуқий асосини ҳам универсал, ҳам минтақавий даражадаги турли-туман ҳуқуқий ҳужжатлар ташкил этади. Уларнинг барчаси «ушбу масаланинг барча жиҳатларини ўз ичига олган кенг қамровли ҳуқуқий базанинг мавжудлигини таъминлаш мақсадида терроризмнинг барча кўринишларининг олдини олиш, унга чек қўйиш ва унга барҳам бериш»дек ягона мақсадни амалга оширишга қаратилган[1]. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти тизимининг терроризмга қарши конвенцияларида, БМТ Бош Ассамблеяси ва БМТ Хавфсизлик Кенгашининг резолюцияларида (... қоидаларига риоя қилиш, ... ва ҳоказо) бажариш зарурлиги БМТ шафелигида яратилган турли антитеррор ҳужжатларининг қонуний талабларида кўрсатилган[2]. Минтақавий аксилтеррор конвенциялари ўз матнларида терроризмга қарши кураш муносабати билан қабул қилинган БМТ тизимининг ҳуқуқий ҳужжатлари қоидаларини бевосита ҳисобга олади[3,4].

Глобаллашув ва технологик тараққиёт шароитида террористик ташкилотлар ва террористик гуруҳлар ўз мақсадларини амалга ошириш учун янги воситалар ва усулларни вужудга келиши, терроризмга қарши курашни тобора қийинлаштирмоқда. Терроризмга қарши курашни халқаро даражада тартибга солиш давлатлар, халқаро ташкилотлар ва бошқа манфаатдор томонлар ўртасида ҳамкорликни тартибга солиш бўйича халқаро майдонда бир қанча халқаро ҳужжатлар қабул қилинди. Хусусан, хавфсизлик ва тинчликка қарши таҳдид ҳисобланган терроризмга қарши курашда халқаро-ҳуқуқий асосларни ёритиб беришда албатта даврларга бўлиб ўрганиш муҳим ҳисобланади. Бу даврлаштиришни фикримизча илк давр, ўрта давр ва замонавий даврга бўлиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Илк давр, Терроризм масаласи 1972 йилгача Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг доимий равишда кун тартибидаги масала ҳисобланмаган. Аммо терроризм масаласи БМТда 1972 йилгача кўрилмаган ва ўрганилмаган деган фикрдан йироқмиз. Чунки, терроризм 1948 йил сентябрь ойида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Хавфсизлик Кенгаши 57-сонли резолюциясида биринчи бор тўхталиб ўтилган [5]. Шунингдек, 1950 йилларда Халқаро ҳуқуқ комиссияси томонидан тайёрланган «Инсон тинчлиги ва хавфсизлигига қарши жиноятлар тўғрисидаги кодекс лойиҳаси»нинг маърузасида терроризм ҳақида бир неча фикрлар билдирилди. 1951 йилдаги Халқаро ҳуқуқ комиссиясининг учинчи сессиясида кодекс лойиҳасининг 2(6)-моддасида терроризм агрессив ҳаракат, хусусан, «давлат ҳокимияти органлари томонидан бошқа давлатда террорчилик фаолиятини амалга ошириш ёки рағбатлантириш ёки давлат ҳокимияти органлари томонидан бошқа давлатда террорчилик ҳаракатларини амалга оширишга қаратилган уюшган фаолиятга қўллаб-қувватлаш» [6] деб таъриф берилди.

Терроризм масаласи 1960 йилларда «Давлатлар ўртасидаги дўстона муносабатлар ва ҳамкорлик тўғрисида халқаро ҳуқуқ принциплари декларацияси» контекстида яна бир-бор кўтарилди[7]. Мазкур декларация 1970 йил БМТ Бош Ассамблеясининг 2625-сон Резолюцияси билан қабул қилинди. Давлатлар ўртасида

дўстона муносабатларни ўрнатишни мақсад қилган декларацияда терроризм тушунчаси тўлиқ ёритиб берилмаган бўлсада, ҳукуматларни террорчилик ҳаракатларини содир этишдан ёки бошқа давлатда у билан боғлиқ фаолиятда қатнашишдан, шунингдек, бундай фаолиятни рағбатлантиришдан бош тортишни талаб қилди [8].

Эдвард Лак (Edward Luck) фикрича 1960 йилларда самолётларни олиб қочиш, ўғирлаш ва улар гаровга олиш жиноят тури жуда ривожланиб бориши натижасида. БМТнинг терроризмга қарши кураш ҳаракатларини ихтисослашган ташкилотлари орқали амалга оширган бўлсада, БМТни халқаро ташкилот сифатида терроризмга қарши курашдаги иштироки янги суръатга олиб чиқди [9]. Бунда Халқаро фуқаро авиацияси ташкилоти (ИКАО) 1960 йилларда БМТнинг терроризмга қарши кураш ҳаракатларининг марказий бўғинига айланди. Натижада, 1963 йилда Ҳаво кемасининг бортида содир этилган жиноятлар ва бошқа ҳаракатлар тўғрисидаги Конвенцияси (Токио конвенцияси) [10] қабул қилинди. Токио конвенциясидан етти йил ўтиб 1970 йилда Ҳаво кемаларини ноқонуний эгаллаб олишга қарши Конвенция (Гаага конвенцияси) [11] тасдиқланди.

Жойнер С (Joynes, С.) нинг таъкидлашича Токио конвенцияси нафақат жиноят рўйхатга олинган давлатда юрисдикцияни белгилаш, балки томонларни «рўйхатга олинган давлат сифатида жиноятлар устидан юрисдикцияни белгилаш учун зарур чораларни кўриш» мажбуриятини юклаган биринчи БМТ ҳужжати эди [12].

1970 йилда қабул қилинган Гаага конвенцияси Токио конвенциясига асосланган бўлиб, у «ноқонуний қўлга олиш» ҳаракатини белгилаши ва гумон қилинган жиноятчиларни экстрадиция қилиш тўғрисидаги қоидаларни ўз ичига олганлиги билан ажралиб туради. Бироқ, Гаага конвенцияси давлатлар зиммасига жиноий жавобгарликка тортиш мажбуриятини юкламади, балки жиноят ишини фақат тергов органларига топшириш мажбуриятини юклади, жиноий ишни тергов қилиш уни судга юбориш ва судда кўриб чиқиш масаласини давлатлар ўзи ҳал қилиши керак эди. Шунингдек, мазкур халқаро ҳужжат БМТнинг *aut dedere aut judicare* — экстрадиция қилиш ёки жиноий жавобгарликка тортиш тамойилига асос солди. Шу йилларда, ҳаво кемаларини ўғирлаш билан бир қаторда уларни йўқ қилиш (портлатиш) каби жиноий ҳаракатлар тобора кўпроқ муаммога айланиб борди. Жойнер С бундай ҳолатга муносабат билдириб шуни таъкидлайдики, «1967 йилдан 1979 йилгача террорчилар ҳаво кемалари бортига бомба қўйиш орқали бир нечта самолётни йўқ қилишди» [12].

Ушбу террористик жиноятларга қарши кураш ва уларни олдини олиш мақсадида БМТ томонидан 1971 йилда «Фуқаро авиацияси хавфсизлигига таҳдид солувчи ғайриқонуний актларга қарши кураш тўғрисида»ги Конвенция (Монреал конвенцияси) қабул қилинди. Гаага ва Токио конвенциялари сингари, Монреал конвенцияси ҳам юрисдикция, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари фаолияти ва экстрадиция бўйича мажбуриятларни ўз ичига олади. Конвенция 1-моддасида бевосита конвенция доирасида жавобгарликка тортилиши мумкин бўлган жиноятлар санаб берилди. Унга кўра «агар таҳдид парвоз пайтида ҳаво кемаси бортида бўлган шахсга нисбатан амалга оширилса ва бу таҳдид ҳаво кемаси хавфсизлигига таҳдид солиши мумкин бўлса ёки ҳаво кемасини ишдан чиқариш ва бу парвоз пайтида унинг хавфсизлигига таҳдид солса ёки сомалиётни йўқ қилиши мумкин бўлган ҳар қандай модда ёки қурилмаларни бортга

олиб кириш, ўрнатиш ва шу таҳдидларни содир этиш учун ҳаракатларни амалга оширса» [13]. Юқорида номи кўрсатилган конвенциялар БМТнинг террорчиликка қарши курашни амалга оширишнинг илк даврларига тўғри келади лекин бу конвенциялар террорчилик ҳаракатларини жавобгарликка тортиш учун етарли ҳуқуқий ҳуқуқий асосни яратиб бермади.

1972 йилдан 1980 йилларнинг ўрталарига қадар Бирлашган Миллатлар Ташкилоти терроризмга қарши кураш икки хил йўналишда амалга оширди. Биринчидан, ташкилотда терроризм тушунчасига аниқ яхлит жавоб сифатида тасвирланган бўлса, иккинчисидан, муаммони ҳал қилишга йўналтирилган эди. Шу ўринда М.Левит (Levitt, M.G.) шундай таъкидлайди, бу икки йўналишдан асосий кўзланган масала албатта, «терроризмни бостириш ва унинг ҳар қандай кўринишларига қарши кураш бўйча ҳуқуқий механизмларини бирхиллаштириш учун асос сифатида ягона, кенг қамровли стандартни ишлаб чиқишга қаратилган» яхлит ёндашув амалга ошириш эди [14].

БМТ томонидан чиқарилган конвенциялар натижасида олиб борилган кенг қамровли ҳаракатлардан сўнг ҳаво кемаларини олиб қочиш, уларни йўқ қилиш каби террористик ҳаракатлар билан бир қаторда яна бир террористик жиноятга қарши кураш ва уни олдини олиш халқаро ҳамжамият учун муҳим аҳамият касб этишни бошлади. Лотин Америкасидаги Марксистик экстремистлардан тортиб Хартумдаги фаластинлик террорчиларгача бўлган террористик ташкилотлар дипломатларни (элчилар, халқаро ташкилотлар вакиллари, давлатларнинг халқаро ташкилотлардаги вакиллари каби иммунитетга эга бўлган шахслар) сиёсий қурол сифатида ўғирлаш, уларни гаровга олиш ва шу каби бир қанча жиноятлар барча мамлакатлар диққатини жалб қилишнинг самарали воситаси эканлигини англадилар. Мисол учун 1968 йилда Америка Қўшма Штатлари элчиси жон Гордон Мейн ... хизмат машинасидан қочишга уринганида, орқасидан автоматдан отиб ўлдирилган ва ва 1969 йил сентябрь ойида АҚШнинг Бразилиядаги элчиси Бурк Элбрик ўғирлаб кетилган ва фақат ўн беш маҳбус озод қилинганидан кейин озод қилинган [15]. АҚШ элчиси Элбрикни ўғирлаб кетилганидан бир йил сал кўпроқ вақт ўтгач, Швеция, Япония ва Қўшма Штатлар вакили бўлган яна учта дипломат бразилиялик террорчилар томонидан ўғирлаб кетилган ва фақат Бразилия ҳукумати томонидан ушлаб турилган 130 чап қанот партизанлари озод қилинганидан кейин озод қилинган эди [15]. Натижада, 1973 йил 12 декабрда «Халқаро ҳимоядан фойдаланувчи шахсларга, шу жумладан дипломатия агентларига қарши жиноятларнинг олдини олиш ва бундай жиноятлар учун жазолаш тўғрисида»ги Конвенция қабул қилинди. Ушбу конвенцияда, халқаро ҳимоядаги шахслар рўйхати ва юрисдикция белгилаб берилди.

БМТда терроризмга қарши курашишни ўзида акс эттирган яна бир қабул қилинган конвенциялардан бири бу албатта 1979 йилда қабул қилинган «Одамларни гаровга олишга қарши кураш тўғрисида»ги Халқаро Конвенция ҳисобланади. Гаровга олиш террористик жиноий ҳаракат ҳам 1970 йилларнинг ўрталарига келиб террорчилар томонидан қуролга айлантилди. Ушбу конвенция ҳам юқоридаги фуқаро авиацияси ва халқаро миқёсда ҳимояланадиган шахслар қарши содир этиладиган террористик жиноятларга қарши кураш тўғрисидаги конвенциялар каби алоҳида соҳавий терроризмининг олдини олишга қаратилган яна бир конвенция бўлди.

Юқоридаги конвенцияларда гаровга олиш жиноятига ўхшаш қоидалар мавжудлигини ҳисобга олсак, ушбу жиноятни жиноий жавобгарликка тортиш янгилик эмас эди.

Терроризмга қарши кураш борасидаги халқаро ҳужжатлар ривожланишининг **иккинчи босқичи** (*ўрта давр*) 1980-2000 йилларни ўз ичига олади. Э.Шмидтнинг фикрича бу даврга келиб совуқ урушнинг тугаши натижасида дўстона сиёсий муҳитни яратилди [16]. Муаллифнинг фикрини давом эттириб фикримизча совуқ урушдан кейинги давр Бирлашган Миллатлар Ташкилоти доирасида терроризм билан боғлиқ масалаларда ҳамкорлик қилиш учун қулай муҳит яратди деб ҳисоблаймиз. Бундан ташқари, мустақилликка эришга собиқ мустамлака давлатлар ҳукуматлари терроризмни халқаро даражадаги таҳдид сифатида кўра бошладилар. Бу фикримизни К.Стилес ҳам қўллаб-қувватлаб шундай деб ёзди, «янги мустақил давлатлар террористик ташкилотларни ўзларига нисбатан таҳдид деб билишди» [17].

Ўрта даврда БМТда терроризмга қарши кураш бўйича бир нечта конвенция ва протоколлар қабул қилинди. Ва бу конвенция ва халқаро ҳужжатлар бевосита терроризмнинг алоҳида-алоҳида турларига қарши курашни ўз ичига қамраб олган ҳужжатлар ҳисобланади. Хусусан, 1988 йилда «Денгиз кемачилиги хавфсизлигига таҳдид солувчи ғайриқонуний актларга қарши кураш тўғрисида»ги Конвенция, «Континентал шельфда жойлашган стационар платформалар хавфсизлигига қарши ноқонуний хатти-ҳаракатларга қарши кураш тўғрисида»ги Протокол, Халқаро фуқаро авиациясига хизмат кўрсатувчи аэропортларда ноқонуний зўравонлик ҳаракатларига қураш тўғрисидаги «Фуқаро авиацияси хавфсизлигига таҳдид солувчи ғайриқонуний актларга қарши кураш тўғрисида»ги Конвенциясига Қўшимча протокол, 1997 йилда «Бомбали терроризмга қарши кураш тўғрисида»ги Конвенция ва 1999 йилда «Терроризмни молиялаштиришга қарши кураш тўғрисида»ги халқаро Конвенция каби халқаро ҳужжатларни келтириш мумкин. Санаб ўтилган халқаро ҳужжатлар билан бир қаторда 1991 йилда Халқаро фуқаро авиацияси ташкилоти томонидан қабул қилинган «Пластик портловчи моддаларни аниқлаш мақсадида уларни маркалаш тўғрисида»ги Конвенцияни ҳам халқаро ҳуқуқда бевосита терроризм ва унинг ҳаракатларини чеклашга қаратилган халқаро ҳужжат деб қабул қилишимиз мумкин.

Денгиз кемачилиги хавфсизлигига таҳдид солувчи ғайриқонуний актларга қарши кураш тўғрисида»ги Конвенция қабул қилинишига 1985 йилда фаластинлик жангарилар томонидан Ўрта ер денгизида «Ахилле Лауро» круиз кемасининг ўғирлаб кетилиши ва америкалик йўловчининг ўлдирилиши океан кемаларига қарши террорчилик ҳужумлари учун қўлланиладиган махсус шартномани ишлаб чиқиш учун муҳим аҳамиятга эга бўлди [18]. Ушбу конвенция ҳам 1977 йилда қабул қилинган «Одамларни гаровга олишга қарши кураш тўғрисида»ги Халқаро Конвенциясида бўлгани каби, преамбулада терроризм таҳдиди ҳақида қоида белгиланди. Унга кўра, Конвенцияга аъзо давлатлар «беғуноҳ одамларнинг ҳаётини хавф остига қўювчи ёки уларнинг ҳаётидан маҳрум қилувчи, асосий эркинликларни хавф остига қўювчи ва инсон қадр-қимматига жиддий тажовуз қилувчи ҳар қандай кўринишдаги террорчилик ҳаракатларининг бутун дунё бўйлаб авж олишидан чуқур хавотирда» эканлиги белгилаб қўйилди.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг терроризмга қарши позицияси 1985 йилда 40/61-сонли резолюцияси [19] қабул қилингандан кейин ўзгарди. БМТ

томонидан қабул қилинган олдинги резолюцияларда террористик зўравонликнинг кучайиши ҳақида «чуқур афсусланиш» ва хавотирлар билдирилган бўлсада, 1985 йилда қабул қилинган резолюция биринчи марта «терроризмнинг барча ҳаракатлари, усуллари ва амалиётлари, қаерда ва ким томонидан содир этилган бўлса, шу жумладан давлатлар ўртасидаги дўстона муносабатларни хавф остига қўядиган жиноятлар сифатида сўзсиз қораланди.

Айнан мазкур даврда БМТдан ташқари терроризмга қарши кураш борасида бошқа халқаро ташкилотларда ҳам конвенциялар қабул қилинганлигини кўришимиз мумкин. Халқаро фуқаро авиацияси ташкилоти (ИКАО) томонидан 1991 йилда қабул қилинган «Пластик портловчи моддаларни аниқлаш мақсадида маркировка қилиш тўғрисида»ги Конвенция [20] терроризмга қарши курашиш ва фуқаро авиацияси хавфсизлигини оширишга қаратилган муҳим халқаро ҳуқуқий воситадир.

Аммо, конвенциянинг қабул қилиниши бир қатор муваффақиятларга эришган бўлишига қарамай, бугунги техника технология ривожланиб бораётган асрда террористик таҳдидларнинг ўзгарувчан табиати конвенция механизмларини доимий равишда замонга мослаштириш ва такомиллаштиришни талаб қилади. Бунда, конвенция истиқболларини белгилашда мониторинг ва ҳисобот бериш механизмларини кучайтириш, бошқа халқаро ҳужжатлар билан интеграция ва рақамли даврга мослашиш билан боғлиқдир.

Терроризмга қарши кураш борасидаги халқаро ҳужжатларни қабул қилиш терроризмнинг ҳар бир соҳаси доирасида амалга оширилди. Хусусан, БМТнинг 1997 йилда «Бомбали терроризмга қарши конвенция»си қабул қилинди. Ушбу конвенция 2001 йил 23 майда кучга кирган ва Конвенция терроризмга қарши кураш соҳасида халқаро ҳуқуқни ривожлантиришда муҳим қадам бўлди. Конвенцияни қабул қилиш орқали БМТ давлатлар ўртасида бомбали терроризмининг олдини олиш, уларни содир этган шахсларни тергов қилиш ва адолатли жазони таъминлаш орасидаги халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлашни мақсад қилган эди. «Бомбали терроризмга қарши кураш тўғрисида»ги халқаро Конвенциянинг қабул қилиниши терроризмга қарши курашиш соҳасида халқаро ҳуқуқнинг узоқ давом этган ривожланиш жараёни натижаси бўлди. Ушбу конвенцияни қабул қилиш учун махсус халқаро ҳуқуқий воситани ишлаб чиқиш бир қатор омиллар ва ҳодисалар билан боғлиқ эди.

Конвенцияни қабул қилиш таклифи АҚШ томонидан, 1996 йил биринчи марта Парижда бўлиб ўтган G7 Вазирлар йиғилишида илгари сурилди ва у ерда бошқа йирик sanoatlashgan мамлакатлар томонидан қўллаб – қувватланди. АҚШ томонидан илгари сурилган таклифда 1990 йилдан давом этиб келаётган портловчи қурилмалардан фойдаланган ҳолда бир қатор йирик террористик ҳужумларга қарши курашда халқаро ҳамкорликни кучайтириш зарурлигини таъкидланди. Энг муҳим воқеалар қаторига 1993 йилда Нью-Йоркдаги жаҳон савдо марказидаги портлаш ва 1995 йилда Оклахома Сити портлашлар асос сифатида келтирилди [21]. Натижада 1996 йил 17 декабрдаги 51/210-сонли [22] резолюция билан Бош Ассамблея Бомбали терроризмга қарши кураш бўйича халқаро конвенцияни ишлаб чиқиш учун махсус қўмита тузди.

Умумий маънода ушбу конвенциянинг қабул қилиниши терроризмнинг тури сифатида бомбали терроризмга қарши курашда муҳим халқаро ҳуқуқий ҳужжат сифатида муносиб ўринга эга. Аммо конвенция қарши курашувчи бомбали терроризм

бўйича ҳамкорлик албатта бугунги янги муаммоларга ва таҳдиднинг ўзгарувчан табиатига жавобан ривожланишда давом этиши керак деб ҳисоблаймиз. Бундай халқаро ҳамкорликни ривожлантиришнинг муҳим йўналишларидан бири бу профилактика чораларини кучайтиришдир. Фикримизча, бу турдаги терроризмга қарши курашнинг келажаги аллақачон содир этилган ҳаракатларга жавоб беришда эмас, балки уларнинг олдини олишга қаратилган бўлиши керак.

Ушбу турдаги терроризм соҳадаги истиқболли йўналишлар сифатида қуйидагилар келтириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Хусусан:

- а) халқаро миқёсда терроризм ҳақида эрта огоҳлантириш тизимларини ривожлантириш;
- б) давлатлар ўртасида терроризм билан боғлиқ ҳар қандай маълумотларини алмашишни кучайтириш;
- с) катта маълумотларни таҳлил қилиш ва потенциал таҳдидларни аниқлаш учун сунъий интеллектдан фойдаланиш;
- д) портловчи моддаларни аниқлашнинг нанотехнологиялардан фойдаланиш орқали янги усулларини ишлаб чиқиш;
- е) терроризмга қарши комплекс стратегияларни ишлаб чиқиш учун ҳукуматлар, халқаро ташкилотлар, бизнес ва академик ҳамжамият ўртасида ҳамкорликни ривожлантириш;
- ф) давлатлар томонидан терроризмга қарши курашиш соҳасидаги халқаро мажбуриятларининг бажарилишини таъминлаш механизмларини кучайтириш;
- г) террористик жиноятлар бўйича халқаро юрисдикцияни ривожлантириш, шу жумладан халқаро жиноий суд юрисдикциясини кенгайтириш;

Умуман, бомбали терроризмга қарши курашда халқаро ҳамкорликни ривожлантириш истиқболлари профилактика чораларини кучайтириш, технологик инновациялар, ҳуқуқий механизмларни такомиллаштириш ва нодавлат ташкилотларнинг ролини кучайтиришни орқали комплекс ёндашувлар ишлаб чиқиш билан тавсифланади.

Бундан ташқари, ўзининг узоқ йиллик тарихи давомида БМТ Бош Ассамблеяси терроризмга қарши курашиш билан боғлиқ бир қатор халқаро ҳужжатларни қабул қилди. 1999 йилда «Терроризмни молиялаштиришга қарши кураш тўғрисида»ги Конвенция қабул қилингунга қадар, ушбу халқаро шартномалар террористик ҳужумлардан кейин ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлди, асосан юрисдикциядаги бўшлиқларни бартараф этиш ва террорчиларни жавобгарликка тортишга қаратилган эди. Форгет Л ва Неси Гнинг таъкидлашича, ушбу конвенция ҳатто терроризмнинг таърифини ҳам ўз ичига олади [23,24]. Дарҳақиқат, Конвенция олдинги қабул қилинган гаровга олиш ёки бомба қўйиш каби муайян фаолиятни жиноий жавобгарликка тортиш билан боғлиқ эмас, аксинча, бундай ҳаракатларни молиялаштиришга ва терроризмни олдини олишга қаратилган.

Терроризмни молиялаштиришнинг ўзи террористик ҳаракат эмаслиги сабабли, мутахассисларда жиноятнинг аниқ таркибини ва банклар, пул ўтказмалари хизматлари каби институционал механизмларнинг ишлаш тартибини аниқлашда бир қатор тортишувларга сабаб бўлди [25].

1998 йилда Франция ташқи ишлар вазири Хуберт Видрике халқаро ҳамжамиятни терроризмни молиялаштириш учун жиноий жавобгарликка тортишга чақирди [26]. Ўша пайтда француз таклифи қанчалик инновацион кўринмасин, гоё янги эмас эди. Ушбу жиноятга қарши кураш борасидаги таклифлар аввало 1996-йилда БМТ Бош қотиби томонидан илгари сурилган эди. У “террористик мақсадлар учун маблағ йиғиш терроризмга қарши курашнинг мавжуд ҳуқуқий базаси қамраб олмайдиган мавзулардан бири эканлигини ва Бош Ассамблеяга ушу жиноятга қарши курашиш бўйича янги халқаро шартномани қабул қилишни кўриб чиқишни таклиф қилди” [25].

1999 йилда қабул қилинган «Терроризмни молиялаштиришга қарши кураш тўғрисида»ги конвенция ҳам «Бомбали конвенцияга қарши кураш тўғрисида»ги конвенция каби 1-моддада конвенция билан қамраб олиниши мумкин бўлган терминлар таърифи белгиланган бўлса, 2-моддада жиноят таркиби белгиланган.

«Бомбали терроризмга қарши» Конвенция ва «Терроризмни молиялаштиришга қарши кураш тўғрисида»ги Конвенцияларнинг қабул қилинишининг халқаро ташкилот сифатида БМТнинг терроризмга қарши кураш борасидаги босқичма-босқич курашининг давоми сифатида қарашимиз мумкин. Албатта, конвенциялар аввалги қабул қилинган халқаро ҳужжатлар намуналарига тўлиқ мос келиши ва айрим нормаларнинг қайтарилиши билан бир қаторда ўзига хос янгиликларни ҳам белгилаб берди. Умуман олганда, иккала Конвенцияда ҳам «терроризм»га қарши кураш воситаси сифатида қабул қилинган. Аниқроғи, «Терроризмни молиялаштиришга қарши кураш тўғрисида»ги Конвенция БМТнинг терроризмга нисбатан умумий ёндашувларни қўллаш орқали халқаро даражада аъзо мамлакатлар учун терроризмга қарши кураш борасидаги қонунчиликни янада такомиллаштиришга хизмат қилувчи биринчи муваффақиятли уриниши бўлди.

Шунга қарамай, терроризмга қарши кураш борасидаги босқичма-босқич олиб борилаётган саъй-ҳаракатлар терроризмни барча кўринишларига нисбатан жиноий жавобгарликка тортишга имкон бермайди ва шунинг учун ҳам бугунги кунда, терроризмга қарши кураш ва уни олдини олиш бўйича кенг қамровли, ягона конвенция қабул қилишга бўлган эҳтиёж сақланиб қолмоқда.

2001 йил 11 сентябрь воқеалари терроризмга қарши кураш борасидаги халқаро ҳуқуқий нормаларни **замонавий даврини** бошлаб берди. Халқаро тинчлик ва хавфсизликни сақлаш вазифаси юкланган БМТнинг Хавфсизлик Кенгаши терроризмга қарши кураш борасида глобал дастурларни ишлаб чиқишда муҳим координатор вазифасини бажарди. Хавфсизлик Кенгашининг терроризмга қарши кенг қамровли саъй-ҳаракатлари 2001 йил 11 сентябрдан кейин қабул қилинган 1373-сонли [27] резолюцияга асосланади. Ушбу резолюция аъзо давлатларни терроризмга қарши курашда ҳамкорлик қилишга, «террористик ҳаракатларни режалаштириш, тайёрлаш ёки содир этишнинг олдини олишга ва уларни жазолашга» чақирди. Шунингдек қарор орқали террористик фаолиятни молиялаштиришнинг олдини олиш ва давлатлардан бошқа давлатларга терроризм билан боғлиқ маълумотларни алмашиш чораларни кўришни талаб қилади.

Лаборденинг фикрича, ушбу резолюция ҳаттоки давлатлардан ўз ҳудудларидан бошқа давлатлар ёки ўз фуқароларига нисбатан террорчилик фаолияти учун фойдаланишга тўсқинлик қилишни ва террорчилик ҳаракатларини молиялаштириш,

режалаштириш, қўллаб-қувватлаш ёки террористик ҳаракатларни амалга оширишга қодир бўлган шахсларга бошпана беришни рад этишни ҳам ўзи ичига олади деб таъкидлайди [28].

Хавфсизлик Кенгашининг 1373-сон резолюциясига қўшимча равишда 2005 йилда Кенгашнинг 1624-сон [29] Резолюцияси қабул қилинди. Ушбу резолюция орқали Кенгаш террористик ҳаракатларга ундаш ва турли таҳдидларни жиноят сифатида киритди ва давлатлардан мазкур ҳаракатларга нисбатан зарур чоралар кўришни талаб қилди. Бундай ҳаракатларни жиноят сифатида киритилиши одил судлов тизими заиф бўлган мамлакатларда ушбу турдаги ҳуқуқбузарликлар сиёсий мақсадларда ишлатилиши ва инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро меъёрларга зид бўлиши мумкинлиги билан изоҳланади. Инсон ҳаётини ҳимоя қилиш мақсадида, бу террористик ҳужумлар ва шафқатсизликнинг барча кўринишларига тайёргарликларни тўхтатиш инсоннинг асосий ҳуқуқи бўлган ҳаёт хавфсизлигини таъминлаш учун жуда муҳим деган фикрни қўллаб-қувватлайди.

Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, терроризмга қарши кураш бўйича халқаро-ҳуқуқий нормаларни ривожланиши фақат терроризмга қарши кураш эмас балки терроризмнинг ҳар қандай кўринишларига қарши кураш фонида ҳам ривожланиб боради. Хусусан, замонавий дунёда ядровий терроризм таҳдиди халқаро хавфсизликнинг энг жиддий муаммоларидан бирига айланиб улгурди. Ядровий терроризмнинг потенциал оқибатлари ҳалокатли бўлиши ҳеч кимга сир эмас, бу нафақат бевосита барқарор ривожланиш мақсадларига таъсир қилади, балки глобал иқтисодиёт ва атроф-муҳитга узоқ муддатли таъсир кўрсатиши билан боғлиқдир. Ушбу кучайиб бораётган таҳдидга жавобан халқаро ҳамжамият бир қатор ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқди, уларнинг асосийларидан бири «Ядро терроризмига қарши кураш тўғрисида»ги халқаро конвенциядир. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 2005 йил 13 апрелда қабул қилинган ва 2007 йил 7 июлда кучга кирган ушбу Конвенция ядровий терроризмга қарши курашиш учун кенг қамровли ҳуқуқий базани яратиш йўлидаги муҳим қадамдир. Конвенция ишлаб чиқиш ва уни қабул қилиш устида иш 1996 йилда БМТ Бош Ассамблеясининг 51/210 резолюцияси [30] билан ташкил этилган махсус қўмита ўз иш фаолиятини амалга оширган. Конвенцияни ишлаб чиқиш жараёни қарийб ўн йил давом этди, бу масаланинг мураккаблиги ядро хавфсизлигига турли манфаатлар ва ёндашувларга эга бўлган давлатлар ўртасида келишувга эришиш зарурлигини билан боғлиқдир.

Фикримизча, конвенцияни амалиётга жорий этиш билан боғлиқ муаммоларга бевосита ушбу халқаро ҳужжат асосан ядровий терроризм ҳаракатларини жиноий жавобгарликка тортиш ва жазолашга қаратилган бўлиб, унинг олдини олиш ва профилактика чораларига камроқ эътибор қаратилганлигидир. Яъни, конвенция бевосита давлатларни профилактика соҳасида ҳамкорликка чақирсада, лекин бу ҳамкорлик ва профилактиканинг механизмларини тақдим этмайди. Бироқ, бугунги таҳдидларнинг ўзгарувчан табиати, технологик ўзгаришлар ва геосиёсий мураккабликлар конвенциянинг самарадорлигига янги муаммоларни келтириб чиқармоқда. Унинг долзарблиги ва самарадорлигини сақлаб қолиш учун Конвенцияни замонавий воқеликка мослаштириш, амалга ошириш механизмларини мустаҳкамлаш ва давлатларнинг иштирокини кенгайтириш имкониятларини кўриб чиқиш зарур.

Юқорида таҳлил этилган қатор терроризмга қарши курашувчи ва унга қарши курашиш борасида ўзаро ҳамкорликни қўллаб-қувватловчи халқаро-ҳуқуқий ҳужжатлардан ташқари замонавий даврда кўптомонлама, икки томонлама стратегия, дастурлар ва турли ташаббуслар (БМТнинг Глобал терроризмга қарши кураш стратегияси (2006), Молиявий чоралар бўйича махсус гуруҳ (ФАТФ) тавсиялари, Глобал терроризмга қарши форум томонидан қабул қилинган қатор тавсиялар, Европа Иттифоқи Терроризмга қарши кураш стратегияси (2005), Европа хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилотининг Терроризмга қарши кураш бўйича ҳаракат режаси (2001) НАТО ташкилотининг Терроризмга қарши кураш бўйича ҳаракат режаси (2002) ва давлатлар ўртасида тасдиқланган, келишилган икки томонлама дастур ва ташаббуслар) ҳам муҳим ўрин эгаллади.

БМТнинг Глобал терроризмга қарши стратегияси (кейинги ўринларда стратегия деб юритилади) БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 2006 йил 8 сентябрда қабул қилинган. Стратегия тўртта устувор йўналишни белгилайди:

- 1) Терроризмнинг тарқалишига олиб келувчи шарт-шароитларни бартараф этиш;
- 2) Терроризмнинг олдини олиш ва унга қарши курашиш;
- 3) Давлатларнинг терроризмга қарши курашиш салоҳиятини ошириш ва БМТнинг бу борадаги ролини кучайтириш;
- 4) Терроризмга қарши курашда инсон ҳуқуқларини ҳурмат қилиш ва қонун устуворлигини таъминлаш.

Бош Ассамблея стратегияни амалиётга жорий этилишини мониторинг қилиш ва баҳолашда муҳим рол ўйнайди. Стратегияни қабул қилиш тўғрисидаги резолюцияга кўра, Бош Ассамблеяга ҳар икки йилда бир марта уни амалга ошириш жараёнини кўриб чиқиш мажбурияти белгиланган. 2021 йилда қабул қилинган стратегиянинг 7-қарори янги таҳдидларга, жумладан пандемия шароитида терроризмнинг ўзгаришига эътибор қаратилди. 2023 йилда аъзо давлатлар стратегиянинг саккизинчи мониторингини ўтказдилар. Бунда Бош котиб Бош Ассамблеянинг илтимосига биноан Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг глобал терроризмга қарши стратегиясини амалга ошириш бўйича Бирлашган Миллатлар ташкилоти тизимининг фаолияти ва уни амалиётга жорий этиш бўйича таклифлар тўғрисида ҳисобот тақдим этди. Натижада, 2023 йил 22 июн куни Бош Ассамблея Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг кун тартибидаги Глобал терроризмга қарши стратегиясининг саккизинчи мониторинг иши бўйича 77/298 резолюциясини овоз бермасдан қабул қилди.

Умумий халқаро ҳужжатлардан ташқари, терроризмга қарши қаратилган минтақавий ҳужжатлар ҳам мавжуд, улар орасида «Терроризмга қарши кураш тўғрисида»ги Европа конвенцияси (Страсбург, 1977) ва унга ўзгартиришлар киритиш тўғрисидаги протокол (Страсбург, 2003); Европа Кенгашининг «Терроризмни олдини олиш тўғрисида»ги конвенцияси (Варшава, 2005); «Терроризмга қарши кураш тўғрисида»ги Америкалараро Конвенция (Бриджтаун, 2002); «Терроризмни олдини олиш ва унга қарши кураш тўғрисида»ги Африка Иттифоқи конвенцияси (Жазоир, 1999) ва унинг протоколи (Аддис-Абеба, 2004); Жанубий Осиё минтақавий ҳамкорлик ассоциацияси «Терроризмга қарши кураш бўйича» минтақавий конвенция (Катманду, 1987) ва унинг қўшимча протоколи (Исломобод, 2004); Терроризмга қарши кураш бўйича АСЕАН конвенцияси (Себу, 2007); «Терроризмга қарши кураш тўғрисида»ги Араб

конвенцияси (Қоҳира, 1998 йил); «Халқаро терроризмга қарши кураш тўғрисида»ги Ислом конференцияси ташкилотининг конвенцияси (Уагадугу, 1999 йил); Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигига аъзо давлатлар ўртасида терроризмга қарши курашда ҳамкорлик тўғрисидаги битим (Минск, 1999 й.) ва бошқа бир қатор минтақавий халқаро ҳужжатларни санаб кўрсатишимиз мумкин.

Хулоса ўрнида шуни қайд этишимиз керакки, Конвенцияларда белгиланган айрим хусусиятлар терроризмга қарши самарали халқаро ҳуқуқий кураш учун салбий аҳамиятга эга: конвенцияларда ягона фундаментал асоснинг йўқлиги, террористик хатти-ҳаракатлар субъекти ҳуқуқий мақомининг ривожланмаганлиги, жиноят содир этганларни ҳуқуқий таъқиб қилишнинг турли хилда эканлиги, уруш ва тинчлик давридаги терроризмнинг аниқ белгиларининг мавжуд эмаслиги ва бошқалар.

Терроризмга қарши кураш бўйича юқоридаги қабул қилинган конвенцияларидан ташқари замонавий дунёда юзага келиши мумкин бўлган террористик ҳаракатларни олдини олиш учун яна қуйидаги бир қанча конвенцияларни қабул қилиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Биринчидан, **«Радикализм ва экстремизмни олдини олиш тўғрисида»**ги Конвенция. Ушбу Конвенция ижтимоий, таълим ва маданий чора-тадбирлар орқали радикализм ва экстремизмнинг олдини олиш стратегиясини ишлаб чиқишга, шунингдек, ушбу соҳада мамлакатлар ўртасидаги ҳамкорликни мустаҳкамлашда муҳим роль ўйнайди.

Иккинчидан, албатта ҳар қандай соҳада инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш муҳим ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, БМТ томонидан **«Терроризмга қарши кураш контекстида инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида»**ги Конвенция ва **«Террористик ташкилотларга ёлланиш ва террористик ҳаракатларда болалар, ёшларни эксплуатация қилишнинг олдини олиш тўғрисида»**ги Конвенцияларни қабул қилиш.

«Терроризмга қарши кураш контекстида инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида»ги Конвенцияси орқали терроризмга қарши чоралари, шу жумладан адолатли суд жараёни, қийноққа солиш ва ноқонуний ҳибсга олишни тақиқлаш ва сўз эркинлигини ҳимоя қилишда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш учун халқаро меъёрлар ва стандартларни белгилаши мумкин.

Халқаро ҳуқуқда ёлланишни тақиқлаш бўйича бир қанча нормалар мавжуд бўлсада бу нормалар террористик ҳаракатларда ва террористик ташкилотларга ёлланишни тартиб солмайди. Шу боисдан мазкур **«Террористик ташкилотларга ёлланиш ва террористик ҳаракатларда болалар, ёшларни эксплуатация қилишнинг олдини олиш тўғрисида»**ги Конвенция болалар ва ёшларни террористик гуруҳларни турли мақсадларида, шу жумладан жангарилар, худкуш террорчиларни тайёрлашда болалар ва ёшларни ёллаш ва эксплуатация қилишдан ҳимоя қилиш, терроризм қурбонлари бўлган болаларни реабилитация қилиш ва қайта интеграциялашда қўллаб — қувватлаш ва айбдорларни болаларни ёллаш ва эксплуатация қилиш учун жавобгарликка тортиш чораларини назарда тутиши мумкин. Шунингдек, террористик ҳаракатларда ёлланган шахсларга нисбатан жавобгарликни белгилаш, уларни жавобгарликка тортишда давлатлар юрисдикциясини белгилашда ва

мазкур соҳада давлатлар ўртасида ҳамкорликни тартибга солувчи халқаро ҳужжат бўлиб хизмат қилади.

Учинчидан, ахборот технологиялари ривожланган даврда **«Ижтимоий тармоқлар ва онлайн платформаларда террористик материалларни тарқатиш, террористик ташкилотларга тарғиб қилишни олдини олиш тўғрисида»**ги Конвенция қабул қилиш орқали ижтимоий тармоқлар ва онлайн платформалар террористик гуруҳлар томонидан зўравонликни тарғиб қилиш, террористик ҳаракатларга ёллаш ва турли зўравонликларни қўзғатиш қарши муҳим восита бўлади. Бу конвенция ўз навбатида онлайн контентни тартибга солиш, ижтимоий медиа платформаларидан масъулиятли фойдаланишни рағбатлантириш, ҳукуматлар ва медиа-технология компаниялари ўртасида террористик онлайн контентга қарши курашиш бўйича ҳамкорликни кучайтириш чораларини белгилаши мумкин. Бундан ташқари, Конвенцияни қабул қилиш орқали хавфсизлик ва махфийликни ҳимоя қилишни таъминлаш учун терроризмга қарши кураш чораларни амалга ошириш жараёнида фуқароларнинг шахсий маълумотларини ҳимоя қилиш учун халқаро стандартлар ва чораларни белгилаши мумкин.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, терроризмга қарши курашнинг халқаро ҳуқуқий асослари ривожланишида уч асосий давр ажратилди: илк давр (1970 йилларгача), ўрта давр (1980-2000 йиллар) ва замонавий давр (2001 йилдан ҳозиргача). Ҳар бир даврда қабул қилинган муҳим халқаро ҳужжатлар, уларнинг аҳамияти ва таъсири таҳлил қилинди. Параграфда халқаро-ҳуқуқий ҳужжатларнинг айрим камчиликлари кўрсатиб берилди. Булар қаторига терроризмнинг ягона таърифи йўқлиги, терроризм субъектларининг ҳуқуқий мақоми аниқ белгиланмаганлиги, жиноятчиларни таъқиб қилиш механизмларининг турлича эканлиги кабилар киради. Умуман олганда, терроризмга қарши курашнинг халқаро ҳуқуқий асослари бўйича кенг қамровли таҳлил амалга оширилди. Келтирилган маълумотлар ва таҳлиллар терроризмга қарши курашнинг халқаро-ҳуқуқий жиҳатларини чуқурроқ тушуниш ва бу соҳада янги ёндашувлар ишлаб чиқиш учун муҳим аҳамиятга эга кўрсатмоқда.

Адабиётлар/Литература/References:

1. 16 декабрь 1997 йилдаги Бомбали терроризмга қарши кураш тўғрисидаги халқаро конвенция; 9 декабрь 1994 йилдаги Халқаро терроризмни йўқ қилиш чоралари тўғрисидаги декларация. Преамбула.
2. БМТ Бош Ассамблеясининг 2006 йил 8 сентябрдаги 60/288-сонли резолюцияси. URL: <http://www.un.org/ru/documents/ods.asp?m>.
3. Договор о сотрудничестве государств – участников Содружества Независимых Государств в борьбе с терроризмом от 4 июня 1999г. Преамбула. // Собрание законодательства РФ. 2006. № 22. Ст. 2291;
4. South Asian Association for Regional Cooperation (SAARC) Regional Convention on Suppression of Terrorism. 1987. Preamble. P. 174.
5. United Nations Security Council (UNSC). 1948. *Resolution 57: The Palestine Question (18 September 1948)*. <http://unscr.com/en/resolutions/57>.
6. International Law Commission (ILC), 1951. *Draft Code of Offences against the Peace and Security of Mankind with commentaries/Yearbook of the International Law Commission*. [pdf] https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/commentaries/7_3_1954.pdf
7. Multilateral Counter-terrorism: The Global Politics of Cooperation and Contestation, New York and London: Routledge (Global Institutions Series) (2010).

8. United Nations General Assembly (UNGA). 1970. *Resolution 2625: Declaration on Principles of International Law concerning Friendly Relations and Co-operation among States in accordance with the Charter of the United Nations (24 October 1970)*. [Online]. A/UNGA/Res/2625. Available at: <https://unispal.un.org/DPA/DPR/unispal.nsf/0/25A1C8E35B23161C852570C4006E50AB>.
9. Edward Luck, 'The Uninvited challenge: Terrorism targets the United Nations' in Edward Newman, Ramesh Thakur and John Tirman, eds., *Multilateralism under Challenge? Power, International Order and Structural Change*, Tokyo: United Nations University Press, 2006, pp. 336-356.
10. Конвенция о преступлениях и некоторых других актах, совершаемых на борту воздушных судов // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/crimes aboard.shtml
11. Конвенция о борьбе с незаконным захватом воздушных судов // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/aircraft seizure.shtml
12. Joyner, C.C., 2003. International Extradition and Global Terrorism: Bringing International Criminals to Justice. *Loyola of Los Angeles International and Comparative Law Review*, 25(3), pp. 493-542., 513
13. Конвенция о борьбе с незаконными актами, направленными против безопасности гражданской авиации // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/aviation security.shtml
14. Levitt, M.G., 1989. The International Legal Response to Terrorism: A Reevaluation. *University of Colorado Law Review*, 60, pp. 533-551.
15. Stechel I., 1972. Terrorist Kidnapping of Diplomatic Personnel. *Cornell International Law Journal*. 5(2), p. 203
16. Elizabeth Schmidt *Foreign Intervention in Africa: From the Cold War to the War on Terror* The International Journal of African Historical Studies Vol. 47, No. 2 (2014), p. 350-352
17. Stiles, K.W., 2006. The Power of Procedure and the Procedures of the Powerful: AntiTerror Law in the United Nations. *Journal of Peace Research*, 43(1), p42.
18. Christopher C Joyner, 'International Extradition and Global Terrorism: Bringing International Criminals to Justice' (2003) 25 *Loyola of Los Angeles International and Comparative Law Review* 493, 520.
19. United Nations General Assembly (UNGA). 1985. *Resolution 40/61* // <https://documents.un.org/doc/resolution/gen/nr0/482/88/pdf/nr048288.pdf?token=BF3GRWQl1pooruqg47&fe=true>
20. Конвенция о маркировке пластических взрывчатых веществ в целях их обнаружения // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/markconv.shtml
21. Combs, Cindy C. & Martin W. Slann. *Encyclopedia of Terrorism*. (2007, July 1). *Library Journal*, 132(12), 122+. <https://link.gale.com/apps/doc/A166537043/AONE?u=anon~7e4b2060&sid=sitemap&xid=7a36c3f6>
22. United Nations General Assembly (UNGA). 1977. *Resolution 51/210* // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/terrdec2.shtml
23. Forget, L., 2002. *Combating the Financing of Terrorism*. Washington D.C.: Legal Department of the International Monetary Fund.
24. Nesi, G., 2006. *International Cooperation in Counter-terrorism The United Nations and Regional Organisations in the Fight Against Terrorism*. Hampshire, England: Ashgate Publishing Limited.
25. Aust, A., 2001. Counter-Terrorism- A New Approach. *Max Planck Yearbook of United Nations Law*, 5, p. 286.

26. Diaz-Paniagua, F.C., 2008. Negotiating Terrorism: The Negotiation Dynamics Of Four UN Counter-Terrorism Treaties, 1997-2005. Ph.D. The City University of New York. P. 434.
27. UNSC Res 1373 (28 September 2001) UN Doc S/RES/1373
https://www.unodc.org/pdf/crime/terrorism/res_1373_english.pdf
28. Laborde, J. P. (2005). Counter Terrorism: New International Criminal Laws Perspectives. Work product of the 132nd International Senior Seminar, UNODC. Austria.
29. UNSC Res 1624 (14 September 2005) UN Doc S/RES/1624
<https://documents.un.org/doc/undoc/gen/n05/510/54/pdf/n0551054.pdf?token=Nm7hJDDCk2dnZtzUEG&fe=true>
30. UNGA Res 51/210 (17 December 1996) UN Doc A/RES/51/210
<https://documents.un.org/doc/undoc/gen/n97/761/67/pdf/n9776167.pdf?token=02Pcg7bEEpPG6CkFV6&fe=true>

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

SOCIO-LEGAL CONCEPT AND SOURCES OF THE RIGHT TO PROTECTION FROM FAMILY (DOMESTIC) VIOLENCE

Abdullayeva Nodira Odil kizi,

As of the Republic of Uzbekistan Institute of State and Law,
1st year basic doctoral student

E-mail: nadiraabdullaeva025@gmail.com

Abstract. Domestic violence is a pervasive social problem that transcends cultural, economic, and geographic boundaries, profoundly affecting individuals and communities. This topic explores the complexities of domestic violence, including physical, emotional and psychological abuse. It highlights the complex dynamics of power and control that often characterize abusive relationships, as well as the impact on victims, including children and vulnerable family members.

Key words: family (domestic) violence, aggression, crime, economic violence, financial (economic) violence, sexual violence, physical violence.

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIKDAN HIMOYALASH HUQUQINING IJTIMOY-HUQUQIY TUSHUNCHASI VA MANBALARI

Abdullayeva Nodira Odil qizi,

O'zbekiston Respublikasi FA Davlat va huquq instituti
1-kurs tayanch-doktoranti

Annotatsiya: Oilaviy zo'ravonlik madaniy, iqtisodiy va geografik chegaralardan tashqarida bo'lgan, odamlar va jamoalarga chuqur ta'sir ko'rsatadigan keng tarqalgan ijtimoiy muammodir. Ushbu mavzu oilaviy zo'ravonlik bilan bog'liq murakkabliklarni o'rganadi, xususan, jismoniy, hissiy va psixologik zo'ravonlikni o'z ichiga oladi. U ko'pincha haqoratli munosabatlarni tavsiflovchi kuch va nazoratning murakkab dinamikasini, shuningdek, qurbonlar, jumladan, bolalar va zaif oila a'zolariga ta'sirini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: oilaviy (maishiy) zo'ravonlik, tajovuzkorlik, jinoyat, iqtisodiy zo'ravonlik, moliyaviy (iqtisodiy) zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, jismoniy zo'ravonlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N21>

Kirish. Oila o'z davrining irsiy xususiyatiga ega noyob kichik jamiyatidir. Bilamizki, davr oila birligida shaxslararo munosabatlar darajasida namoyon bo'ladi. Bir tomondan, zo'ravonlik, tajovuzkorlik, shafqatsizlik, ikkinchi tomondan, rahm-shafqat, mehr-oqibat, samimiylik kabilar qadim zamonlardan to hozirgi kungacha bo'lgan har qanday davrning shaxslararo oilaviy munosabatlariga xos sanaladi. Darhaqiqat, har qanday jamiyatning poydevori oilalar yig'indisiga asoslanadi.

Oilaviy zo‘ravonlik muammosini ko‘p tomonlama tadqiq qilishning ilmiy vositasi tizimli yondashuv hisoblanadi. Bu bizga turli mamlakatlar va xalqlarning turli mintaqalarida oilaviy zo‘ravonlikka davlat ta‘sirini har tomonlama ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Ijtimoiy munosabatlar tizimining boshlang‘ich elementi sifatida oilaning kelib chiqishi nazariyasi qadimgi faylasuflar Aflotun, Aristotel, Gerodot qarashlaridan kelib chiqadi. Bu ilmiy yo‘nalishning yanada rivojlanishi G‘arb etnologlari va antropologlari E.Tilor, E.Freyzer, L.Levi-Bryul, K.Levi-Strous, B.Malinovskiy, Z.Lev-Starovichlarning asarlarida davom ettirilgan. Oila muammolarini psixologik va psixoanalitik jihatdan o‘rganib chiqqanlar Z. Freyd, K.G. Jung, E. Fromm, E. Bern, D. Hillman, R.V. Emerson kabilar hisoblanadi. Oila va nikoh munosabatlari haqidagi qarashlarning rivojlanishiga rus sotsiologlar, faylasuflar, demograflar: V. Solovyov, M. Kovalevskiy, I. Kucharjevskiy, P. Sorokin, A. G. Xarchev, S.I. Golod, M.S. Matskovskiy, A.I. Antonovlar sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ko‘pgina tadqiqotlar patriarxal oilaning tarbiyaviy vazifasining yuqori muvaffaqiyatini qayd etgan. Buni rus olimi S.L. Sibiryakov o‘zining “Bola xavf ostida (giyohvandlik, ichkilikbozlik, zo‘ravonlik, jinoyat muammolari qanday oldini olish mumkin:...)” nomli maqolasida patriarxal oila tipidagi jamiyatdagi deviant-ijtimoiy og‘ish ko‘rinishlarning past darajasi ham ko‘rsatadi, deb qayd etgan.[13;74-b] Aksincha, yaqin va uzoq xoriyning aksariyat mamlakatlarida ham oila patriarxiasining barbod etilishi aslida buzg‘unchi xulq-atvorning salbiy ko‘rinishlari, jumladan, oilaviy zo‘ravonlik: xiyonat, ajrim harakatlarning ko‘payishiga olib keldi.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik asrlar davomida qo‘llanilgan. Bolaning hayotini saqlab qolish yoki qolmaslik to‘g‘risidagi qaror ko‘p jihatdan ota-onalarning moddiy imkoniyatlariga, u joylashgan jamiyatning iqtisodiy, tibbiy va ta‘lim resurslariga, shuningdek, uning xavfsizligiga bog‘liq bo‘lgan. Rus olimi I.S. Kon, etnografik tadqiqotlarga asoslanib, resurs ta‘minotiga qarab, qadimgi jamiyat jamiyat a‘zolari sonini tartibga solish maqsadida ba‘zan go‘daklarni o‘ldirishga murojaat qilgan[8;216-b]. Olima A.V. Bazarovanning “Inqirozdagi oila: bolalarga nisbatan zo‘ravonlik (nazariy va empirik tahlil)” nomli asarida keltirilishicha, faqat milodning IV asrida chaqaloqlarni o‘ldirish jinoyat deb hisoblana boshlagan, biroq qonunchilikdagi taqiq qayd etilgan salbiy hodisani to‘liq bartaraf eta olmagan[3;23-b].

Shuningdek, L.S. Alekseeva o‘zining “Oilada bolalarga nisbatan zo‘ravonlik muammolari” nomli maqolasida quyidagilarni keltirib o‘tgan: bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lishga ajdodlarimiz mafkurasi: din, urf-odat, rasm-rusum, marosimlar ham yordam bergan. Bolani o‘ldirish kasallik va bepushtlikni davolaydi, deb ishonilgan. Binolarning mustahkamligini ta‘minlash uchun bolalar qurbonlik qilib, poydevor ostiga ko‘milgan[16;17-b]. Qadim zamonlardan beri ota-onalar o‘z farzandlarining hayoti va taqdirini mulk kabi tasarruf etishgan. Qadimgi jamiyat o‘zini saqlab qolish instinktiga bo‘ysunib, bolalar va qariyalarga nisbatan zaif va kasallardan qutulish strategiyasini qo‘llagan[15;108-b].

“Oilaviy huquqiy munosabatlar” tushunchasi qonunda mustahkamlanmagan, lekin u nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni joylashtirishning boshqa shakllaridan kelib chiqadigan, oila huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar sifatida tushunilgan. Ilmiy adabiyotlarda O‘zbekiston Respublikasida oilaviy zo‘ravonlikning oldini olishni huquqiy tartibga solish davriyligi mavjud emas. Mavjud me‘yoriy-huquqiy baza va huquqni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish muallifga ko‘rib chiqilayotgan faoliyat turini rivojlantirishning to‘rt bosqichini aniqlashga imkon berdi:

birinchi — boshlang'ich — Zardushtiylik davr; ikkinchisi – Islom dini ; uchinchisi – Turkiston ASSR; to'rtinchisi — O'zbekiston SSSR; beshinchisi- zamonaviy davr mustaqil O'zbekiston Respublikasi.

Umuman, "Avesto" tadqiqotchisi H.Homidovning fikricha: "'Avesto"da qarindoshlarning o'zaro oila qurishi man etilgan. Shuningdek, ko'p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash kerakligi belgilangan, bir yo'la 2-3 ta tug'gan ayollar mukofot olishga musharraf bo'lgan, deb ta'kidlanadi"[21;21-b].

Patriarxal oila Markaziy Osiyo xalqlarida eramizdan oldingi birinchi ming yilliklarda oilaning eng dastlabki tarixiy shakli sifatida vujudga kelgan. Oilaning bo'linib ketishi, o'rniga kichik-kichik oilalarning tarkib topishi eramizning birinchi ming yilligi o'rtalaridan boshlanadi va deyarli XX asrlargacha davom etganligi qayd etiladi[17;16-b].

Islom dini Turkistonda tarqalgach, nikoh-oila huquqiy munosabatlari Qur'oni Karim[18], Shariat va Odat qoidalari, shuningdek Muhammad payg'ambarimiz (s.a.v.)ning hadislar bilan tartibga solinganligini bilamiz.

Nikoh-oila munosabatlarini tartibga solish maqsadida olim Ahmadhoji Maqsudiyning 1912-yilda "Shar'iy hukmlar to'plami" nomli qo'llanma maktab-madrasalar talabalari va barcha mo'min-musulmonlar uchun nashr qilingan.

Sovet oila huquqining tarixi quyidagilardan boshlangan. 1917-yilgi davlat to'ntarishidan so'ng ayollarni jamiyatda va oilada go'yo kamsitadigan qoidalar asosan bekor qilinib, nikoh va oila to'g'risida yangi qonunlar qabul qilingan. Xususan, bular — "Fuqarolik nikohi, bolalar va fuqarolik holatlarini qayd etishni olib borish"[19] va "Nikohdan ajralish to'g'risida"[20] gi dekretlar hisoblanadi.

Turkiston ASSRda nikoh va oilaga oid muhim huquqiy masalalar 1918-yil 16-dekabrda qabul qilingan "Fuqarolik holati dalolatnomalari, nikoh, oila va vasiylik huquqi haqidagi RSFSR qonunlar kodeksi" asosida hal qilinganligini bilamiz[22;40-b].

1924-yil 17-aprelda Butunbuxoro Markaziy Ijroiya Komiteti maishiy jinoyatlar to'g'risida dekret qabul qilingan. Unga ko'ra: 1. Ayollarning erkiga qarshi zo'rlik qilib o'g'irlash. 2. Jinsiy jihatdan balog'atga yetmagan qizlarni nikohga olish maqsadida o'g'irlash. 3. Ayollarning xohishiga zid ravishda nikoh rasm-rusumlarini o'tkazish yoki nikohni qayd ettirish ta'qiqlangan. Bundan tashqari, BXS Rning maishiy jinoyatlar to'g'risidagi qonuni nikoh huquqi borasida chiqarilgan yagona hujjat sanaladi[23].

1921-yil 3-iyulda Xorazm Xalq Sovet Respublikasida Xalq Komissarlari Sovetining nikoh to'g'risidagi 1-sonli buyrug'i chiqqanligini bilamiz. Unga ko'ra, nikoh yoshi yigitlar uchun 17, qizlar uchun 16 yosh deb qayd etilgan. Agar qiz yoshlik vaqtida birontaga unashtirib qo'yilgan bo'lsa-yu nikoh yoshiga to'lganda unga turmushga chiqishga rozi bo'lmasa, u holda kelinning ota-onasi qiz uchun olingan qalinni qaytarishlari lozim bo'lgan. Xorazm Respublikasida milliy davlat chegaralanishi o'tkazilgandan so'ng ham xotin-qizlarning ahvolidagi uncha o'zgarish bo'lmagan. Qozilik sudlari, ruhoniylar dindorlarning ta'siri nikoh-oila munosabatlarini tartibga soluvchi shariat normalari barqaror bo'lishini ta'minlagan.

1926-yildan boshlab faqat RSFSRda emas, balki barcha ittifoqdosh respublikalarda nikoh-oila qonunchiligini yangilash jarayoni boshlanganligini bilamiz. Jumladan, 1926-yili Ukrainada, 1927-yili Belorussiya va Armanistonda, 1928-yili Ozarbayjonda, 1929-40-yili Tojikistonda, 1930-yili Gruziyada, 1935-yili Turkmanistonda yangi Nikoh-oila kodekslari qabul qilingan.

Oilaviy zoʻravonlik — bu oiladagi shaxslar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning eng keskin muammoli shakli, shu jumladan,

a) jismoniy zoʻravonlik (tanaga shikast yetkazish, kaltaklash, sochni yulish, chimchilash va boshqalar);

b) jinsiy zoʻravonlik;

d) ruhiy yoki ogʻzaki zoʻravonlik (qoʻrqitish, baqirish, soʻkinish, haqorat qilish);

e) iqtisodiy zoʻravonlik (oilada toʻliq iqtisodiy qaramlik sharoitlarini yaratish, yashash, uy-joy, oziq-ovqat va boshqalardan mahrum qilish);

f) diniy aqidaparastlikka asoslangan ruhiy zulm;

g) xulq-atvor erkinligini cheklash (uy qamogʻida saqlash, doʻstlar, qarindoshlar bilan muloqot qilishda toʻsiqlar) va qarindosh yoki qarindoshning hayotiga, sogʻligʻiga, jinsiy daxlsizligi va erkinligiga tahdid soladigan boshqa taʻsir va boshqa insoniy qadriyatlar bilan himoyalangan boʻladi. Shunday qilib, oilaviy taʻsir qilishning yana bir shakli sifatida psixotrop zoʻravonlik qoʻllaniladi, bunda giyohvandlik vositalari yoki kuchli taʻsir etuvchi psixotrop vositalar uy xoʻjaligi aʼzolarining tanasiga majburlash, ishontirish va aldash yoʻli bilan kiritiladi, shaxsning psixofiziologik holatini oʻzgartiradi, uning erkinlik irodasini falaj qiladi. Shuningdek, keksa qarindoshlarning harakatchanligini majburan cheklash uchun ular turli dorilar yordamida davolash ham kiradi.

Muhokama. Moddiy dunyoning muhim tarkibiy qismi boʻlgan zoʻravonlik insoniyat jamiyati tarixida qadim zamonlardan to hozirgi kungacha: qabila jamoasida zaiflarning oʻldirilishidan XX asrdagi jahon urushlarigacha va insoniyatning zamonaviy ommaviy qirgʻin vositalaridan foydalanish butunlay yoʻq boʻlib ketish xavfi bilan birga keladi.

Baʼzi tadqiqotchilar hozirgi kunda oilaviy zoʻravonlik taʼrifini shakllantirishga harakat qilmoqdalar. Shunday qilib, taniqli olimlar A.V.Lisova va N.G.Shchitovlar oilaviy zoʻravonlikni “har ikki tomon ishtirok etadigan davom etayotgan nizolarning surunkaliligi va davomiyligi bilan tavsiflangan ikki tomonlama faol va/yoki passiv zoʻravonlik” deb tushunishadi. Bizningcha, mazkur taʼrif munozarali koʻrinmoqda. Taʼrif faqat “sheriklar/turmush oʻrtoqlar oʻrtasidagi zoʻravonlik” ni oʻz ichiga oladi, boshqa oila aʼzolari: nabira-buvi, oʻgay oʻgʻil, oʻgay ota. Bizningcha, A. V. Lisova va N. G. Shchitova olimlarning pozitsiyasi: zoʻravonlik faqat ikki tomonlama oʻzaro taʻsir bilan chegaralanadi, uch tomonlama oʻzaro taʻsir istisno qilinmoqda, yaʼni, koʻp tomonlama: masalan, kuyov — qaynona va ota-ona, oʻgay ota — oʻgay qiz va bobo, garchi amalda bunday zoʻravonlik holatlari ham uchraydi. Shuni alohida taʼkidlashimiz zarurki, er-xotinning zoʻravonligi boʻyicha ish nihoyatda dolzarb hisoblanadi[9;234-245-betlar].

Oilaviy zoʻravonlikni tadqiq qilishda “zoʻravonlik” atamasining “tor” talqini keng tarqalgan. Xususan, aksar olimlar faqat jismoniy, aqliy va jinsiy taʼsirlarni tahlil qilganlar[4;24-b]. Bizning fikrimizcha, E.V. Nikulchenkovaning jismoniy va ruhiy zoʻravonligini hissiy taʻsir bilan toʻldirish oqilona sanaladi[10;140-b].

Shuningdek, Yu.M. Antonyan – “intellektual” zoʻravonlik kamsitish, hokimiyatni suiisteʼmol qilish, bolalar, qariyalar va boshqa fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazish (masalan, jinoyat sodir etishga jalb qilish), uy-joy daxlsizligini buzish, ruhiy kasalliklar shifoxonasiga noqonuniy joylashtirish shaklida namoyon boʻladi[2;54-55-betlar]. Aksar tadqiqotchilar ushbu atamaning jinoiy-huquqiy tushunchasiga asoslanib,

ta'sir xarakterini yanada cheklaydilar va faqat jismoniy va ruhiy ta'sirningina zo'ravonlik deb tasniflaganlar[6;3-b].

Natijalar. Shunisi e'tiborga sazovorki, oilaviy zo'ravonlik va uning turlarining ta'riflari O'zbekiston Respublikasi yuridik adabiyotida juda keng tarqalmoqda, milliy qonunchiligimizda 2023-yilda huquqiy kodifikatsiyaga erishgan.

Jumladan, 2024-yilning 16-iyul kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida oilaviy (maishiy) zo'ravonliklardan himoyalash choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi va 3-o'qishda qabul qilindi. Qonun loyihasi bilan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarning ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilgandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining oilaviy (maishiy) zo'ravonlik to'g'risidagi 126¹-moddasi bolaga nisbatan oilaviy (maishiy) zo'ravonlik qilganlik uchun javobgarlik bilan to'ldirildi. Ungacha amaldagi normada er-xotin yoki oilada birga yashovchi boshqa shaxslarga nisbatan oilaviy (maishiy) zo'ravonlik qilganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan bo'lsa-da, bu harakatlarni bolaga nisbatan sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan edi. Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksining 583-moddasi "Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik bilan bog'liq ishlar yuzasidan yarashuv to'g'risidagi ariza sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirishidan oldin berilishi mumkin" mazmunidagi ikkinchi qism bilan to'ldirilmoqda. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ham bolaga nisbatan oilaviy (maishiy) zo'ravonlik qilganlik uchun javobgarlik belgilash nazarda tutilmoqda[24]. Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi bolalar va xotin-qizlarning tazyiq va zo'ravonlikka uchrashini oldini olish choralari samaradorligini oshirishga, oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhit yaxshilanishini ta'minlashga xizmat qilishi qayd etishimiz zarur.

Xulosa. Shunday qilib, xorijiy davlatlarda ham bu norma tegishli Qonunlari bilan o'z aksini topgan. Jumlada, Moldova Respublikasining 2007-yil 1-martdagi 45-XVI-sonli "Oilaviy zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 2-moddasiga muvofiq: "maishiy zo'ravonlik — o'z-o'ziga aloqador bo'lmagan har qanday qasddan jismoniy yoki og'zaki harakat yoki harakatsizlik. — bir oila a'zosi tomonidan boshqa oila a'zolariga, shu jumladan bolalarga nisbatan sodir etilgan jismoniy, jinsiy, ruhiy, ma'naviy yoki iqtisodiy ta'sir, moddiy yoki ma'naviy zarar yetkazish shaklida boshqalarni himoya qilish"[11]. Ma'naviy zo'ravonlik oila a'zolaridan birining intilishlarini taqiqlash, cheklash, masxara qilish va jazolash, madaniy, etnik, til yoki diniy qadriyatlarga kirishni taqiqlash, cheklash, masxara qilish va jazolash orqali ma'naviy va axloqiy ehtiyojlarni qondirish ahamiyatiga putur yetkazish yoki kamaytirish deb ta'riflanadi.

Bundan tashqari, Ukrainada qabul qilingan "Oilaviy zo'ravonlikning oldini olish to'g'risida"gi Qonunga[12;70-b] ko'ra, oiladagi jismoniy zo'ravonlik bir oila a'zosining boshqa oila a'zosini qasddan kaltaklashi, badaniga shikast yetkazishi, buning natijasida jabrlanuvchining o'limi, jismoniy yoki ruhiy salomatligining buzilishiga, sha'ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazilishiga kelib chiqishi mumkin bo'lgan zo'ravonlik harakatlarini, oiladagi jinsiy, ruhiy va iqtisodiy zo'ravonlik ta'riflarini belgilab qo'ygan. Xususan, oiladagi jinsiy zo'ravonlik – bir oila a'zosi tomonidan boshqa oila a'zosining jinsiy daxlsizligiga qonunga

xilof ravishda hujum qilish, shuningdek, voyaga yetmagan oila a'zolariga nisbatan jinsiy xarakterdagi harakatlar (pedofiliya);

oiladagi ruhiy zo'ravonlik — bir oila a'zosining boshqa oila a'zosining ruhiyatiga og'zaki haqorat yoki tahdid, ta'qib qilish, qo'rqitish orqali ta'siri bilan bog'liq bo'lgan, ataylab hissiy noaniqlikni, himoya qila olmaslikni keltirib chiqaradigan va ruhiy salomatligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan zo'ravonlik;

oiladagi iqtisodiy zo'ravonlik- bir oila a'zosining boshqa oila a'zosini uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak va jabrlanuvchi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqqa ega bo'lgan boshqa mol-mulkdan yoki mablag'lardan qasddan mahrum qilish, uning o'limiga olib kelishi, jismoniy yoki ruhiy salomatligining buzilishiga olib kelishi mumkin[12;70-b].

Xulosa qilib aytganda, tizimli yondashuv maqola muallifiga oilaviy zo'ravonlikni quyidagi asoslar bo'yicha tasniflash imkonini beradi:

1) zo'ravonlik turlari bo'yicha (jismoniy, psixologik; jinsiy; axloqiy yoki hissiy; mafkuraviy, shu jumladan siyosiy, diniy; intellektual; tibbiy, shu jumladan giyohvandlik. oila a'zosiga zarar yetkazadigan iqtisodiy zo'ravonlik;

2) zo'rqlagan va jabrlanuvchi (er-xotin, ota-o'g'il, kelin) o'rtasidagi oilaviy aloqaga ko'ra;

3) qonuniylik (huquqiy, jinoiy);

4) xususiyatlariga ko'ra (ijtimoiy, huquqiy)[5;4-b] ;

5) zo'ravonlik obyekti bo'yicha (shaxsning jismoniy daxlsizligi; insonning hayoti, sog'lig'i; uning erkinligi; insonning har qanday organi, to'qimalari yoki fiziologik funksiyasining normal ishlashi);

6) zo'ravonlik oqibatlarining tabiati bo'yicha (jabrlanganlar soni; yetkazilgan zarar sifati: o'lim, sog'liq, sha'ni, qadr-qimmat va erkinligiga zarar yetkazish, jismoniy azob-uqubatlar, jabrlanuvchining ijtimoiy mavqeyining istalmagan o'zgarishi natijasida nogironlik, bolaning o'z joniga qasd qilishi);

7) motiv bilan (o'z manfaati, hukmronlik uchun kurash, rashk);

8) zo'ravonlik ta'sirining davomiyligi bo'yicha.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Алексеева Л.С. Проблемы жестокого обращения с детьми в семье // Педагогика. 2006. №5. С.43-52.
2. Антонян Ю.М. Преступная жестокость. М.: Изд-во ВНИИ МВД СССР, 1994. 216 с.
3. Базарова А.В. Кризисная семья: жестокое обращение с детьми (теоретический и эмпирический анализ). Улан-Удэ: Изд-во ГУЗ РЦМП МЗ РБ, 2009. 176 с.
4. Фахретдинова А.Б. Роль средств массовой информации в существовании супружеского насилия над женщиной в современном российском обществе: Автореф. дис... канд. соц. наук. Казань, 2009. 24 с.
5. Гаухман Л.Д. Борьба с насильственными посягательствами. М.: Юрид. лит., 1969. 120 с.
6. Гаухман Л.Д. Насилие как средство совершения преступления. М.: Юрид. лит., 1974. 167 с.
7. Ильяшенко А.Н. Противодействие насильственной преступности в семье: уголовно-правовые и криминологические аспекты. Монография. М.: Профобразование, 2003. 408 с.
8. Кон И.С. Ребенок и общество (историко-этнографическая перспектива). М.: Наука, 1988. 270 с.

9. Мясникова К.А. Супружеское насилие // Уголовно-правовые и криминологические проблемы борьбы с преступностью: Сб. материалов круглого стола (Ростов-на-Дону 27-28 сентября 2012 года). Р-н/Д., 2012. С. 234-245.
10. Никульченкова Е.В. Некоторые аспекты феномена насилия над детьми и его виды // Криминология: вчера, сегодня, завтра. Труды Санкт-Петербургского криминологического клуба. СПб., 2005. № 2 (9). С.136-148.
11. Закон Республики Молдова от 01.03.2007 № 45-XVI «О предупреждении и борьбе с домашним насилием». URL: http://base.spininform.ru/show_doc.fwx?rgn=22266.
12. Закон Украины «О предупреждении насилия в семье» от 15.11.2001 № 2789-III // Ведомости Верховной Рады Украины. 2002. № 10. Ст.70.
13. Сибиряков С.Л. Ребенок в опасности (как предупредить беду: наркоманию, пьянство, насилие, преступность...). Ассоциация юрид. центр. СПб.: Юрид. центр Пресс, 2002. 114 с.
14. Шахов В.И. Насилие в семье (уголовно-правовое и криминологическое значение): Автореф. дис. канд. юрид. наук. Ижевск, 2003. 25 с.
15. Чайковский Ю.К. К общей теории эволюции // Путь. 1993. № 4. С. 101–141.
16. Radbill S.X. A History of Child Abuse and Infanticide / R.E. Helfer and C.H. Kempe (Eds.). Chicago: University of Chicago Press 1978. 17 p.
17. Kislyakov N.A. Ocherki po istorii braka u narodov sredney Azii i Kazaxstana. Leningrad, 1969, 16-bet.
18. Qur'oni Karim (Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur), T., «Cho'lpon», 1992y.
19. SU 1917 № 11, 160-modda
20. SU 1917 № 10, 152-modda
21. Yo'ldoshev J. Hasanov S. Avestoda axloqiy-ta'limiy qarashlar. T., "O'qituvchi", 1992, 21-bet
22. Vestnik Komissariata yustitsii Turkestanskoy respubliki . 1919, 1-son 3-20-betlar 2-soni 40-bet.
23. O'zbekiston Respublikasi Markaziy arxivi Fond-18, 1 ro'yxat 275-delo 357-varaq
24. <https://parliament.gov.uz/oz/news/bolaga-nisbatan-oilaviy-maishiy-zoravonlik-qilganlik-uchun-javobgarlik-belgilanmoqda>

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

SOME CONSIDERATIONS ABOUT THE OBJECT OF CORRUPTION CRIMES

Odilov Muhammadrashodxon,
PhD researcher of the Law Enforcement Academy
E-mail: rashodxon@mail.ru

Abstract. The article analyzes the concepts of corruption, corruption offense, object of corruption crimes from a scientific point of view, considers public relations, interests, factors protected as an object of corruption offenses, and also analyzes scientific conclusions and views regarding the types of corruption offenses in various fields, general and direct objects of corruption offenses.

Keywords: corruption, corruption offense, crime, bribery, main and direct, additional object, subject.

КОРРУПЦИЯВИЙ ЖИНОЯТЛАР ОБЪЕКТИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Одиллов Муҳаммадрашодхон,
Ҳуқуқни муҳофаза қилиш Академияси мустақил изланувчиси

Аннотация. Мақолада коррупция, коррупциявий ҳуқуқбузарлик, коррупциявий жиноятлар объекти тушунчалари илмий жиҳатдан таҳлил қилинган, коррупциявий ҳуқуқбузарликларнинг объекти сифатида қўриқланадиган ижтимоий муносабатлар, манфаатлар, омиллар кўриб чиқилган, шунингдек коррупциявий ҳуқуқбузарликларнинг турли жабҳаларда содир этилишига оид, умумий ва бевосита объектлар турларига оид илмий хулосалар ва қарашлар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: коррупция, коррупциявий ҳуқуқбузарлик, жиноят, порахўрлик, асосий ва бевосита, қўшимча объект, предмет.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N22>

Миллий жиноят қонунчилигимизда коррупциявий жиноятлар учун жавобгарлик назарда тутилган моддалар Жиноят кодексининг ягона бобида жамланмаган. Коррупциявий жиноятларнинг аксарияти Жиноят кодексининг 15-бобида ("Бошқарув тартибига қарши жиноятлар") ва айримлари 10-боб ("Ўзгалар мулкни талон-торож қилиш"), 17-боб ("Жамоат хавфсизлигига қарши жиноятлар") ҳамда 24-боб ("Ҳарбий мансабдорлик жиноятлари")да ўз аксини топган. Қонун чиқарувчи томонидан коррупциявий жиноятлар турли бобларда жиноят-ҳуқуқий муҳофаза қилишнинг мустақил объектлари сифатида кўрсатилган.

Коррупциявий жиноятлар учун жавобгарлик институтини такомиллаштириш масалаларига оид илмий изланишлар Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги мамлакатлари олимлари, жумладан А.А.Бородина, А.П.Коваленко, С.В.Чубраков, В.Ф.Ширяев, И.А. Подройкина, Е.С.Киселева, В.Н. Орлов ва бошқалар томонидан ҳам олиб борилган.

ЎЗР ЖК Махсус қисми нормаларини таҳлил қилиб, шуни таъкидлаш мумкинки, унда коррупция хусусиятига эга жиноятлар учун бир қатор моддаларда жавобгарлик белгиланган. БМТнинг Коррупцияга қарши конвенцияси талабларига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексида жавобгарлик белгиланган қуйидаги ижтимоий хавфли қилмишлар коррупциявий жиноятлар ҳисобланади:

- 1) ЖК 167-модда. Ўзлаштириш ёки растрата йўли билан талон-торож қилиш;
- 2) ЖК 171-модда. Жиноий йўл билан топилган мулкни олиш ёки ўтказиш;
- 3) ЖК 184¹-модда. Бюджет интизомини бузиш;
- 4) ЖК 205-модда. Ҳокимият ёки мансаб ваколатини суистеъмол қилиш;
- 5) ЖК 206-модда. Ҳокимият ёки мансаб ваколати доира-сидан четга чиқиш;
- 6) ЖК 208-модда. Ҳокимият ҳаракатсизлиги;
- 7) ЖК 210-модда. Пора олиш;
- 8) ЖК 211-модда. Пора бериш;
- 9) ЖК 212-модда. Пора олиш-беришда воситачилик қилиш;
- 10) ЖК 213-модда. Хизматчини пора эвазига оғдириш;
- 11) ЖК 214-модда. Товламачилик йўли билан ҳақ беришни талаб қилиш;
- 12) ЖК 235-модда. Қийноққа солиш ва бошқа шафқатсиз, ғайриинсоний ёки кадр-қимматни камситувчи муомала ҳамда жазо турларини қўллаш;
- 13) ЖК 236-модда. Тергов қилишга ёки суд ишларини ҳал этишга аралашиш;
- 14) ЖК 238-модда. Ёлғон гувоҳлик бериш (2-қисми);
- 15) ЖК 243-модда. Жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштириш;
- 16) ЖК 301-модда. Ҳокимиятни суистеъмол қилиш, ҳокимият ваколатидан ташқарига чиқиш ёки ҳокимият ҳаракатсизлиги.

И.И.Карпецнинг фикрига кўра, жаҳондаги қонунларнинг бирортасида коррупция тушунчаси жиноят таркиби сифатида тилга олинмайди, зеро у жиноят таркибини ташкил этмайди, балки жиноятчилик каби, бошқа кўпгина ижтимоий ҳодисалар каби ижтимоий ҳодисадир [1; 13-15-б.]. Бошқа бир гуруҳ олимлар коррупциявий жиноятлар объекти сифатида давлат хизматининг обрўсини, унга нисбатан халқнинг ишончи ва ҳурматини, давлат аппаратининг қонуний фаолиятини таъминловчи ижтимоий муносабатларни кўрсатишади [2; 89-б.].

В.Е.Мельникова коррупциявий жиноятларнинг объекти сифатида “давлат ва жамоат аппарати тартибга солувчи ижтимоий муносабатлар” [3; 6-б.]ни кўрсатади. А.Х.Саттаров эса, давлат ёки жамоат аппарати фаолиятини ташкил этувчи ва жамият талабларига мос келувчи бир тоифали ижтимоий муносабатлар гуруҳи тушунилади [4; 10-б.], дейди.

Коррупциявий жиноятларнинг объекти ҳақида фикрларни бир қатор хорижий ҳуқуқшунос-олимларнинг асарларида кўришимиз мумкин. Жумладан, А.Н.Агыбаев бундай турдаги жиноятларнинг объекти “давлат аппаратининг тўғри фаолият юритиши” эканлигини таъкидлайди [5; 17-б.]. В.Е.Мельникованинг фикрича эса, “давлат ва жамоат аппарати тартибга солувчи ижтимоий муносабатлар” коррупциявий жиноятларнинг объекти бўлиб хизмат қилади [3; 6-б.]. Бошқа бир гуруҳ олимлар коррупциявий жиноятлар объекти сифатида “давлат хизматининг обрўсини, унга нисбатан халқнинг ишончи ва ҳурматини, давлат аппаратининг қонуний фаолиятини таъминловчи ижтимоий муносабатлар”ни кўрсатишади [2; 89-б.].

М.Х.Рустамбоевнинг наздида коррупциявий жиноятларда асосий бевосита объекти давлат ҳокимияти, бошқарув ва маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органларининг нормал фаолият кўрсатишини таъминлайдиган ижтимоий муносабатлар ҳисобланади. Қўшимча бевосита объект сифатида фуқароларнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлашга қаратилган ижтимоий муносабатлар ҳисобланади. Объектив томондан жиноят ҳокимият ёки мансаб ваколатини суиистеъмол қилиш, яъни мансабдор шахснинг ўз мансаб ваколатидан турли ниятларда фойдаланиши натижасида фуқароларнинг ҳуқуқлари ёки қонун билан кўриқланадиган манфаатларига ёхуд давлат ёки жамоат манфаатларига кўп миқдорда зарар ёхуд жиддий зиён етказилишида ифодаланади [6; 140-б.].

Демак, бугунги кунда коррупциявий жиноят, коррупцияга оид жиноят, коррупцион жиноят тушунчалари қўлланилишига қарамай, мазмунан улар фарқланмайди. Фикримизча, ушбу тоифадаги жиноятларнинг бошқа турдаги жиноятлардан фарқловчи белгиси бу тажовуз объекти, мотиви ҳамда мансаб ваколатидан фойдаланилишидир.

Жиноий қилмишнинг моҳияти ҳақидаги кўплаб ғояларга асосланиб, таҳлил қилинаётган ҳолатда жиноят ҳуқуқи учун асос бўлиб “оммавий ҳуқуқбузарлик” тушунчасидан, шунингдек, ундан келиб чиқадиган “зарар” тушунчасидан бошлаш керак, деб тахмин қилиш мумкин, чунки зарар тушунчаси қайсидир маънода биринчисининг маъносини кенгайтиради, ушбу тоифа жиноятларнинг моҳиятига ўзига хос жиноят-ҳуқуқий хусусиятларни киритади.

Таъкидлаш жоизки, зарарнинг жиноий-ҳуқуқий табиати жамият тараққиёти учун муҳим бўлган ижтимоий қадриятларга тажовузидир. Шу билан бирга, коррупциявий жиноятларнинг нафақат зарарининг табиати, балки унинг бошқа ижтимоий ва ҳуқуқий ҳодисалар билан алоқасини аниқлаш жоиз, бу эса маълум бир қийинчилик туғдиради. Асосий масала шундаки, бу ҳолатда жиноят қонуни айнан нимани ҳимоя қилишини аниқлаш керак.

Қонун чиқарувчи айбдор шахснинг ўзини ижтимоий хавфли деб ҳисоблайди, яъни муайян ҳаракатларни бажариш учун моддий неъматларни олган шахс томонидан жуда номақбул ҳаракат қилинганлиги эътироф этилади.

Коррупционер мансабдор шахс қонунга хилоф равишда қўлга киритилган қадриятлардан фойдаланиб, уларга оддийгина эгалик қилибгина қолмай, балки ўзи таркибий қисми бўлган тизимга объектив равишда зарар етказади [7; 55-б.].

Г.К. Мишин [8; 22-б.], жиноят ҳуқуқи аспектидаги коррупцияни ҳисобга олган ҳолда, жиноят ҳуқуқида нормалар ҳуқуқбузарликнинг умумий тушунчасини белгиловчи икки томонлама рол ўйнайди ва ҳуқуқбузарлик учун жавобгарликни назарда тутувчи махсус қоида мавжуд бўлмаган ҳолларда захира бўлиб хизмат қилади, деб ҳақли равишда ҳисоблайди.

Анъанага кўра, жиноий ҳуқуқбузарлик натижасида етказилган зарарнинг ҳар томонлама тавсифи жиноят объекти доирасида кўриб чиқилади. Демак, биз коррупциявий жиноятлар объектини аниқлашимиз учун нафақат жиноят-ҳуқуқий тақиқнинг заруратини, балки кўп жиҳатдан жиноят-ҳуқуқий ҳимоянинг кўлами ва чегараларини асослашимиз лозим. Коррупцияда объектга етказилган зарарнинг

миқдори орқали жиноятларнинг ижтимоий хавfli оқибатлари аниқланади ёки аксинча, ҳаракат ёки ҳаракатсизликнинг аҳамиятсизлиги аниқланади.

Таҳлил қилинаётган ижтимоий-иқтисодий муносабатларга нисбатан бу объектлар биринчи навбатда маъмурий қонунчилик нормалари билан муҳофаза қилинади ва тартибга солинади. Аммо, агар коррупция кўринишлари хилма-хиллигини эсласак, бу ерда нафақат маъмурий, балки бошқа муносабатлар ҳам зарар кўриши ҳақиқат бўлиб қолади.

Шу билан бирга, жиноят ҳуқуқи ушбу объектларни уларга тажовузнинг энг хавfli шакллари бўлсагина ўз ҳимоясига олади. Масалан, пора олиш ҳолатларида (Жиноят кодексининг 210-моддаси); пора бериш (Жиноят кодексининг 211-моддаси); мансаб сохтакорлиги (Жиноят кодексининг 209-моддаси) ва бошқалар. Нисбатан зарар миқдори камроқ (бинобарин, ижтимоий хавfli камроқ) ҳуқуқбузарликлар (масалан, давлат ёки маҳаллий тузилма томонидан ерни шартномасиз тақдим этиш, маҳаллийчилик, таниш-билишчилик ва бошқалар) ҳуқуқнинг бошқа тармоқлари билан ҳимояланади. Бинобарин, муайян неъматларни (манфаатларни) жиноят қонуни билан кўриқланадиган тоифага киритиш ушбу неъматларга (манфаатларга) қилинган майда тажовузларнинг бирортасини ҳам жиноий ҳуқуқбузарликка айлантирмайди. Жиноят қонунида назарда тутилган ҳуқуққа хилоф қилмишларда етказилган зарарнинг (зиён) энг хавfli шаклларигина шундай оқибатга сабаб бўлади.

Демак, кўриб чиқиладиган жиноятларнинг объекти жамият томонидан таъминланган ва унинг манфаатларига ёки ижтимоий-иқтисодий муносабатлар субъектларининг ҳолатига мос келадиган фаолиятдир.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, коррупция жиноятларига ўзининг жиноий-ҳуқуқий характериға кўра турлича бўлган қилмишлар киради. У давлат ҳокимияти, давлат ва бошқа хизматларға қарши кўплаб жиноятлардан иборат. Буларға, порахўрлик, шунингдек, мансабдор шахсларнинг ваколатларини суистеъмол қилиш, мансабдор шахсларнинг ваколатларидан четға чиқиш, мансабдор шахсларнинг тадбиркорлик фаолияти субъектлари ишиға ноқонуний аралашув, мансаб сохтакорлиги, била туриб айбсиз шахсни жиноий жавобгарликка тортиш, шунингдек тижорат ва бошқа ташкилотларда хизмат манфаатларига қарши жиноятлар, ҳарбий мансабдорлик жиноятлари, иқтисодиёт ва бошқа бир қатор соҳалардаги бошқарув тартибини моддий манфаатларни кўзлаб бузишдан иборат жиноятлар киради.

Айтиш мумкинки, коррупциявий жиноятлар қарийб барча соҳаларда учрайди, шунинг учун бизнингча, коррупциявий жиноятларнинг бевосита объекти давлат, жамият ва инсонлар турли соҳаларда ҳуқуқлари, эркинликлари ва манфаатларини нормал тартибда ҳимояланиши ва таъминланишини учун мўлжалланган маъмурий-бошқарув тусига эға (оммавий) ижтимоий муносабатлардир.

Келтириб ўтилган жиноятларнинг ҳар қандай бевосита объекти нафақат ижтимоий муносабатларнинг ўзига хос хусусиятларини, балки кам бўлмаган даражада тегишли равишда ҳақиқатда аниқланган зарарнинг ўзига хос хусусиятларини қонуний воситалар билан ҳимоя қилади.

Маълумки, жиноятнинг қўшимча бевосита объекти бўлиб, тажовуз ушбу жиноятнинг моҳиятини ташкил этмайдиган, лекин мазкур жиноят асосий объекти

билан бирга бузиладиган ёки бузилиши хавфи туғиладиган ижтимоий муносабатлардир.

Хулоса. Биринчидан, коррупциявий жиноятларнинг умумий объекти давлат ҳокимияти ва бошқарув органларининг нормал фаолият юритишини, фуқароларнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлашга қаратилган ижтимоий муносабатлар ҳисобланади.

Иккинчидан, мазкур ижтимоий муносабатлар Жиноят кодексининг 205-206, 209-214-моддалари учун бевосита объект бўлиб хизмат қилади. Шунингдек Жиноят кодекси бошқа моддалари (мисол учун 192⁹-192¹¹-моддаларида) кўрсатилган жиноятларнинг бевосита объекти тегишли субъектлар (тижорат ташкилоти, ННТ) нинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини таъминлашга қаратилган ижтимоий муносабатлардан иборат.

Коррупциявий жиноятларнинг бевосита объекти хизмат мавқеидан фойдаланиб содир этилган ўзганинг мулкани ўзлаштиришда тегишли давлат хизмати манфаатлари ва қўшимча равишда ўзганинг мулкани қўриқловчи ижтимоий муносабатлар ҳисобланади.

Учинчидан, коррупциявий жиноятларнинг объектига хос умумий жиҳат шундаки, коррупциявий жиноятлар давлат ҳокимияти ва бошқаруви, жамоат бирлашмалари фаолияти билан боғлиқ давлат аппаратининг нормал фаолиятини таъминлайдиган ижтимоий муносабатлар ва бу муносабатларда айрим фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонун билан қўриқланадиган манфаатларига тажовуз этади.

Тўртинчидан, коррупциявий қилмишлар нафақат давлат ҳокимияти ва бошқаруви, балки тижорат ташкилотлари ва бошқа ташкилотлар фаолияти билан боғлиқ бошқарув аппаратининг нормал фаолиятини таъминлайдиган ижтимоий муносабатлар ва бу муносабатларда айрим фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонун билан қўриқланадиган манфаатларига тажовуз этади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Карпец И.И. Организованная преступность как социальная и юридическая проблема, ее тенденции и причины. Организованная преступность-2. / Под ред. А.И.Долговой, С.В.Дьякива. – М., 1993. – С.13-15.
2. Проблемы борьбы с коррупционными преступлениями: Учебное пособие // С. Б. Коваленко, М.Т. Кожамкулов, Ж.В. Онгарбекова, А.С. Рахметова. - Алматы: ООНИ и РИР Академии МВД РК, 2004. С. 89.
3. Мельникова К.Е. Должностные преступления. Вопросы уголовно-правовой квалификации. – М.: ВЮЗИ, 1985. – С. 6.
4. Саттаров А.Х. Борьба с должностными злоупотреблениями в подсобных сельских хозяйствах предприятий и организации. Автореф. ... канд. юрид. наук. – Т., 1990. – С.10.
5. Агыбаев А. Н. Ответственность должностных лиц за служебные преступления. – Алматы: Жеті жарғы, 1997.
6. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикаси жиноят ҳуқуқи курси. Том 4. Дарслик. 2-нашр, тўлдирилган ва қайта ишланган – Т.: Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти, 2018. – 330 бет.
7. Сергеевский Н. Русское уголовное право. Общая часть. СПб., 1915. С. 55.
8. Мишин Г.К. Коррупция: понятие, сущность, меры ограничения: Лекция. М., 1991. С. 22.

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

ANALYSIS OF REGULATORY DOCUMENTS ON THE ELIMINATION OF CRIMES RELATED TO CORRUPTION IN LABOR AUTHORITIES

Khasanov Muhridin Urokboy ugli,

Doctoral student at the Academy of
Law Enforcement Agencies

E-mail: state_ma@bk.ru

Abstract. Today, eradication of corruption in government agencies is becoming more relevant than ever. Among them, a special place is occupied by corruption offenses committed in labor agencies, and the article also covers the issues of eliminating cases of corruption committed in this system today. In this case, the goal is to clarify the topic based on regulatory legal documents related to this area, especially in the field of eliminating cases of corruption in labor agencies.

Keywords: corruption, labor agencies, preventive measures, personnel rotation, labor protection, public control.

МЕҲНАТ ОРГАНЛАРИДА КОРРУПЦИЯГА ОИД ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИ БАРТАРАФ ҚИЛИШ БЎЙИЧА НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАР ТАҲЛИЛИ

Ҳасанов Муҳриддин Ўроқбой ўғли,

Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси докторанти

Аннотация. Бугунги кунда давлат органларида содир қилинадиган коррупциявий ҳолатларни бартараф этиш ҳар доимгидан ҳам долзарб аҳамият касб этмоқда. Улар орасида меҳнат органларида содир қилинадиган коррупциявий ҳуқуқбузарликлар ўзига хос ўринга эга бўлиб, бугунги кунда ушбу тизимда содир қилинадиган коррупция ҳолатларини бартараф этиш масалалари мақолада ёритиб берилган. Бунда айниқса, меҳнат органларида коррупциявий ҳолатларни бартараф қилишда соҳага оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида мавзунини ёритиб бериш мақсад қилинган.

Калит сўзлар: коррупция, меҳнат органлари, превентив чоралар, ходимлар ротацияси, меҳнатни муҳофаза қилиш, жамоатчилик назорати.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N23>

Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги Қонунига асосан, коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги давлат сиёсати давлат дастурлари ва бошқа дастурлар асосида амалга оширилиши белгиланган. Ўзбекистон Президентининг 2017 йил 2 февралдаги Қарори билан **2017–2018 йилларда** коррупцияга қарши курашиш бўйича **биринчи Давлат дастури** [6;] қабул қилиниб, унинг ижроси амалга оширилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йилнинг 27 майдаги “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада

такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони билан **2019–2020 йилларда** коррупцияга қарши курашиш бўйича **иккинчи Давлат дастури** [6;] тасдиқланган.

2021 йил 6 июль куни Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Коррупцияга қарши муросасиз муносабатда бўлиш муҳитини яратиш, давлат ва жамият бошқарувида коррупциявий омилларни кескин камайтириш ва бунда жамоатчилик иштирокини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони билан **2021–2022 йилларда** коррупцияга қарши курашиш бўйича **учинчи Давлат дастури** [6;] тасдиқланган.

«Ўзбекистон – 2030» стратегиясида белгиланган вазифаларни амалга ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг **2023 йил 27 ноябрида** “Коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари фаолияти устидан жамоатчилик назорати тизими самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-200-сон Фармони билан Коррупцияга қарши курашиш бўйича **2023–2024 йилларга** мўлжалланган **тўртинчи Давлат дастури** тасдиқланди [6;].

Давлат дастурлари ва бошқа дастурлар қонуннинг қоидалари самарали ижро этилишини таъминлаш, коррупциянинг ҳолати ҳамда тенденцияларидан келиб чиққан ҳолда коррупцияга қарши курашиш бўйича комплекс ва тизимли чора-тадбирлар кўриш мақсадида ишлаб чиқилади ҳамда амалга оширилади [5].

Масалан, **Халқаро рейтинг ва индекслар билан ишлаш бўйича республика кенгаши йиғилишининг 2024 йил 27 мартдаги 13-сонли баённомаси билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий соҳага оид устувор халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилаш бўйича 2024-йилга мўлжалланган чора-тадбирлар дастурида”** Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги соҳага оид бир қатор вазифаларни амалга оширишга масъул этиб белгиланган [4;5-6;].

Шундан келиб чиқиб, ижтимоий-иқтисодий соҳада коррупциявий ҳолатларни қисқартириш мақсадида вазирликка:

Иқтисодий эркинлик индексининг “Ишчи кучининг иштирок этиш коеффициенти” субиндикаторини яхшилаш мақсадида аҳолининг эҳтиёжманд қатламлари бандлигига кўмаклашиш;

даромадли меҳнат билан банд бўлмаган аҳолига, хусусан ёшлар ва хотин-қизларнинг бандлигига кўмаклашиш;

аҳолини, айниқса, камбағал оилаларнинг тадбиркорлик, касаначилик, хунармандчилик фаолиятини рағбатлантиришга субсидиялар ажратиш;

“Илм-фанга асосланган соҳаларда бандлик” субиндикаторини шакллантиришда маълумотларни хорижий ташкилотларга етказиш чораларини кўриш;

тегишли маълумотларни Халқаро меҳнат ташкилоти тавсиялари ва талаблари асосида шакллантириш;

мамлакатда уюшмаларга бирлашиш ҳуқуқини таъминлашга қаратилган амалий чораларни кўриш ва биринчи навбатда касаба уюшмалари фаолиятини такомиллаштириш доирасида касаба уюшмаларини ташкил этишга қўйилган талабларни қисқартириш вазифалари юклатилган.

Бундан ташқари, **Халқаро рейтинг ва индекслар билан ишлаш бўйича республика кенгаши баённомаси билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасининг сиёсий-ҳуқуқий соҳага оид халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилаш бўйича 2024 йилга мўлжалланган чора-тадбирлар дастури”** [4;5-б.] талабларини бажариш мақсадида Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги сиёсий-ҳуқуқий соҳада коррупциявий ҳолатларини бартараф этиш мақсадида қуйидаги вазифаларни амалга ошириш белгиланган:

аҳолини иш билан таъминлашнинг прогрессив шакллари ривожлантириш орқали бандликни таъминлаш ва тадбиркорлик субъектлари учун имкониятлар яратиш;

аутстафтинг хизматлари кўрсатиш тартиби ва аутстафтинг хизматлари кўрсатиш тўғрисидаги шартномалар бўйича бажарилишига йўл қўйилмайдиган ишлар турларининг рўйхати кўрсатилган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори лойиҳасини ишлаб чиқиш;

муносиб меҳнат шароитларини яратиш ва меҳнат қонунчилигини такомиллаштириш;

меҳнат фаолияти жараёнида ишчиларнинг соғлиги ва ҳаётини сақлаш устуворлиги, иш жойларидаги меҳнат шароитларининг меҳнатни муҳофаза қилиш талабларига мувофиқлиги, ишчилар соғлигининг ёмонлашиши, ишлаб чиқаришда жароҳатланиш, касб касаллигига чалиниш ҳолатларнинг олдини олиш бўйича изчил ва узлуксиз чора-тадбирларни амалга ошириш, шу жумладан касбий таваккалчилик хавфларни бошқариш, шу жумладан иш жойларини лойиҳалаш орқали, ускуналар, асбоблар, хом ашё ва материалларни, шахсий ва жамоавий ҳимоя воситаларини танлаш, ишлаб чиқариш ва технологик жараёнларни лойиҳалашни қамраб олган Меҳнатни муҳофаза қилишни бошқариш тизимини (ММБТ) жорий этиш.

Мазкур ҳужжатларда қўйилган мақсад ва вазифалардан келиб чиқиб барча давлат бошқарув органлари, шу ўринда “Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигида ҳам бир қатор амалий ва ташкилий-ҳуқуқий ишлар амалга оширилди.

Жумладан **Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 31 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1066-сон Қарорининг** 18-бандига асосан, коррупция ва бошқа суиистеъмолликларнинг олдини олиш ва уларга йўл қўймаслик, ходимнинг шахсий ва ишчанлик хусусиятларини, унинг фаолияти самарадорлигини мунтазам ўрганиш, шунингдек малакага ва Инспекция фаолиятининг турли йўналишларида ишлаш тажрибасига эга кадрлар захирасини шакллантириш мақсадида ходимлар ротациясини амалга ошириш белгиланган.

Қарорнинг 35-бандига коррупция ва бошқа суиистеъмолликларнинг олдини олиш ва уларга йўл қўймаслик, ходимнинг шахсий ва иш юзасидан фазилатларини, унинг фаолияти самарадорлигини ўрганиш, шунингдек, Инспекция фаолиятининг турли йўналишларида малака ва иш тажрибасига эга кадрлар захирасини шакллантириш мақсадида ходимлар ротацияси амалга ошириши белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 ноябрдаги “2022-2023 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон маъмурий ислохотлари дастурини ишлаб чиқиш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ф-5-сон Фармойишида Давлат органларида коррупциянинг олдини олиш юзасидан вазирлик ва идоралар ҳамда улар таркибига кирадиган ташкилотлар кесимида коррупция авж олган соҳаларда унинг ривожланиш сабаблари ва шартларини ўрганиш асосида ушбу соҳаларнинг ҳар бирига «ташхис қўйиш» ҳамда коррупция омилларини бартараф этиш; вазирлик ва идоралар ҳамда улар таркибига кирадиган ташкилотларда коррупциянинг олдини олишга доир аниқ чора-тадбирларни ишлаб чиқиш;

вазирлик ва идоралар ҳамда улар таркибига кирадиган ташкилотлар томонидан Давлат бюджети ва халқаро молия институтлари маблағлари ҳисобидан қурилган, реконструкция қилинган, мукамал таъмирланган ва жиҳозланган бино ва иншоотлар, амалга оширилган харидлар ва хизматлар учун сарфланадиган маблағлардан оқилона, тежамкор ва самарали фойдаланиш, тендер ва танловларни очиқ ва шаффоф ҳолда ўтказиш тизимини янада такомиллаштириш;

коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатларини такомиллаштириш, уларнинг нормаларини аниқ ҳуқуқий механизмлар билан очиқ бериш белгиланган [6.]

Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги раҳбарияти томонидан тизимда коррупциявий ҳолатлар юз беришини аниқлаш ва уларни бартараф этиш бўйича бир қатор амалий чоралар қабул қилиб келинмоқда. Жумладан, 2023 йил 13 сентябрда Вазирлик марказий аппарати бошқарма бошлиқлари, Қорақалпоғистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазири, Тошкент шаҳар ва ҳудудий Бандлик бош бошқармалари бошлиқлари ва тасарруфий ташкилотлар раҳбарлари иштирокида Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш агентлигининг 2023 йил 5 сентябрдаги 03-07/4260-сонли тақдимномаси муҳокамаси бўлиб ўтди.

Вазир Б.Мусаев раҳбарлигида ўтказилган тадбирда 2022 йилда вазирлик ҳамда унинг қўйи тизимида коррупцияга қарши курашиш ва унинг олдини олиш борасида амалга оширилган ишларнинг аҳволи, шунингдек бандлик ва меҳнат муносабатлари соҳаларида содир этилган коррупциявий ҳуқуқбузарликлар сабаблари муҳокама қилинди.

Вазирликда коррупцияга қарши ички назорат тузилмаси фаолиятининг самарали ташкил этилиши ва тузилманинг коррупцияга қарши курашиш борасида 2020 йилда бешта йўналиш, 19 та банддан иборат коррупцияга қарши курашиш ҳамда унинг олдини олиш бўйича “Йўл харитаси” тасдиқланиб ижроси таъминланганлигини, Вазирлик **марказий аппаратида 2 та штат бирлигидан иборат коррупцияга қарши курашиш шўбаси ташкил этилганлигини**, коррупцияга қарши курашиш борасида **16 та ички идоравий ҳужжатлар халқаро стандартларга мос равишда ишлаб чиқилганлигини** ва бандлик ҳамда меҳнат муносабатлари соҳаларида татбиқ этилганлиги эътироф этилди.

Амалга оширилган ишлар натижасида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 12 январдаги “Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари

тўғрисида”ги ПҚ-81-сонли Қарори талабларини бажариб, вазирликда коррупцияга қарши фаолият самарадорлиги “яхши” (**100 баллдан 81 балл**) баҳоланган [6; 6-7 б.]

2022 йил 15 апрелда Вазирлик томонидан тизимдаги Коррупция хавф-хатарига энг кўп бўлган лавозимлар рўйхати тасдиқланган, унда: Касб-хунарга ўқитишни ташкил этиш ва касбий малакани ривожлантириш департаменти, АБКМ директорлари, Давлат меҳнат инспекциясининг Давлат меҳнат ҳуқуқ инспекторлари, Бандликка кўмаклашиши Давлат жамғармаси маблағларидан самарали ва мақсадли фойдаланиш бошқармаси ва Бошқарма бошлиғи, Кадрлар бошқармаси, Тасарруфий ташкилотлар кадрлар бўлими бошлиқлари, Молиявий назорат бўлими, бўлим бошлиғи, бош мутахассиси, етакчи мутахассис, Бухгалтерия, бўлим бошлиғи, Ишлар бошқармаси, хўжалик ишлар мудирлари ҳамда Ташқи меҳнат миграцияси ва қайтган меҳнат мигрантларининг реинтеграция дастурлари бошқармаси, бошқарма бошлиғи ҳамда Хусусий бандлик агентликлари раҳбарлари таъкидлаб ўтилган.

Вазирнинг 2023 йил 23 майдаги 60-ИЧ-сон буйруғи билан **“Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги тизимида коррупцияга қарши курашиш тизимининг ҳолати тўғрисидаги ҳисоботни шакллантириш ва тақдим этиш бўйича Низом**” тасдиқланган. Низомга биноан намунавий ҳисоботлар шакллари тасдиқланган.

Вазирнинг 2023 йил 20 июлдаги 121-сон буйруғи билан **“Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигининг ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар билан ҳамкорлик қилиш тартиби тўғрисида”ги низом** тасдиқланган бўлиб, унда вазирлик соҳадаги қонун ҳужжатлари талабларига риоя этишнинг назорат қилинишини таъминлаш, аниқланган қонунбузарликларни бартараф этиш, вазирлик ва унинг қуйи органлари томонидан ўтказилган назорат тадбирлари натижаларига кўра, ҳужжатларни расмийлаштириш ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга тақдим қилиш тартибини, вазирлик ва унинг қуйи органлари Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал кодексининг 322 ва 326-моддаларига мувофиқ назорат тадбирлари натижасига кўра жиноят аломатлари таркиби аниқланган тақдирда бундай материалларни, далолатнома ёки маълумотларни тегишли мансабдор шахсларнинг ҳаракатларига ҳуқуқий баҳо бериш учун ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга юборилиши белгиланган.

Мазкур буйруққа асосан **Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги, ҳудудий ва тасарруфий ташкилотларга алоқа каналлари орқали коррупциявий хатти-ҳаракатлар тўғрисида келиб тушган хабарларни қабул қилиш ва кўриб чиқиш** регламенти, реестрлар намуналари тасдиқланган.

Давлатимизда ижтимоий соҳада кенг қамровли ислохотлар амалга ошириши меҳнат органлари тизимида коррупцияга қарши курашиш вазирлик тизимида коррупцияга қарши курашишнинг самарадорлиги мазкур соҳада узоқ муддатли чоралар қабул қилиниши билан белгиланади [8;56-57 б.].Шунинг учун вазирликда коррупцияга қарши курашишда меҳнат органлари тузилмаларининг фаолиятини мувофиқлаштириш ва ўзаро ҳамкорлигини таъминлаш, коррупцияни келтириб чиқарувчи хавфни баҳолаш ва бошқариш тизимини тартибга солиш мақсадида **Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги тизимида коррупцияга қарши курашиш дастури** қабул қилинган. Унга биноан меҳнат органлари ходимларининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий

маданиятини юксалтиришга, тизимда коррупцияга нисбатан мурасасиз муносабатни шакллантиришга доир чора-тадбирларнинг ишлаб чиқилиши ҳамда амалга оширилишини ташкил этиш, коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларни аниқлашга, уларни олдини олишга ва чек қўйишга, шунингдек ушбу иллатларга имкон берувчи сабаблар ва шарт-шароитларни бартараф этишга доир чора-тадбирлар самарадорлиги оширилишини таъминлаш, коррупциянинг ҳолати ва тенденциялари тўғрисидаги ахборотни йиғиш ҳамда таҳлил этиш, коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги қонун ҳужжатларини такомиллаштириш ва ушбу соҳадаги ишларни яхшилаш юзасидан таклифлар тайёрлаш, коррупцияга қарши курашиш соҳасида халқаро ҳамкорликни таъминлаш каби вазифалар белгиланган.

Бундан ташқари, ҳуқуқшунос олимлар, жумладан М.Мухаммадиева асосли эътироф этгандек, коррупцияга қарши курашишда жамоатчилик назоратининг ўрни ва аҳамияти муҳим.[8;15-176.]

Мазкур соҳадаги илғор хорижий давлатлар тажрибасини инобатга олган ҳолда давлатимизда ҳам Президент Ш.Мирзиёев ташаббуси билан давлат бошқарув органлари ҳузурида Жамоатчилик кенгашлари ташкил этилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат органлари ҳузурида жамоатчилик кенгашлари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 04.07.2018 йилдаги ПҚ-3837-сон қарорига биноан **Вазирнинг 2023 йил 25 апрелдаги 61 ИЧ-сон буйруғига** асосан Вазирлик ҳузуридаги жамоатчилик кенгаши Низоми ва унинг таркиби тасдиқланган. Низомга биноан жамоатчилик кенгашининг асосий вазифалари сифатида:

қабул қилинаётган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда, қарорларда, шунингдек, давлат, тармоқ ва ҳудудий ривожлантириш дастурларида жамоатчилик манфаатлари ва жамоатчилик фикри ҳисобга олиниши, фуқароларнинг, юридик шахсларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини, жамият манфаатларини ҳимоя қилиш соҳасида қонун ҳужжатлари талаблари ижросини таъминлаш, давлат органи зиммасига юкланган ҳамда ижтимоий ва жамоатчилик манфаатларига дахл қилувчи вазифалар ва функцияларни бажариш, давлат хизматларини кўрсатиш, ижтимоий шериклик доирасида амалга ошириладиган битимлар, шартномалар, лойиҳалар ва дастурларни рўёбга чиқариш бўйича давлат органи ва унинг мансабдор шахсларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга ошириш кабилар ҳисобланиши белгиланган.

Миллий қонунчиликда давлат фуқаролик хизматчилари шу ўринда меҳнат органлари ходимлари ҳам коррупциявий ҳуқуқбузарлик содир этганлари учун интизомий, маъмурий ва жиноий жавобгарлик ўрнатилган. [6;]

Бир қатор мутахассислар таъкидлаганидек, давлат органларида коррупциявий ҳуқуқбузарликларнинг бошланиши бевосита ўрнатилган чеклов ва таъқибларга риоя этмаслик билан боғлиқ.

Аксарият учун байрам ва бошқа тадбирларнинг завқли жиҳатларидан бири совға бериш ва олиш бўлса керак. Оила аъзолари, дўсти ва яқинлар, ҳамкасблар бир-бирига, ташкилотлар ходимларига совғалар улашади. Аммо айрим ҳолатларда совғалар коррупциявий жиноятларни ниқоблаш учун восита ҳам бўлиб қолиши мумкин, айниқса, у мансабдор кишилар, жумладан, давлат хизматчиларига берилган бўлса. Шу боис, давлат хизматчиларига совға бериш билан боғлиқ махсус қоидалар белгиланган.

2003 йил 31 октябрдаги БМТ Коррупцияга қарши Конвенциясининг 8-моддасига мувофиқ, “Давлатлар, тегишли ҳолларда ва ўз ички қонунчилигининг асосий тамойилларига мувофиқ, оммавий мансабдор шахсларни тегишли органларига, бошқа маълумотлар қатори, оммавий мансабдор шахслар сифатидаги функцияларида манфаатлар тўқнашувини юзага келтириши мумкин бўлган хизматдан ташқари фаолият, машғулотлар, инвестициялар, активлар ҳамда муҳим тўхфа ёки нафлар тўғрисида декларацияларни тақдим этишга мажбур қиладиган чора ва тизимларни белгилашга ҳаракат қилиши” белгиланган.[7;77-7 б.]

Шу билан бирга, ўзбекистонлик тадқиқотчи Ш.Х.Турдикулов асосли таъкидлаганидек, соҳага оид миллий ва хорижий тадқиқотларда коррупциянинг олдини олиш, давлат органлари фуқаролик жамияти институтлари билан биргаликда ижтимоий шериклик ва жамоатчилик назорати доирасида коррупциянинг унга қарши курашиш бўйича лойиҳаларни амалга ошириш, қонун ҳужжатларининг коррупцияга қарши экспертизасини амалга ошириш, аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламлари, шу жумладан ногиронлиги бўлган шахслар, кам таъминланган оилалар, хотин-қизлар ва ёшларга нисбатан коррупцияга қарши курашиш ва унинг олдини олиш бўйича турли чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, фуқаролик жамияти институтларини коррупцияга қарши курашиш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш жараёнига жалб этиш каби масалалар ўта муҳим ҳисобланади.[5; 63-66 б.]

Шу боис, ҳар бир давлат коррупцияга қарши курашиш борасида ўзининг миллий тизимини такомиллаштириб бормоқда. Ўзбекистонда ҳам мазкур йўналишга алоҳида аҳамият берилмоқда. Мисол тариқасида, миллий даражада мансабдор шахсларнинг хатти-ҳаракатлари устидан жамоатчилик назорати тизимини ривожлантириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилишини кўрсатишимиз мумкин. [4; 55-57 б.]

Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонунининг 14-15-моддалари фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг, нодавлат нотижорат ташкилотларининг, оммавий ахборот воситаларининг ва фуқароларнинг коррупцияга қарши курашишда иштирок этишини ҳуқуқий асосларини шакллантиради.

Ўзбекистон Республикаси **“Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Қонунининг** 6-моддаси жамоатчилик назоратининг асосий шакллари сифатида: давлат органларига мурожаатлар ва сўровлар, давлат органларининг очиқ ҳайъат мажлисларида иштирок этиш, жамоатчилик муҳокамаси, жамоатчилик эшитуви, жамоатчилик мониторинги, жамоатчилик экспертизаси, жамоатчилик фикрини ўрганиш, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари томонидан давлат органлари мансабдор шахсларининг ҳисоботлари ва ахборотини эшитиш ва бошқаларни белгилайди.

Бундан ташқари, давлат раҳбарининг бир қатор фармон ва қарорларида фуқаролик жамияти институтларини коррупцияни олдини олиш, коррупцияга қарши курашиш жараёнида фуқаролик жамияти институтларининг иштирокини кенгайтириш, давлат органлари ва уларнинг мансабдор шахслари қонунга ҳилоф ҳаракатларни назорат қилиш каби тизимни такомиллаштириш юзасидан кўрсатмалар берилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 27.11.2023 йилдаги “Коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари фаолияти устидан жамоатчилик назорати тизими самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида ПФ-200-сон Фармони билан тасдиқланган “Коррупцияга қарши курашиш бўйича 2023-2024 йилларга мўлжалланган Давлат дастурининг” 22-банди “Коррупцияга қарши курашишда фуқаролик жамияти институтлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари ва оммавий ахборот воситаларининг ролини оширишни” [2; 16-17 б.] назарда тутди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 04.07.2018 йилдаги “Давлат органлари ҳузурида жамоатчилик кенгашлари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3837-сон қарорида мазкур тузилмаларнинг асосий вазифаларидан бири сифатида “давлат органи фаолиятида коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги давлат дастурлари ва бошқа дастурларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга оширишда иштирок этиш, коррупцияга қарши курашиш бўйича олиб борилган ишлар устидан мониторинг ва таҳлил ўтказиш, шунингдек, уларнинг натижалари бўйича таклифлар тайёрлашни” белгилайди. [1; 13-14 б.].

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак **Фуқаролик жамияти институтлари (вазирлик ҳузуридаги Жамоатчилик Кенгаши, фуқароларни ўзини ўзи бошқариш органлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари) Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигида коррупциявий ҳолатларни қуйидаги кўринишда:** коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги қонунчиликнинг ижро этилиши устидан жамоатчилик назоратини амалга ошириш, аҳоли ва бевосита фуқароларнинг вазирликдаги муҳит, тизимдаги мансабдор шахсларнинг қонунчиликка риоя қилмаслиги, коррупциявий ҳаракатлар содир этилиши, ходимларнинг касбий одоб-ахлоқ нормаларини поймол қилиши тўғрисидаги маълумотларни ўрганиш асосида аниқлашга кўмаклашадилар.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 04.07.2018 йилдаги ПҚ-3837-сон Қарори// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 15.06.2022 й., 06/22/154/0524-сон; 13.04.2023 й., 06/23/49/0210-сон
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 27.11.2023 йилдаги “Коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари фаолияти устидан жамоатчилик назорати тизими самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида ПФ-200-сон Фармони //Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 28.11.2023 й., 06/23/200/0896-сон
3. Ўзбекистон Республикасининг “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Қонуни//Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон
4. Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма/ А. Жалилов, У. Муҳаммадиев, Қ. Жўраев ва бошқ. — Тошкент, 2015, 264 б.
5. Турдикулов Ш.Х. Янги Ўзбекистонда коррупцияга қарши кураш соҳасида жамоатчилик назорати// <https://scientists.uz/uploads/conferences/0013/M-34.pdf>
6. <https://lex.uz/docs/4875784>
7. 2003 йил 31 октябрдаги БМТ Коррупцияга қарши Конвенцияси
8. Мухаммадиева М.Я. Коррупцияга қарши курашишда фуқаролик жамияти институтларининг ролини оширишнинг ташкилий-ҳуқуқий масалалари. ю.ф.д.

бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси 2023.-46 б.

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

THE EVOLVING LANDSCAPE OF INVESTOR PROTECTION: BALANCING STATE SOVEREIGNTY AND INVESTOR RIGHTS IN THE 21ST CENTURY

Rahmonov Jaloliddin,

Tashkent State University of Law,

Lecturer of the Department of International Law and Human Rights

E-mail: jaloliddin.rakhmanov@gmail.com

Abstract. The evolving landscape of investor protection in the 21st century requires a delicate balance between safeguarding investor rights and preserving state sovereignty. As global investments expand, investors seek legal assurances to protect their assets, while states must retain the ability to regulate in the public interest, addressing economic, social, and environmental challenges. This tension has sparked debates about the role of investor-state dispute settlement (ISDS) mechanisms and the need for reform. By modernizing investment treaties and dispute resolution processes, the international community can create a more equitable system that fosters both investment and sustainable development, ensuring mutual benefits for investors and states alike.

Keywords: investor protection, State sovereignty, International investment law, Investor-State Dispute Settlement (ISDS), Bilateral Investment Treaties (BITs).

XXI ASRDA INVESTORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING RIVOJLANISHI: DAVLAT SUVERENITETI VA INVESTORLAR MANFAATLARINI MUVOZANATLASH

Rahmonov Jaloliddin,

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. 21-asrda investorlarni himoya qilishning rivojlanayotgan jarayon investorlar huquqlarini himoya qilish va davlat suverenitetini saqlash o'rtasidagi nozik muvozanatni talab qiladi. Global investitsiyalar kengayib borar ekan, sarmoyadorlar o'z aktivlarini himoya qilish uchun huquqiy kafolatlar izlaydilar, davlatlar esa iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishda jamoat manfaatlarini tartibga solish qobiliyatini saqlab qolishlari kerak. Ushbu keskinlik investor-davlat nizolarini hal qilish (ISDS) mexanizmlarining roli va islohot zarurligi haqida bahs-munozaralarni keltirib chiqardi. Investitsion shartnomalar va nizolarni hal etish jarayonlarini modernizatsiya qilish orqali xalqaro hamjamiyat ham investitsiyalar, ham barqaror rivojlanishni ta'minlovchi, investorlar va davlatlar uchun o'zaro manfaatlarni ta'minlovchi yanada adolatli tizim yaratishi mumkin.

Kalit so'zlar: investorlarni himoya qilish, Davlat suvereniteti, Xalqaro investitsiya huquqi, Investor-davlat nizolarini hal qilish (ISDS), Ikki tomonlama Investitsion Shartnomalar (BITs).

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N24>

Introduction. The intersection of investor protection and state sovereignty has indeed emerged as a critical focal point in international law, particularly with the rapid expansion of global investment in the 21st century. As multinational corporations and investors increasingly

seek out opportunities across borders, they encounter a range of legal, political, and economic environments. These environments often differ in terms of regulatory frameworks, levels of economic development, and degrees of political stability. As a result, investors are seeking stronger legal protections to ensure that their investments are secure from arbitrary government actions, expropriation, or other forms of unfair treatment. This demand for protection has led to the proliferation of Bilateral Investment Treaties (BITs) and multilateral agreements, which typically include provisions for investor-state dispute settlement (ISDS) mechanisms [1].

At the same time, states must balance the need to attract foreign investment with the preservation of their sovereign right to regulate key issues within their territories. These issues range from economic policy and public health to environmental protection, labor rights, and social justice. Governments, especially in developing countries, are often faced with difficult decisions about how to implement policies that protect public interests without undermining investor confidence. Moreover, states must consider the potential long-term impact of foreign investments on their national economies, natural resources, and the well-being of their citizens.

This tension between investor rights and state sovereignty is at the heart of debates surrounding international investment law and ISDS mechanisms. On the one hand, foreign investors argue that they need robust legal frameworks to protect their assets from discriminatory practices, sudden regulatory changes, or unjust expropriation by host states. On the other hand, states assert that they have the right to regulate in the public interest without being constrained by legal threats from powerful corporations or wealthy foreign investors. This has led to a growing backlash against ISDS mechanisms, particularly in cases where states are sued for implementing regulations intended to protect public health or the environment.

Main part (discussion and results). The roots of modern investor protection date back to the early 20th century, when colonial powers established international agreements to protect investments made by their nationals in foreign territories. After World War II, with the rise of globalization and decolonization, there was a surge in international treaties aimed at safeguarding foreign investments, most notably through Bilateral Investment Treaties (BITs). These agreements typically granted foreign investors certain protections, such as the right to fair and equitable treatment, protection from expropriation without compensation, and access to dispute resolution mechanisms like ISDS [2].

BITs and other investment agreements were designed to protect investors from arbitrary actions by host states. In return, these treaties aimed to promote foreign direct investment (FDI), which was viewed as a catalyst for economic growth. However, as the number of investment agreements grew, so too did concerns that such agreements disproportionately favored investor rights at the expense of state sovereignty.

A central feature of most BITs and multilateral investment treaties is the ISDS mechanism, which allows investors to bring claims against states for alleged treaty violations. ISDS has been a lightning rod for controversy, with critics arguing that it grants foreign investors disproportionate power to challenge state policies, including public interest regulations related to environmental protection, health, and human rights [3].

Proponents of ISDS argue that it provides an essential tool for investors to protect their rights, particularly in countries with weak judicial systems or unpredictable legal

LEVELS AND EVALUATION CRITERIA FOR THE DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE PHYSICS TEACHERS

Tursunov Adizjon Nurali o'g'li,

Doctoral student of the Department of Physics,
Bukhara State University

Abstract. The professional competence of teachers reflects their readiness to carry out pedagogical activities, as well as its professional characteristics. Therefore, at present, teachers are given great requirements for the development of professional competencies. The problem of professional competence is actively studied in the work of many domestic and foreign scientists, the article devoted the future physics teacher to the development of methodological competence using innovative educational technologies, which are an important component of professional competence.

Keywords: pedagogical activity, educational system, innovative educational technologies, professional competence, physics teacher, physical experiment, educational process.

BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA BAHOLASH MEZONLARI

Tursunov Adizjon Nurali o'g'li,

Buxoro davlat universiteti Fizika kafedrası doktoranti

Annotatsiya. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi ularning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini, shuningdek uning kasbiy xususiyatlarini aks ettiradi. Shu sababli, hozirgi vaqtda o'qituvchilarga kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun katta talablar qo'yiladi. Kasbiy kompetensiya muammosi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning ishlarida faol o'rganilmoqda, Maqola bo'lajak fizika o'qituvchisini kasbiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib metodik kompetentligini rivojlantirishga bag'ishlagan.

Kalit so'zlar: pedagogik faoliyat, ta'lim tizimi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, kasbiy kompetentlik, fizika o'qituvchisi, fizik eksperiment, o'quv jarayoni.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N28>

Kirish. Jahon mehnat bozori talablariga mos keladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tizimining eng asosiy funksional xususiyatlaridan biri sanalib, buni samarali amalga oshirilishi mazkur tizimda faoliyat olib borayotgan pedagoglarning kasbiy kompetentligiga bevosita bog'liqdir. Chunki oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog-ustozlar qanchalik mahoratli, bilimdon, malakali va tajribali bo'lsa, bir so'z bilan aytganda "o'z kasbining ustasi" bo'lsagina, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan maqsadlarga erishish jarayoni shunchalik samarali kechishi ta'minlanadi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 48-moddasida "Ta'lim oluvchilarning majburiyatlari" sifatida quyidagilar ko'rsatib o'tilgan bo'lib [1], bular:

o'quv dasturlari asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi, mashg'ulotlarga qatnashishi, ularga mustaqil tayyorgarlik ko'rishi, pedagog xodimlarning topshiriqlarini bajarishi;

ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan jismoniy va (yoki) ruhiy zo'ravonlik ishlatmasligi va ularning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilmasligi;

ustav (ta'sis hujjati) talablariga, ichki tartib-qoidalariga, vaqtincha yashash joylari qoidalariga va ta'lim faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishga oid boshqa ichki hujjatlar talablariga rioya etishi;

axloqiy, ma'naviy va jismoniy kamol topishga hamda o'z dunyoqarashini kengaytirishga intilishi;


ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

ta'lim tashkilotining mol-mulkini, moddiy va madaniy boyliklarini asrashi shart.

O'qituvchining, pedagogik mahorati uning malakasi, pedagogik qobiliyati, pedagogik kompetensiyasining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi usullardan biri bu doimiy kasbiy ta'lim malakalarini oshirib borishdir. Ushbu maqolada bo'lajak mutaxassislarda kasbiy kompetensiyalar, metodik kompetentlik, uning tarkibiy qismlari, metodik kompetentlikni rivojlantirish darajalari, vazifalari va fizika fani o'qituvchilarida ushbu kompetensiyani qanday shakllantirish mumkinligi haqida so'z yuritilgan.

"Kompetentlik" (inglizcha: "competence" "qobiliyat") faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni ifodalaydi. Har bir pedagog faoliyati davomida olib boradigan ishlarini tartibga solish loyihalash, hamda loyihalash madaniyatiga e'tibor qaratish kerak [2; 32-b.].

O'qituvchilarning metodik kompetentligi — bu o'qituvchilarning ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishidir. Ushbu kompetentlik quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi [2; 37-b.]:



1-rasm. O'qituvchining metodik kompetentligining asosiy jihatlari

1. Pedagogik bilimlar: O'qituvchi ta'lim nazariyasi, psixologiya, didaktika va metodika bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi kerak.

2. Metodik ko'nikmalar: O'qituvchi turli pedagogik metod va usullarni qo'llay olish, o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

3. Talabalar bilan ishlash: O'qituvchi talabalar bilan samarali muloqot qilish, ularning ehtiyojlarini tushunish va ularga individual yondashuv ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi muhimdir.

4. Baholash va tahlil qilish: O'qituvchi talabalarning bilimlarini baholash, natijalarni tahlil qilish va o'z pedagogik faoliyatini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

5. Innovatsion yondashuvlar: Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llay olish ham metodik kompetentlikka kiradi.

O'qituvchilarning metodik kompetentligi ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi va o'quvchilarni muvaffaqiyatli rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini oshirish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kadrlar salohiyati, ta'lim muassasalari moddiy texnika bazasi, mavjud ichki imkoniyat — ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarining mavjudligi va joylashishiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bu esa, mazkur yo'nalishni ustuvor rivojlantirishga nisbatan alohida yondashuvini taqozo etadi.

“Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi. Ushbu maqolani yozishdan maqsad – talabalarni pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va ta'limdagi innovatsion jarayonlar tizimida o'qitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat [3; 84-b].

Vazifalari esa quyidagilardan iborat

- talabalarga pedagogik kompetentlikka doir manbalardan foydalana olishga o'rgatish va ularda pedagogik kompetentlik haqidagi tasavvurlarni hosil qilish;

- bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kishilik jamiyati oldida turgan eng muhim muammolardan biri – ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishga oid istiqbolli yo'nalishi bo'lgan pedagogik kompetentlik yuzasidan nazariy bilimlar bilan tanishtirish;

- pedagogik kompetentlikka qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan qurollantirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonini bola ruhiyati, uning neyropsixologik, neyropedagogik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim ko'nikmalarni egallashlarini ta'minlash;

- pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikni hamda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

Zamon talablariga javob bera oladigan bo'lajak fizika fani o'qituvchilarining metodik kompetentlikni rivojlantirish darajalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Nazariy bilimlar: O'qituvchilar va mutaxassislar metodikaga oid nazariy bilimlarni egallashlari kerak. Bu, ta'lim jarayonining asosiy tamoyillari va usullarini o'z ichiga oladi.

2. Amaliy ko'nikmalar: Nazariyani amaliyotga tatbiq etish qobiliyati. O'qituvchilar o'z darslarini rejalashtirish va o'tkazish jarayonida amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishlari zarur.

3. Innovatsion yondashuvlar: Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini va innovatsion metodlarni qo'llash orqali o'z metodik kompetentligini oshirish.

4. Tahlil va baholash: O'z faoliyatini tahlil qilish va baholash, o'z ustida ishlash va takomillashtirish.

5. Hamkorlik va tajriba almashish: Boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish, tajriba almashish orqali yangi metodlarni o'rganish va qo'llash.

6. Professional rivojlanish: Doimiy ravishda seminarlar, treninglar va kurslarda qatnashish orqali bilim va ko'nikmalarni yangilab borish.

Bu darajalar metodik kompetentlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchilarning samarali faoliyat yuritishi uchun zarurdir.

Metodik kompetentlikni rivojlantirishda baholash mezonlari quyidagilarni o'z ichiga oladi [6; 18-42-b.]:

1. Nazariy bilimlar:

- O'qituvchining pedagogik tamoyillar va metodologiyalar bo'yicha bilim darajasi.
- Ta'lim jarayonidagi asosiy tushunchalar va terminlarni bilishi.

2. Amaliy ko'nikmalar:

- Dars rejasini tuzish va darsni samarali o'tkazish qobiliyati.
- O'quvchilar bilan interaktiv usullarni qo'llash darajasi.

3. Innovatsion yondashuvlar:

- Zamonaviy texnologiyalar va metodlarni qo'llash qobiliyati.
- O'quv jarayonida innovatsion g'oyalarni tatbiq etish.

4. Tahlil va baholash:

- O'z faoliyatini tahlil qilish va natijalarni baholash qobiliyati.
- O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va baholash usullari.

5. Hamkorlik va tajriba almashish:

- Boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlik qilish va tajriba almashish faoliyati.
- Professional jamoalarda faol ishtirok etish.

6. Professional rivojlanish:

- Seminarlar, treninglar va kurslarda qatnashish darajasi.
- O'z ustida ishlash va yangi bilimlarni o'rganishga tayyorlik.

7. O'quvchilarning natijalari:

- O'quvchilarning muvaffaqiyatlari va o'zlashtirish darajasi.
- O'quvchilarning fikr-mulohazalari va baholari.

Ushbu mezonlar metodik kompetentlikni baholashda muhim rol o'ynaydi va o'qituvchilarning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Zamonaviy o'qituvchi o'zining bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo'llay olishi — kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir [7; 116-120 b.]. Jumladan:

- dunyo va mamlakatda ta'lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, xalq ta'limi tizimida o'quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta'minlashga, uzviylik va uzluksizligiga amal qilish;

- kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik faoliyatida qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- talabalarning ruhiy, jismoniy rivojlanishi va yosh xususiyatlari qonuniyatlarini bilishi, ta'lim-tarbiyada pedagogik-psixologik yondashuvga asoslanish;

- o'quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun samarali zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda metodlarni to'g'ri tanlash va qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

- o'quv-tarbiya va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida bolalar hayoti va sog'ligi, texnik hamda axborot xavfsizligini ta'minlashga tayyor bo'lish;

- dars jarayonida mediaresurslar va elektron tarmoq imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda mediavaxfsizlik me'yorlariga amal qilish;

Bo'lajak fizika fani o'qituvchilari fizika fanini o'qitishda darsning mazmuniga mediamadaniyat va mediavaxfsizlik tushunchalarini singdirib borishi, ularga axborot texnologiyalarining cheksiz ijobiy imkoniyatlari, afzalliklari bilan bir qatorda salbiy ta'siri va oqibatlaridan o'zini himoyalash yo'llarini ham o'rgatish lozim.

Mehnat bozori talablaridan bir bu kuchli raqobatbardosh, o'z sohasini chuqur egallagan, kasbiy kompetentlik darajasi yuqori bo'lgan mutaxassislarni yetishtirishdan iborat [4; 122-b.].

Hozirgi vaqtda o'qitishning zamonaviy texnik vositalari (kompyuterlar, multimediyali o'qitish dasturlari, internet resurslar)ni axborot ma'lumotlari ehtiyojlariga mos ravishda qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshirishga hamda uni yangi sifat darajalariga olib chiqishga imkoniyat yaratib bermoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi talablari asosida o'qituvchilar faoliyatini tashkil etish shakl va metodlarini takomillashtirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar singari mamlakatimiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan kadrlar ham ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda yuqori bilimga ega bo'lishlari hamda har tomonlama kompetentli bo'lishlari zarur. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlaridan foydalanish, o'z navbatida mavjud to'plangan ma'lumot, axborotlar ustida ishlash, ya'ni ularni tahlil qilish, tushuntirish hamda undan foydalanish yoki foydalanmaslik haqida qaror qabul qilishni bilish xorijiy til o'qituvchisi kompetentligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi. Kompetentli yondashuvining yana bir muhim tomoni globallashtirish jarayonida o'qituvchining o'z ustida mustaqil ishlashi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari so'nggi yangiliklarini muttasil o'zlashtirib borishi kerak bo'ladi. Yuqorida ta'kidlangan fikrlarni tahlil qilsak, kasbiy kompetentlik – o'qituvchining shaxsiy sifatleri, faoliyati maqsadi va vazifalarini belgilash, o'z navbatida ularning qatoriga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llay olish, o'ziga xos tadqiqotchilik qirralari ham qo'shilishi tushuniladi. Pedagoglarning kasbiy kompetentligi – uning kasbiy bilim ko'nikmasi, shaxsiy sifatleri, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llay olish qobiliyati va professional tayyorgarligini belgilovchi sifat ko'rsatkichidir” – deb, ifodalash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.
2. Э.Г.Исламгалиев Профессиональная компетентность педагога (социологич. анализ): Дисс... канд. соц. наук – Екатеринбург, – 2003. 32-37 с.
3. R.H.Jo'raev, O.Tolipov. Pedagogik faoliyat, texnologiyalar va mahorat // "Uzluksiz ta'lim". 2003. 84-b.
4. M.H.Lutfillayev, Sh.A.Abdullaeva., M.T.Shodmonqulov. Zamonaviy ta'limda raqamli tizimlarni qo'llash: Filologiya va pedagogika sohasida zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillari // Toshkent. 2020. –b. 121-127.

5. А.А. Аминов – “umumta’lim maktabning 9-sinf o’quvchilariga nanotexnologiyalarga oid kompetensiyalarni innovatsion texnologiyalari asosida takomillashtirish: Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал // - 2021. - № 6. - 84-b.
6. Н.Г.Блохинаю Методическая система формирования понятия об элементарных частицах в курсе физики основной школы: Автореф. дисс. канд... пед. наук. // Москва. МГОПУ. - 2009. -с. 18– 42.
7. J.G.Yuldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari // Toshkent, O’qituvchi. - 2004. – 120 b.

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

EDUCATIONAL SYSTEM FOR BLIND AND VISUALLY IMPAIRED CHILDREN IN NEW UZBEKISTAN

Naimova Durdona Sakhbovna,
Doctoral student of NUU

Abstract. The article discusses the constitutional and legal foundations of education for blind and visually impaired children, as well as the relevant normative legal documents. It outlines the educational conditions created for these children and the priority tasks in national legislation regarding the development of their speech and communication skills. The educational processes in special schools and the principles of inclusive education are also highlighted.

Keywords: blind children, visually impaired children, inclusive education and upbringing, external education system, boarding school, special school.

YANGI O'ZBEKISTONDA KO'ZI OJIZ VA ZAIF KO'RUVCHI BOLALAR TA'LIM TIZIMI

Naimova Durdona Soxibovna,
O'zMU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar ta'lim olishing konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar ta'lim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida ma'lumot beriladi. Maxsus maktablarda ta'lim oluvchi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ta'lim jarayonlarida muloqot va nutqni takmillashtirish bo'yicha milliy qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalar haqida atroflicha muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: ko'zi ojiz bolalar, zaif ko'ruvchi bolalar, inklyuziv ta'lim va tarbiya, Eksternat tartibidagi ta'lim, maktab-internat, maxsus maktab.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N29>

Kirish. Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotga oid chuqur o'zgarishlar kundalik turmushimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shu bilan birga, jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarish jismoniy va ruhiy nuqsonga ega bo'lgan bolalarning ko'payishiga ham sabab bo'ladi. Umumjahon sog'liqni ekologik saqlash tashkiloti ma'lumotlari dunyoda bunday kishilar soni 13%ga yaqinligidan dalolat beradi. Shundan 3% intellektida kamchiligi bo'lgan bolalar, 10% turli ruhiy va jism oniy nuqsonga ega bolalardir.[1]

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq ta'lim olish huquqi har kim uchun kafolatlandi, shuningdek ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi bosh qomusimiz darajasida mustahkamlab qo'yilgan[2]. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga ko'ra rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsонlari bo'lgan

bolalar uchun ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan, inklyuziv guruhlariga ega yoki qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim va tarbiya, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlash jarayonidir[3]. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi[4]. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilandi. Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, alohida sharoitlarda yoxud uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarning ta'lim olishlari quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabda (maktab-internatda);
- sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatda;
- inklyuziv (uyg'unlashgan) sharoitda yashash joylaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida;
- uyda yakka tartibda;
- davolash-profilaktika muassasalarida statsionar sharoitda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So'nggi yillarda mamlakatimizda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, xususan ko'zi ojiz va ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Shuningdek mazkur yo'nalishdagi islohotlarning izchilligi va tizimlilikini ta'minlash, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ta'lim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, ularning jamiyatga moslashuviga ko'maklashish hamda qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2022-yil 18-aprelda "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorini imzoladi[5], mazkur qarorga muvofiq 2022/2023 o'quv yilidan boshlab 1-sinfga qabul qilinadigan o'quvchilarga ajratiladigan "Prezident sovg'asi" tarkibiga ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun maxsus o'quv qurollari va to'plamlarni kiritish. Maktab-internatlarning 1-sinfga chiqadigan o'quvchilarga taqdim etiladigan "Prezident sovg'asi" tarkibiga **pribor, grifel ruchka, relyefli chizg'ichlar** kiritildi. Ichki ishlar vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni Ichki ishlar vazirligiga birlashtirildi hamda ularni "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari deb nomlandi.

Ichki ishlar vazirligi "Nurli maskan" maktablari mas'ullar birlashtirilgan holda quyidagi vazifalar belgilandi.

- sifatli ta'lim va tarbiya berishga, ularning maishiy sharoitlarini yaxshilashga, shuningdek, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga;

- o'quvchilarning jismoniy imkoniyatidan kelib chiqqan holda, ularni sog'lom, ma'nan yetuk inson qilib tarbiyalashga hamda dunyoqarashini shakllantirish, sport turlariga qiziqtirish va jalb etishga;

- o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishga doimiy ravishda ko'maklashadi.

Muhokama. 2022/2023 o'quv yilidan ko'zi ojiz va ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim olishlari uchun quyidagi sharoitlar yaratildi.

- "Nurli maskan" maktablarining Brayl yozuvidagi darsliklar va o'quv qo'llanmalar, badiiy hamda bolalar uchun mo'ljallangan adabiyotlar, turli ixtisoslik va yo'nalishlardagi bosma va audiokitoblarga bo'lgan ehtiyoji har olti oyda o'rganiladi va shu asosda adabiyotlar ro'yxati shakllantirib boriladi.

- ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun belgilangan viloyat va respublika fan olimpiadalari bitiruvchi sinflar o'quvchilari uchun alohida tashkil etiladi;

- "Nurli maskan" maktablari o'quvchilari uchun axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, kasb-hunar va tadbirkorlikni o'rgatish bo'yicha o'quv kurslari tashkil etiladi.

- oliy ta'lim muassasalarining tegishli ixtisoslik va yo'nalishlari bo'yicha Brayl alifbosi asosidagi adabiyotlarni chop etish tizimi yo'lga qo'yiladi;

- ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar uchun darsliklar va o'quv-metodik majmualar chop etuvchi nashriyot-matbaa korxonalari bilan deklaratsiya qilingan narxlar asosida belgilangan tartibda shartnomalar tuzishga ruxsat beriladi.

- 2022-yil yakuniga qadar inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan ta'lim muassasalarida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratsin, shu jumladan ularni relyef yo'lakchalar, Brayl alifbosi asosidagi adabiyotlar hamda maxsus eshitish moslamalari bilan ta'minlasin;

- har yili kamida ikki marotaba inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari uchun ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarga ta'lim berish bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etsin;

inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan ta'lim muassasalarida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning yaqin qarindoshlariga ular bilan birga darslarda qatnashish imkoniyatlarini yaratsin.

- 2022/2023 o'quv yilidan boshlab ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar hamda tayanch harakat a'zolari shikastlangan bolalarning ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda paralimpiya sport turlari (dzyudo, futbol, yengil atletika) bilan mukammal shug'ullanishi uchun sport guruhlarini tashkil qilsin va ushbu maktablarga o'quvchilarning sport turlariga qiziqishidan kelib chiqib, malakali trenerlar jalb qilinishini ta'minlasin.

- "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining shart-sharoitlarini bosqichma-bosqich yaxshilash bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

"Yo'l xaritasi" bilan bir qancha vazifalar belgilab berildi.

- Maktab-internatlar, shuningdek, boshqa ta'lim muassasalarida QR-kodlar yordamida adabiyotlarning audio shakllarini yuklab olish imkoniyatini yaratish.

- Maktab-internatlarda paralimpiya sport turlari bo'yicha to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish. Maktab-internatlardagi o'quvchilarning qiziqishini inobatga olgan holda, ularning paralimpiya sport turlari (dzyudo, futbol, yengil atletika) bilan mukammal shug'ullanishi uchun

sport guruhlarini tashkil qilish va ushbu maktablarga o'quvchilarning sport turlariga qiziqishidan kelib chiqib, malakali trenerlar jalb qilinishini ta'minlash.

- O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va ularni kasb-hunarga o'rgatish maqsadida maktab-internatlar qoshida o'quvchilar imkoniyatini inobatga olgan holda, o'quv ustaxonalarini (gilam to'qish, naqsh, yog'och o'ymakorligi, duradgorlik va boshqalar) tashkil etish.

- Maktab-internatlarni bitirgan va bugungi kunda mehnatga layoqatli bo'la turib, bandligi ta'minlanmagan ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi fuqarolar bandligini ta'minlash choralarini ko'rish.

- Maktab-internatlarni parta, stol-stul, musiqa asboblari, maxsus kompyuterlar, tiflotexnika, lingafon uskunolari, laboratoriya jihozlari, bo'rtma xaritalar, maxsus rasm priborlari va kitob javonlari bilan ta'minlash.

Natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-fevraldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-74-son qarori[6] bilan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga 2023/2024 o'quv yiliga qabul jarayonidan boshlab qabul tartibi, test sinovlari to'g'risida abituriyentlarga ma'lumot berish uchun tayyorlanadigan materiallar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay formatda bo'lishi, jumladan videoroliklar surdotarjima yoki subtitrlar bilan namoyish etilishini ta'minlash, ta'lim olayotgan nogironligi bo'lgan talabalarga ta'lim jarayonida ko'maklashish uchun nogironligi bo'lgan shaxsning oila a'zosi yoki boshqa shaxslarga oliy ta'lim muassasasida nogironligi bo'lgan shaxsning yonida birga bo'lishi uchun sharoit yaratish choralarini ko'rish vazifalari yuklatildi. Mazkur qaror bilan belgilandiki 2023/2024 o'quv yilidan boshlab "Maxsus pedagogika, defektologiya" magistratura mutaxassisliklari bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalariga qabul to'liq davlat granti asosida amalga oshiriladigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi Qonunga 38-moddasida Nogironligi bo'lgan shaxslar barcha darajalardagi ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish va o'z qobiliyatini yanada to'liqroq rivojlantirish uchun butun umri davomida ta'lim olish hamda jamiyat va davlat hayotida ishtirok etish huquqiga egaligi. Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning inklyuziv ta'limini rivojlantirishni, ularning ta'lim olishi va kasbiy tayyorgarlikdan, qayta tayyorlashdan va malaka oshirishdan o'tishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini kafolatlashi belgilab qo'yilgan.[7]

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsa, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar ta'lim olishlari uchun so'nggi yillarda milliy qonunchilik tizimida sezilarli o'zgarishlar qabul qilindi, shuningdek 2020-yilda qabul qilingan Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sohani takmillashtirish va shart-sharoitlarini yaxshilash maqsadida bir qator farmon va qarorlari qabul qilindi. Shuningdek amaldagi normativ huquq hujjatlarga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. M.U.Xamidova. Maxsus pedagogika. - T.: «Fan va texnologiya», 2022, 164 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston. 2023. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. [Elektron manba] <https://lex.uz/docs/-6445145>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sayti.
<https://www.president.uz/oz/lists/view/5131>
4. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-dekabrdagi Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi 595-sonli Qonuning 3-moddasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 27.04.2021-y., 03/21/685/0373-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 15.03.2023-y., 03/23/823/0150-son; 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son. [Elektron manba] <https://lex.uz/docs/-4646908>
5. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi Ta'lim to'g'risidagi 637-sonli Qonuning 20-moddasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 01.02.2024-y., 03/24/901/0082-son; 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son. [Elektron manba] <https://lex.uz/docs/-5013007>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-fevraldagi PQ-74-son qarori.
<https://lex.uz/docs/-6391378>
7. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-sonli Qonun. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 10, 594-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 6, 570-modda)

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

METHODOLOGY FOR TRAINING FUTURE PHYSICS TEACHERS IN THE STEM EDUCATION PROGRAM USING EXPERIMENTAL AND THEORETICAL FOUNDATIONS (BASED ON THE EXAMPLE OF THE SUBJECT “VELOCITY DISTRIBUTION OF MOLECULES”)

Khamroeva Sevara Nasriddinovna,
Navoi State Pedagogical Institute,
Lecturer at the Faculty of Physics and Technology

Izbosarov Bakhriddin Fakhriddinovich,
Navoi State Pedagogical Institute,
Professor of the Department of Physics and Astronomy

Abstract. This article provides methodological recommendations on the topic “Teaching methods using experiments and theoretical foundations when training future physics teachers in the STEM program” (using the example of the topic “Molecular velocity distribution”) in pedagogical universities. Also, if some laws of molecular physics are derived theoretically using mathematical formulas and then their correctness is proven by the results obtained from the experiment, students' interest in science and learning of the results will be good and it will be possible. develop logical thinking skills in future physics teachers.

Keywords: velocity of molecules, experimental experience, MCI, Maxwell distribution, average velocity.

“BO’LAJAK FIZIKA O’QITUVCHILARINI STEM TA’LIMI DASTURI ORQALI O’QITISHDA EKSPERIMENT VA NAZARIY ASOSLARDAN FOYDALANIB O’QITISH METODIKASI” (MOLEKULALARNI TEZLIKLAR BO’YICHA TAQSIMOTI) MAVZUSI MISOLIDA)

Hamroyeva Sevara Nasriddinovna,
Navoiy davlat pedagogika instituti
Fizika – texnologiya fakulteti o’qituvchisi

Izbosarov Baxriddin Faxriddinovich,
Navoiy davlat pedagogika instituti
Fizika va astronomiya kafedrasi professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik oliy ta’lim muassasalarida “Bo’lajak fizika o’qituvchilarini STEM ta’limi dasturi orqali o’qitishda eksperiment va nazariy asoslardan foydalanib o’qitish metodikasi” (“Molekulalarni tezliklar bo’yicha taqsimoti” mavzusi misolida) haqida metodik tavsiyalar berilgan. Shuningdek, molekulyar fizikada ma’lum bir qonuniyatlar nazariy yo’l bilan matematik formulalar yordamida keltirib chiqarilsada, so’ng uni eksperimentdan olingan natijalar bilan to’g’riligini isbotlab ko’rsatilsa, talabalarni fanga qiziqishi va o’zlashtirish natijalar yaxshi bo’ladi hamda, bo’lajak fizika o’qituvchilarini mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga erishilgan bo’ladi.

Kalit so’zlar: molekulalar tezligi, eksperimental tajriba, MKN, Maksvell taqsimoti, o’rta tezlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N30>

Kirish. Bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlashda fizika fanini o'rgatishda eksperiment va nazariy asoslardan foydalanib o'qitishda katta ahamiyat beriladi. Molekulyar fizika bo'limida ma'lum bir qonuniyatlar nazariy yo'l bilan matematik formulalar yordamida keltirib chiqarilsada, so'ng uni eksperimentdan olingan natijalar bilan to'g'riligini isbotlab ko'rsatilsa, talabalarni fanga qiziqishi va o'zlashtirish natijalar yaxshi bo'ladi hamda, bo'lajak fizika o'qituvchilarini mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Demonstratsion eksperiment o'tkazishda quyidagilarga asoslanish mumkin: u yoki bu hodisani kuzatish, ilgari surilgan g'oyani tekshirish, fizik qonuniyatlarni aniqlash va ulardan kelib chiqadigan natijalarni tekshirish. Muhim fizik tushunchalarni shakllantiradigan, qonuniyatlarning, fizik g'oya va farazlarning mohiyatini ochib beradigan natijalar alohida o'rin egallashi kerak. [3, 94-bet]

Bo'lajak fizika o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash jarayonida talabalarning tafakkuri va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Bo'lajak fizika o'qituvchilarini fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda tahlil va jamlash, taqqoslash, umumlashtirish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, tasniflash va tizimlashtirishga doir mashqlar va hodisalarni kuzatish va tahlil qilishga, o'rganiladigan hodisaning boshqa hodisalarga bog'liqligi, talabalarning hodisa va qonuniyatlarning eksperimental ravishda tekshirib ko'rish usullarini ishlab chiqishi muhim o'rin tutadi. [4, 108-bet]

Asosiy qism. Odatda bilish nazariyasiga ko'ra ilmiy tadqiqotlarda ishlatiladigan metodlarni empirik va nazariy metodlarga bo'lish mumkin. Ammo ular bir-birini to'ldiradi. Har qanday empirik metod bilan topilgan yangi natija yoki nazariya o'zining nazariy tasdig'ini topishi kerak. Shundagina u ilmiy yangilik sifatida tan olinadi va aksincha har qanday nazariy metod bilan topilgan yangilik tajribada tasdiqlansagina tan olinadi. Masalan, molekulyar-kinetik nazariya (MKN) ning asosiy tenglamasini ko'rib chiqaylik. Bizga ma'lumki, molekulyar-kinetik nazariyaning 3ta asosiy tenglamasi mavjud va ularning har biri nazariy jihatdan aniqlangan va tajribada tasdiqlangan. Xuddi shu tariqa barcha ilmiy tadqiqotlar ham nazariy jihatdan, ham empirik jihatdan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Ma'lumki, fizika fanini o'qitishda eksperimental tajribalar asosiy o'rinni egallaydi, demak fizika o'qituvchisi tabiat hodisalarini tajribada ko'rsata bilishi zarur. Ko'rgazmali usullarga namoyishli eksperiment (tajriba) ya'ni o'qituvchi tajribalarni o'tkazish bilan birga sxema, rasm, chizma va slayd grafikli ko'rsatish zarur.

Namoyishli tajribani o'tkazish va ko'rsatish tezligi o'qituvchining og'zaki bayoniga mas kelishi kerak. Namoyish etilayotgan tajriba qurilmasi talaba-o'quvchilar oldida yig'ib ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qurilma murakkab bo'lsa, ular oldindan yig'ib tayyorlab qo'yiladi va ma'ruza o'qilayotgan paytda qurilma ishga tushiriladi.

Molekulyar fizika fanini o'qitishda eksperimental tajribalar namoyish etiladi. Bu, albatta, fandagi hodisa va qonunlarni o'zlashtirishda ahamiyati katta, shu bilan bir vaqtda har bir o'qituvchi axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tabiiy fanlardagi hodisa, jarayon va qonuniyatlarni harakatli animatsiyalar, slaydlar, videofilmlar ko'rinishida ko'rsatib o'tilsa, mavzuni o'zlashtirishga va talaba o'quvchilarni fanga qiziqishini oshirishga erishiladi.


Yuqorida qayt etilgan fikrlarni molekulyar fizikada o'tilayotgan quyidagi mavzular: "Molekulalarni tezliklar bo'yicha taqsimoti" (Maksvell taqsimoti); molekulalarni tezliklarini

o'lchash (Shtern tajriba) va boshqalari misolida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishni ko'rsatib o'tamiz.

Molekulyar fizikada ko'p sonli zarralarning harakati va o'zaro ta'siriga bog'liq hodisalar ko'rib chiqiladi. Bizga ma'lumki, normal sharoitda 1 sm³ gazda $2,7 \cdot 10^{19}$ ta molekula mavjud va ularning har biri boshqa molekulalar bilan sekundiga milliard marotaba to'qnashadi.

$$y = \frac{dN}{dU} = \frac{4}{\sqrt{\pi}} N \left(\frac{m}{2kT} \right)^{\frac{3}{2}} e^{\frac{-mU^2}{2kT}} U^2$$

To'qnashganda esa ularning tezligi o'zgaradi.[1, 4] Alohida bitta molekulani tezligini o'lchash bu murakkab masaladir. Molekulalarni tezliklar bo'yicha taqsimotini Maksvell nazariy yo'l bilan ma'lum tezliklar intervalida mavjud molekulalar sonini matematik formulalar keltirib chiqargan, shuning uchun uni Maksvellning tezliklar taqsimoti qonuni deyiladi va quyidagi ko'rinishga ega:




1-rasm

bu yerda N- molekulalar soni, U- molekulani tezligi, m- molekula massasi, T-absolyut temperatura, k- Bolsman doimiysi Maksvell taqsimotiga muvozanat gazlar uchun funksiya qiymatini keltirib chiqarganda, gaz solingan idishning hamma nuqtalarida temperatura bir xil, ya'ni gaz muvozanat holatida deb belgilanadi. Tashqi potensial maydon gaz molekulalari tezliklarining taqsimotiga ta'sir ko'rsatmasdan, gaz molekulalarining konsentratsion taqsimotiga ta'sir qiladi.

Bu y funksiyaning tezlikka bog'liq grafigi quyidagi ko'rinishga ega: (1-rasm [5,26])


Talaba o'quvchilarga molekulalarni tezliklar bo'yicha taqsimoti qonuni nazariy yo'l bilan keltirib chiqarishni o'rgatishimiz zarur. Mana shu nazariy yo'l bilan chiqarilgan taqdimot, eksperimental yo'l bilan molekulalarni tezliklarini o'lchash metodikasi Shtern va boshqalar tomonidan yaratilgan qurilma-priborlarda o'lchab natijasini nazariy xulosalar bilan taqqoslab, tahlil qilib xulosa qilinadi.

Shtern qurilmasi quyidagi sxemaga keltirilgan(2-rasm.[5, 26]):



2-rasm

Har xil radiusli ikkita kovaksimon silindrlar bitta o'qqa o'rnatilgan. Kichkina silindr o'rtasidan kumush bilan qoplangan plastina o'tkazgich joylashtirilgan. Kichkina silindrda tirqishi mavjud. Silindrlar ichida yuqori vakuum hosil qilinadi. Silindrlar ma'lum bir burchak tezlik bilan harakatlanishi mumkin. O'tkazgich elektr toki ulanganda uning sirtidan kumush molekulalari ajralib chiqib, kichkina silindr tirqishidan o'tib, tashqi silindrni ichki sirtiga borib tegib, ekranda ma'lum qalinlikdagi kumush moddasi qoplanadi, uning grafigi 3- rasmda ko'rsatilgan.[1.23]



3-rasm

d-kumush moddasining qalinligi, y-molekulalar soniga (N) proporsional, u - molekulalarning tezligi.

Molekulalarning o'rtacha tezligi $U = \frac{R-r}{t} = \frac{(R-r)R\omega}{s}$ formuladan topiladi.

Talaba o'quvchilarga tajribada olingan natijalar nazariy yo'l bilan chiqarilgan formulalarni natijalar bilan taqqoslanganda Maksvell taqsimot qonuni to'g'riligini ko'rsatadi.

Bo'lajak fizika o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashlari jarayonida tafakkuri va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim o'rin egallaydi. Hozirgi kunda ta'lim sohasida STEM ta'limi dasturini tatbiq etish, o'zlashtirish asosida ochiq, moslashuvchan, individuallashtirgan, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda va bu o'quv jarayonida o'zining ijobiy natijalarini namoyon etmoqda. Fizika fanini STEM ta'limi dasturi asosida o'qitish orqali bo'lajak fizika fani o'qituvchisi mavjud sharoitlar va ish tajribasiga asoslanib, ijodiy yondashgan holda uzluksiz ish faoliyatini olib borishi natijasida o'zining

mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirishga erisha oladi. Buning uchun, molekulyar fizikada ma'lum bir qonuniyatlar nazariy yo'l bilan matematik formulalar yordamida keltirib chiqarib, so'ng uni eksperimentdan olingan natijalar bilan to'g'riligini isbotlab ko'rsatilsa katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Molekulyar fizikada ma'lum bir qonuniyatlar nazariy yo'l bilan matematik formulalar yordamida keltirib chiqarilsada, so'ng uni eksperimentdan olingan natijalar bilan to'g'riligini isbotlab ko'rsatilsa, ya'ni integrativ, STEM ta'limi asosida bo'lajak fizika o'qituvchilariga tushuntirilganda, ularni o'zlashtirish sifati oshib, fanga qiziqishi va o'zlashtirish natijalar yaxshilanadi. Shu bilan bir qatorda bo'lajak fizika o'qituvchilarini mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga erishilgan bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. B.F. Izbosarov, I.R. Kamolov. Molekulyar fizika. Darslik. Toshkent: 2010 yil. 23 bet
2. Khamroeva S. N. The importance of the virtual laboratory in the training of future physics teachers through the stem education program //Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2023. – T. 10. – №. 10. – C. 240-242.
3. Nasriddinova H.S. STEM ta'limi orqali talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda demonstratsion tajribaning o'rni //pedagogik akmeologiya.92-94 bet
4. S.N.Hamroyeva. Bo'lajak fizika o'qituvchilarini stem ta'limi dasturi orqali o'qitishda virtual laboratoriyaning o'rni. Fizika, matematika va informatika jurnali. 104b, 2023/6.
5. P.Habibullayev, A.Boydedayev va.b. Fizika. Darslik.T.2019 26-bet.
6. S.N.Hamroyeva, L.B.Bozorova. "Bo'lajak fizika o'qituvchilarini mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini STEM ta'limi orqali rivojlantirish: "Demonstratsion tajribalarni tashkil etish metodikasi № DGU 22140 . 16.02.2023 y
7. S.N.Hamroyeva. "STEM ta'lim dasturi asosida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish" № DGU 22144. 16.02.2023 y.

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL ANALYSIS OF SPEECH ACTIVITY OF A PERSON

Shotemirov Sanjar Kholmumin ugli,

Educational pedagogy named after T.N.Kari NiyaziYes National Institute,
freelance researcher

Abstract. In this article, the pedagogical and methodological analysis of speech activity of a person is considered. It is noted that it is necessary to consider the interdependence of speech and intellectual development in children in the opposite direction from intellect to language. Such an approach can be conditionally defined as the analysis of the language (linguistic) function of the intellect, that is, the determination of the importance of the intellect and thinking activity in language acquisition.

Keywords: personality, speech activity, speech and intellectual development, reverse direction, intelligence, linguistic function, thinking, speech mechanism, language ability, social communication.

SHAXS NUTQIY FAOLIYATINING PEDAGOGIK VA METODOLOGIK TAHLILI

Shotemirov Sanjar Xolmo'min o'g'li,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti,
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxs nutqiy faoliyatining pedagogik va metodologik tahlili ko'rib chiqilgan. Ta'kidlanishicha, bolalarda nutqiy va intellektual rivojlanishdagi o'zaro bog'liqlikni teskari yo'nalishda intellektidan tilga qarab ko'rib chiqish zarur. Bunday yondashuvni shartli ravishda intellektning til (lingvistik) funksiyasini tahlil qilish, ya'ni intellekt, fikrlash faoliyatining tilni egallashdagi ahamiyatini aniqlash sifatida ham belgilash mumkin.

Kalit so'zlar: shaxs, nutqiy faoliyat, nutqiy va intellektual rivojlanish, teskari yo'nalish, intellekt, lingvistik funksiya, fikrlash, nutq mexanizmi, til qobiliyati, ijtimoiy aloqa.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N31>

Kirish. Ma'lumki, til kishilarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib, u barcha kishilar uchun baravar, teng xizmat qiladi. Shu bois til ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar tilda o'z aksini topadi. Til birliklari nutqni hosil qiladi, ya'ni har bir inson o'z fikrini boshqalarga til orqali, til birliklari orqali bayon qiladi, boshqalarning fikrini til orqali egallaydi, tushunadi. Ya'ni nutq tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar haqidagi fikr-mulohazalarni boshqalarga yetkazishdir. Shuning uchun til va nutq inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'limda nutq o'stirish metodikasi fanining o'qitilishi, nutq o'stirish usullarini bilish, har bir yosh guruhda bolalar nutqini o'stirish vazifalarini to'g'ri hal etish imkonini beradi. Bolalarni maktabga tayyorlash vazifasining bajarilishini ta'minlaydi. Yuqorida

bayon qilingan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o'zbek tili qadimiy til sifatida taraqqiy etgan, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat a'zolari uchun xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada shaxs nutqiy faoliyatining pedagogik va metodologik tahlili ko'rib chiqilgan. Ta'kidlanishicha, bolalarda nutqiy va intellektual rivojlanishdagi o'zaro bog'liqlikni teskari yo'nalishda intellektdan tilga qarab ko'rib chiqish zarur. Bunday yondashuvni shartli ravishda intellektning til (lingvistik) funksiyasini tahlil qilish, ya'ni intellekt, fikrlash faoliyatining shakl va metodlarni guruhlash, solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O.Kucheruk[Error! Reference source not found.]ning nutqqa ritorik va rivojlantiruvchi yondashuvlarning o'zaro ta'sirining qonuniyatlarini mahalliy o'qituvchilarning ritorika faktlarida kuzatish mumkin, degan umumlashmasiga to'liq qo'shilamiz. Bu qonuniyatlar ta'lim jarayonini dialoglashtirish, rivojlantiruvchi ta'limga ertak, topishmoq va ertaklarni kiritish, ritorik vositalardan oqilona foydalanish, o'z nutqida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishi bilan bog'liq.

O.Kucheruk notiqlik tarixiga oid ayrim faktlarni rivojlantiruvchi ta'lim prizmasidan tahlil qilish asosida milliy pedagogik notiqlik tamoyillari qadimiylik qoidalariga asoslanishini qayd etadi[Error! Reference source not found., 28-b].

Rus olimlari T.A.Sadova[Error! Reference source not found.], S.M.Parshuk va N.S.Kruglova[Error! Reference source not found.] va boshqalar o'quvchining ritorik kompetensiyasini shakllantirish muhimligini ko'rsatib, buni kasbiy faoliyatning turli sohalarida ishontirish nutqining dolzarbligi bilan izohlaydilar. Bundan tashqari, L.I.Mamchur ta'limning eng yangi usuli ta'lim jarayonining ikki komponenti — nutq san'ati, ya'ni ritorika va axborotni vizualizatsiya qilish uchun multimedia vositalaridan foydalanish san'atini uyg'unlashtirishga asoslanganligini ta'kidlaydi[Error! Reference source not found.].

T.A.Sadova haqli ravishda raqamli vositalardan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilarning nutqiy o'zaro ta'sirini onlayn muloqot formatiga yo'naltirdi, o'quv jarayoni subyektlarining teskari aloqa va shaxslararo muloqot sifatini o'zgartirdi, jonli nutqning fikr almashishi, faol og'zaki muhokamasi, kommunikativ vaziyatlarda so'zlovchining o'zini o'zi tashkil etishni rag'batlantiradi[Error! Reference source not found.].

Tahlil va natijalar. Respublikamiz mustaqilligi o'zbek tili taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etdi, tilimiz mustaqillikning mohiyatini ifodalash, ta'lim tizimining barcha bosqichida ona tili ta'limini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida 1920- yillargacha pedagogika fani tarkibida taraqqiy etdi. So'ng mustaqil fan sifatida shakllandi.

Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida rivojlantiruvchi vazifani bajaradi[Error! Reference source not found.]. Ya'ni bolalar nutqini o'stirish orqali ularning nutq a'zolarini anatomik-gimnastik mashq qildirish orqali nutqning ravon tushunarli bo'lishini ta'minlaydi: bolalar tafakkuri, aqliy faoliyatini rivojlantiradi, ularda nutq odobi, ma'naviy barkamollikni shakllantiradi. Chunki yaxshi rivojlangan nutq tushunarli ta'sirchan bo'ladi, bola o'z nutqini tuzatib boradi.

Nutqqa nisbatan ilmiy tadqiqot obyekti sifatidagi umumiy yondashuvlarni tahlil qilish psixik rivojlanishning barcha jihatlarini tushunish uchun o'rganilishi favqulodda muhim bo'lgan ushbu hodisaning o'ta murakkabligi va ko'p qirraliligi haqida xulosa chiqarish imkonini

beradi. “Nutq oʻziga xos faoliyat sifatida boshqa faoliyat turlari bilan bir qatorda turmaydi, u psixologik rivojlanish jarayonida markaziy oʻrinni egallaydi.” — deydi A.N.Leontyev[**Error! Reference source not found.**]. Tilni turli nuqtai nazardan tavsiflovchi mazkur yondashuvlarni taqqoslash orqali nutqning ilmiy oʻrganish obyekti sifatidagi umumiy xususiyatlarini ajratish mumkin.

Nutqiy faoliyat mexanizmlarini oʻrganuvchi psixofiziologik tadqiqotlar fanning qiziqarli va istiqbolli yoʻnalishi hisoblanadi. L. K. Graudinaning qayd etishicha, “nutq mexanizmi — bu jonli, moslashuvchan va doimo takomillashib boradigan mexanizmdir”[**Error! Reference source not found.**, 89-b].

Nutqiy faoliyat mexanizmlarini tahlil qilishda olimlar bir tomondan, L.K.Graudinaning konsepsiyasiga, ikkinchi tomondan, mexanizmlarni nutqiy faoliyat bosqichlari bilan taqqoslagan holda insoning nutqiy xulq-atvoriga nisbatan faoliyat nuqtai nazaridan yondashishga oid asosiy qoidalarga asoslanadilar.

Soʻnggi oʻn yillikda lingvistlar, psixologlar tomonidan “til qobiliyati” muammosi qizgʻin muhokama qilinmoqda, bunda til qobiliyati deganda “til tizimini oʻzlashtirishda koʻnikma va mahoratlarni tezlik bilan shakllantirishga yordam beradigan individual xususiyatlar” tushuniladi. Nutqni psixologik tadqiq qilishning istiqbolli vazifasi sifatida inson nutqiy qobiliyatining konseptual modelini qurish psixologik hodisa sifatida koʻrib chiqiladi.

Modelda quyidagi hodisalar oʻz izohini topishi lozim: nutq yordamida mulohaza qilingan fikrni uzatish (yaʼni, nutqiy semantika muammosi), bunda grammatik qoidalardan foydalanish (yaʼni, tilni ishga tushirish), akustik kanalni ishga tushirish, muloqot va ijtimoiy aloqa sifatida nutqni qoʻllash, ushbu barcha operatsiyalarni miya harakatlari bilan muvofiqlashtirgan holda bayon qilish imkoniyatining mavjudligi.

Nutqni tushunish borasida yuqorida bayon qilingan fikrlar va tavsiflardan kelib chiqqan holda “Nutqni rivojlantirish” tushunchasiga murojaat qilamiz[**Error! Reference source not found.**]. “Nutqni rivojlantirish — bu oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga oʻtishdan iborat boʻlgan oʻzgarish; miqdoriy oʻzgarishlarning asta-sekin yigʻilishi sifat oʻzgarishlarining yuz berishiga olib keladigan jarayondir”[**Error! Reference source not found.**, 89-b].

Maktab yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda erishilgan asosiy natijalar muloqot sohasidagi chuqur oʻzgarishlar bilan bogʻliqdir. Tengdoshlar bilan muloqot qilish birinchi oʻringa oʻtadi. Bola oʻz tengdoshini kattalardan afzal koʻra boshlaydi. Oʻyin jarayonidagi oʻrtogʻiga qaratilgan nutq kattalar bilan boʻlgan muloqotga qaraganda ancha mazmunliroq boʻla boshlaydi. Sherik bilan dialog — muvofiqlashtirilgan predmetli va nutqiy faoliyat tusiga ega boʻladi. Bolalar endi qoʻshnilari eʼtiborini jalb qila oladilar, oʻzlari ham uning ishlari va bildirgan fikrlari bilan qiziqadilar.

Nutqdan atrofdagilar bilan aloqa oʻrnatishda, oʻziga, oʻz ishlariga va kechinmalariga diqqatni jalb qilishda, bir-birini oʻzaro tushunishda, sherik xulqiga, uning fikri va hissiyotlariga taʼsir koʻrsatishda, oʻz faoliyatini tashkil etishda, oʻyindagi oʻz oʻrtogʻining harakatlarini muvofiqlashtirishda foydalaniladi. Nutq atrof-muhit haqidagi muhim bilim manbai, tabiat, narsalar va odamlar dunyosi haqidagi tasavvurlarni qayd etish vositasi, bilish faoliyati vositasi boʻlib xizmat qiladi. Maktab yoshdagi bolalarning nutqi shuningdek, obyektiv aloqalarning oʻziga xos sohasi sifatida namoyon boʻladi, u bularni soʻz, tovush, qofiyalar va fikrlar bilan oʻynab turib anglaydi.

Nutqiy rivojlanishga til qobiliyatlarini — til elementlari va ular bilan operatsiyalar o'tkazish qoidalarini o'z ichiga oluvchi harakatchan, funksional tizimlarni shakllantirish sifatida qaraladi. Bu til umumlashtirmalari negizida yaratiladigan individual til tizimidir. Turli yosh bosqichlarida turli til vositalarini, ya'ni: nutq tovushlari, leksik-grammatik materiallar va boshqalarni o'zlashtirishda bolalar nutqida individual farqlar kuzatiladi[**Error! Reference source not found.**]. Shuningdek, bolalar nutqi shakllanishining asosiy bosqichlarida ham individual farqlar kuzatiladi. Bolalar tili nafaqat kattalar tilining dastlabki bosqichi, balki o'z xususiy qonunlariga bo'ysunadigan to'la mustaqil tuzilmalar hamdir.

Qayd etish lozimki, olimlar fikriga ko'ra, o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlari nafaqat nutqda, balki mutlaqo bolalar faoliyati bo'lmish o'yinlar va bolalar qiziquvchanligi jarayonida ham yorqin namoyon bo'ladi, hamda u kattalar rolini inkor etmaydi: kattalar bolalarning faolligiga javob beradi, bolaga e'tiborini qaratgani holda uni faoliyatga, muloqotga chorlaydi. So'nggi yillarda nutq rivojlanishidagi ayrim bosqichlarni o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki, har bir inson butun umri mobaynida til boyliklarini egallagani holda o'z nutqini takomillashtirib boradi. Har bir yosh bosqichi uning nutqiy rivojlanishiga biron-bir yangilik olib kiradi.

Nutqni egallashdagi eng muhim bosqich maktabgacha yoshga to'g'ri keladi. Verbal bosqichgacha bo'lgan davrni (yoki tayyorgarlik bosqichini) psixologik tahlil qilish tadqiqotchilarni nutqning muhim omillari aynan ushbu davrda shakllanadi, degan xulosaga olib kelmoqda. Zero, mazkur davrda muloqotga ehtiyoj shakllanadi, atrofdagi kattalar bilan emotsional aloqa o'rnatiladi, ovoz munosabatlari, nutq-harakat apparati, fonematik tinglash qobiliyati, kattalar nutqini faol qabul qilish va tushunish rivojlanadi[**Error! Reference source not found.**]. Ushbu omillarning shakllanishi — rivojlanishning nutq bosqichiga o'z vaqtida o'tishning muhim shartidir.

Yuqorida berilgan ma'lumotlarni jamlagan holda shuni xulosa qilish mumkinki, so'nggi yillarda olingan faktlar bolaning o'z vaqtida va to'g'ri tashkil etilgan kattalar bilan bevosita-emotsional muloqotining bolaning kattalar nutqini qanday tushuna boshlashini, uning qachon faol so'zlay boshlashini va kelgusida uning nutqi qanday sur'atda rivojlanishini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga egaligidan dalolat bermoqda.

Tilga o'rgatish, nutqni rivojlantirish nafaqat lingvistik sohada (bolaning til ko'nikmalarini – fonetika, leksika, grammatikani egallab olishi), balki bolalarning o'zaro hamda kattalar bilan muloqotini shakllantirish sohalarida ham ko'rib chiqilmoqda.

Xulosa. E'tiborga molik vazifa nafaqat nutq madaniyatini, balki muloqot madaniyatini ham shakllantirishdan iborat bo'ladi. Shu bilan birga nutqiy va intellektual rivojlanishdagi o'zaro bog'liqlikni teskari yo'nalishda intellektidan tilga qarab ham ko'rib chiqish zarur. Bunday yondashuvni shartli ravishda intellektning til (lingvistik) funksiyasini tahlil qilish, ya'ni intellekt, fikrlash faoliyatining tilni egallashdagi ahamiyatini aniqlash sifatida ham belgilash mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Babayeva D.R. Nutq o'stirish metodikasi T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma
2. Qodirova F.R. R.M Qodirova. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T., Istiqlol, 2006.
3. Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz, Sariog'och, 1998.

4. Граудина, Л. К. Риторика и стилистика / Л. К. Граудина, М. А. Мищерина, Н. Н. Соловьева // Учеб. пособие для 11 классов образовательных учреждений. - М. : Русское слово, 2008.
5. Кучерук О.А., Педагогическая риторика: история, теория, практика: [монография]. Киев: КНТ. 2016, С.25–68.
6. Мамчур Л.И. Формування мовно-риторическої компетентності майбутнього учителя-словесника. Проблеми підготовки такого учителя: збір наукових трудов Уманського державного ПУ імені Павла Тичини. Оман: ФОП Джовтий О.О., № 8 (2), с. 182–186
7. Паршук, С.М. и Круглова Н.С. Педагогическое общение профессиональной школы идентичности. Педагогическая наука: теория, история, инновационные технологии. Монография. СуммаДПУ им. Макаренка, с. 318
8. Садова Т.А., 2018. Формирование риторической компетентности майбутних педагогов высшей школы. Молодые встречи, № 10.1, с. 97–100.
9. Ушинский К.Д. Избранные педагогические сочинения. Т., М., 1974, 148-бет.

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

THEORETICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPMENT OF MANAGERIAL QUALIFICATION OF SPECIALISTS ON THE BASIS OF CLUSTER APPROACH

Mustafoyeva Durdona Asilovna,

Associate Professor of the Department of Professional Education National Research
University «Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers»,
PhD in Pedagogical Sciences

Abstract. In the article, the author discusses the democratic principles of the educational process in the country in recent years. presents scientific ideas aimed at improving the management mechanisms and introducing advanced pedagogical technologies on the basis of a cluster approach to the system of continuous education.

Keywords: technology, lifelong learning, cluster approach, management competence, management activities, professionalism.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СПЕЦИАЛИСТОВ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА

Мустафоева Дурдона Асиловна,

доцент кафедры “Профессиональное образование” национального
исследовательского университета “Ташкентский институт инженеров ирригации и
механизации сельского хозяйства”,
доктор философии по педагогическим наукам

Аннотация. В данной статье автор представляет научные труды и работы, которые проводятся последние годы в стране, направленные на совершенствование механизмов организации и управления образовательным процессом, внедрение инновационного управления образованием на основе демократических принципов и кластерного подхода к нему, внедрение передовых педагогических технологий в систему непрерывного образования.

Ключевые слова: технология, непрерывное образование, кластерный подход, управленческая компетентность, управленческая деятельность, профессионализм.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N32>

Введение. В мировой системе образования проводятся различные научно-исследовательские работы, направленные на развитие инновационного и управленческого потенциала педагогических кадров. Учеными-педагогами и исследователями проводятся научно обоснованные исследования передовых образовательных технологий, их внедрение в учебно-воспитательный процесс, совершенствование нормативных документов и повышение качества образования.

Эти требования, в свою очередь, обязывают проектирование содержания развития управленческой деятельности руководителей на основе кластерного подхода в специализированных кадрах в процессах интеграции нашей страны в мировую экономическую систему, выхода национальных кадров на мировые рынки труда, совершенствования организационно-управленческих механизмов развития управленческой деятельности, технологий развития эффективной управленческой деятельности и управленческой компетентности руководителей [1].

Сегодня эффективная деятельность образовательного учреждения во многом зависит от качества управления в нём. В то время как руководящий потенциал и навыки руководителя образовательного учреждения определяют качество данного управления, сами эти характеристики основаны на базовых знаниях, умениях, навыках и квалификации руководящих сотрудников.

Тончайшим аспектом деятельности руководства является работа с преподавателями и сотрудниками учебного заведения, а также с обучающимися, организация их совместной деятельности, объединение педагогического коллектива на пути к одной цели, завоевание их уважения и осуществление здорового коммуникативного общения. Это требует, чтобы руководитель обладал знаниями, навыками и компетенциями в области социальной психологии, искусства и навыков общения, а также коммуникативными, конструктивными и организаторскими способностями [2].

Методы. Под кластерным подходом к развитию образования мы имеем в виду саморазвитие и взаиморазвитие областей образования в процессе работы над проблемой, осуществляемое снизу на основе устойчивого партнёрства, усиливающего конкретные преимущества как отдельных участников образования, так и кластера в целом.

Для осуществления этого сотрудничества основной целью является развитие педагогических и профессиональных навыков участников образовательного процесса, в частности профессорско-преподавательского состава, а также руководящего персонала

Кластерное образование представляет собой более широкую форму объединения организаций и видов деятельности, в котором «характеристики кластера выражены либо не в полной мере, либо часть из них отсутствует». Идентифицировать его как кластер можно лишь при появлении определенных кластерных признаков.

Одним важным аспектом стабилизации системы управления в образовательном процессе является реализация кластерного подхода в образовательном процессе. Кластеризация или кластерный подход и его развитие имеют более чем вековую историю, в которой концепция кластера выражается в процессе объединения или совместного действия. "Кластер" происходит от английского слова "cluster", означающего голову, пучок, шар, здание, построенное в соответствии с общим домом и окружающей средой, централизацией взаимосвязанных организаций, учреждений и предприятий (университетов, компаний, корпораций, банков и аналогичных учреждений одной и той же сфере) в одном регионе.

Важнейшей сущностью организации системы образования на основе кластерного подхода является развитие интеграции образования, науки и производства. При этом образовательный кластер находит свои возможности и

выражение в развитии инфраструктуры на основе современных требований в таких инновационных показателях, как информационные технологии между производством и системой образования.

Еще одним важным аспектом стабилизации системы управления в образовательном процессе является реализация кластерного подхода в образовательном процессе. Кластеризация или кластерный подход и его развитие имеют более чем вековую историю, в которой концепция кластера выражается в процессе объединения или совместного действия. "Кластер" происходит от английского слова "cluster", означающего голову, пучок, шар, здание, построенное в соответствии с общим домом и окружающей средой, централизацией взаимосвязанных организаций, учреждений и предприятий (университетов, компаний, корпораций, банков и аналогичных учреждений одной и той же сфере) в одном регионе.

Важнейшей сущностью организации системы образования на основе кластерного подхода является развитие интеграции образования, науки и производства. При этом образовательный кластер находит свои возможности и выражение в развитии инфраструктуры на основе современных требований в таких инновационных показателях, как информационные технологии между производством и системой образования [7].

В качестве задач педагогического образовательного кластера определены:

эффективное использование инновационных педагогических технологий в повышении качества, эффективности обучения и воспитания в управлении;

организация целевых тренингов и мастер-классов, а также практических конференций по развитию управленческих компетенций;

налаживание сотрудничества с научными центрами, институтами повышения квалификации работников системы управления в целях повышения научно-практического потенциала профессорско-преподавательского состава кафедр института, заместителей деканов факультетов, тьюторов и магистров.

В качестве задач педагогического образовательного кластера определены:

эффективное использование инновационных педагогических технологий в повышении качества, эффективности обучения и воспитания в управлении;

организация целевых тренингов и мастер-классов, а также практических конференций по развитию управленческих компетенций;

налаживание сотрудничества с научными центрами, институтами повышения квалификации работников системы управления в целях повышения научно-практического потенциала профессорско-преподавательского состава кафедр института, заместителей деканов факультетов, тьюторов и магистров.

Наряду с педагогикой управления или научно-теоретическими взглядами ученых-исследователей важно иметь определённый подход и мнения по этому вопросу, основанные на жизненном опыте. В нем даются следующие рекомендации о том, как молодой руководитель может завоевать уважение педагогического коллектива, а также на что обращать внимание при работе с сотрудниками:

педагогическое мастерство - это умение знать особенности образовательного процесса, уметь его организовывать и продвигать;

технологические навыки связаны с конструктивными и организационными навыками и включают в себя способность выполнять конкретную работу, то есть получать информацию, передавать её, организовывать и планировать работу;

коммуникативные навыки складываются из навыков, связанных с правильным пониманием людей, умением действовать в сотрудничестве с ними, умением общаться;

аналитическое мастерство заключается в глубоком и доскональном понимании образовательного процесса, знании простейших и сложных элементов системы, умении разбирать целое на части, и, наоборот, округлять части, проверять и анализировать свою деятельность;

умение ориентироваться в служебных отношениях показывает, что управление довольно сложное обязательство, поскольку оно включает в себя несколько этапов [3].

Специалисты в области управления Г.Кунс и С.Доннелл считают, что если бы сотрудники работали только в соответствии с процедурами, установленными руководством, то могли бы использовать 60-65% своих возможностей и находить оправдания тому, чтобы не увольняться, строго выполняя при этом свои обязанности. Руководитель, намеревающийся в полной мере использовать способности сотрудников, должен уметь вызывать у них чувство, которого они заслуживают. На данном этапе проявляются лидерские способности руководителя [4].

Важно, чтобы стандарты качества были установлены в целях правильного выполнения своих обязанностей и осознания сферы ответственности специалистов, в которой существуют дифференциации между такими стандартами, как “нормальная” и “высококачественная” работа. Когда сотрудник хорошо выполняет свою задачу, его карьера также приводит к повышению мотивации к работе, и в результате наблюдается деятельностное общение между руководителем и сотрудником.

В развитых странах в управлении образованием проявляется следующая современная управленческая деятельность.

Результаты. Нами была сравнена управленческая деятельность высших учебных заведений и организаций и функции управления в масштабах всей организации выражены следующим образом:

1. *Целенаправленная функция* включает в себя задачи в деятельности организации для определенной цели.
2. Под *организационной функцией* понимается способность эффективно использовать имеющиеся возможности организации. В нем выражается последовательность задач, необходимых для выполнения руководителем.

Исходя из вышесказанного, приведем следующие частные функции из основных функций управления организацией: планирование, то есть представления о том, каким будет целевой результат, этапы и методы их достижения [5].

Основной принцип в этом - координация руководителя и персонала;

под контролем понимается деятельность организации, ее ресурсы, импульсивность управления, а также реальная деятельность в основном контрольно-расчетном процессе; личностно-педагогические функции, контролирующие и обеспечивающие функционирование работников организации в рамках норм и прав, принятых в обществе и на собственном предприятии; социальная функция, при которой существуют дифференциации в деятельности и оплате труда различных профессий и

наличие работников, нуждающихся в социальной защите; стимулирующая функция заключается в материальном и моральном поощрении, заключающемся в обеспечении меры соблюдения исполнительской дисциплины.

В развитии управленческой компетентности основным требованием является систематизация управления, мониторинг саморазвития сотрудников, достижение интеграции системы образования и управления, а также разработка и реализация индивидуального плана развития сотрудников (см. рис.1).




Рисунок 1. Кластерный подход к управленческой компетентности.

Специализированным кадрам при управлении важно ставить цели управления на основе требований, предъявляемых к управлению в целом. Систематизация общих, профессиональных и управленческих компетенций в управлении нашла отражение в содержании квалификационных требований к специализированным кадрам в системе управления.

Цели и задачи управления порождают управленческие отношения и регулируют управленческую компетентность.

У.И.Иноятлов отметил, что качество отдельных показателей оценки критериев оценивания уровня знаний, умений и навыков руководителей образовательного учреждения ориентируется на следующих:

1. Квалификация - это знание руководителем педагогики, организации учебно-воспитательного процесса, педагогических и психологических особенностей участников учебно-воспитательного процесса и сотрудников, знание социальных норм и требований, предъявляемых к специальности и профессии, а также понимание квалификации будущего специалиста и теоретических основ управления образовательным учреждением.

2. Профессионализм – это способность на основе единых существующих педагогических требований изучения возможностей педагогического коллектива, учащихся и их учета формировать школьный коллектив, координирование его деятельность, указание пути решения имеющихся проблем и вопросов при выполнении задач, стоящих перед коллективом; создание общественных организаций и привлечение их к работе по управлению школой; организация совместной деятельности педагогических работников и обучающихся на основе координации взаимоотношений, координация их поведения с учетом необходимости критики и

самокритики, поддержание дисциплины и организованности; определение целей и задач управленческой деятельности; развитие социально-психологических навыков и умений в направлениях коллективной деятельности и выработка критериев оценки деятельности педагогических работников [6].

3. Производительность труда – это показатели усвоения обучающимися на основе государственных образовательных стандартов.

Существуют следующие проявления управления:

организационно-административное управление (целенаправленно отдавать приказы, требовать, издавать приказы, инструктаж и т.д.);

финансово-экономический менеджмент (контроль экономических, финансовых вопросов);

психолого-педагогическое взаимодействие;

мотивация (стимулирование) в управлении;

требование к хорошим знаниям и умениям применять на практике методы вовлечения всей команды в управление и контроль.

Обсуждение. Содержание и направленность коммуникативного поведения руководителя образовательного учреждения определяется двумя основными факторами:

потребность в информации, необходимой для реализации решений, принимаемых в управленческой деятельности;

умение доводить до сотрудников реализацию принятых решений в управленческой деятельности.

Индивидуально-психологические особенности руководителя образовательного учреждения проявляются в следующих качествах: в коммуникативных ситуациях между сотрудниками коллектива, в формировании коммуникативных способностей и коммуникативных компетенций.

О.Хайитов отмечал, что компетенция - это совокупность знаний, относящихся к оценке поведения личности, с помощью которых можно определить, какой уровень успешности достигается сотрудником в осуществлении своей деятельности на пути эффективного развития организации. Наличие компетенций обычно фиксируется через определенные обстоятельства, измеряющие (с помощью индикаторов) поведение человека (хорошо сформированные поведенческие компетенции) [8].

Компетенции: 1) стандартное поведение, принятое в масштабах всей организации; 2) способность руководителя вести деятельность в соответствии со стандартами, принятыми в масштабах всей организации.

Высокими качествами в управленческой деятельности считаются такие личностные и профессиональные качества, как умение правильно ставить цели в управлении, выбирать необходимые средства формирования управленческих компетенций при планировании педагогической и профессиональной деятельности, а также и умение оценивать достижения, недостатки субъектов образования, готовность к различным ситуациям.

Заключение. Важным аспектом и основным результатом деятельности образовательного кластера стали педагогические инновации, рассматриваемые в

качестве идентифицирующего признака образовательного кластера. Это способствует формированию и повышению эффективности образовательного кластера.

Образовательный кластер ориентирован на оперативный поиск инновационных решений различных проблем, возникающих и во внешней образовательной среде. Это позволяет кластеру осуществлять интенсивную инновационную деятельность, отвечающую целям его деятельности и развития, а также потребностям в кадрах и предъявляемым к ним требованиям.

По результатам исследования классифицированы организационно-педагогические основы эффективной управленческой деятельности на основе кластерного подхода специализированных кадров образовательных учреждений, методологические основы развития управленческой деятельности, анализ методов развития управленческой компетентности, усовершенствованы организационно-административные, социально-психологические и информационно-накопительные методы, в значительной степени соответствующие управлению специализированных кадров образовательных учреждений в современных социально-экономических условиях.

Adabiyotlar/Literatupa/References:

1. Мустафоева Д.А. (2022) Основы развития управленческой компетентности у педагогов // Innovative development in the global science. Boston, USA Abstracts of VIII International Scientific and Practical Conference, 6-part, 91-97 pages.
2. Mustafoyeva D.A. (2023) Методы развития навыков критического мышления и кластерной подготовки в образовательном процессе // педагогическое призвание // Сборник статей Международного профессионально-исследовательского конкурса. – Россия: МЦНП «Новая наука», - 2023. ISBN 978-5-00174-917-2. 22-28 стр.
3. Сергеев И.С. (2004) Основы педагогической деятельности. – М.: Владос, – 193 с.
4. Рашидов Х.Ф. (2005) Теоретико-методологические и социально-педагогические основы развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане (на материалах реализации национальной программы по подготовке кадров). Дисс... докт. пед.наук. – Ташкент, – 311 с.
5. Кибанов, А. Я. (2017) Управление персоналом организации: Учебник / Государственный Университет Управления; Под ред. А.Я. Кибанова. – 6-е изд., доп. и перераб. – М.: ИНФРА-М, – 638 с.
6. Зеер Э.Ф., Шахматова Н. (1999) Личностью ориентированные технологии профессионального развития специалиста. – Екатеринбург, – 244 с.
7. Грибоедова, Т. П. (2019) Содержание понятия и особенности реализации социального партнерства в современном образовании // Известия РГПУ им. А.И. Герцена. – № 68. – С.50-60.
8. Хайитов О.Э. (2021) Психология управления. // Учебное пособие. –Ташкент.-2021. – 236 с.

Received: 10 October 2024
Accepted: 15 October 2024
Published: 25 October 2024

Article / Original Paper

FUNDAMENTALS OF THE DEVELOPMENT OF TECHNICAL COMPETENCE OF STUDENTS

Kholiqova Nargiza Abduvalievna,

Tashkent Irrigation and Rural Area Institute of Agricultural Mechanization Engineers
National Research University,
Technical Sciences Doctor of Philosophy, Associate Professor

Abstract. The article will talk about various approaches to the development of technical and creative activities of students based on the ideas of subject students in the process of preparing for professional activity. Creative and technological thinking, a set of technological abilities and personal qualities in education when teaching specialty subjects: social adaptation, competitiveness, organization of the learning and upbringing process aimed at the formation of technological, environmental, and economic culture through the development of readiness for professional activity, are considered one of the important criteria.

Keywords: professional activity, criteria of professional training, technological abilities, technical competence, professional competence.

TALABALARNING TEXNIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Xoliqova Nargiza Abduvaliyevna,

Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqolada talabalarning texnik kompetentligi hamda fanlar g'oyalariga asoslangan holda ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan turli yondashuvlar haqida so'z yuritiladi. Ixtisoslik fanlarni o'qitishda ta'lim oluvchilarda ijodiy-texnologik tafakkur, texnologik qobiliyatlar majmui va shaxsiy sifatlar: ijtimoiy moslashuv, raqobatbardoshlik, kasbiy faoliyatga tayyorlikni rivojlantirish orqali texnologik, ekologik, iqtisodiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan o'qitish va tarbiyaning tashkiliy jarayoni muhim mezonlardan biri sanaladi.

Kalit so'zlar: kasbiy faoliyat, o'qitish mezonlar, texnologik qobiliyatlar, texnik kompetentlik, kasbiy mahorat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI8Y2024N33>

Kirish. Respublikamizda ta'lim jarayonini modernizatsiyalash maqsadida xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari, qo'shma fakultetlar va ta'lim dasturlari amalda joriy qilindi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'limni yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash siyosatini davom ettirish" va "ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish"[1] vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, bo'lajak muhandislarni tayyorlashning mazmuniiy tavsiflari, elektron

ta'lim muhiti sharoitida modulli va dasturlashgan o'qitish texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va tabiiy-ilmiy fanlar negizida malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonini takomillashtirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Jahonda ishlab chiqarish vositalarining tobora rivojlanib borayotgan texnik murakkabligi muhandisning kasbiy intellektual fazilatlariga va uning ijodiy qobiliyatlariga katta talablar qo'yadi. Texnik tafakkur yurita olish – muhandis fikrlashining kasbiy muhim sifatidir[2]. Ushbu turdagi tafakkur qilish ko'nikmasining rivojlanishi hamda muhandisning kelajakdagi faoliyatidagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan oliy ta'limda kasbiy tayyorgarlik bosqichidagi o'quv jarayonining sifati bilan belgilanadi. Xususan, rivojlangan mamlakatlar nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarining P.Debrai–Retzen “Talented Student Teacher Model” (Fransiya), US “Merit” (AQSh) kabi ta'lim tizimlarida bu borada samarali faoliyat olib borilmoqda[3]. Shuning uchun texnika yo'nalish talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorlashda texnik tafakkurini rivojlantirishning nostandart shakllari, metodlari va vositalaridan majmuaviy foydalanish muhim o'rin egallaydi.

Metodlar. Ma'lumki, texnik tafakkur – texnik bilim va uning texnik jarayonlarini anglash vositasi. Texnik tafakkur nostandart vaziyatda, muayyan holat yoki predmet haqida bilish zarurati paydo bo'lganda yaqqol namoyon bo'ladi. Texnik tafakkurni rivojlantirish – shaxsni aniq mutaxassislik bo'yicha ikki tomonlama rivojlanish dinamikasi bilan muvofiqlikda texnikaning har bir aniq komponentini mantiqan tashqi va ichki jihatlarini ochib berish jarayoni. Mazkur jarayonda texnika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun muhim bo'lgan kasbiy sifatlar, texnik soha mutaxassisiga qo'yiladigan talablarga hamda faoliyatda subyektning shaxsiy o'ziga xosligiga e'tibor qaratiladi.

Kasbiy mahoratlar zamon hodisalari hamda inson tafakkurining erishgan yutuqlari haqida doimo ma'lumotga ega bo'lib, murakkab obyektlar axborot almashinuvi va boshqaruvlarini ta'minlanishini, raqamli material kabilarni xotiralarida yaxlit saqlay oladilar. Texnik tafakkur refleksiya obyektiga bog'liq ravishda, uning quyidagi ko'rinishlari ajratib ko'rsatiladi:

1. Kommunikativ refleksiya boshqa insonning ichki dunyosi va xatti-harakatlarining sabablari haqidagi tasavvurlar bilan ish ko'radi;
2. Shaxsiy refleksiya o'z xatti-harakatlarini, individuallik sifatida shaxsiy obrazlarini tahlil qiladi;
3. Intellektual refleksiya aniq holatlarda obyektlar, shaxsiy xatti-harakat usullari haqidagi bilimlar bilan ish ko'radi[4].

Texnik tafakkur shaxsning kasbiy faoliyatga nazariy va amaliy nuqtai nazardan tayyor bo'lishida namoyon bo'ladi. U kasbiy faoliyatda shaxsni o'z-o'zini boshqarishiga ko'maklashadi. Aynan insonning refleksiya bo'lgan qobiliyati orqali motivatsion darajaga mos bo'lgan kasbiy faoliyatning ta'minlanishi aniqlanadi. U shaxs faoliyatining muvaffaqiyatida yoki muvaffaqiyatsizligida namoyon bo'lib, inson kayfiyati va ishlash faoliyatiga tayyorligini aniqlaydi. O'z navbatida tayyorgarlikning motivatsion va operatsion komponentlari aynan refleksiya orqali ishlaydi.

Texnik tafakkur quyidagi komponentlardan tashkil topadi:
tushuncha, obrazli, amaliy natija beradigan komponenti.

Texnik tafakkurning *tushunchali* komponenti – talabalar tomonidan texnik o'quv fanlari bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish jarayonida rivojlanadi.

Texnik tafakkurning *obrazli* komponenti – texnik obyektlarning obrazlari bilan ishlash jarayonida rivojlanadi[5]. Bu texnik tafakkurlashning ajralmas muhim qismidir. Ta'lim jarayonida talabalar texnik obyektlar bilan obrazlar nuqtai nazaridan boshqarish qobiliyati mavjud bo'lmasa texnikaga oid oliy ta'lim muassasalarida ta'lim muhitini yaratishga imkon beradi. Kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida talabalarni texnik tafakkurini rivojlantirish bilan birgalikda talabaga kasbiy faoliyatni tahlil qilish jarayonini ko'rsatishga imkon beradi.

Texnik tafakkurning *amaliy natija beradigan* komponenti – texnik muammolarni hal qilish va nazariy yechimni amalda tekshirish jarayoni amalga oshiriladigan harakatlar (ko'nikmalar) majmuidir. Ushbu harakatlar maqsadlarga muvofiq tushunchalar va obrazlar ko'rinishida mavjud bo'lgan tafakkur mazmunini o'zgartirishga imkon beradi.

Natijalar va mulohaza. Amaliy natija beruvchilarni ikkiga ajratish mumkin, ya'ni amaliy (sxemalarni yig'ish, qurilmani o'rnatish va sozlash, detalni dastgohda qayta ishlash va boshqalar) va intellektual (hisob-kitoblarni bajarish, muammolarni yechimini topish, o'qilgan matn uchun reja tuzish va h.k.). Texnik "tafakkur" ning ham amaliy, ham intellektual harakatlari maqsadlariga qarab tekshirish – tadqiqotchi, ijro etuvchi, nazorat va korreksion–tartibga soluvchi bo'lishi mumkin. Intellektual qobiliyatga ega bo'lganlar orasida talabalarning bilimlarni o'zlashtirish, o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash, o'zining bilim faoliyatini tashkil qilish bo'yicha harakatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida texnik tafakkurni rivojlantirish tadqiqotimiz predmetiga muvofiq ravishda o'rganib chiqildi. Shuning uchun texnik tafakkurni rivojlantirish jarayoni modelini yaratishda murakkablashgan tasavvurlarning pedagogik jarayon komponentlari haqidagi: maqsadli, tashkiliy, mazmunli va natijaviy baholash kabi murakkablashgan tasavvurlardan foydalanish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida talabalarni texnik tafakkurini rivojlantirishni zamonaviy interfaol usullardan foydalanish bilan uyg'unlashtirish kerak. Talabalarda texnik tafakkurni rivojlantirishda o'qituvchining amalda keng qo'llanib kelinayotgan "Piktogramma", "T-Sxema", "SWOT–tahlil", "Assiment", "FSMU", "To'rt pog'onali", "Insert", "Klaster" kabi interfaol ta'lim metodlaridan o'z o'rnida mahorat bilan foydalanishi ijobiy samara beradi.

Talabalarda texnik tafakkur qilish (analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish) imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlab borish uchun muhimdir. Ular texnik bilimlarni qabul qilishning nisbiy passiv fazasidan so'ng aktiv faza kelishi uchun imkoniyat yaratib beradi[6]. Amaliy topshiriqlarni bajarish yoki mustaqil ravishda ishlash hamda natijalarni taqdim etish texnik tafakkurni samarali rivojlantirish imkonini yaratadi.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil qilish murakkab va ko'p o'lchovli jarayon bo'lib, u o'z ichiga bo'lg'usi talabada motivatsiya va kasbiy nuqtai–nazarni, o'quv fanlarini o'zlashtirish jarayoniga mustaqil ishini qo'shishni hamda mustaqil ish natijalarini nazorat qilish shakllarini tanlashni oladi.

To'garaklar faoliyatida talabalarning ijodiy faoliyati quyidagi holatlarning amalga oshirilishi uchun ham xizmat qilishi zarurligini ko'rsatdi:

estetik tarbiyani tashkil etish asosida hissiy madaniyatni, ya'ni, qayg'urish, xayrixohlik, yuqori axloqiy ideallarga intilish kabi sifatlarni tarbiyalash;


san'atning xilma–xil turlarini o'rganish orqali talabalarning hissiy–qadriyati va ma'naviy madaniyatini shakllantirish;

shaxsda ijodiy qobiliyatlar – idrok, tafakkur, xayolot, individuallikni rivojlantirish; texnik tafakkuri asoslarini shakllantirish;

loyihalash faoliyati, o'qitish, turli faoliyat sohalarida ishlashning amaliy ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish;

loyihalarni bajarishda milliy yondashuvdan foydalanish.

To'garaklarda ixtisoslik fanlar g'oyalariga asoslangan holda talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat quyidagi yondashuvlar asosida tashkil etish mumkin.



1-rasm. Talabalarning texnik kompetentligini rivojlantirishga bo'lgan yondashuvlar

1. Ijtimoiy-madaniy yondashuv – dizayn to'garagi uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturida jamiyatda kechayotgan ijtimoiy o'zgarishlar, madaniy rivojlanish darajasi hamda ehtiyojlarni inobatga olish g'oyasiga tayanib ish ko'rish zarurligini ifodalaydi.

2. Milliy-aksiologik yondashuv – to'garak mashg'ulotlarida talabalarda texnikaviy, dizayn sohasiga oid milliy g'oyalar, qarashlar to'g'risida ma'lumotlar berish orqali ularda milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishning maqsadga muvofiqligi yoritishga xizmat qiladi.

3. Individual-tabaqaviy yondashuvning mohiyati shundaki, shaxsiy imkoniyatlari, sohaga bo'lgan qiziqishi, soha bo'yicha muayyan bilim, ko'nikma va malakalarga egaliklari nuqtai-nazardan munosabatda bo'lish, ularni turli murakkablikdagi (faoliyatdagi tabaqalashuvni ifodalovchi) topshiriqlarni bajarishga yo'naltirishgina kutilgan pedagogik natijani kafolatlaydi.

4. Psixologik-estetik yondashuvga ko'ra talabalarning psixologik va xususiyatiga tayangan holda ularda turli estetik sifatlarni rivojlantirish, psixologik va yosh nuqtai-nazardan ularda turli murakkablikdagi nazariy hamda amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan topshiriqlarni bajarishga jalb qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

5. Texnologik yondashuv o'ziga xos texnologik jarayon bo'lib, talabalarni bajarishga jalb qilishda ular tomonidan texnologik talablarga rioya etilishini nazorat qilish va ularda jarayonlarni metodik jihatdan bosqichma-bosqich to'g'ri tashkil etishga odatlantirish zarurligini ifodalaydi[7].

Kreativ yondashuv to'garak a'zolari tomonidan yaratilgan ijodiy mahsulotlarning o'ziga xosligi bilan bir-biridan farqlanishini ifodalashga xizmat qiladi. Sohaning keskin sur'atlar bilan rivojlanishi ijodiy xarakterdagi mahsulotlarni tayyorlashga kreativ yondashish, o'ziga xoslik, bir turdagi ijodiy mahsulotning turlicha, o'nlab xildagi talqinda namoyon etilishi bilan bog'liq. Shunga ko'ra to'garakning a'zolarida ham talabalik yillaridan ijodiy faoliyatga kreativ yondashish malakalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Talabalar o'z faoliyati natijalarini, ijodiy mahsulotlarni mustaqil ravishda reflektiv baholar ekan, erishilgan yutuqlar omilini anglash, yo'l qo'yilgan xato, kamchiliklarning sabablaridan xabar bo'lish, kelgusi faoliyatda ularning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi xulosaga kelish va amaliy choralarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan kelib chiqib, talabalarining mustaqil ishini tashkil qilish uni muvaffaqiyatli bajarish bog'liq bo'ladi degan fikr kelib chiqadi. Talabalar mustaqil ishini tashkil qilish ta'limda uzluksizlik, tartiblilik va ketma-ketlikni ta'minlovchi rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Mavzuviy rejani tuzish talabalar mustaqil ishini tashkil qilishning boshlang'ich bosqichi bo'lib, u o'quv materialini tushunib yetish, uning murakkablik darajasiga baho berish, topshiriqlarni bajarish uchun zarur bo'lgan vaqt me'yorini aniqlash, ta'lim vositalari hamda talabalar mustaqil ishini tashkil qilishning shakllarini tanlab olishni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026–yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
2. Abdullayev A.X, Toshpo'latov M.A, Nuridinov B.S. (2001) Kasb—hunar kollejlari uchun modulli o'quv dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy tavsiyanoma.– T.
3. Abduqudusov O.A, Nuriddinov B.S. (2001). Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlash va ularning malakasini oshirish muammolari. Monografiya.– T.
4. Mavlonova R.A, Raxmonqulova N.H., Matanazarova K.O., Shirinov M.K., Hafizov S. (2008) «Umumiy pedagogika» . «Fan va texnologiya» nashriyoti T.
5. O'tkir Tolipov, Dilnoz Ro'zieva (2019) «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat » » Toshkent innovatsiya – Ziya » T.
6. Bultakova R. (2022) STEAM texnologiyalari maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lida. Журнал «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў», № 6/5
7. Тарасов С.В. Образовательная среда: понятие, структура, типология // Ж.Вестник Санкт-Петербургского ГУа им. А.С.Пушкина. – СПб.: 2019. – № 11.–С. 133–138.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).